

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

*SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS  
INSTITUTI*

X. M. MAMATQULOV

**JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO  
IQTISODIY MUNOSABATLAR**

*O'quv qo'llanma*

**Mamatqulov X.M. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar.**  
O'quv qo'llanma, Toshkent, 2008 y. 208 bet.

**Taqrizchilar:** G.G.Nazarova – iqtisod fanlari doktori, professor (TDIU)  
SH.Xusainov - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (JIDU)

Hozirgi zamon jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar – juda murakkab va dinamik holda rivojlanayotgan tizim bo'lib, o'z tarkibida xalqaro iqtisodiy munosabatlar (tashqi savdo aloqalari kapital chiqarish, valyuta - kredit munosabatlari, ishchi kuchlari migratsiyasi, iqtisodiy integratsiya jarayonlari va h.k.) orqali bir-birlari bilan o'zviy bog'langan turli xildagi milliy xo'jaliklarni o'z ichiga olgan global xo'jalik mexanizmi bo'lib hisoblanadi. Ushbu o'quv qo'llanmada jahon iqtisodiyoti mohiyati, tarkibi, uning gloabllashuv bosqichlari taraqqiyotning asosiy qirralari va xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tarkibiy qismlari yoritilgan.

Mazkur qo'llanma oliy o'quv yurtlari talabalariga, kollejlarga, biznes maktabi tinglovchilariga, shuningdek xalqaro iqtisodiyot bo'yicha bilimlarini oshirishga intiluvchi va barcha iqtisodiyotga qiziquvchilarga o'quv qo'llanmasi sifatida tavsiya etiladi.

**Samarqand** iqtisodiyot va servis instituti Ilmiy kengashi oliy o'quv yurti bakalavrlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etadi.

## KIRISH

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti o'quv fanlari orasida bakalavriat yo'nalishidagi 5810600- Turizm operatorlik xizmatini tashkillashtirish, 5810700- Turizm menejmenti, 5810800- Turizm marketingi, 5811700- Servis (turizm va mehmonxona xo'jaligi bo'yicha), 5811600- Servis (sifat ekspertizasi, xizmat ko'rsatish va ishlar sertifikatlashi), 5340100- Iqtisodiyot (servis va xizmatlar bo'yicha) kabilarda «Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar» fani alohida o'rin tutadi.

Ushbu o'quv qo'llanmada xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va ulardagi zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining vujudga kelishi va rivojlanishining nazariy tamoiyillarini ochib berishga **harakat qilingan**. O'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi iqtisodiyot va turli xizmat ko'rsatish sohalarini o'rganayotgan umumiy iqtisodiy bilimlar bazasini rivojlantirish tajriba, ko'rikmalar **hosil qilish** va nihoyat **har** tomonlama yuksak darajadagi malakali kadrlar tayyorlashga ko'mak berishdan iborat.

O'quv qo'llanma o'z tarkibiga jahon xo'jaligi mohiyati, tarkibi, uning globallashtirish jarayonlari va rivojlanish tendensiyalari, jahon xo'jaligida xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro savdo aloqalari, xalqaro kapital migratsiyasi, xalqaro xizmat ko'rsatish va servis bozori, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasi, xalqaro iqtisodiy interatsiyalar, jahon xo'jaligida xalqaro korporatsiyalar (monopoliyalar) va jahonning sanoati rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotini taraqqiyot yo'nalishlari, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida rivojlanayotgan hamda o'tkinchi iqtisodiyotli mamlakatlar guruhida iqtisodiy o'sish jarayonlarining kechishi, jahon xo'jaligida iqtisodiy-siyosiy boshqaruv tizimlarining tutgan o'rni kabilarni qamrab oladi.

O'quv qo'llanma yozilishi chog'ida jahon iqtisodiyoti rivojlanishi dinamikasini harakterlovchi axborotlar va statistik materiallardan foydalanildi. Har bir mavzu o'rganilganidan keyin nazorat savollari va zarur adabiyotlar tavsiya etildi. Talabalar ushbu savollar va adabiyotlardan o'z bilimlarini sinab ko'rishda u yoki bu shaklda samarali foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari, iqtisodiyot sohasidagi kollejlarda talabalariga, shuningdek jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fani bo'yicha o'z bilimlarini oshirishga intiluvchi barcha iqtisodiyotga qiziquvchilarga mo'ljallangan.

# 1-Bob. JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR: MOHIYATI, TARKIBI VA TARAQQIYOTNING ASOSIY QIRRALARI,

## 1. §. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanining predmeti va vazifalari

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fani aslini olganda u ikkita fandan «Jahon iqtisodiyoti» va «Xalqaro iqtisodiy munosabatlar» fanidan iborat bo'lib, Davlat ta'lim standartining amaldagi o'quv rejasiga binoan, fanlarni birgalikda qo'shib o'qitish ko'zda tutilgan.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tarixiy, siyosiy va iqtisodiy kategoriya bo'lib hisoblanadi. Buning sababi shuki, har bir tarixiy bosqichda uning rivojlanishi ishlab chiqarishni aniq ko'lamiga, ishlab chiqarish munosabatlarining harakteriga, xo'jalikning faoliyatini baynalminallashuviga va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga to'g'ri keladi.

Jahon iqtisodiyoti fani turli xil toifaga kiruvchi davlatlar (sanoati rivojlangan bozorli iqtisodiyotli davlatlar, rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar) sub'ektiga oid qonuniyatlarni, tamoyillarni, xalqaro tovar ayirboshlash, ishlab chiqarish omillari harakati, moliyalashtirish sohalarini o'rganadi. Mazkur fanni o'rganish ob'ekti bo'lib, jahondagi milliy davlatlar iqtisodiyoti, shu jumladan hududiy ishlab chiqarish majmualari, transmilliy korporatsiya (TMK)lar, firmalar va boshqalar hisoblanadi.

Shu o'rinda esa xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanining predmeti bo'lib, milliy, hududiy va global miqyosdagi davlatlar o'rtasidagi xilma-xil aloqalar tizimi bo'lib hisoblanadi. Uning davlatlararo munosabatlari va ularni amalga oshirish mexanizmi sanaladi. Bu fanlarning har biri mustaqil hisoblanib, ayni paytda tadqiqotlar sohasida bir-birini to'ldirib tursada mazkur ikki fan («Jahon iqtisodiyoti» va «Xalqaro iqtisodiy munosabatlar»)ning o'rganadigan qator masalalari bir-biriga qo'shib ketadi.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanlari bir-biri bilan chambarchas bog'lanib, biri ikkinchisini to'ldiradigan masalalarga ham duch keladi. Bu esa har ikkala fanning bir butunligi va o'xshashligidan dalolat beradi. Shunga asosan, mazkur fanlarni puxta o'rganishlik jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan iqtisodiy – ijtimoiy siyosiy voqea-hodisalar va jarayonlarni izchil o'zlashtirib olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar alohida fan sifatida namoyon bo'lib, u «Iqtisodiy nazariya», «Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti», «Jahon iqtisodiy geografiyasi», «Statistika», «Demografiya», «Davrning global muammolari» kabi bir qator maxsus iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'langandir. Mazkur fanni O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida o'qitilishidan ko'zda tutilgan maqsad shundan iboratki, iqtisodiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jarayonlarning kechishi, zamonaviy iqtisodiy aloqalarining tobora chuqurlashib borishi to'g'risida tushunchalar hosil qilishdir.

## 2. §. Jahon xo‘jaligi tarkibi va mohiyati

Jahon xo‘jaligining shakllanishi uzoq tarixga ega bo‘lib, u ayniqsa buyuk geografik kashfiyotlar (XV-XVI asrlar) davrida jadal rivojlana bordi. Mamlakatlararo tovar almashinuvi xalqaro huquqiy me‘yorlar asosida rivojlandi. XIX asrdan boshlab jahonda kapital va moliyaviy vositalarni bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatlarga chiqarish oqimi jadallasha bordi. Bu munosabatlarni tartibga soluvchi birinchi bor valyuta tizimi yaratildi. Birinchi transmilliy korporatsiya (TMK)lar paydo bo‘ldi. Ular o‘zlarining operatsiyalarining asosiy qismlarini mamlakatdan tashqarida amalga oshira bordilar. Jumladan, o‘zlariga qaram korxonalar, filiallar, bo‘lim tarmoqlari ruyxatga olingan bir necha mamlakatlarda faoliyat olib bordilar. TMKlar halkaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish va baynalminallashtirish jarayonlari negizida mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytira bordilar.

XIX asr oxirlariga kelib, davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi rivojlana bordi va bu jarayon yaxlit jahon xo‘jaligining shakllanishiga olib keldi.

Jahon xo‘jaligi – bu xalqaro iqtisodiy aloqalar (tashqi savdo aloqalari, kapital chiqarish, valyuta-kredit munosabatlari, ishchi kuchlari migratsiyasi, iqtisodiy integratsiyalar va h.k.) orqali bir-birlari bilan o‘zviy chambarchas bog‘langan turli milliy xo‘jaliklarni o‘z ichiga olgan global xo‘jalik mexanizmidir.

Hozirgi zamon jahon xo‘jaligi bir xil bo‘lmasdan, unga o‘zining ijtimoiy tarkibi, siyosiy tuzumi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish munosabatlari, shuningdek xalqaro iqtisodiy munosabatlar ko‘lami, harakteri va shakllari bilan milliy xo‘jaliklar kiradi. Jahon xo‘jaligi sub‘ektiga jahon hamjamiyati kiradi. U o‘z ichiga o‘zaro yaxlit bog‘langan butun bir turli darajadagi tizimlarni, tuzulmalarni (milliy-davlat, hududiy hamjamiyat, xalqaro tashkilotlar, assotsiatsiyalar, korxonalar jamoalari, alohida shaxslar) qamrab oladi.

Jahon milliy xo‘jalik iqtisodiyoti ob‘ektlari esa hududiy ishlab chiqarish majmua (kompleks)lari, transmilliy korporatsiyalar, firmalar va h.k. dir. XX asrga kelib jahon hamjamiyati manfaatlari har qanday xususiy manfaatlar (milliy, sinfiy, ijtimoiy) dan ustun tura boshladi. Tinchlik, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, ekologik xavfsizlik, shaxs fidoyiligi kabi qadriyatlarining yangi tizimi paydo bo‘la boshladi.

Jahon xo‘jaligining global boshqaruv tizimini yaratish imkoniyatlari tug‘ildi.

Global boshqaruv deyilganda ozodlik va demokratiya sharoitida atrof-muhit taraqqiyotini birgalikda saqlash, butunjahon xavfsizligi va barqarorligini ta‘minlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, o‘zgarishlarni to‘g‘ri yo‘lga solish usullari va imtiyozlari tushuniladi.

Bu borada jahon global boshqaruv institutlari yaratildi. Bu:

- Xalqaro huquq;
- Hukumatlararo tashkilotlar: BMT, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki (JB), Butun jahon savdo tashkiloti (BJST);

- Ixtisoslashgan nodavlat xalqaro tashkilotlar («Grinpis», «Qizil xoch» va h.k.).

Murakkab jahon xo‘jaligi aloqalari va alohida milliy xo‘jaliklar iqtisodiyoti taraqqiyotini tahlil etish, taqqoslashda jahon tajribasida Milliy hisoblash tizimidan foydalanilishini taqozo qildi.

Milliy hisoblash tizimi (MHT) – bu iqtisodiy taraqqiyotning makro darajasi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimidir. Milliy hisoblash tizimi yordamida bozor mexanizmlari va institutlari tizimi harakatga keltiriladi.

Milliy hisoblash tizimining asosiy ko‘rsatkichi - bu yalpi ichki mahsulotdir (YAIM). YAIM tovarlar, xizmatlarni iste‘mol holatiga keltirilguncha bo‘lgan barcha jarayonlar, jamg‘arish, eksport, ishlab chiqarishga ushbu mamlakatda ketgan vaqt, harajat va haridning so‘nggi bahosidir.

Jahonning eng rivojlangan va yirik mamlakatlarida yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish ko‘lami quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Jadval - 1

Jahonning eng yirik mamlakatlari yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha reytingi (2003 yil).

Mamlakatlar	Aholisi, mln. kishi	Yalpi ichki mahsulot mlrd. dollar	Jahon yalpi ichki mahsulotda mamlakat ulushi, %	Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot ming. dollar	1990 -2003 yillarda yalpi ichki mahsulot o‘sishi marta
AQSH	302,0	10,000	20,56	36,1	15,9
Xitoy	1360,0	4900	10,09	3,9	23,3
Yaponiya	127,0	3 500	7,21	27,6	46,7
Germaniya	82,0	2 160	4,45	26,3	10,0
Hindiston	1120,0	2 020	4,16	2,0	13,3
Fransiya	59,0	1 610	3,31	27,3	9,2
Italiya	58,0	1 460	3,01	25,2	17,2
Buyuk Britaniya	59,0	1 435	2,95	24,3	5,5
Rossiya	146,0	1 265	2,60	8,7	8,4
Braziliya	174,0	1 100	2,26	6,3	73,3
Meksika	100,0	875	1,80	8,8	39,8
Indoneziya	206,0	850	1,75	4,1	28,3
Kanada	31,0	850	1,75	27,4	25,0
Janubiy Koreya	47,5	710	1,46	14,9	64,5
Tailand	62,5	525	1,08	8,4	87,5
Avstraliya	19,5	515	1,06	27,4	24,5
Butun Jahon	6200,0	48 575	100	8,1	18,8

Manba: Lomakin V.K. Mirovaya ekonomika. M., 2004.

Ikkinchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich-yalpi milliy mahsulot (YAMM) dir. YAMM da milliy korxonaning qayerda joylashganidan qat'iy nazar (mamlakatning o'zidami, xorijdami) milliy iqtisodiyotdagi xizmatlar va mahsulotlar hajmi qiymati hisobga olinadi.

Shunday qilib yalpi ichki mahsulot va yalpi milliy mahsulot o'rtasidagi farq quyidagicha:

YAIM hududiy prinsip asosida hisoblanadi, ya'ni milliy mansubligidan qat'iy nazar, ushbu mamlakat hududida joylashgan korxonalarda ishlab chiqarishda foydalanilgan xom ashyolar va mahsulotlar, xizmat sohalari jami qiymati hisobga olinadi.

YAMM esa milliy belgisiga qarab ya'ni milliy korxonalarda ishlab chiqarilgan jami qiymati bo'yicha hisoblanadi.

Milliy hisoblash tizimi muhim ko'rsatkichlaridan biri-bu, milliy daromad (MD) dir. MD -bu daromad, mehant haqini o'z ichiga olgan pirovard mahsulotning bo'lagidir. Yalpi ichki mahsulotdan farqli ravishda milliy daromadga chetdan olingan yoki chetga berilgan daromadlar qo'shilmaydi.

Xalqaro miqyosda taqqoslash uchun aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar ham qo'llaniladi.

Milliy hisoblash tizimida turli mamlakatlar ko'rsatkichlari taqqoslanganda yagona valyuta sifatida an'anaviy AQSH dollari qo'llaniladi.

Jahon xo'jaligida mamlakatlarni tabaqalarga ajratishda ularning iqtisodiy taraqqiyoti darajasi bo'yicha kuzatilinadi.

Mamlakatlar iqtisodiyoti taraqqiyotining beshta mezon mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasi;
- iqtisodiyotning ijtimoiy mo'ljallari (aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash);
- ilmiy va texnologik potentsiali darajasi;
- iqtisodiyotni gumaniylashtirish (madaniyat, meditsina, ijtimoiy soha va ta'limga qaratilgan harajatlar);
- iqtisodiyotni ekologizatsiyalash (atrof muhitga zararsiz ishlab chiqarishni yo'lga ko'yish).

Jahon banki hozirgi kunda dunyo mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha quyidagi guruhlariga ajratadi:

- sanoati rivojlangan mamlakatlar;
- rivojlanayotgan mamlakatlar;
- o'tkinchi iqtisodiyotli davlatlar.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar. Hozirgi kunda ushbu guruhdagi mamlakatlarda 1,0 mlrd. dan ortiq dunyo aholisi yashaydi. Ular keng ulushiga jahon yalpi ichki mahsulotining 50% to'g'ri keladi. Yalpi ichki mahsulot aholi jon boshiga 10-25 ming dollarni tashkil etadi. Jahon xo'jaligidagi tutgan o'rni va roli bo'yicha ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin.

- «Sakkizlik» (AQSH, Yaponiya, Rossiya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Kanada, Buyuk Britaniya) davlatlari;

- Yevropa rivojlangan mamlakatlari;
- Kuchma kapital mamlakatlari (Avstraliya, Janubiy Afrika Respublikasi, Isroil).

Rivojlanayotgan mamlakatlar. Ularga yer yuzi aholisining 70 %, jahon mineral xom ashyo zahiralarning qariyb yarim qismi to'g'ri keladi. Jahon sanoat eksportida ularning ulushi 30 % ni tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining past darajadali, ko'p ukladlilik (natural, mayda tovarlik, xususiy kapitalistik, davlat xo'jaligi), jahon bozorida qishloq xo'jaligi xom ashyosi va mineral yarim fabrikatlar bilan tovar almashish, moliyaviy vositalarning yetishmasligi harakterlidir.

Rivojlanayotgan mamlakatlar o'z o'rnini bo'yicha quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- Lotin Amerikasi, Tinch okeani va Osiyo hududidagi yangi industrial mamlakatlar (Argentina, Braziliya, Venesuela, Meksika, Urugvay, Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong va boshqalar).
- neftni eksport qiluvchi (OPEK) mamlakatlar (Qator, Quvayt, Bahreyn, Jazoir, Venesuela, Indoneziya, Eron, Iroq, Liviya, Nigeriya, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni va boshqalar).
- o'rtacha taraqqiyot darajasidagi mamlakatlar (Kolumbiya, Gvatemala, Paragvay, Tunis va boshqalar).
- demografik jihatdan gigant davlatlar (Xitoy, Hindiston, Pokiston, Indoneziya);
- sust rivojlangan mamlakatlar (Ekvatorial Afrika va Okeaniyadagi davlatlar).

O'tkinchi iqtisodiyotli davlatlar (Sharqiy Yevropa mamlakatlari va Mustaqil Hamdo'stlik davlatlari).

Bulardan tashqari formal ravishda yana bir guruh markazlashgan rejali iqtisodiyotga amal qilayotgan «Sof sotsialistik» davlatlar – Ve'tnam, Xitoy, KXDR, Kubani ko'rsatish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, keltirilgan jahon tipologik mamlakatlari shartli bo'lsada, ular insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti istiqbollari belgilashda juda zarurdir.

### **3. §. Jahon xo'jaligi globallashuvi bosqichlari**

Hozirgi zamon jahon xo'jaligi o'z taraqqiyoti davrida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Ular quyidagilardan iborat:

1-bosqich: XIX asrning oxirlari–1939 yilgacha. Jahon xo'jaligi mustamlakachilik tuzimiga ega bo'lgan. Investitsiya (sarmoya)lar rivojlangan mamlakatlardan to'g'ridan to'g'ri rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirilgan. Kapital eksport qilgan mamlakatlar nazorat ostida bo'lgan hududlarda tabiiy resurslardan foydalanish jahon iqtisodiy tartibining qonuniy ko'rinishda bo'lgan. Shu tariqa rivojlanayotgan mamlakatlarda ma'lum ixtisoslashgan tarmoqlar vujudga kelgan. Ularning ishlab chiqarish quvvatlari yangilangan. Ammo ularning iqtisodiyoti mono (yakka) tarmoq harakterida bo'lgan.



2-bosqich: 1945-1975 yillar. Mustamlaka mamlakatlarning milliy ozodlik kurashi, mustamlakachilik tizimining qulashiga olib keldi. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar siyosiy mustaqillikka erishgach, xorijiy mulklarni natsionalizatsiya qildilar. Iqtisodiyotning davlat sektorini yaratdilar. Natijada xorijiy kapital oqimi va ularning yo'nalishi o'zgarib bordi.

Xususi kapitalning 90 % eksporti rivojlangan mamlakatlarga yo'naltirila boshladi. Ushbu bosqichda global boshqaruv institutlari (BMT, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Butunjahon savdo tashkiloti va boshqalar) vujudga keldi. Ular iqtisodiyotning turli sohalarida va siyosiy munosabatlarda mamlakatlarning huquqiy me'yorlarini ishlab chiqdilar.

3-bosqich: 1975 yildan to hozirgi kungacha. Jahon iqtisodiyotida katta hukmronlikni transmilliy korporatsiyalar (TMK)lar qo'lga oladi. Ushbu bosqichda rivojlangan mamlakatlar va transmilliy korporatsiya kapital quyilmalar tuzilishini ratsionalizatsiyalash, hududiy, iqtisodiy integratsiya-baynalminal ustunligidan foydalanishga intiladilar. Tashkiliy yoki bozoriy imkoniyatlarni, qo'shimcha texnologiyalarni olishga harakat qiladilar. Globallashuv jarayonida tadbirkorlik faoliyatining asosiy roli TMK larga tegishli bo'lib qolmoqdalar.

TMKlar xalqaro kapital bozorida o'z boshqaruvi ostida kuchli baynalminal tizim yaratuvchi faol ishtirokchilarga aylanishdilar. Ilm-fan faoliyatiga tayangan holda TMKlar texnologiyalar yaratish va ularni global tarqatishida asosiy kuchga aylanadi. Yetakchi TMKlar tom ma'noda ko'p millatli bo'lib, sanoatlashtirish va servis xizmatlarini keng yoyib berish ularga xos usuldir. YUNKTAD tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, yetakchi ko'p millatli kompaniyalar jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda 449 mingdan ortiq o'z filiallar faoliyatini muvofiqlashtirib turganligi qayd etilgan.

Jahondagi o'nta yirik TMK lar xorijiy tovar aylanishining 30 % ni va TMK lar xorijiy aktivligining 34 % ni nazorat qilib turibdi. 100 tadan ortiq yirik TMK larning birlashgan hissadorlik kapitali 5,5 trln. dollarni tashkil qiladi. Yirik TMKlar ixtisosi asosan bosh tarmoqni qamrab oladi: elektronika va elektr uskunalari (17 firma), kimyo va farmatsevtika (16 firma), neft va boshqa energoresurslar (14 firma), avtomobillar va ularga uzellar, agregatlar ishlab chiqarish (14 firma), shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar (12 firma) ishlab chiqarish. Elektronika va elektr uskunalari ishlab chiqarish bilan band TMKlar ko'proq xorijiy aktivlarga ega. Chet el filiallari birlashgan tovar-oboroti jahonda savdoda bo'lgan 80 % elektronika, (maishiy va sanoat elektronika, telekommunikatsiya vositalari, elektr uskunalari)ni tashkil etadi.

Keyingi paytlarda kapital bozorida uncha katta bo'lmagan Belgiya Niderlandiya, Shvesiya, Finlyandiya kabi mamlakatlar TMK lari roli sezilarli oshayapti. Milliy bozor imkoniyatlarining cheklanganlari ularni yangilarini izlashga majbur qilayapti.

TMK lar talab ehtiyojning o'zgarishiga qarab butun jahon bo'yicha ishlab chiqarishni fabrikadan-fabrikaga ko'chirish orqali, quvvatlaridan unumli foydalanish, buyumlarning umrini uzaytirishga harakat qilmoqda. Avvaliga ularni modaga ishqiboz bo'lgan jahondagi boy mamlakatlarda ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yadi. So'ngra unchalik boy bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab

chiqarishni tashkil etadi. TMK lar shunday qilib, jahon iqtisodiyotini baynaminallashtiradi. Xalqaro mehnat taqsimotiga asoslangan integratsiya ishlab chiqarish faoliyati hozirgi zamon jahon iqtisodiyotining harakterli qirralarini belgilaydi.

Globalashuv jarayoni bilan yonma-yon hududlashtirish jarayonlari ham rivoj topib bormokda. Yevropa ittifoqi (YEI), Shimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi (SHAESA), Osiyo Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati (OTIH), Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) kabi integratsiyalashgan tuzilmalar vujudga keldilar. Shunday qilib jahon iqtisodiyotida ikki yonma-yon jarayon – globalashuv va hududiyashtirish jarayonlari borayapti. Ular bir-birlarini to'ldirib, sayyoramizni yagona iqtisodiy kenglikka aylantirmokda.

Jahon siyosiy va iqtisodiy haritasi keyingi yillarda jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. Ruy berayotgan o'zgarishlar va ularning dinamikasi mamlakatlar xalqlarini o'tish-ko'chish, joy almashish jarayonlari mohiyatini belgilaydi. Bu mohiyat ilmiy-texnik resurslar rivojlanishi natijasida insoniyat taraqqiyotining postindustrializm bosqichini belgilab beradi.

Postindustrializm – markazida «insoniy kapital» turgan yangi tip ishlab chiqarishdir. U kayerda zarur shart-sharoitlar vujudga kelsa o'sha yerda bilimlar, kasb-malaka ko'nikmalari, talant, shaxsning ijodiy imkoniyatlarini birlashtiruvchi imkoniyat sifatida yuzaga chikadi.

Jahon modernizatsiyalashayotgan kenglikni bir butunligicha o'sha rivojlanayotgan vektorga birlashtiradi. Hozirgi zamon jahon xo'jaligi markazida AQSH, G'arbiy Yevropa, Yaponiya turishibdi va ular modernizatsiya markazi hisoblanishadi.

#### 4. §. Jahon xo'jaligining rivojlanish tendensiyalari va ziddiyatlari

Hozirgi zamon global iqtisodiyotning bosh muammosi rivojlangan mamlakatlar doirasida berk xo'jalik tizimining shakllanishi bilan bog'langan.

Bu qo'yidagilarda namoyon bo'ladi:

- asosiy savdo aylanmalarining ancha rivojlangan mamlakatlar miqyosiga qaratilgani 1990-yillarning ikkinchi yarmida sanoati rivojlangan mamlakatlar ulushiga jahon kompyuter texnikasining 80 %, yuqori texnologik ishlab chiqarishning 90 % to'g'ri kelgan;
- rivojlangan mamlakatlarda xususiy kapital investitsion oqimining tutashi. Hozirgi paytda AQShning 50 % investitsiyasi G'arbiy Yevropa mamlakatlariga yo'naltirilmoqda. Yangi industrial mamlakatlarga esa uning atiga 8 % to'g'ri keladi. AQSH investitsiyasining deyarli 85 % Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya va Germaniyaga to'g'ri keladi;
- rivojlanayotgan mamlakatlarda migratsion oqimning keskin cheklanishi;
- mustaqil bo'lmagan yosh industrial mamlakatlarning g'arbdagi texnologik yangiliklar bilan almashinishi ekstensiv harakterdagi taraqqiyotida tashqi investitsiyaga bog'liqlik, tayyor mahsulotni rivojlangan mamlakatlarga eksport qilishning kuchayishidir.

Jahon xo'jaligi uchun quyidagi rivojlanish tendensiyalari (intilishlar) harakterlidir:

1. Global muammolarni global hamkorlik va majburiyatlar natijasidagina hal etish mumkin. Yangi tahdidlar - SPID epidemiyasi, raketa-yadro texnologiyasining tarqalishi, yadro terorizmi ehtimoli xavfi paydo bo'ldi. AQSH ning «World-watsh» instituti ma'lumotlariga qaraganda, jahon har yili 10 mln. gektaga yaqin o'rmonni, 9 mlrd. tonna haydaladigan yer qatlamini yo'qotmoqda. 2030 yilga borib jahon aholisi soni 10 mlrd. kishiga yetishi mumkin. Bu hayot standartlarini saklash uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini 4 marta ko'paytirishni, energiya ishlab chiqarishni 6 marta oshirishni talab qiladi. Turgan gap, tez taraqqiy etgan texnologiyada ham bunga erishish ancha qiyin bo'ladi. Dunyo aholisi sonini barqarorlashtirish uchun tug'ilishning o'rtacha koeffitsentini 2,1 darajagacha kamaytirish lozim bo'ladi.

2. Jahonning bir butunligi va o'zaro bog'liqligi milliy davlatlar xalqaro siyosiy bo'linishi ziddiyatiga duch keladi. XX asr boshlarida xalqaro tartibni 6-7 ta buyuk davlatlar o'z mustamlaka imperiyalari bilan siyosiy ittifoqchilariga tazyiq o'tkazish orqali namoyon etgandi. Oqibatda mustamlakachilik tizimining yemirilishi natijasida 100 dan ziyod davlatlar vujudga keldi. «Sovuk urush» xavfi tugaganidan keyin bu tendensiya yangi kuch oldi. Sovet ittifoqi, Yugoslaviya, Chexoslovakiya davlatlari parchalanib ketdi, yana o'nlab yangi mustaqil davlatlar tashkil topdi. Natijada, dunyo siyosiy haritasida 2006 yilda 1945 yilga qaraganda mamlakatlar umumiy soni uch baravarga ko'paydi. Agar bu jarayon bundan keyin ham davom etadigan bo'lsa, ekspretlarning fikricha, jahon xo'jaligida mamlakatlar soni 300 taga yetishi mumkin.

Odatda davlatlarning tashqi siyosati «milliy manfaatlari» dan kelib chiqqan shartlar asosida shakllanadi. Ko'pincha «milliy manfaatlar» mafkuraviy maqsadlarga diniy va millatchilik tusini beradi. Bu esa milliy manfaatlar haqida noto'g'ri tasavvurlar uyg'otadi, xalqaro munosabatlarda yangi global vokeliklarda tobora ko'proq ziddiyatlar keltirib chiqaradi.

Diniy va etnik belgiga qarab bo'linish tendensiyasi xalqaro tizimni alg'ov-dalg'ov qilib, boshi berk ko'chaga kiritib qo'yishga qodirdir.

3. Modernizatsiya jarayonlarida ziddiyatlarning chuqurlashuvi. Rivojlangan g'arb mamlakatlari modernizatsiya jarayonlarida oldinda borishdi, mustaqil ravishda yangi texnologiyalar, uskunalar yaratadilar. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar g'arbning tashqi ta'siri ostida modernizatsiya jarayonlariga tortilmokda. Bu ularning texnologik qaramligini kuchaytirib, jahon xo'jaligi sohalaridan o'rin egallashini ta'minlaydi.

4. Jahon xo'jaligining uch markazi o'rtasidagi ziddiyatlar. G'arbiy Yevropa barcha mamlakatlarning birlashgan potensiali sifat ko'rsatkichlari AQSH va Yaponiyani birga qo'shib olgan darajada turibdi. Shu bilan birga G'arbiy Yevropa, AQSH va Yaponiya o'rtasida texnologik uzilishlar qisqargan bo'lsada, hozirgacha AQShning yetakchi o'rini pasaytira olishgani yo'q.

Valyuta urushi davom etayapti. AQSH ayniqsa bu sohada alohida faollik ko'rsatayapti. Amerika dollari hozircha jahon valyuta bozorida valyuta zahirasi sifatida yetakchi bo'lib turibdi. Jahondagi ko'pchilik mamlakatlar valyuta

zahirasining 60 % ni Amerika dollari tashkil qiladi. G'arbiy Yevropa Yevro hisob birligi qulay sharoit yuzaga kelishi bilan haqiqiy valyuta zahirasiga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda tahminlarga ko'ra, uning ulushiga 25 % valyuta zahiralarini to'g'ri keladi.

5. Rivojlangan mamlakatlar hamkorligi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar guruhi litsenziyalar, patentlar olish sohasida ustunligini saqlab kelmoqda. Jahon patent va litsenziya oborotining 90 % ularning hissasiga to'g'ri keladi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar xo'jaligi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inqiroz qiyinchiliklarini yengishda bir-biri bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritayapti. Yevropa integratsiyasini muoffakiyatli rivojlantirayati, kollektiv xavfsizlik mustahkamlanayapti. Rivojlangan mamlakatlar Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy islohatlarni qo'llab-quvvatlatilmoqdalar.

Shunday qilib, hozirgi zamon jahon xo'jaligining uch markazi raqiblikni yo'qotmasada hamkorlikka urg'u bermoqda.

### Nazorat savollari

1. «Jahon xo'jaligi» tushunchasi mohiyati nimalardan iborat.
2. Jahon xo'jaligi ob'ekt va sub'ektlarini ayting.
3. Jahon xo'jaligi bir butun yaxlit holda qachon vujudga kelgan?
4. Jahon xo'jaligining asosiy taraqqiy etgan davrlari qachon bo'lgan?
5. Jahon xo'jaligidagi asosiy mamlakatlar gurhlarini ayting?
6. Jahon xo'jaligi globallashuvi bosqichlarini ayting?
7. Jahon xo'jaligi taraqqiyoti va ziddiyatlarining harakterli xususiyatlarini tushuntirib bering.

## **II Bob. XALQARO MEHNAT TAQSIMOTI**

### **1.§. Xalqaro mehnat taqsimoti tushunchasi**

Jahon xo‘jaligi tizimining moddiy asosi bo‘lib, xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) hisoblanadi. Xalqaro mehnat taqsimoti – bu alohida mamlakatlarda u yoki bu tovarlarni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni nafaqat o‘z mamlakatida, balki boshqa mamlakatlarda ham amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Ishlab chiqarish baynalminal (internatsional) tashkil qilishning ushbu shakli u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishni qulay iqtisodiy ixtisoslashtirishda va o‘zaro almashinishda ayrim mamlakatlarga qo‘l keladi. Xalqaro mehnat taqsimoti mohiyati ishlab chiqarishning yagona ikki tarikibiy qismini ajratishda (uning xalqaro ixtisoslashuvi) va uning birlashuvi (ishlab chiqarishni xalqaro kooperatsiyalash)da namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarishni kooperatsiyalash xalqaro mehnat taqsimoti shakllari paydo bo‘lishi sifatida maydonga chiqadi. Ishlab chiqarishni kooperatsiyalash xalqaro mehnat taqsimotining paydo bo‘lish bosh shakli hisoblanadi. O‘z navbatida kooperatsiyalash ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishga asoslanadi.

### **2.§. Xalqaro mehnat taqsimoti shakllari va turlari**

Xalqaro ixtisoslashuv va xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi xalqaro mehnat taqsimotning mazmun mohiyatini, shakllarini amalga oshirishni belgilovchi mezonlardir.

Ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashtirish davlatlar o‘rtasida mehnat taqsimotining shakli bo‘lib, u bir turdagi tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlarni mamlakat ichki iste‘molidan ortib ishlab chiqarishni markazlashgan asosda o‘sib borishi tushuniladi. Qaysikim, alohida davlatlar konkret tovarlar va xizmatlar (an‘anaga ko‘ra, ishlab chiqarish quvvati, kadrlar malakasi, tabiiy resurslar, milliy daromad darajasi, ichki bozor hajmini kengaytirish, mavjud va yangi iqtisodiy aloqalar bilan) ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashtirishning asosiy turlariga buyumlar (tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish), detallar (alohida qismlar va komponentlar ishlab chiqarish) va texnologik (ayrim texnologik jarayonlar va operatsiyalarni amalga oshirish) jarayonlari kiradi. Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi ikki yo‘nalish bo‘yicha rivojlanib boradi:

- ishlab chiqarishda (tarmoqlararo, ichki tarmoqlar ixtisoslashuvi) alohida korxonalarining ixtisoslashuvi;
- xududiy (alohida mamlakatlar ixtisoslashuvi, guruh mamlakatlar, mehnat taqsimoti uchun ma‘lum mahsulotlar va ularning qismlarini ishlab chiqaruvchi hududlari).

Ishlab chiqarishning hududiy xalqaro ixtisoslashuvida esa alohida mamlakatlar va hududlarda ma'lum mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularning bir qismini jahon bozoriga chiqarilishini yo'lga qo'yilishi tushuniladi.

Xalqaro ixtisoslashuv o'zining taraqqiyotida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. XX asrning 30-yillariga kelib jahonda xalqaro tarmoqlararo ixtisoslashuv hukmronlik qila boshladi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda qayta ishlov sanoat tarmoqlari mahsulot ishlab chiqarishiga ixtisoslashadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa qazib olish tarmoqlari mahsulotlariga ixtisoslashdi. 1950-1960 yillarda tarmoqlararo ixtisoslashuv yetakchi o'rinni egallashda davom etdi. Ammo birlamchi tarmok sifatida (avtomobil va traktorsozlik, sintetik buyoklar ishlab chiqarish, poyafzal, soatlar va h.k.) faoliyat ko'rsatdi. 1970-1980 yillarda ichki tarmoqlararo ixtisoslashuvi birinchi o'ringa chiqadi. Bu mayda qismlar va texnologik ixtisoslashuvlarni rag'batlantirish, xalqaro tovar almashinuviga moslashdi. Jahon xo'jaligida butlovchi va yarim fabrikatlarni ayra boshlash ham katta ahamiyat kasb etadi.

Narsa ishlab chiqarishga, yana mayda qismlar texnologik ixtisoslashuv ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotini belgilab beradi. Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi taraqqiyoti darajasini aniqlaydi.

Xalqaro kooperatsiya iqtisodiy aloqalar mavjudligi, korxonalarining oddiydan murakkab shakllargacha tuzilgan shartnoma (kontrakt)larini bajarish uchun birgalikda yaratgan va tashkil etgan korxonalarini qamrab oladi. Mehantni taqsimlash shakli sifatida xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi turli mamlakatlar mehnatkashlari mehnatidan ishlab chiqarish jarayonida bevosita va kundalik foydalanishda o'zaro uzviy harakatni vujudga keltiradi.

Iqtisodiy tabiati bo'yicha xalqaro kooperatsiya ishlab chiqarish sohasida ishlab chiqarish kuchlari, ilmiy tadqiqotlar, tasarruf qilish va boshqalarda birgalikda belgilangan natijalarni qo'lga kiritishda huddi shunday sharoitda ishtirokchilar yakka tartibda harakat qilganiga qaraganda kam mehnat sarflab kerakli yutuqga erishadi.

Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi mehnatining bosh vazifasi-yuksak mehnat unumdorligiga erishish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ko'paytirish vositasi bo'lishdir. Shuningdek, bir necha mamlakatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini birlashtirmay turib, amalga oshirib bo'lmaydigan yangi prinsipial vazifalarni hal etishdir. Hozirgi zamon sharoitida jahon xo'jaligi tizimida xalqaro kooperatsiya taraqqiyotining asosiy tendensiyasi transmilliy kooperatsiyalar (TMK) iqtisodiy hukmronligini kuchaytirishni takazo etadi.

Ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyalashuvi uzoq oqilona ishlab chiqarish shakli bo'lib, qaysikim u ixtisoslashgan korxonalar o'rtasida o'rnatiladi. Ular esa quyidagi hamkorlik sohalari bo'yicha ajralib turadi:

- Ishlab chiqarishda texnologik hamkorlik qilish (litsenziya berish va mulkdan foydalanish huquqi, loyiha konstruktorlik hujjatlarni, texnologik jarayonlarni, mahsulot sifati, amaldagi korxonalarini modernizatsiya qilish kabilarni kelishib olish va ishlab chiqish, ishlab chiqarishni boshqarish, takomillashtirish, standartlash, sertifikatlash hamda ishlab chiqarish dasturlarini taqsimlash).

- Kooperatsiyalashgan mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan savdo
- iqtisodiy jarayonlari;
- Sotishdan keyin texnikaviy xizmat ko'rsatish.

BMT Yevropa kommissiyasi konsepsiyasiga muvofiq sanoat hamkorligi ichida quyidagi shakllar (usullar) ajratiladi:

- «Kompensatsiya bitimi»;
- Qo'shma dasturlarni amalga oshirish (ketma-ket va qo'shma ishlab chiqarish);
- Kelishilgan ixtisoslashuv;
- Qo'shma korxonalar shaklidagi kooperatsion hamkorlik;
- Korporativ tuzilmalarning transmilliy kooperatsiyasi ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvida ishtirok etishi quyidagi natijalardan iborat bo'ladi:
  - § ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi chuqurlashadi, oqilona texnika va texnologiyalarni qo'llash asosida ishlab chiqarish rentabelligi o'sadi;
  - § muhim ilmiy - texnik vazifalarini hal etish imkoniyati tug'iladi;
  - § bir necha mamlakatlardagi sheriklar bilan yangi murakkab turdagi buyuurlar yaratish muddatlari qisqaradi;
  - § marketing faoliyati yengillashadi;
  - § eksport yo'llaridagi savdo to'siqlari aylanib o'tiladi yoki tuzatiladi;
  - § firmaning rejalashtirish imkoniyati kengayadi.

Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi davr bosqichlari axborot texnologiyasiga ega bo'lgan holda, ishlab chiqarishni yangi texnik baza iqtisodiy tizimiga o'tkazish bilan harakterlanadi.

Jahon iqtisodiyoti aloqalarining yetuklik darajasi tovar aynlanmasi (tovarooborot) va moddiy ishlab chiqarish sur'atlari o'sishiga nisbatan belgilanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlarga tovar aynlanmasi tarkibi, oldi –sotdi bitimlari salmog'i haqida ma'lumotlar dalil bo'ladi. Bular mehnat va kapital bozorida, jahon narx dinamikasi, tovarlar xizmatlari, mablag'lar harakatiga yo'naltirilgan ishlarda namoyon bo'ladi.

Mamlakatlarning jahon xo'jalik aloqalariga jalb etilishi darajasi xalqaro mehnat taqsimotida eksport kvotasi va aholi jon boshiga eksport hajmi ko'rsatkichlarini hisoblash asosida baholanishi mumkin.

**Eksport kvotasi** – jahon bozorining alohida mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan barcha eksportlar hajmi nisbatidir.

Eksport kvotalarining ahamiyati quyidagicha:

- § milliy iqtisodiy ishlab chiqarishning boshqa mamlakatlar bozorida o'z tovarlarini sotishga bog'liq darajasini ko'rsatadi;
- § mazkur mamlakatning jahon bozorida sotish uchun ma'lum mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini aniqlaydi.

Agar eksport kvotasi 10% dan kam bo'lmasa, «ochiqlik» darajasi ma'qul hisoblanadi.

**Import kvotasi** iqtisodiy ko'rsatkichi bo'lib, u mamlakat iqtisodiyoti uchun import ahamiyatini harakterlaydi. Import kvotasi – mazkur mamlakatning yalpi

ichki mahsuloti importiga nisbatan YAIM da qancha qismi importni tashkil qilishini ko'rsatadi.

Tashqi savdo kvotasi mamlakat tashqi savdo oborotining uni YAIM hajmiga nisbatan kattaligi nisbatidir. Tashqi savdo kvotasi mazkur mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalari uning umumiy iqtisodiy o'sishini nechog'liq rag'batlanishini ko'rsatadi.

Tashqi iqtisodiy kvota 27% ga yetganda milliy iqtisodiyotga rag'batlantiruvchi ta'sir o'tkaza boshlaydi, deb hisoblanadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti mazkur mamlakat korxonalarini kuchi nafaqat o'z iste'molchilari ehtiyojini qondirish uchun ma'lum mahsulotlar ishlab chiqarish, balki o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotlarga almashtirish uchun ham mahsulot ishlab chiqarishga qaratilishi kerak deb taxmin qiladi.

Xalqaro almashinish jarayonlarida xalqaro mehnat taqsimotini amalga oshirish qulay shartlarda har qanday mamlakatga afzallik beradi:

§ eksport qilinayotgan tovarlar va xizmatlarning xalqaro va ichki narxi o'rtasidagi farqni olish;

§ nisbatan arzon importdan foydalanishda milliy ishlab chiqarishdan voz kechib, ichki harajatlarni tejash.

Xalqaro mehnat taqsimoti uch asosiy tiplar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin va bular ishlab chiqarish kuchlari tegishli rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi: **umumiy**, **xususiy** va **yakka** tartibda.

**Umumiy tipdagi xalqaro mehnat taqsimoti**, ya'ni ishlab chiqarish sohalari bo'yicha (qazib olish, qayta ishlash, sanoat, qishloq xo'jaligi) ko'proq xo'jalikni ekstensiv rivojlanish davriga xos va eng avvalo tabiiy, ishlab chiqarishning tabiiy – geografik sharoitlari bilan bog'liq.

**Xususiy tipdagi xalqaro mehnat taqsimoti** ma'lum sohalar, ularning tarmoqlari va ishlab chiqarish turlarida xalqaro ixtisoslashuvni taqozo etadi. Bunda almashuvning internatsionallashuvi paydo bo'ladi va kengayadi, savdo o'sishi tezlashadi.

**Yakka tartibdagi xalqaro mehnat taqsimoti** alohida operatsiyalar (detallar, uzellar, agregatlar) va texnologik stadiyalarga ixtisoslashuvni taqozo qiladi. Bu sharoitda bozor hajmi o'sadi. Jahon savdosi o'zish sur'atida rivojlanadi (ishlab chiqarishga taqqoslanganda). Shuning uchun ham xalqaro savdoda komplektlovchi kooperatsiya tartibida, shu jumladan, trans milliy korporatsiya doirasida (TMK)1/2 dan ko'proq mahsulot tovar almashinuvi qayta ishlash sanoatiga to'g'ri keladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Xalqaro mehnat taqsimoti nima?
2. Xalqaro mehnat taqsimotining shakllarini ayting.
3. Umumiy tipdagi xalqaro mehnat taqsimoti nima?
4. Xususiy tipdagi xalqaro mehnat taqsimoti to'g'risida tushuncha bering.
5. Yakka tartibdagi xalqaro mehnat taqsimotini ayting.



### III Bob. HALQARO SAVDO ALOQALARI VA SAVDO SIYOSATI

#### 1. §. Xalqaro savdo aloqalari xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida

Jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda rivojlangan va an'anaviy shakl bu-tashqi (xalqaro) savdo aloqalaridir. Hozirgi kunda xalqaro savdo ulushiga xalqaro iqtisodiy munosabatlar hajmining beshdan bir (1/5) qismi to'g'ri keladi.

Har qanday davlat uchun tashqi savdo rolini baholash qiyin. J. Saksning ta'rificha, «Har kanday mamlakat iqtisodiyoti tashqi savdoga asoslangan holda gurkiraydi. Jahon iqtisodiyoti tizimidan uzilib qolgan birorta mamlakat hali sog'lom iqtisodiyot yaratishga muvaffaq bo'lgani yo'q».

Halkaro savdo turli mamlakatlarda tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi xalqaro mehnat taqsimoti asosida vujudga kelgan aloqalar shaklidir. Ularning o'zaro iqtisodiy bog'liqligini aks-milliy savdo siyosati ta'siri ostida tarkibiy tuzilishlar – ixtisoslashish va sanoat ishlab chiqarishining kooperatsiyalashuvi, milliy xo'jalik hamkorlik harakatini kuchaytiradi. Xalqaro savdo, butun davlatlararo oqimining o'rtalikdagi harakati natijasida ishlab chiqarish tez sur'atlar bilan o'sadi. Tashqi savdo oboroti tadqiqotlariga ko'ra, dunyo ishlab chiqarishining har 10 % o'sishga jahon savdosi hajmining 16 % ko'payishi to'g'ri keladi. Buning bilan uning taraqqiyotiga kulay imkoniyatlar paydo bo'ladi. Ma'lumki, savdoda uzilish bo'lsa, ishlab chiqarishning rivojlanishi ham susayadi.

«Tashqi savdo» deyilganda u yoki bu mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan to'lov orqali olib kelinadigan (import) va to'lov orqali jo'natiladigan (eksport) tovarlar savdosi tushuniladi.

Ko'p turli tashqi savdo faoliyati tayyor mahsulotlar savdosiga tovar bo'yicha ixtisoslashuviga mashinalar va uskunalar, xizmatlar va xom ashyo savdosiga bo'linadi.

Xalqaro savdo deb dunyo mamlakatlari o'rtasidagi tovar aylanmasi to'lovlarining yig'indisiga aytiladi. Biroq «Xalqaro savdo» tushunchasi tor ma'noda ham ishlatiladi. Masalan, rivojlangan mamlakatlar sanoat tovar oboroti, yoki bu qit'a, mintaqa, tovar oboroti bo'lishi mumkin. Misol uchun Sharqiy Yevropa va shu kabilar.

Eksport va import mutanosibligi savdo balansini hosil qiladi. BMT statistika nashri butun jahon mamlakatlari birgalikdagi eksport qiymatini xalqaro savdo hajmi dinamikasi bo'yicha ma'lumotlar sifatida e'lon qiladi.

Tabiiy hol, jahon savdosi taraqqiyotida unga ishtirok etuvchi mamlakat manfaatiga tayanadi. Xalqaro savdo nazariyasi tashqi savdodan, yoki tashqi savdo oqimi yo'nalishidan manfaatdor savdo mamlakatga o'z ixtisoslashuvini rivojlantirib mavjud resurslar ishlab chiqarishini oshirish, shu orqali aholi faravonligini yaxshilashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

## 2. §. Xalqaro savdo nazariyasi

Ma'lumki, xalqaro savdo nazariyasi asoslari XVIII asr oxirlari – XIX asr boshlarida mashhur iqtisodchilar Adam Smit va David Rikkardo tomonidan shakllantirilgan.

Adam Smit o'zining «Xalqlar boyligi sabablari va ularning tabiati to'g'risida tadqiqotlari (1776 y) kitobida mutloq ustunlik nazariyasini shakllantirdi va xalqaro erkin savdoni rivojlanishidan manfaatdor mamlakatlar undan mustaqil ravishda eksporter yoki importyorligidan qat'iy nazar albatta yutishini ko'rsatdi. A.Smit «almashinish har bir mamlakat uchun foydali ekanligini, har bir mamlakat unda mutloq ustunlikni topishini» isbotladi. Xalqaro savdoda mutloq ustunlik bu-mamlakatda ishlab chiqarishda boshqa mamlakatda mumkin bo'lmagan kam mehnat sarflab tovar ishlab chiqarishdir.

A.Smit tahlili klassik nazariyaning tayanch nuqtasi sifatida erkin savdo siyosatining barcha turlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ammo biroq, bu mulohazalarni oxirigacha davom ettirib shunday xulosaga kelish mumkin: agar mamlakat chetdan cheklanayotgan miqdorda, arzon bahoda istalgan barcha narsasini topsa, uning manfaatlari chetda «hammasi» tusini oladi. Uning o'zini sotish uchun biror bir narsa ishlab chiqarayaptimi? hech narsa buni kafolatlay olmaydi. Ana shunda uni o'zi sotib oladigan narsalariga umid bog'lashdan boshqa iloji qolmaydi. Turgan gap, bunda mutloq-ustunlik nazariyasi boshi berk ko'chaga kirib qoladi.

D.Rikardo «Siyosiy iqtisodning boshlanishi va soliqqa tortish» (1819 y) kitobida bu boshi berk ko'chadan chiqishning klassik nazariyasini olg'a suradi. U xalqaro ixtisoslashuv mezonlarini ajrata turib, ikki davlat o'rtasida qaysi doirada almashinish maqbulligini ko'rsatadi. Har bir mamlakat o'z manfaatidan kelib chikib ishlab chiqarishda ustunlik beradigan yoki nisbatan kam foyda beradigan sohaga ixtisoslashishi mumkin. Uning mulohozalari taqqoslama ustunlik nazariyasida o'z aksini topadi.

D.Rikardo xalqaro almashinuv barcha mamlakatlar uchun zarur va manfaatli ekanligini ko'rsatib berdi. U shunday baho hududi (zonasi)ni aniqladiki, uning ichida almashinish hamma uchun foydalidir.

Jon Styuart Mill o'zining «Siyosiy iqtisod asoslari» (1848 y.) ishida almashish qanday bahoda amalga oshishini ko'rsatdi. Millning xulosasiga ko'ra almashish bahosi talab va ehtiyoj qonuni asosida belgilanadi va har bir mamlakatni eksportdan oladigan foydasi import to'lovlarini qoplash imkoniyati darajasida bo'ladi. Bu xalqaro qiymat qonuni yoki «Xalqaro qiymat nazariyasi» Millning katta xizmatidir. Xalqaro qiymat nazariyasi ko'rsatadiki, mamlakatlar o'rtasida tovar almashishini mo'tadillashtiruvchi baho mavjud. Bu bozor narxi talab va ehtiyojga bog'liq.

Burjuaziya siyosiy iqtisodi klassik nazariyasi taraqqiyoti haqida yangi so'zni Gotfrid Xaberler aytdi va u nafaqat mehnatni, balki ishlab chiqarishning barcha omillarini aniqlashtirib berdi.

Hozirgi zamon xalqaro savdo oqimi tuzilishi va yo'nalishlari haqidagi tasavvurlarga shved iqtisodchi olimlari Eli Xeksher va Bertil Olin asos soldilar. Ularning takkoslama ustunlik haqida tushuntirishlaricha u yoki bu mamlakatda ma'lum mahsulotlarga egalik munosabati ishlab chiqarishni ta'minlanish omillari darajasiga bog'liq. E.Xeksher va B.Olin ishlab chiqarish omillari – mehnat, yer, kapital, shuningdek u yoki bu tovarlarga ichki turli talablar bahoni tenglashtirishi teoremasini olg'a surdilar. 1948 yilda amerikalik iqtisodchilar P.Samuelsan va V.Stolper Xeksher – Olin teoremasi isbotini takomillashtirdilar. Ya'ni ishlab chiqarish omillari bir turligi, texnikalar bir xilligi, xalqaro tovar almashishda tovarlarni to'liq safarbarligi va raqobat mamlakatlar o'rtasida narx omillarini tenglashtiradi.

Bundan keyingi tashqi savdo nazariyasi taraqqiyoti Amerikalik iqtisodchi V.Leontevning «Leontevning o'ziga xos fikrlari» nomli ishida o'z ifodasini topdi. O'ziga xos fikrlar shundan iboratki, Leontev Xeksher-Olin teoremasidan foydalanib, urushdan keyingi davrda Amerika iqtisodiyoti kapitaldan chiqarish turlariga ixtisoslashganini ko'rsatib berdi. Boshqacha aytganda Amerika eksporti importga qaraganda bir muncha mehnat talab va kam harjroq.

Bu xulosa AQSH iqtisodiyoti haqida avvalgi tavsavvurlarni chippakka chiqardi. Umumiy xulosaga ko'ra, u hamisha kapitalni keragidan ortiqligi bilan harakterlanadi va Xeksher-Olin teoremasiga binoan AQSH kapital talab tovarlarni import emas, eksport qilishi kutilardi.

V.Leontev kashfiyoti keyingi yillarda keng aks-sado berdi. Turli mamlakatlar iqtisodchilari «Leontevning o'ziga xos fikrlari» mavzusida bahs-munozaralarga kirishdilar. Natijada tenglashtiruvchi ustunlik nazariyasi yanada rivojlandi. U texnika progressi va uni taqsimotda notekisligi, iqtisodiy vositalarni fermentli emasligi, ish haki masalasida va boshqalarda mamlakatlar o'rtasidagi farqlarni o'z ichiga oladi.

G'arb tadqiqotlarida xalqaro savdo muammolarida shuningdek multiplikator (ko'paytiruvchi) tashqi savdo nazariyasi ham keng yoyildi. Bu nazariyaga muvofiq tashqi savdo (ayniqsa eksportda) milliy daromad o'sish dinamikasi, bandlik hajmi, iste'mol va investitsion faollikka samarali ta'sir qiladi.

Har bir mamlakatda multiplikator ma'lum son bog'liqligiga qarab, ma'lum koeffitsiyent turida aks etishi va hisoblab chiqilishi mumkin. Boshlang'ich eksport buyurtmasi mahsulot ishlab chiqarishni bevosita ko'paytiradi, turgan gap, buyurtmani bajaruvchi sohalarda ish haqi ham ko'payadi. So'ngra ikkilamchi iste'mol sarflari harakatga keladi.

### 3.§. Xalqaro savdoning o'sishi, tuzilishi va geografiyasi

XX asr ikkinchi yarimidan boshlab, xalqaro almashishi «portlovchi harakter» kasb etayotgan sharoitda xalqaro savdo aloqalari yuqori sura'tlarda rivojlanabordi. 1960 yillardan to 2005 yilgacha jahon ichki yalpi mahsuloti hajmi 28 martadan ortiq, jahon eksporti hajmi esa 42 martaga o'sdi. G'arb mutaxassislarining

baholashlaricha, 1960 va 1970 yillar orasidagi davrni jahon savdo taraqqiyotida «oltin asr» deyish mumkin. Xuddi shu davrda jahon eksportida har yili 7 % o'sishga erishildi. Ammo 70 – yillar o'rtasiga kelib bu ko'rsatkich 5 % gacha pasaydi. XXI asr boshlarida ro'y bergan yaqqol pasayishdan keyin xalqaro savdo yana yuqori turg'un o'sish sura'tini namoyish kila boshladi.

Xalqaro savdoning barqarorligi va turg'un o'sishiga quyidagi bir qator omillar ta'sir o'tkazdi:

- xalqaro mehnat taqsimoti taraqqiyoti va ishlab chiqarishning baynalminallashuvi;
- asosiy kapitalning yangilanishi, iqtisodiyotning yangi sohalarini yaratish, eskilarini rekonstruksiya qilishni tezlatuvchi milliy savdoning o'sishi;
- jahon bozorida transmilliy korporatsiyalar (TMK) faoliyatining aktivlashishi;
- jahon savdosining tariflar va savdo haqidagi Bosh kelishuv tadbirlari asosida muvofiqlash hamda liberalizatsiyalashtirish;
- jahon savdosini liberizatsiya qilish ko'pchilik mamlakatlarda importni cheklashni bekor qilish va erkin iqtisodiy hududlar uchun mavjud bojxona poshlininalarini qaytarishga o'tishi;
- iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlantirish, hududiy to'siqlarni bartaraf etish;
- umumiy bozor va erkin savdo hududlarining vujudga kelishi;
- sobiq mustamlaka mamlakatlarning siyosiy mustaqillik olishi. Ular orasidan tashqi bozor uchun mo'ljallangan yangi modeli «yangi industrial mamlakatlar»ning ajralib chikishi.

XX asr ikkinchi yarimidan boshlab tashqi savdo dinamikasida sezilarli notekislik vujudga keladi. Bu jahon bozorida mamlakatlar o'rtasidagi kuchlar munosabatlariga ta'sir qildi. AQShning mustahkam o'rni bo'shashdi. Agar 1950 yilda bu mamlakatning jahon eksportidagi ulushi 1/3 ga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2004 yilga kelib 1/8 ga to'g'ri kelayapti. O'z navbatida Germaniyaniki Amerikaniqiga yaqinlashdi, ba'zi yillarda hatto undan o'zdi ham. Germaniyadan tashqari eksport boshqa G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ham o'sdi. G'arbiy Yevropa xalqaro savdoning bosh markaziga aylandi. Uning eksporti AQSH eksportidan 4 marta ziyoddir.

Keyingi yillarda xalqaro savdo sohasida Yaponiya sezilarli sakrash qildi. U mashina va uskunalar eksport qilishda birinchi o'ringa chiqdi. Yaponiya yengil va yuk avtomashinalari, maishiy ishlab chiqarish texnikasi, elektronika bo'yicha barcha mamlakatlarni ortda qoldirdi. Yaponiya eksportining uchdan bir qismi AQSH ga to'g'ri keladi. AQSH ning Yaponiya bilan savdosida defitsiti yiliga 50-60 mlrd. dollar darajasida turibdi.

AQShning xalqaro savdoda yetakchilik o'rining pasayishi ma'lum darajada ishlab chiqarishda raqobatbardoshligini pasayishi bilan bog'liq. Yaponiya raqobatbardoshlikda yetakchilikni egalladi. Shu davrda unga Osiyoning «yangi industrial mamlakatlar»i – Singapur va Tayvan ko'shildi.

Mutaxassislarning taxminlaricha, XXI yuz yillik birinchi yillarida AQSH va Osiyo davlatlari raqobatbardoshlikda poyga quyishdi. 2030 yilga borib, uchta davlat - AQSH, Yaponiya va Xitoy raqobatbardoshlikda ajralib turadi. Navbatda Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Hindiston, Malayziya va boshqalar turibdi.

Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar jahon bozoriga asosan xom ashyo, oziq-ovqat va nisbatan oddiy tayyor mahsulotlar yetkazib beruvchilar bo'lib qolayapti. Jahon bozorida xom ashyo va oziq-ovqatlarga talabning kamayishi sanoati rivojlangan mamlakatlar eksportini kengaytirish imkoniyatlarini pasayishiga olib keldi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar esa jahon eksportida oziq-ovqat va xom ashyo (neftdan tashqari) ulushlarini bundan keyin ham ko'paytiradi.

Jahon eksportida rivojlanayotgan mamlakatlarning bu tovarlar (neftsiz) eksporti 1960 yildagi 40 % dan XXI asr boshiga kelib 28 % ga qisqardi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoat guruhi tovarlari evaziga o'z eksportini ko'paytirishga urinishi sanoati rivojlangan mamlakatlarning u yoki bu shakldagi qarshiliklariga duch kelayapti. Shuning bilan birga, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar, eng avvalo «yangi industrial mamlakatlar», o'z eksportlarini jahon bozoriga qayta muvofiqlashtirishda, unda tayyor mahsulotlar, mashina, asbob va uskunalar, boshqa sanoat mahsulotlari ulushini ko'paytirishda sezilarli aloqa qila boshladilar. XXI asr boshlarida rivojlangan mamlakatlar sanoat eksporti ulushi umumiy jahon hajmining 16 % ni tashkil etdi. Umuman rivojlanayotgan mamlakatlar («yangi industrial mamlakatlar») eksporti birgalikda olinganda mamlakatlar guruhlari bo'yicha ham, tarmoqlar bo'yicha ham notekis o'sayapti. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli ravishda «Yangi industrial mamlakatlar», ayniqsa Osiyoning uch «kichik ajdahosi» (Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur) eksportning tez o'sishini namoyish etmoqda. Ularning jahon eksportidagi ulushi 10 % ni tashkil qiladi. Keyingi o'n yilda tezkor sur'at olayotgan XXR iqtisodiyotini 3 % (1 % dan kam edi) ga ko'tarildi. Hozirgi kunda jahon eksportida AQSH 12 % ni, G'arbiy Yevropa – 43 %, Yaponiya – 9 % egallaydi.

Keyingi yillarda xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida va xalqaro tovar almashishda Osiyo-Tinch okeani havzasi hissasi ortib bormoqda. Xalqaro savdo geografik yo'nalishi asosiy tendensiyalarini harakterlashda shu faktni yoddan chiqarmaslik kerakki, xalqaro mehnat taqsimoti va taraqqiyotining chuqurlashuvi rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdoda rivojlanayotgan mamlakatlar ulushining kamayishiga olib keladi. Asosiy tovar oqimi «katta uchlik» AQSH - G'arbiy Yevropa – Yaponiya o'rtasida kechadi. AQSH va YEI o'rtasidagi yillik tovarboroti 1,7 mlrd. dollarni tashkil etadi. YEI eksportining 1/5 AQSH ga yo'naltirildi, 1/6 import esa AQShdan keldi.

Sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarning murakkab texnikalarga egaligi bois, rivojlanayotgan mamlakatlardan ular shunday ortiqcha mahsulotlarga kam qiziqish uyg'otdi. Ko'pincha murakkab texnika mavjud ishlab chiqarish sikllariga mos kelmasligi tufayli rivojlanayotgan mamlakatlarga kerak bo'lmaydi. Ba'zan cho'ntakka ham to'g'ri kelmaydi.

Jahon savdosi tuzilishi. Jahon savdosining ko'proq dinamik va intensiv rivojlangan sektori bo'lib qayta ishlash sanoati mahsulotlari savdosi, ayniksa ilm-

fantalab tovarlar hisoblanadi. Masalan, fantalab mahsulotlar eksporti yiliga 500 mlrd. dollardan ko'proqni, yuqori texnologiya mahsulotlari ulushi esa sanoati taraqqiy etgan mamlakatlar eksportida 40 % ga yaqinlashadi.

Mashina va uskunalar bilan savdo qilish roli sezilarli oshdi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida bu guruh tovarlari bilan savdoning kengayishi – muhim tendensiyadir. Bu xildagi savdo-sotiqning o'sishi bilan ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, tijorat, moliya-kredit harakteridagi xizmatlar keskin ko'paydi. Mashina asbob va uskunalar bilan faol savdo qilish, injeniring, lizing, konsalting, axborot-hisoblash kabi yangi xizmat turlarini vujudga keltirdi.

1980 yildan 2005 yilgacha sanoati rivojlangan mamlakatlarda mashina, asbob va uskunalar eksporti qariyb 4 marta o'sdi. Elektronika va elektron uskunalar eksporti ayniqsa tez sur'atlar bilan o'sayapti. Butun mashina, texnika mahsulotlari eksportining 25 % uning ulushiga to'g'ri keladi.

Xalqaro savdoda tez rivojlanayotgan sohalardan biri kimyoviy mahsulotlar savdosidir. Energiya resurslari va xom ashyo iste'moli talablarining oshishi tendensiyasi kuzatilayotganini ham qayd etish lozim. Ammo xom ashyo bilan savdo qilish sur'atlari jahon savdosi umumiy o'sish sur'atlaridan ancha orqada qolayapti. Bu qoloqlik xom ashyo o'rini bosadigan, foydalanish ancha tejamli, qayta ishlashga qulay materiallarni ishlab chiqarishga majbur qilmokda.

Jahon savdosida oziq-ovqatga nisbatan talab kamaygani qayd etilmoqda. Bu ma'lum darajada oziq-ovqat ishlab chiqarish kengayganligi bilan bog'liq.

XX asr birinchi yarmida (2-jahon urushigacha) va undan keyingi yillarda jahon savdosi tuzilishini ko'zdan kechirar ekanmiz, biz jiddiy o'zgarishlarni ko'ramiz. Agar yuz yillikning birinchi yarimida jahon tovaraylanmasining 2/3 oziq-ovqatga, xom ashyo va yonilg'iga to'g'ri kelgan bo'lsa, asr oxiriga kelib, tovaraylanmasining 1/4 qismi to'g'ri keladi. Savdoda qayta ishlash sanoati mahsulotlari 1/3 dan 1/4 ga o'sdi. Va nihoyat, XX asr oxirida mahsulotlari 1/3 dan ziyod o'sdi. Bu – mashinalar va uskunalar savdosidir.

Xalqaro tashkilotlar (BMT, XVF) ma'lumotlariga qaraganda, 1980 yildan 2005 yilgacha xalqaro savdo har yili o'rtacha 5 % dan o'sib borgan.

Jahon savdosining tez sur'atlarda o'sishi asosan AQSH, Italiya, Kanada, Ispaniya, shuningdek sanoati taraqqiy etgan mamlakatlar (Yaponiyadan tashqari) Uzoq Sharq va Lotin Amerikasida xo'jalik kon'yukturasiining yaxshilanishi bilan bog'liqdir.

Jahon savdosi taraqqiyotida alohida mamlakatlar rolini qarab chiqar ekanmiz, eng yirik eksportchi va importchi AQSH bo'lganini ko'ramiz. AQShdan keyin Germaniya va Yaponiya borayapti. Birinchi yirik savdo mamlakatlari o'nligida Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Kanada, Gollandiya, Belgiya (Lyuksemburg bilan) joy olgan. Butunjahon savdo tashkiloti (BJST) ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya eksportda 20-chi va importda 25 – o'rinni egallaydi. Rossiya umumiy tashqi savdo hajmi bo'yicha 16-o'ringa chiqdi. Eksportning dinamik taraqqiyoti bo'yicha Xitoy, Singapur, Chili va Finlyandiyada sezilarli o'sish ko'zga tashlanayapti. Markaziy va Sharqiy Yevropa yaxlit mintaqa sifatida eksport sur'atlari bo'yicha Osiyodan keyin 2-o'rinni egallaydi. Jahon savdosida kechayotgan jarayonlarni tahlil qilar ekanmiz liberilizatsiya uning asosiy

tendansiyasidir. Bojxona poshlinalari darajasi sezilarli pasayishi ro'y berdi, ko'plab cheklovlar, kvotalar va boshqalar bekor qilindi. Ammo biroq, bir kator muammolar mavjud. Asosiylaridan biri-iqtisodiy guruhlar darajasida proteksion tendensiyaning avj olishi, ko'p sohada bir-biriga qarshi turuvchi mamlakat savdo-iqtisodiy bloklari.

Savdo – iqtisodiy bloklar tashkil qilishda birinchi bahosiga ko'ra, bugungi kunda ushbu hududlar doirasida jahon savdosining 42 % amalga oshirilgan. Ko'proq taniqli hududlar orasida Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YEESA), Yevropa Ittifoqi (YEI), Shimoliy Amerika erkin savdo hududi (SHAESH), Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik (OTIH) tashkiloti va boshqalar bor.

#### 4.5. Xalqaro savdo siyosati

Tashqi savdo aloqallari taraqqiyoti davlatlarning milliy iqtisodiyotni muvaffaqiyatli o'sishi uchun eksport va importni muvofiqlashtirish bo'yicha ko'rayotgan chora-tadbirlari bilan bog'liq. Erkin savdoni oqilona tashkil etish, allaqanday proteksion to'siklar bilan cheklanmagan ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Buning uchun ham erkin savdo tarafdorlari odatda davlat tomonidan boshqarilmaydigan bozorni ta'minlashda xalqaro mehnat taqsimotining eng samarali variantlarini tanlash orqali ishtirokchi mamlakatlar aholisi turmush darajasini yaxshilashni ko'zlashadi. Proteksion choralar tarafdorlari esa o'z navbatida yosh milliy sanoat, aholi bandligi, uning yuqori turmush darajasi va boshqa manfaatlarini himoya qilishni ularga vaj qilib ko'rsatdi.

Davlatlarning tashqi savdo tajribasi amalda o'ziga proteksionizm va liberalizatsiya elementlarini singdirgani bilan ajralib turadi.

Masalan, uch yuz yilliklar davomida (XV-XVIII asrlar) burjua mamlakatlarining ko'proq ommalashgan iqtisodiy doktrinasi va asosiy xo'jalik siyosati merkantilizm bo'lib keldi. Ya'ni, jamiyat boyligi pulda (qimmatbaho metall) deb hisoblandi. Merkantilistchilar tashqi savdoni uning muhim manbai, mamlakatga qazib olinmaydigan qimmatbaho metallarning kelishida deb qaradilar.

Chetdan keladigan oltinni ko'paytirish uchun eksportni rag'batlantirish va uning mamlakatda oqimi ustidan qat'iy proteksion choralardan foydalanishga yo'l qo'yildi. Ya'ni, import poshlinalarini oshirish, ma'lum tovarlar turini sotishda davlat monopoliyasini o'rnatish orqali ushlab turiladi. Tashqi savdodan kelayotgan foyda proteksion siyosat o'tkazish yo'li bilan boshqa davlatlar ustunligi evaziga davlat ko'radigan naf bilan bog'lanadi.

Shunga qaramasdan ayrim mamlakatlar proteksion siyosati xorijiy kontragentlarda xuddi shunday norozilik o'tkazdi va oxir oqibat bu tashqi savdoni kasodga uchratdi. Shuning uchun ham sanoat inqilobi sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyat intensiv taraqqiyoti XVIII asr oxirida yirik mashinalar ishlab chiqarishiga o'tilishi zamin bo'ldi. Uni XIX asrda Angliya rasmiy iqtisodiy siyosati avvalo ilmiy nazariy sifatida, keyinchalik «Erkin savdo» (fritrederstva) prinsipi sifatida qizg'in rag'batlantirildi. Fritredstva A.Smit va D.Rikardo tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarish harajatlarning solishtirma nazariyasi bilan asoslanadi.

XVIII asr oxirida- XIX asr o'rtalarida Buyuk Britaniyaning iqtisodiy yetakchiligi proteksion choralar bilan milliy iqtisodiyotni himoya qilishni keraksizga chiqardi. Ayni vaqtda Angliyaning tashqi savdoda faolligi oshishi Angliya sanoati uchun yangi bozorlarni egallash vositasi bo'lib xizmat qildi. Aksincha, iqtisodiyoti sust rivojlangan mamlakatlar (Germaniya, AQSH)da proteksionizm mafkurasi ommaviy tus oldi.

Hozirgi zamon proteksion choralar tizimi turli yo'nalishlarni qamrab olgan bo'lib, ichki va tashqi bozorda milliy ishlab chiqaruvchilarga qulay sharoitlar yaratib berishga qaratilgan.

Ancha salmoqli choralar qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

- Boj solig'i (tarif to'siqlari), mamlakatga olib kelinadigan, yoki olib chiqib ketiladigan ma'lum turdagi mahsulotlarni qiyinlashtirish uchun foydalaniladigan poshlinalar. Chet el firmalari bilan milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatini yengillashtirish uchun odatda tayyor mahsulotlar va yarim fabrikatlar, ayniqsa hasham buyumlar, importda nisbatan xom ashyo va materiallarga yuqori boj poshlinasi belgilanadi.
- Ma'muriy va siyosiy usullarda, iqtisodiy tarmoq otgan tizim yordamida tashqi iqtisodiy faoliyat bevosita yoki bilvosita to'g'ridan - to'g'ri tarifsiz to'siqlarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi zamon xalqaro almashish tajribasida ayrim usullar tashqi iqtisodiy operatsiyalarda kontingerli va litsenziyalangan ko'rinish olgan. Shuningdek ko'rsatilgan ayrim operatsiya turlariga davlat monopoliyasi joriy etilgan. Kontingerlash ayrim tovarlar yoki tovarlar guruhiga tashqi savdo operatsiyalarida erkin eksport turlari uchun ma'lum kvotalar belgilanganligi bilan bog'liq.

Litsenziyalash esa o'z navbatida tashqi iqtisodiy savdo operatsiyalarini amalga oshirish uchun xukumat organlarining ruxsati (litsenziya)ni olish zaruratini ko'zda tutadi. Bu tizim davlatni tashqi iqtisodiy munosabatlar, turli iqtisodiy, siyosiy maqsadlarni muvofiqlashtirish, amalga oshirish ustidan nazorat qilish imkonini beradi.

Ma'lumki, to'g'ridan-to'g'ri cheklash usullariga davlat monopoliyasidan foydalanishda davlat organlari huquqlari yoki ulardan foydalanishga vakolat olgan xususiy firmalarning tashqi iqtisodiy savdo faoliyati, ma'lum turdagi ishlab chiqarish huquqlarini ham kiritishi mumkin.

Bilvosita cheklashlar esa to'g'ridan-to'g'ri cheklashlardan farqli ravishda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish yoki uning hajmini kamaytirishni takiklash bilan bog'liq emas. Buning ustiga ular ko'p hollarda milliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalashda unchalik samarali bo'lmagan proteksion vosita hisoblanadi. Bilvosita cheklash tuzilishida milliy soliq tizimi va milliy standartlar muhim o'rin egallaydi. Mamlakat standartlariga rioya qilmaslik import mahsulotlarni kiritish va ularni ichki bozorda sotishni taqiqlashga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, davlat organlariga o'zida bor narsani chetdan sotib olish, ishlab chiqarishda milliy xom ashyoning ma'lum qismidan foydalanish tartibi, temir yo'llar, portlarni ajnabiylar uchun taqiqlab qo'yishda xom ashyo cheklashlarining boshqa shakllaridan foydalanish mumkin.



Proteksion choralar tizimida eksportni rag'batlantirishning davlat vositalari ham muhim rol o'ynaydi. Hozirgi zamon sharoitida turli shakldagi moliyaviy imtiyozlar tizimi shakllangan. Ular tashqi va ichki bozorda milliy eksportchilarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, eksport mukofati sifatida eksportchilarga to'g'ridan-to'g'ri dotatsiya, yuklarni ortish tushirishda foydalanilgan milliy va ajnabiy tarjimonlar xizmat haqi farqlarini to'lash;

Ikkinchidan, imtiyozli shartlar bilan eksport kreditlari berish, soliq imtiyozlari, siyosiy rejim beqaror mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishda davlat sug'urtasi va kafolatlari berish.

Xalqaro savdoni ko'p tomonlama muvofiqlashtirish va tartibga solish, eng avvalo bojxona to'siqlarini kamaytirish, navbatda savdo va ta'riflar bo'yicha Bosh kelishuv asosida va uning merosxo'ri Butunjahon savdo tashkiloti (BJST) kelishuvlari asosida amalga oshirilmoqda.

Savdo va ta'rif bo'yicha Boj kelishuv (GAAT) yirik xalqaro tashkilot sifatida jahon savdosida ta'rif va boj masalalarini tartibga soladi. U 1947 yilda Jenevada tashkil topgan. Bu AQSH ikkinchi jahon urushidan keyin o'z iqtisodiyotini mustahkamlab olgan, jahon tovaraylanmasi taraqqiyotini ta'minlovchi xalqaro savdoning barqaror qoidalarini yaratish taklifi bilan chiqqan vaqt edi.

Savdo va ta'rif bo'yicha Bosh kelishuvning faoliyatidagi asosiy vazifa 1945-1947 yillarda boj to'lovlarini qisqartirish bo'ldi. Rivojlangan mamlakatlarda boj to'lovlari o'rtacha kattaligi 40-60 % ni tashkil etar, ayrim tovarlar (masalan, kimyoviy) uchun 70-90 % ga yetgandi.

Boj to'siqlarining kamaytirilishi bo'yicha doimiy ravishda faol ish olib borildi. Va bu 90-yillar oxiriga kelib kattalikni 3-5 % ga qisqartirish imkonini berdi.

Savdo va tarif bo'yicha Bosh kelishuv faoliyatida ko'p tomonlama uchrashuvlar-raundlar o'tkazish alohida o'rin tutadi. Bunday uchrashuvlarda ishtirokchi mamlakatlar tashqi savdosini tartibga solish bilan bog'liq masalalar kun tartibiga olib chiqiladi va keng muhokama etiladi. Tashkilotning tashkil etilgan momentidan hozirgacha sakkizta ana shunday raundlari o'tkazilgan.

Butunjahon savdo tashkiloti (BJST) savdo va tarif bo'yicha Bosh kelishuv tashkilotining davomchisi bo'lib, o'z faoliyatini 1995 yil yanvarida boshladi. 1996 yilda Singapurda uning Oliy organi bo'lgan Ministrlar konferensiyasi birinchi yig'inini o'tkazdi.

Konferensiyada Butunjahon savdo tashkilotining (BJST) hozircha uning burchiga kiritmaydigan yangi faoliyati qirralari muhokama etildi. Shuningdek jahon savdo tizimida evolyutsion yo'nalishning strategiyasi belgilab olindi.

Hozirgi bosqichda Butunjahon savdo tashkiloti faoliyati ko'p tomonlama savdo muzokaralarining Urugvayda o'tkazilgan (1986-1994 yy.) raundi kelishuvi paketi asosida ishtirokchi mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan. BJST keng savdo-siyosiy bitimlar spektrini nazorat qilmokda va qabul qilinayotgan ko'pgina qarorlarni mukammallashtirilishi natijasida katta vakolatlarga ega bo'lmoqda.

BJSTning markaziy vazifalaridan biri jahon savdosini liberallashtirish yo'li bilan doimiy ravishda import poshlinasi darajasini qisqartirib borish, shuningdek turli noto'g'ri to'siqlarni bartaraf etish. O'z faoliyatida u xalqaro almashinishni kengaytirish, jahon resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni saqlagan holda barcha mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotini barqorlashtirishga intilayapti.

Ayni paytda 134 mamlakat BJST teng huquqli ishtirokchisi hisoblanadi. Ularning ko'pchiligi ta'sischi mamlakat maqomiga ega. Hozirgi davrda 40 ga yaqin tashkilot va mamlakat BJST da kuzatuvchi maqomiga ega. Ulardan yigirmadan ziyodi (Rossiya, Xitoy, Tayvan, Saudiya Arabistoni, ko'pchilik MDH mamlakatlari, Boltik bo'yi davlatlari) BJST ga qo'shilish turli bosqichlarida turibdi. Bunda yangi mamlakatlarning BJST ga kirish shartlaridan biri ularning milliy qonunchiliklarini Urugvay raundi bitimi paketlariga muvofiqlashtirishdir. Shuningdek ular qo'shilayotgan mamlakatlar qonunchilik organlari tomonidan keyinchalik ratifikatsiya kilinishi zurrur.

### Nazorat savollari

1. Xalqaro savdo aloqalarining xalqaro iqtisodiy munosabatlar ulushida hajmi qanday?
2. Jahon xo'jaligida xalqaro savdo o'rni va rolini aniqlang?
3. Xalqaro savdo nazariyasi qaysi olimlar tomonidan shakllantirilgan?
4. Xalqaro savdo taraqqiyotida qaysi davrni «oltin asr» deb harakterlash mumkin?
5. Xalqaro savdoda barqaror turgan o'sishiga qaysi omillar ta'sir qiladi?
6. Jahonning qaysi mintaqasi xalqaro savdo bosh markazi hisoblanadi?
7. Osiyoning qaysi davlati xalqaro savdo sohasida sezilarli sakrash qilgan?
8. Xalqaro savdoda AQSH rolining pasayishi nima bilan bog'liq?
9. Jahon savdosida asosiy eksportchi va importchi mamlakatlarni ayting.
10. Xalqaro savdoning asosiy geografik yo'nalishi va tendensiyalarini harakterlang.
11. Xalqaro savdo sektorining intensiv rivojlanishi va dinamikasida qaysi tovarlar va mahsulotlar muhim ahamiyat kasb etadi?
12. Xalqaro savdoda qaysi tovarlar va mahsulotlarga nisbatan talab kamayishi ko'zga tashlanadi?
13. Xalqaro savdoda «Liberalizm» va «proteksionizm» atamasi nimani anglatadi?
14. Xalqaro savdoda hozirgi zamon proteksion choralar tizimini ayting?
15. Savdo va tarif bo'yicha Bosh kelishuv xalqaro tashkiloti va uning davomchisi Butunjahon savdo tashkiloti–BJST qachon tashkil qilingan?

## IV Bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN TASHQI SAVDO ALOQALARI

### 1.§. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida tashqi savdoning roli

Tashqi savdo aloqalari xalqaro hamkorlikning muhim sohalaridan biri bo‘lib, turli mamlakatlar bilan ilmiy-texnik, madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yish ular o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatish iqtisodiyotni faol va har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda yordam beruvchi vositadir.

Jahon miqyosida har qanday davlat, xoh kichik, xoh yirik bo‘lsin, qanday taraqqiyot darajasida bo‘lmasin, tashqi iqtisodiy aloqalarsiz ko‘zlangan maqsadga erisha olmaydi. Chunki jahonda ishlab chiqarilayotgan buyumlar assortimenti bir necha million turni tashkil qiladiki, birorta davlat ularni o‘zida ishlab chiqarish qudratiga ega emas. Ayrim hollarda esa ba‘zi tur mahsulotlarni o‘zida ishlab chiqargandan ko‘ra, boshqa mamlakatlardan olib kelish (sotib olish) arzonga tushadi. Shuning uchun tashqi savdo davlatning turli talablarini kondirishda, ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni sog‘lomlashtirish va samaradorligini oshirishda muhim kasb etadi. U el va ellatlarni yaqinlashtiradi va oxir oqibat davlat qudratini oshiradi, aholi turmush darajasini yaxshilaydi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni oqilona amalga oshirish xo‘jalikning turli tarmoqlarini keng rivojlantirishga imkon beradi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni takomillashtirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollantirish, mehnat resurslari, tabiiy mineral-xom ashyodan yanada samaraliroq foydalanishga zamin yaratadi. Oqilona va yanada samaraliroq amalga oshirilgan tashqi iqtisodiy aloqalar mamlakat oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon beradi.

Turli mamlakatlarning ilmiy-texnik yutuqlaridan mohirona foydalanish, ishlab chiqarishga jahon ilg‘or tajribalarini keng joriy etish va yoyishga ko‘maklashadi. Shuning bilan birga fan-texnika dolzarb muammolarini hal etishni to‘lashtiradi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar mazmunini hamkor mamlakatlar va butun jahonda ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqarish kuchlari harakteri, tuzilishi, dinamikasi, taraqqiyoti darajasini belgilaydi. Tashqi iqtisodiy aloqalar mamlakatlarning o‘zaro manfaatli va teng huquqlik prinsiplariga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro savdoda ishtiroki jahon mamlakatlari bilan savdo aylanmasini kengaytirishga asoslangan. Bu bugungi kunda oson bo‘lmagan muammolarni oqilona va samarali hal etish imkonini beradi.

### 2.§. O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarish

Tashqi iqtisodiy majmua boshqaruvini takomillashtirish va xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy-texnikaviy, moliya-valyuta, savdo-iqtisodiyotni amalga oshiruvchi turli vazirliklar, mahkamalar, birlashmalar, tashkilotlar boshqaruvi

ishini muvofiqlashtirish maqsadida 1992 yil 12 fevralda O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi (TIAV) tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 21 oktyabrdagi «Tashqi iqtisodiy aloqalari sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish va liberallashtirish to'g'risida»gi farmoniga muvofiq TIAV qoshida O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha Agentligi tashkil qilindi.

Agentlik o'z faoliyatini bevosita O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy aloqalar Majmui rahbarligi ostida amalga oshiradi. Tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha Agentlikning asosiy vazifalari:

- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida yagona davlat siyosatini ta'minlash va uning taraqqiyoti strategiyasini shakllantirishda ishtirok etish;
- milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini yuksaltirish, uni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish va jahon iqtisodiyoti tizimida integratsiyalashuviga sharoit yaratish;
- respublika eksport quvvatini rivojlantirish dasturini amalga oshirishda hamkorlik qilish;
- mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni tashqi bozorga olib chiqilishini ta'minlash bo'yicha bir qator chora tadbirlarni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- xorijiy sarmoya (investitsiya)larni jalb qilish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- moliyaviy, savdo va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda xorijiy davlatlar, xalqaro moliya va iqtisodiy institutlari, boshqa halkaro huquq sub'ektlari bilan O'zbekiston Respublikasi hamkorligini ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy sohadagi manfaatlari va Respublika tashqi iqtisodiy sub'ektlari manfaatlari himoyasini ta'minlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida kadrlar malakasini oshirish va tayyorlash tadbirlarini tashkil etish.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning huquqiy asoslari va poydevori mustaqillikning birinchi yillaridayoq qo'yilgan edi. 1992 yilda «O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat haqida» qonun qabul qilindi va unda bu sohadagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqiy munosabatlari belgilab quyildi.

Jahon xo'jaligida O'zbekiston iqtisodiyoti integratsiyalashuvini yanada kengaytirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida va tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (2000 y) tomonidan «O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida» yangi qonun qabul qilindi.

Qonunga asoslangan holda Agentlik iqtisodiyot sohasida huquqiy – me'yoriy bazani shakllantirishda faol ishtirok etdi. Shu kunga qadar Agentlik

O'zbekiston Respublikasining 80 ga yaqin qonunini, Vazirlar Mahkamasining 116 ta qarorini tayyorlashda ishtirok etdi. Jumladan uning eng muhimlari qo'yidagilar:

O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasining «Boj tarifi to'g'risida»gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasining «Antidemping va kompensatsion poshinalarni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy hududlar to'g'risida»gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasining «Xalqaro shartnomalar to'g'risida» gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlarni taqsimlash haqidagi bitimlar to'g'risida»gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasining «Qimmatbaho qog'ozlar bozorida sarmoyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasining «Xorijiy investitsiyalar to'g'risida»gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasining «Chet el investorlari huquqlarini himoya qilish va kafolatlari to'g'risida»gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasining «Tashqi almashinish to'g'risida»gi qonuni;

O'zbekiston Respublikasining «Konsessiyalar to'g'risida»gi qonuni va boshqalar.

Tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha Agentlikning asosiy faoliyati yo'nalishlaridan biri - Respublikaning savdo-iqtisodiy aloqalari geografiasini kengaytirish hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha Agentlik milliy ishlab chiqaruvchilarga mahsulotlarini eksport qilishni ko'paytirishda har tomonlama yordam ko'rsatmoqda. Bir qator xizmatlar turlarini amalga oshirmoqda. Tashqi bozor talabi bo'yicha marketing tadqiqotlari o'tkazilmoqda. Eksport tovarlari bo'yicha qisqa muddatli narx konyukturasi parametrlari va uzoq muddatli bashorat qilish (prognozlashtirish) ishlarini olib bormoqda.

Tashqi iqtisodiy aloqalar Agentligi O'zbekistonni xorijiy mamlakatlar, birinchi navbatda Yevropa ittifoqi (YEI), Rossiya, Yaponiya, XXR, Koreya Respublikasi kabi mamlakatlar bilan investitsion, moliyaviy va texnik hamkorligini kengaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

### **3.5. Tashqi savdo tuzilishi va dinamikasi**

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi dunyoning 140 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirmoqda.

Sobiq Sovet hokimiyati yillarida O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil ravishda tashqi iqtisodiy aloqalar olib borish imkoniyatidan mahrum etilgandi.

U to'g'ridan-to'g'ri jahon savdosida ishtirok etilmasdi. Bu masalalarda o'zining intellektual salohiyatdan, iqtisodiy va tabiiy resurslari potensialidan to'liq'icha foydalana olmagan. Respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarda ishtirok

etishi barcha masalalari markaz ko'rsatmasi ostida hal qilinardi. Endi O'zbekiston mustaqillikka erishgach jahon hamjamiyatining huquqli a'zosiga aylandi. Respublika nufuzi katta sanoat potentsiali, malakali mehnat resurslari mavjudligi bilan mustahkamlanmoqda. Bular yuqori texnologiyali mahsulotlar: samolyotlar, avtomobillar, traktorlar, paxta terish mashinalari va taraqqiy etgan mamlakatlarga xos boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Respublikani xorijiy mamlakatlar bilan tashqi-iqtisodiy aloqalarini kengaytirish, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi uchun katta imkoniyatlari mavjud.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida tashqi savdo sur'atlari sezilarli o'sdi. 1992-2005 yillar orasida tashqi savdo hajmi qariyb 3,6 marta ko'paydi. Birgina 2005 yilda tashqi savdo oboroti 17,3 % ga ko'paydi. Savdo operatsiyalari tobora xilma-xil bo'lib, tovar va xizmatlarning keng turlarini qamrab olayapti, respublika korxonalarini yangi mahsulot turlari bilan to'ldirayapti.

Tovar aylanmasining o'sishi mamlakat korxonalarining eksport faoliyati faollashuvi evaziga, ham chetdan va xizmatlar harid qilish hajmi kengayishi hisobiga amalga oshdi. Eksport sur'atlari o'sishi import o'sishidan o'rtacha 2-3 marta o'zib ketdi. Mamlakatning to'lov balansi mustahkamlandi. 1998 yildan buyon respublikada tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldo ta'minlanayapti. Bu esa milliy valyutaning mustahkamlanishi va uning ichki va tashqi konvertatsiyasida yutuqlarga erishish uchun ob'ektiv asos bo'lib xizmat qiladi.

Eksport. O'zbekistonda iqtisodiy islohatlar yillarida eksport va import tuzilishi anchagina takomillashdi. 1990-2005 yillar davomida respublika eksportida xom-ashyo resurslari realizatsiyasi 98 % dan 60 % ga yaqin kamaydi. Shu bilan birga mustaqillikning birinchi yillaridagidek paxta tolasi eksport ulushi respublika eksportining 1/5 ni tashkil qilmoqda.

Shuni ta'kidlash zarurki, bir vaqtning o'zida eksportda paxta gazlamalari, iplar, trikotaj buyumlar va boshqa paxtadan tayyorlangan to'qimachilik materiallari salmog'i anchagina oshdi. Eksportning o'sishida to'qimachilik mahsulotlari esa 2005 yilda 16 % darajada baholandi. Hozirgi kunda mamlakat eksport nomenklaturasini ruyxatini polietilen, paxta sellyulozasi, shisha tolasiga asoslangan quvurlar, yangi turdagi kabel-o'tkazgichlar, elektrotexnika mahsulotlari va juda ko'p boshqa tovarlar egallamoqda. Eksport tarkibida mineral va kimyo mahsulotlari, rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar, mashina, asbob va uskunalar, boshqa tovarlar ulushi ham ko'paymoqda. Turli xil pudrat ishlarining hajmi, respublika norezidentlari tomonidan ko'rsatilayotgan moddiy harakteridagi xizmatlar turi ko'lami ortib bormoqda.

Import. Bu davrda respublika importida oziq-ovqat tovarlari va mahsulotlarini harid qilish ulushi 80 % dan 13 % ga qisqardi. Yangi uskunalar, texnikalar, yangi texnologiyalar sotib olish esa 0,2 % dan 35-45 % ga ko'paydi. 2005 yilda mashina, asbob va uskunalar sotib olish qariyb 300 mln. dollarga yetdi. Import ulushida ishlab chiqarish vositalari ham o'sdi. Import tuzilishi sifat jihatidan o'zgardi. Importda doimiy ravishda texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar, mashina, asbob va uskunalar salmog'i borgan sari oshayapti. Bu tovarlarni olib kelish lokalizatsiya dasturi doirasida shuningdek, xorijiy investorlar qo'yilmalari,

qo'shma korxonalar ustav fondi hisobiga investitsion loyihalar yo'li orqali amalga oshirilayapti.

Keyingi yillarda tizimli ravishda xorijiy ishtirokchilar soni va tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi ham kengayib bormoqda. Bugungi kunda respublika tashqi savdo aylanmasining yarmidan ko'prog'i Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ulushiga to'g'ri kelmoqda. Uning 1/3 qismini Osiyo mamlakatlari bilan tovaraylanmasi tashkil qildi. Umumiy hajmda Amerika bilan tovaraylanmasi ulushi bir muncha past. Jumladan, uning 80 % Shimoliy Amerika mamlakatlari bilan savdo operatsiyalariga to'g'ri keladi. Tovaraylanmasida Afrika, Avstraliya, Okeaniya mamlakatlari salmog'i sezilarli emas.

Yevropa Ittifoqi (YEI), MDH, Yevroosiyo hamkorligi O'zbekistonning tashqi iqtisodiy taraqqiyotiga yangi sur'at baxsh etmoqda. Rossiya, Germaniya, Polsha, Turkiya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston kabi bir qator mamlakatlar bilan tovar aylanmasi sezilarli darajada o'sishi ko'zga tashlanmoqda. Respublika korxonalarining Afg'oniston, Eron kabi mamlakatlarga eksporti ko'payapti. Markaziy Osiyo davlatlari (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) o'rtasida tashqi iqtisodiy hamkorlik aloqalari kuchaymoqda.

#### 4.5. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo geografiyasi

O'zbekistonning tashqi savdo aloqalarida Rossiya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Turkiya, Koreya, Eron, Ukraina va boshqa davlatlarning salmog'i tobora o'sib bormoqda.

O'zbekiston–Rossiya savdo-iqtisodiy munosabatlari. Rossiya O'zbekistonning yirik iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Respublika tashqi savdo aylanmasi tuzilishida uning ulushi 2005 yilda 20 % ga yetdi. Faqatgina 2005 yilda ikki mamlakat o'rtasida tashqi savdo aylanmasi hajmi 30 % ga o'sdi va kelgusida yanada ko'proq o'sish istiqbollariga ega.

Tovar aylanmasi tuzilishi yanada ratsional tus olayapti. O'zbekistondan Rossiyaga eksportda 2005 yilda, mashina va uskunalar – 23 %, paxta tolasi – 1994 yilda 7 % bo'lgani holda muvofiq ravishda 11 va 64 % ulushni tashkil etdi.

Rossiyadan O'zbekistonga import hajmida ham asosiy ulushning 38 % mashina va uskunalar, 20 % kimyoviy mahsulotlarga, 24 % yog'och, qog'oz, karton, mebelga to'g'ri keladi. 1994 yilda Rossiyadan O'zbekistonga asosan 39 % da energiya-yonilg'i, 15 % oziq-ovqat tovarlari, 14 % qora metall import qilingan. Chkalov nomidagi zavodda zamonaviy yuk va yo'lovchi tashish samolyotlarini birgalikda ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekistonning Rossiya bilan hamkorligi ayniqsa sezilarli faollashdi. Shunisi harakterliki, 2004 yilda Toshkent aviazovodida Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan tuzilgan shartnomalarga asosan 15 ta samalyot yetkazib berildiki, bu islohatlargacha bo'lgan davr ishlab chiqarishdan ko'pdir.

Rossiyalik hamkorlar bilan «O‘z. DEU avto» o‘zbek avto zavodi faol faoliyat yuritayapti. Bir tomondan, Rossiyaga eksport mahsulotlari ko‘payapti. Bu 2004 yilda 25 ming avtomobilni tashkil etdi. Ikkinchi tomondan, rossiyalik po‘lat quyuvchilar mahsulotlari sifatining oshishi, «Sever stal» Rossiya kompaniyasidan ishlab chiqarilayotgan avtomobillar uchun 90 % temir va tunukalarni olish imkoniyatini berdi.

Shunisi harakterliki, O‘zbekistonning aviatsion va avtomobil zavodlari butlovchi va boshqa materiallarga Rossiya Federatsiyasining 957 ta korxonalariga buyurtmalar bermoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotiga Rossiya kapitalini keng ko‘lamda investitsiya qilishga qiziqish ortmoqda. Birinchi navbatda, eksporttalab sohalar neft-gaz qazib olish, tog‘ qazilmalari, metallurgiya sanoati, mashinasozlik, elektronika mahsulotlari ishlab chiqarish, aniq priborsozlik, qurilish materiallari, telekommunikatsiya, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa istiqbolli sohalarga investitsiya kiritish jadallashmoqda.

2004 yil (aprel)da ikki tomonlama imzolangan o‘zbek-rossiya bitimiga ko‘ra, «Shoxpaxta» konida «Gazprom» kompaniyasi tabiiy gaz qazib olish va realizatsiya qilishda ishtirok etayapti. Bir vaqtning o‘zida «Gazprom» bilan birga Ustyurt neftgaz mintaqasida har yili 10 mlrd. kub metrgacha gaz qazib olish va realizatsiya uchun geologiya razvedka loyihalariga 1,4 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritish yuzasidan bitimlar ishlab chiqildi. Shu bilan bir qatorda «Lukoil» kompaniyasi bilan Qandim, Xavuzak, Sholi konlarida tabiiy gazni birgalikda qazib olish va realizatsiya qilish bo‘yicha yirik bitimlar imzolandi. «Lukoil» kompaniyasi tomonidan kiritiladigan 1 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi investitsiya 900 mlrd. kub metr tabiiy gaz qazib olish imkonini beradi.

Keyingi yillarda mashinasozlikda, jumladan, priborsozlikda, elektrotexnika sanoatida shartlashilgan texnologik kooperatsiya oqilona tiklanmoqda.

Kabel mahsulotlari, elektrotexnika mashinalari, apparatlarga uskunalar ishlab chiqarishda 19 ta O‘zbekiston - Rossiya qo‘shma korxonalarini ishlab turibdi. Maishiy va sanoat priborlari ishlab chiqarish uchun 33 ta qo‘shma korxonalar tashkil etilgan. Mashina va uskunalarini ta‘mirlash, mashinasozlik sohasida allaqachon 68 ta qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatayapti.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasida ham integratsiya jarayonlari rivojlanayapti. Bu borada 9 ta O‘zbekiston - Rossiya qo‘shma korxonalarini ishlab turibdi. Taniqli «Vimm» Bill Don» kompaniyasi bilan Toshkentdagi yirik «Toshkent sut» birlashmasining 77 % aksiyalarini sotib olish yuzasidan shartnoma imzolandi. Kompaniya shuningdek meva sharbatlari va sut mahsulotlarini qayta ishlovchi qo‘shma korxonalar tashkil etish uchun 20 mln. dollar investitsiya kiritishga kirishdi.

Ikki mamlakat o‘rtasida bunday iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yilishi o‘zbek va rus xalqlari mentaliteti, umumiy madaniyati va iqtisodiy hamkorligini mustahkamlaydi, o‘zaro transport, aloqa infratuzilmasini yaxshilaydi, mamlakatlarni hududiy yaqinligini, iqtisodiyotlarni sog‘lomlashtirish, har ikki mamlakatning dinamik o‘sish sur‘atlarini ta‘minlaydi.



O'zbekiston-Yaponiya savdo-iqtisodiy munosabatlari. O'zbekiston va Yaponiya savdo-iqtisodiy, madaniy hamkorlikda ko'p asrlik tarixga ega. Ikki mamlakat o'rtasida davlataro va milliy hamkorlik munosabatlari O'zbekiston mustaqil bo'lgan va milliy suverenitet olgandan keyin o'rnatiladi. Yaponiya bilan diplomatik munosabatlar 1992 yil 26 yanvarda yo'lga qo'yildi. 2002 yil iyulda ikki mamlakat o'rtasida «O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasida hamkorlik va strategik sheriklik (partnerlik), do'stlik to'g'risida deklaratsiya» imzolandi.

Shuningdek, «O'zbekistonda iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya qo'shma bayonoti» imzolandi. Yaponiya O'zbekistonda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar jarayonlarini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlab kelayapti. 1994 yildan buyon Yaponiya hukumati O'zbekistonga 1,5 mlrd. AQSH dollariga yaqin miqdorda kredit va investitsiya taqdim etdi. Shuningdek telekommunikatsiya, transport, energetika, ta'lim va boshqa sohalarda muhim investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun davlat yo'li bilan 270 mln. dollar uzoq muddatli kreditlar va grantlar ajratdi.

O'zbekiston iqtisodiyoti tuzilishini qayta tashkil etishda xalqaro hamkorlik Yaponiya tijorat banki kreditlari muhim ahamiyat kasb etadi. 730 mln. dollarga yaqin bu kreditlar neftgaz va to'qimachilik sohaslarida 9 ta loyihani moliyalashga qaratilgan.

Beg'araz insonparvarlik yordami doirasida Yaponiya O'zbekistonga 131 mln. dollar ajratgan. Yaponiya kompaniyalari va banklari yordamida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi kurildi. Markaziy Osiyoda yirik hisoblangan Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi rekonstruksiya qilindi. Ko'kdumaloq gaz kompersor stansiyasi ishga tushirildi.

Ilg'or Yapon texnologiyasi asosida to'qimachilik ishlab chiqarishini keng ko'lamda modernizatsiya qilish ishlari boshlab yuborildi. Bu paxtadan sifatli eksportbop tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, paxtani qayta ishlashni chuqurlashtirish imkonini beradi. Masalan, Qo'qon to'qimachilik kombinati. Xuddi shunday majmualar Chinoz va Shahrizabzda ishga tushirildi. O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida o'zaro hamkorlikning muhim sohasi telekommunikatsiya hisoblanadi. Yaponiya hukumati tomonidan ajratilgan uzoq muddatli 246 mln. AQSH dollari imtiyozli krediti bugungi kunda tashkilotlarda kompyuterlashtirishni amalga oshirishga imkon yaratayapti.

Energiyani tejash va ekologik toza ishlab chiqarish sohaslarida, ayniqsa energetika sohasida ham kelajakda ko'zlangan hamkorlik rivojlanayapti. Yaponiya Toshkent issiqlik elektrostansiyasida yangi bug', gaz uskunasi o'rnatish uchun O'zbekistonga uzoq muddatli 196 mln. dollar miqdorida kredit ajratdi. Toshkent issiqlik markazini modernizatsiyalash uchun yangi loyihani tayyorlash boshlandi. Yaponiya O'zbekiston Markaziy Osiyo va Afg'onistonda qisqa temiryo'l yo'nalishini yaratish, shuningdek O'zbekistonning janubiy hududlarida iqtisodiyotni rivojlantirishni ta'minlovchi Toshguzar-Boysun-Qumqurg'on temiryo'li qurilishiga imtiyozli shart bilan 150 mln. dollar ajratdi.

Kelajakda asosiy hamkorlik yo'nalishlari xalqaro turizm va transport, aloqa infratuzilmasi, elektrotexnika, elektronika, telekommunikatsiya, to'qimachilik,

ximiya, gaz, neft sanoati sohalarini rivojlantirish, ishlab chiqarishni yangi texnologiyalar bilan qurollantirishga Yaponiya investitsiyalarini jalb etishga qaratiladi.

**O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi (YEI) mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi.**

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan tashqi savdo oboroti har yili 1,2 mlrd. dollarni tashkil qilayapti. Uning 47 % foizi o'zbek eksportiga, 53 % Yevropa mamlakatlaridan O'zbekistonga importni tashkil qiladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida O'zbekistonning yirik savdo-iqtisodiy hamkorlari Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Belgiya, Fransiya, Niderlandiya va boshqalar hisoblanadi.

EI mamlakatlari shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri sarmoya kiritayotgan yirik sheriklar hamdir. O'zbekiston hududida YEI mamlakatlari firma va kompaniyalari ishtirokida 500 dan ziyod korxonalar ishlab turibdi, ulardan 115 tasi yuz foiz (100%) Yevropa kapitali hisobiga tashkil etilgan.

Yevropa investorlari ishtirokida O'zbekistonda amalga oshirilgan yirik loyihalar orasida «Oksuk Mayning» kompaniyasi bilan birga tashkil etilgan oltin rudasini qayta ishlovchi «Amanatu Goldfildz», tamaki mahsulotlari ishlab chiqaruvchi «O'z BAT», «Doyche-Kabel AG Toshkent», avtomobil va qurilish oynalari ishlab chiqaruvchi «Tekint» (Italiya) qo'shma korxonalari bor.

EI mamlakatlari banklari va sug'urta agentliklari O'zbekistonda umumiy summasi 2,9 mlrd. dollarlik 174 loyihani moliyalashtirganlar. Ayni paytda shaharlar kommunal xo'jaligi infratuzilmasi va irrigatsiya inshootlarini rekonstruksiya qilish bo'yicha, amaldagi neft konlari samaradorligini oshirish va yangi istiqbolli loyihalar asosida energetika tizimini modernizatsiyalash (Fransiya); O'zbekiston janubida polimetall ruda konlarini ishlab chiqish (Buyuk Britaniya) va kasbiy ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash borasida faol ish olib borilayapti.

O'zbekiston-AQSH savdo-iqtisodiy munosabatlari. AQSH ham O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim investorlardan biri hisoblanadi. 2001 yilda AQSH va O'zbekiston o'rtasida strategik munosabatlar o'rnatilganligini e'lon qildilar. Keyingi yillarda ularning o'zaro tashqi savdo aloqalari o'sib bormoqda.

O'zbekiston va AQSH yoqilg'i-energetika kompleksi, tog' konchiligi, ximiya, yengil, oziq-ovqat, mashinasozlik sanoati, axborot texnologiyalari, yuqori texnologiya mahsulotlari singari istiqbolli sohalarida hamkorlikni rivojlantirayapti.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda AQSH sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan 453 ta korxonalar qayd etilgan. Ulardan 120 tasi yuz foiz chet el kapitaliga barpo qilingan.

Ular orasida «Zarafshon-Nyumont» amerikaning oltin qazib oluvchi «Nmont Mayning» korporatsiyasi ishtirokida ish boshladi. «Bi Es Ay Industriz Ink» kompaniyasi bilan Xo'jaobod yer osti tabiiy gaz ombori qurilishi, «ABB Lummus Global» kompaniyasi ishtirokida Sho'rtangaz kompleksi qurilishi, «Teksako» kompaniyasi bilan yuqori sifatli moy ishlab chiqaruvchi «O'z-Teksako» qo'shma korxonasi qurilishi amalga oshirildi. Qashqadaryo viloyatining Shimoliy O'rtabo'loq neft konida «Beyks Xyuz», «Keys Neyu Xoland» kompaniyalari bilan

hamkorlikda neft qazib olishni ko'paytirish, qishloq xo'jaligi texnikasiga lizing va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ish olib borilayapti. Akkumulyatorlar va boshqalar ishlab chiqarish uchun Jizzax shahrida «O'z Eksayd» qo'shma korxonasi tashkil etildi.

O'zbekiston AQSH bilan moliya-kredit sohasida hamkorlik qilayapti. Amerikaning Eksim banki O'zbekistonda 44 ta qo'shma loyihani moliyalashtirish uchun 1,5 mlrd. AQSH dollari kredit ajratgan.

Ayni paytda O'zbekiston va AQSH o'rtasida ham yetakchi sohalarda iqtisodiy hamkorlik kengayib, rivojlanib borayapti. Jumladan neft, gaz, tog' kon sanoati, transport tizimi, telekommunikatsiya, axborot texnologiyalari va boshqa sohalarda ham o'ntaga yaqin istiqbolli loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish ustida ishlar olib borilmoqda.

### Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tashqi savdoning roli va ahamiyatini harakterlang.
2. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi qachon tashkil topgan?
3. Tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha Agentlik qachon tuzilgan?
4. Tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha Agentlik oldiga qanday vazifalar qo'yilgan?
5. Yangi tahrirdagi «O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonun qachon qabul qilingan.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qanday qonunlar qabul qilingan?
7. O'zbekiston Respublikasi bilan dunyoning nechta davlatlari savdo-iqtisodiy aloqalarni amalga oshiradi?
8. Mustaqillik yillarida respublikaning tashqi savdosi umumiy hajmi necha marta ko'paydi?
9. Qaysi yildan buyon respublika tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldo ta'minlanayapti?
10. 1990-2005 yillarda respublika eksportida xom ashyo resurslari ulushi necha foizga qisqardi?
11. 1990-2005 yillarda eksportda paxta tolasi ulushi necha foizga qisqardi?
12. Mamlakat eksporti nomenklaturasida qaysi tovarlar bilan to'ldirilayapti?
13. Oziq-ovqat tovarlari importi necha foizga qisqardi?
14. Yangi texnika va texnologiyalar, yangi uskunalarni sotib olish necha foizga o'sdi.
15. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasida Rossiya mamlakati necha foizni tashkil qiladi?
16. Respublika tashqi savdosida qaysi mamlakatlar asosiy sherik (partner)lar bo'lib hisoblanadi?

## V Bob. XALQARO KAPITAL MIGRATSIYASI

### 1. §. Kapital chiqarish xalqaro iqtisodiy munosabatlarning etakchi shakli

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar va zamonaviy jahon xo'jaligida mamlakatlar o'rtasida chetga kapital chiqarish (eksport), uning faol migratsiyasi (harakati) asosiy muhim belgilardan biridir.

Kapital chiqarish mazkur mamlakat milliy kapital aylanmasidan bir qismini olish jarayonlarini o'zida mujassam etadi. U tovar yoki pul shaklida boshqa mamlakatlar ishlab chiqarish jarayonlariga aralashadi. Avval boshqa kapital chiqarish jahon xo'jaligida kapital eksportini amalga oshiruvchi kam sonli rivojlangan mamlakatlarga xos edi. Jahon xo'jaligining rivojlanishi bu jarayon doirasini ancha kengaytiradi. Kapital chiqarish iqtisodiyotning dinamik taraqqiyotida har qanday sharoitda ham muvaffaqiyatli vazifa bo'lib qoladi. Kapitalni sanoat negizida rivojlangan mamlakatlar ham, o'rtacha taraqqiy etgan mamlakatlar ham, rivojlanayotgan mamlakatlar ham chiqaradi.

Hozirgi paytda kapitalning xalqaro harakati xalqaro iqtisodiy munosabatlarni turli shakllari rivojlanishida, jahon iqtisodiyotini faoliyat ko'rsatishda hal qiluvchi element bo'lib qolmoqda. Ekspertlarning baholashlaricha, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'rtacha yillik o'sish sur'atlari taxminan 34 % ni, ya'ni jahon savdosi ko'payishi sur'atlaridan 5 marta ko'pni tashkil qiladi.

### 2. §. Kapital chiqarishning sabablari va asosiy shakllari

Kapital chiqarishga asosiy sabab va ehtiyoj mazkur mamlakatda kapitalning to'planib qolishi, nisbatan zaruriyatdan ortiqchaligi hisoblanadi. Tadbirkorlikdan daromad yoki foiz olish maqsadida u chetga o'tkaziladi. Kapital ichki investitsiyalashga mablag' yetishmay qolganda ham amalga oshirilishi mumkin.

XX asrning ikkinchi yarimidan boshlab kapital chiqarish to'xtovsiz o'smoqda. Kapital eksporti tovar eksporti bo'yicha ham rivojlangan mamlakatlar ichki yalpi mahsulot o'sishi sur'atlari bo'yicha ham o'zib ketmoqda. Kapital chiqarish ko'lami oshayotgani uni xalqaro migratsiyasini kuchaytirmoqda.

Kapitalning xalqaro migratsiyasi – bu mamlakatlar o'rtasida kapital harakatining bir-biriga peshvoz harakti bo'lib, ham dividend shaklida, ham foiz miqdorida daromad keltiradi. Har bir mamlakat bir vaqtning o'zida kapital eksportchisi va importchisi hisoblanadi: ya'ni, chorraxa investitsiyasi ro'y beradi.

Katta daromad olish yo'lida kapital chiqarishning muhim sabablari:

- mamlakatda chiqarilayotgan kapitalning to'planishi;
- jahon xo'jaligi turli bo'g'inlarida kapitalga va unga talab va ehtiyojning mos kelmasligi;
- mahalliy bozorni monopoliyalashtirish imkoniyati mavjudligi;
- mamlakatda arzon xom ashyo va ishchi kuchlarining borligi;
- barqaror siyosiy vaziyat va qulay investitsion muhitning mavjudligi.

Kapitalni chiqarish va uni rag'batlantirishning asosiy omillari quyidagilardan iborat:

- milliy iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligi va o'zaro bog'liqlikning o'sishi kapital chiqarishni faollashtiruvchi, harakatlantiruvchi kuchidir. To'g'ridan-to'g'ri investitsiya shaklidagi kapital eksporti ayniqsa ishlab chiqarishni xalqaro, ya'ni xalqaro mahsulotlar ishlab chiqarishga aylantirishda bosh omil hisoblanadi. Xalqaro mahsulotlar bu global xalqaro bozorda sotiladigan (avtomobillar, samolyotlar, radioelektronika, kompyuterlar va boshqa) mahsulotlardir.
- xalqaro sanoat kooperatsiyasi, sho'ba korxonalarida transmilliy kompaniya (TMK) quyilmalari turli mamlakatlardan ayrim yuridik mustaqil korxonalarni yagona xalqaro korporatsiya doirasida ixtisoslashish, texnologik, sohaviy yaqin hamkorligini o'rnatish;
- rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlash uchun sezilarli hajmda kapital jalb qilish, bandlik darajasini saqlash, sanoat yetakchi sohalari taraqqiyoti;
- rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy holati, xorijiy kapitalni jalb qilish yordamida o'z iqtisodiyoti rivojiga sur'at bag'ishlash, «qashshoqlik»dan kutilishga urinish;
- iqtisodiy omillar sezilarli ta'sir o'tkazadi. Xalqaro korporatsiya qat'iy ekologik normalar tufayli ishlab chiqarishni rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chiradi;
- kapital oqimini yo'naltiruvchi va tartibga soluvchi xalqaro moliya tashkilotlari muhim rol o'ynaydi.

Kapital chiqarish o'z shakli va xususiyatga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Xususan, kelib chiqish manbaiga ko'ra (1) davlatniki, va (2) xususiy kapital.

Xalqaro kapital mablag'larida davlat kapital mablag'lari yana rasmiy hisoblanadi. Ular davlat byudjeti mablag'larini tashkil qiladi va bevosita yo hukumat qarori bilan, yo hukumatlararo tashkilot qarori bilan xorijga yo'naltiriladi yoki u yoqdan qabul qilinadi.

Shakliga ko'ra bular – davlat zayomlari, ssuda, grantlar (hadyalar) hukumatlararo bitimga ko'ra (XVF kreditlari) yordam o'tazish.

Xususiy kapital-bular xususiy shaxslar (yuridik yoki jismoniy) tomonidan xorijga joylashtiriladigan yoki xorijdan qabul qilinadigan nodavlat manbalar. Bunga investitsiyalar, savdo kreditlari, banklararo kreditlash kabilar kiradi.

Joylashish muddati bo'yicha chet el kapital qo'yilmalari (1) qisqa muddatli, (2) o'rta muddatli va (3) uzoq muddatliga bo'linadi. Keyingisiga 15 yildan ziyod muddatga qo'yilgan mablag'lar kiradi.

Foydalanish xususiyatiga qarab xorijiy kapital mablag'lari (1) ssudali, (2) tadbirkorlik ko'rinishida bo'ladi.

Birinchisi protsent shaklida foyda olish uchun berilgan mablag'larni bildiradi. Bu sohada davlat tomonidan va xususiy manbalardan qo'yilmalar faol tus oladi.

Tadbirkorlik investitsiyalari bevosita yoki bilvosita ishlab chiqarishga qo'yiladi va u yoki bu hajmda dividend shaklidagi foyda olish huquqiga ega bo'ladi. Bu yerda gap asosan xususiy kapital mablag'lar haqida bormoqda.

Maqsadlarga ko'ra tadbirkorlik kapital mablag'lari (1) bevosita, (2) profitel investitsiyalariga bo'linadi. Xalqaro valyuta fondi (XVF) ushbu satrlarga (ya'ni maqsadlarga) yana bir guruhni – «investitsiyalar»ni kiritadi, unga asosan xalqaro zayomlar va bank depozitlari kiradi.

### 3. §. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy kapital mablag'lari

To'g'ridan-to'g'ri investitsiya (sarmoya)lar ham jahon iqtisodiyotiga, ham uning o'zagi-xalqaro biznesga sezilarli ta'sir o'tkazadi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar deyilganda yo 10 yoki undan ziyod oddiy aksiyalar ustidan xorijiy nazorat, yoki korxonada boshqaruvida «samarali ovozlar» tushuniladi. Ayrimlar bu faqat mulk, aksiyalar kapitalidagi ulushini mablag' bilan olish; (1) xorijdan aksiyalar sotib olish; (2) daromadni qayta investitsiyaga yo'naltirish; (3) firma ichki zayomlari yoki firma ichki qarzlarni uzish.

Bundan tashqari turli noaksionerlik shakllar – subkontrakt, boshqaruv bitimi, franchayzing, litsenziyali oldi-berdi, mahsulotni taqsimlash va shular kabilar ham mavjud va amaliyotda keng foydalaniladi. Xorijiy investitsiyalarning to'g'ridan-to'g'ri shakllari va usullari global harakterdagi bir qator muammolarni keltirib chiqarishi, ularni hal etish uchun nostandart qarorlar qabul qilishga to'g'ri kelishini ham tan olish kerak.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra o'tgan davrda chet el kapital qo'yilmalari (mablag'lari) 1/3 ga ko'paygan. Keyin ular 10 yilda, so'ngra – 6-7 yilda ikki barobar ko'payib borgan. Chorak asrda (50-yillar o'rtalaridan) ular 4 marta o'sgan va 80-yillarda jahonda taxminan 450 mlrd. dollar qo'yilmalar qo'yilgan. 1990 yilda 1,7 trln. dollarlik marra egallandi. Ya'ni, ular faqat o'n yil ichida 4 baravar oshdi. 2004 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yig'indisi umumiy summasi 3 trln. AQSH dollaridan oshib ketdi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning bundan yuqori o'sish sur'atlari eng avvalo jahon xo'jaligini olg'a siljishgani, transmilliy korporatsiyalar oldingidek kapital shaklida emas, ishlab chiqarishni chiqargani, nafaqat daromad olishni mo'ljallagani, balki hali ishlab chiqarishning o'zi amal qilar ekan, uzoq muddat daromad olishni ko'zlangani bilan bog'liqdir.

Hozirgi davr bosqichida jahondagi barcha to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning 9/10 xalqaro korporatsiyalar tomonidan nazorat qilinmoqda. Jahonda bunday xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soni 39 mingtani, yana plyus 270 mingta xorijiy filiallarni tashkil qiladi. Shuning uchun shuni ta'kidlash mumkinki, endilikda transmilliy korporatsiyalar va ularga o'xshash xo'jalik tuzilmalari jahon xo'jaligining dinamik sektorini tashkil qiladi.

Hozirgi davr bosqichida deyarli barcha mamlakatlar kapital eksportyorlari hisoblanadi, shu bilan birga barcha davlatlar to'g'ridan-to'g'ri kapital importlari hamdir. Shunga qaramasdan investitsiyalarni taqsimlash (ularning geografik

tuzilishi) bir tekis emas. Misol uchun, yirik donor bo'lgani holda Yaponiya bunday kapital qo'yilishlarida kamtargina o'rinni egallaydi. Yaponiya hukumati tomonidan yo'l qo'yilgan to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyasi va bu mamlakat biznesi atigi 17,8 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda uch qutbli to'g'ridan-to'g'ri global ahamiyatga ega bo'lgan chet el investitsiyalari tuzilishi haqida gapirish uchun barcha asoslar bor. Bu AQSH, Yevropa ittifoqi, Yaponiyadir.

Bu «uchlik» hissasiga umumiy investitsiya chiqarish va kiritishning 4/5 ga yaqinrog'i to'g'ri keladi. Ya'ni, jahon savdosida ularning ulushi amalda ko'proq. AQSH kapital harakatining yirik ishtirokchisiga aylangan.

EI da to'g'ridan-to'g'ri investitsiya asosida integratsiya darajasi o'sib bormoqda. Butun hudud esa yirik kapital eksportchisi sifatida maydonga chiqayapti. Yaponiya tomonidan investitsiya chiqarish yuqori sur'atlarda o'sayotgani qayd qilinmoqda. U «tashqi iqtisodiyot» hajmlari bo'yicha jahonda o'z o'rini jiddiy mustahkamlayapti.

«Uchlik» ning o'z ichida esa kapitalning o'zaro chatishib ketishi borayapti, o'zaro savdo jahon savdosiga nisbatan tez o'sayapti. «Uchlik» qiyofasida yangi, yanada yuqoriroq qavat xalqaro mehnat taqsimoti va o'z milliy tartibga solish mexanizmi vujudga kelayapti. Hozirgi jahon xo'jaligi standartlari ustidan hududiy darajada ustunlik yaratilayapti.

«Katta yettilik» o'zida o'ziga xos yuqori bozor qavati «shtab»ini namoyon etadi. Unda integratsiya xalqaro munosabatlarga asoslanib emas, balki xo'jalik taraqqiyoti yuqori dinamikasini amalda ta'minlovchi me'yorlar «o'yin qoidalari» yordamida amalga oshiriladi. Qolgan mamlakatlar guruhi, ayrim to'dalar bu jahon xo'jaligi yuritish andozlariga o'ziga xos ravishda «moslashadi» va yetakchilar bilan aloqalarni yo'qotmaslikka harakat qiladilar.

Aloqa va axborot vositalari sohasidagi yutuqlar tufayli bir qator sanoat sohalari yetakchi investorlarga aylanadi: kompaniyalarning xorijiy kapital quyilmalari, ko'chmas mulkka ixtisoslashgan va moliyaviy xizmat ko'rsatishlar keyingi o'n yil ko'rsatkichlariga qaraganda qisqardi. Ko'pchilik sanoat kompaniyalari uchun xorijda ishlab chiqarish markazlari emas, balki mahsulotlarni tarqatish tarmoqlari yaratish, xorijda ilmiy-tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik byurolari tashkil etish istiqbol rejalariga aylanayapti.

Chet el investitsiyalarining to'g'ridan-to'g'ri oqimi geografik tuzilishi, ya'ni olg'a siljishi quyidagilarga olib keladi: jahonda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar joriy hajmi yuqori darajaga -315 mlrd. AQSH dollariga yetdi (o'tgan yillarga nisbatan o'sish 40 %); bu summaning katta qismi bosh investorlar hisoblangan rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri keladi (270 mlrd. dollar) va chetdan investitsiya oluvchilarniki -203 mlrd. dollar to'g'ridan-to'g'ri investitsiya oqimi rivojlanayotgan mamlakatlarga ham ko'paydi, endi rivojlanayotgan mamlakatlardan eksport esa 47 mlrd. dollarni tashkil etdi. Sobiq sotsialistik mamlakatlar ham ortda qolgani yo'q: Markaziy va Sharqiy Yevropada investitsiya oqimi ikki marta o'sdi va salkam 12 mlrd. AQSH dollariga yetdi. Osiyodagi moliyaviy inqiroz, uning jahon iqtisodiyotiga noxush ta'sir etayotganiga qaramasdan, YUNKTAD ma'lumotlariga ko'ra, jahonda to'g'ridan-to'g'ri chet el

investitsiya oqimi 2005 yilda 10 % ga – rekord darajasiga – 440-450 mlrd. AQSH dollariga o‘sdi. Bu kapital qo‘yilmalarning katta qismi taraqqiy etgan mamlakatlar, Lotin Amerikasi davlatlari, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga kelib tushdi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyasi o‘shisi Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda kuzatilmoqda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari inqirozi boshlangandan keyin mintaqqa mamlakatlari uchun xususiy moliya resurslari muhim manba bo‘lib qoldi.

#### 4. §. Xorijiy investitsiyalar tuzilishi

Investitsiyalarning katta qismi va ularni amalga oshiruvchi bosh «harakatdagi shaxs» transmilliy korporatsiyalar (TMK) eslatilgan «uchlik» (AQSH, YEI va Yaponiya) qiyofasida jamlangan.

10 yirik qabul qiluvchi mamlakatlarga investitsiya oqimining 2/3 qismi 100 kichik mamlakatlarga -1% to‘g‘ri keladi.

Nisbatan taraqqiy etgan mamlakatlar guruhlarida ichki investitsiyasi rekord o‘shisi avvalo firmalararo qo‘shilish jarayoni va partnerlar aksiyalarini sotib olish faollashuvi bilan bog‘lanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning salkam 90 % (chiqarish va joylashtirish) taraqqiy etgan davlatlarga to‘g‘ri keladi. Natijada ularning umumjahon hajmida ishlab chiqarishda kapital joylashuvi 65 % gacha o‘sdi.

Agar xorijiy investitsiyalash ko‘lami bo‘yicha AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiyada joylashgan transmilliy korporatsiyalar (TMK) yetakchi bo‘lsa, chet el investitsiyalarini ko‘proq jalb etuvchilar ham o‘sha - AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya mamlakatlari bo‘layptilar.

Investitsiyalarning notekis joylashuviga xos xususiyat boshqa davlatlar guruhiga ham ta‘luqli. Rivojlanayotgan mamlakatlarda joylashtirilayotgan mablag‘lar umumiy so‘mmasining 2/5 ga yaqini Osiyoga, 1/4 Lotin Amerikasiga, qolgani (1/10 gacha) Afrikaga to‘g‘ri keladi.

Janubiy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni joylashtirishda jahonning rivojlanayotgan mamlakatlari orasida yirik mintaqqa bo‘lib qolmoqda. Bu shu bilan bog‘liqki, Osiyo davlatlarini hozirgi zamon ko‘lamida taraqqiyot dinamikasi boshqa mamlakatlardan transmilliy korporatsiyalar (TMK) uchun yangi bozor topishga intilish, hudud resurslarini o‘zlarining global ishlab chiqarish tizimiga buysindirishda qulay imkoniyat bo‘lib xizmat qilayapti.

1992 yildan boshlab, rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini yirik oluvchisi bo‘lib, Xitoy Xalq Respublikasi (XXP) chiqmoqda. XXP chet el kapitali uchun milliy rejim yaratish sari harakat qilayapti, asta-sekin unga ilgari berilgan imtiyozlarni olib tashlayapti, xususan import poshlinasidan ozod qilinganligi. XXP iqtisodiy o‘shish sura‘tlarini hisobga olgan holda va unda to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari uchun yangi sohalar ochik eshik jarayonida Xitoy uzoq muddatli istiqbolda xorijiy investorlarni jalb qiluvchi ob‘ekt bo‘lib qoladi.



To'g'ridan-to'g'ri chet investitsiyalari oqimi Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlarida o'sayapti. Chet el kapitali qo'yilmalari asosan bir nechta sohalarga qaratilgan: avtomobilsozlik (Meksika va Braziliya), foydali qazilmalarni qazib chiqarish (Chili), chet el investorlari qiziqishi xususiylashtirish jarayonlari avj olgan Argentina va Peruda ham kuchaydi.

Mutaxassislarning fikricha, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi notekisligi Lotin Amerikasi mamlakatlarida kelajakda ham saqlanib qoladi. Unda eng avvalo boshlangan xususiylashtirish jarayonlarida Braziliya va avtomobilsozlikda bir qator yirik investitsion loyihalarni amalga oshirgan korxonalar ko'zga tashlanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, avvalgidek xalqaro investitsiyalash jarayonlari markazida Afrika mamlakatlari turadi. Bu yerga investitsiya xuddi dunyoning boshqa hududlaridagi singari tez o'smoqda. Afrikada yirik chet el investorlari bo'lib Fransiya, GFR, Italiya, Buyuk Britaniya trasmilliy korporatsiyalari (TMK) qolmoqda.

Markaziy va Sharkiy Yevropa mamlakatlarida chet el investorlari faollik ko'rsatkichlari rekord darajasidan yuqori. Bu faqat xususiylashtirish jarayonlarining navbatdagi to'liqini bilangina izohlanmaydi. Bu yerda nihoyat iqtisodiy o'sishlar ham boshlangan (Polsha, Chexiya). Ushbu mamlakatlarga bir yilda chet el investorlari umumjahon oqimining 5 % yo'naltirilgan. Bunda barcha o'sishning 2/3 qismi Vengriya va Chexiyaga to'g'ri keldi: u yokka xususiylashtirish kapital oqimi salkam uch marta ko'paydi.

Transmilliy korporatsiyalar (banklar va moliyaviy muassasalar qo'shilmagan holda) xorijiy qo'yilmalari hajmi bo'yicha yirik 100 tasi sanoat taraqqiy etgan mamlakatlarda joylashgan. Ularning xorijiy egalik qiymati taxminan 1,4 trln. dollar baholanmoqda. Bu to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarining dunyodagi umumiy hajmini 2/3 qismini tashkil qiladi. Xorijiy investitsiyachilar faoliyatida eng faol ishtirokchi kompaniyalar orasida ingliz-golland konserni «Royal-Dutch Shell» oldinda borayapti. Uning xorijiy aktivi 63,4 mlrd. dollar. «Ekson» 56,2 mlrd. dollar qiymatga ega.

Endilikda yirik transmilliy korporatsiya (TMK)lar orasida rivojlanayotgan Osiyo va Lotin Amerikasidan chiqqan mamlakatlar bor. Bunday TMK lar ruyxatini Xitoydan «Xatchinson Uampu» va Meksikadan «Semeks» boshqarib borishayapti.

Shunday qilib, turli kanallar bilan amalga oshirilayotgan xalqaro kapital harakati hozirgi bosqichda jahon xo'jalik aloqalarining dinamik rivojlanayotgan shaklidir. Baynalminallashuv (internatsionalashuv) jarayonlari keyingi o'n yilda to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb etish kanallari roli sezilarli oshganini ko'rsatadi, uning bosh sub'ektlari xalqaro iqtisodiy munosabatlar va jahon iqtisodiyotida xalqaro korporatsiyalardir.

### Nazorat savollari

1. Hozirgi zamon jahon xo'jaligida va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda muhim ajralib turadigan belgilarni ayting.
2. Xorijga kapital chiqarish o'zida nimani aks ettiradi?
3. Kapital chiqarish (eksport) sabablari qanday?
4. Kapitalning xalqaro migratsiyasi nima?
5. Kapital chiqarish va uni rag'batlantirishga qaysi omillar turtki beradi?
6. Chetga kapital chiqarishning asosiy shakllarini ayting?
7. Jahonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jamg'arish umumiy so'mmasini aniqlang.
8. Kapitalni eksport va import qiladigan asosiy mamlakatlarni ayting.
9. «Uchlik» (AQSH, YEI va Yaponiya) da to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar qismi qancha?
10. Uzoq muddatli istiqbolda xorijiy investitsiyalar uchun jahonning qaysi mamlakatlari jalb qiluvchi bo'lib qoladi.
11. Qaysi xorijiy transmilliy korporatsiyalar (TMK) Afrikada asosiy investorlar bo'lib qolmoqda?
12. Jahonning eng yirik korporatsiyalari harakterli qirralarini izohlang.
13. Jahonning eng yirik va gigant transmilliy korporatsiyalari (TMK) ni ayting.
14. Qaysi kompaniya jahonda xorijiy aktivlari bilan birinchi (1) o'rinni egallaydi?

## VI Bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING INVESTITSION SIYOSATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

### 1.§. O‘zbekistonda xorijiy investitsiyaning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar

O‘zbekiston xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qo‘yidagi omillarga ega: katta zahiraga ega bo‘lgan foydali qazilmalar va yoqilg‘i – energetika resurslari, qishloq xo‘jaligi potentsiali, ilmiy salohiyat potentsiali, zamonaviy bozor infratuzilmasi institutlari, keng tijorat banklar tarmog‘i, Internetga chiqish bilan ishonchli telekommunikatsiyalar tarmog‘i, turizmni rivojlantirish imkoniyatlari.

Tabiiy resurslari. O‘zbekiston Respublikasida 100 turdan ziyod mineral xom ashyo va boshqa foydali rudali jinslarni o‘z ichiga olgan istiqbolli 2700 dan ziyod manbalar aniqlangan. 900 dan ortiq konlar tekshirib ko‘rilgan, ulardagi boyliklar zahirasi 970 mlrd. AQSH dollariga baholanadi. Respublika umumiy mineral – xom ashyo potentsiali 3,3 trln. AQSH dollaridan ortiq so‘mmani tashkil qiladi.

Mineral xom ashyo resurslari va strategik materiallar zahirasi hajmi bo‘yicha O‘zbekiston jahondagi eng boy mamlakatlar qatoriga kiradi. O‘zbekiston oltin va uranning tasdiqlangan zahirasi bo‘yicha jahondagi birinchi beshlik (5) mamlakatlar, o‘nlik (10) mamlakatlaridan biri hisoblanadi.

Rangli metallar: Miss, qo‘rg‘oshin, rux, volfram, reniy va boshqalarning yirik zahiralariga ega. O‘zbekistonda 33 ta marmar, 18 ta granit va gabbro konlari aniqlangan. Juda ko‘p dekorativ tosh konlarida butun Yevroosiyoda yirik hisoblangan nayob tabiiy xazinalar mavjud. Respublika fasforit konlariga boy. O‘zbekistonda osh tuzi, kaliy tuziga boy yirik konlar mavjud.

O‘zbekiston hududida neft va gaz konlarining ulkan qatlamlari mavjud. Respublikaning 60 % hududi ularni qazib olish uchun istiqbolli hisoblanadi. Markaziy Osiyo gaz kondensanti zahiralarning 74 %, neftning 40 %, tabiiy gazning 40 %, ko‘mirning 55 % ulushi O‘zbekistonga to‘g‘ri keladi.

Mamlakatdagi aniqlangan ko‘mir zahiralari 2 mlrd. tonnadan ko‘proqni tashkil qiladi. Neft-ximiya, bazali ximiya, farmatsevtika sanoatini rivojlantirish, yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda bu esa juda katta imkoniyatlar yaratadi.

Qishloq xo‘jaligi potentsiali. Bugungi kunda respublika agrosanoat majmuida mamlakatning mehnatga qobiliyatli aholisining 2/5 dan ko‘proq qismi band. Qishloq xo‘jalik sektori mahsulotlari mamlakatimiz aholisi uchun zarur bo‘lgan (90 %) oziq-ovqat ishlab chiqarish imkonini beradi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga xorijiy investitsiyalarni ko‘proq jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilayapti.

Respublikada har yili 3-3,3 mln. tonna atrofida paxta xom ashyosi tayyorlanadi. Undan 1,5-1,7 mln. tonna paxta tolasi ishlab chiqariladi. Keyingi yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yalpi hajmida to‘qimachilik mahsulotlari ulushi 21 % ga o‘sdi. O‘zbekiston yengil sanoati korxonalarida paxta tolasi hajmining 25 % qayta ishlanmoqda. Respublika ipak sanoati yuqori sur’atlarda rivojlanayapti. Respublika pilla yetishtirish bo‘yicha dunyoda uchinchi

o'rinni egallaydi. MDH mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan pillaning qariyb 80 % O'zbekistonga to'g'ri keladi. Xilma-xil va qulay iqlim sharoiti omillari respublikada keng turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish imkonini beradi. Mamlakatimizda yetishtiriladigan yuqori sifatlilik safovati, meva, uzum, poliz ekinlari mahsulotlarini tayyorlash, yuvish, quritish, saralash, qutilash, tez buziladigan mahsulotlarni saqlash, uzoq masofalarga eksportga jo'natish uchun korxonalarini rivojlantirish talab etiladi.

Ilmiy va intellektual potentsial. O'zbekiston yuksak kadrlar potentsialiga ega. Ularning asosini oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tashkil etadi. Kadrlarning yordami va salohiyatiga tayanilib eksportbop murakkab mashinalar, asbob-uskuna va buyumlar ishlab chiqarish sohasida milliy sanoat tarmoqlari tez sur'atlarda taraqqiy eta boshladi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida ilmiy salohiyati bo'yicha yetakchi davlat hisoblanadi. Respublika quyosh fizikasi, zilzilaga bardoshli inshootlar, mashinasozlikda lazerdan foydalanish, paxta navi va genetikasi, qorako'lchilik, o'simliklar kimyoviy moddalari va boshqa qator sohalarda ham noyob yutuqlarga erishayapti.

Respublikada bugungi kunda 9700 dan ziyod umum ta'lim maktablari, 533 kasb-hunar kollejlari, 55 ta akademik litseylar va 65 ta oliy o'quv yurtlari-universitetlar, institutlar ishlab turibdi. O'zbekiston respublikasi aholisi yoppasiga savodxon mamlakat hisoblanadi.

Transport infrastuzilmasi. Qulay iqtisodiy geografik o'rinda joylashish va taraqqiy etgan transport infratuzmalari Markaziy Osiyo, Yakin Sharq hamda MDH mamlakatlari bozorlariga chiqish uchun imkon beradi. O'zbekistonda barcha turdagi transport vositalarining respublika hududidan tashqariga chiqish uchun keng yo'llar tarmog'i yaratilgan. O'zbekiston temir yo'llar va avtomobil yo'llari tarmog'i ancha zich joylashgani bilan Markaziy Osiyoda oldingi o'rinda turadi. Respublika g'arbdan sharqqa, janubdan shimolga olib boruvchi yo'llarda eksport-import yuklarini manzilga yetkazishda 10 ta transport karidori va tranzit yo'nalishlaridan foydalaniladi. Yo'llar tarmog'i O'zbekistonning barcha hududlarida tabiiy resurslar, qazilma boyliklaridan (kompleks) foydalanish, xalq xo'jaligi tarmoqlarini hamma joylarda yuqori darajada rivojlantirish imkonini beradi.

Shuni qayd qilish joizki, Qamchik davonida tonnel qurilishi yangi avtomobil yo'llari qurish va rekonstruksiya qilish orqali bugun O'zbekistonning barcha viloyatlari va tumanlari ishonchli transport tarmog'i bilan ulangan va bu respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga juda katta yordam beryotir.

Zamonaviy bozor infratuzilmalar tarmog'i. O'zbekistonda mustaqillikning birinchi yillaridayoq tovar-xom ashyo birjasi, respublika ko'chmas mulk fond birjasi, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar respublika palatasi, biznes fond, respublika «Madad» sug'urta agentligi, tadbirkorlarga xizmat ko'rsatuvchi «Tadbirkorbank», dehqonlar uchun «Paxtabank», «G'allabank», «Zaminbank» kabi ijtimoiy-moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlar tashkil etilgan edi. Ular bilan bir qatorda ko'chmas mulk va investitsiyalar sohasi bo'yicha maxsus Agentlik va boshqalar ham faoliyat ko'rsata boshladi. Respublikadagi barcha tijorat banklari

zamonaviy texnikalar (kompyuterlar) bilan ta'minlangan, yagona aloqa tarmog'iga birlashtirilgan va ishonchli himoya vositalari bilan muhofaza qilingan. O'zbekistonning iqtisodiy hamkorlari bo'lgan mamlakatlar yetakchi banklari bilan ham korrespondentlik munosabatlari o'rnatilgan.

Mustaqillik yillarida Respublikada telekommunikatsiya va axborot texnologiyasi sohasi jadal taraqqiy eta boshladi va kommunikatsiyali aloqa tizimi yaratildi. Bu esa mamlakatimizning istalgan nuqtasi bilan tezkor bag'lanish imkonini tug'diradi. Bugungi kunda respublika shaharlarining telekommunikatsiya raqamli tarmoqlari bilan qamrab olishning darajasi qariyb 90 % dan oshdi.

Turizm potentsiali. O'zbekiston o'zining Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa tarixiy shaharlari, qadimiy madaniy, me'morchilik obidalari bilan butun dunyoga tanilgan. Mamlakatimizda turizm infratuzilmasi yaratilgan. Bu kelajakda respublikada xalqaro turizm sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistonning turistik infratuzilmasi har yili qariyb 1,5 mln. atrofida turistlarga xizmat ko'rsatish imkoni bor.

## 2.5. Mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotida xorijiy investitsiyalarning roli

Yuqorida sanab o'tilgan barcha turdagi resurslar mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun faoliyat sohasini tanlashiga imkoniyatlar eshigini ochadi. Mustaqillik yillarida jalb qilingan investitsiyalar hajmi 14 mlrd. dollardan ortiq bo'lsada, O'zbekiston bozorlarining investitsion sig'imida bir necha marta ko'p sur'atlar qo'lga kiritildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar bilan birga korxonalarining faoliyati sohalari tuzilishi ham o'zgarmoqda. Hozirgi vaqtda 80% qo'shma korxonalar ishlab chiqarish sohasida band. Bunda qo'shma faoliyat bo'yicha xorijiy hamkorlik bo'lib, «Bursel» (Turkiya), «Marubenti» (Yaponiya), BRI (AQSH), «Goldteks», «Vimateks», «Djaminolla» (Italiya, to'qimachilik va ipakchilik sanoati), «Knauf» (Germaniya), «Semar Interneshnl» (Italiya, qurilish materiallari), «Bi Es Ay Industriz Ink», «ABB Lummus global», «Beyker xyuz» (AQSH), «Lukoyl», «Gazprom», «Nuritex» «Dimm Bill Donn» (Rossiya), «Safregaz» (uglevodorod qazib olish va razvedka, Fransiya), «Nyumond Mayning» (AQSH), «Okus» (Buyuk Britaniya), «Multipleks» (Avstraliya), «Beytman» (Isroil, oltinkon qidiruv), «Lyuftganza» (Germaniya havo kemalari ta'miri), «Nestle» (Shveysariya), «Manzini» (Italiya, oziq-ovqat sanoati), «Keys Nyu Xolland» (AQSH, mashinasozlik) va boshqa kompaniyalar hisoblanadi.

2003 yilda investitsiya doirasida 2 mlrd. dollar hajmida loyihalar amalga oshirildi, ularning 80 % to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va loyihalarni shartli moliyalashtirishga jalb etilgan mablag'larga to'g'ri keladi. O'zbekistonda ko'p ukladli iqtisodiyot yaratilishi ko'p jihatdan davlat mulkini bosqichma-bosqich xususiyashtirishga imkon berdi. Natijada keyingi 10 yillar ichida 130 ming davlat korxonalari mulkchilik shakllarini o'zgartirdilar. Mulkda davlat monopoliyasiga

barham berish «Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish to'g'risida» gi qonunda o'z aksini topdi. Nodavlat korxonalarini keyingi shakllantirish masalalari «Xususiy va kichik tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida» gi qonunda belgilab qo'yildi.

Keyingi yillarda respublika iqtisodiyotning strategik muhim sohalarda yirik loyihalar amalga oshirildi. «Sho'rtan» gazkondensati konida kompressor stansiyasi qurildi. «Shimoliy O'rtabuloq» konida yangi quvvat ishga tushirildi. Farg'onada «Azot» kimyo zavodida yangi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. «Murintov» karerida tog' ishlarini tezlashtirish loyihasi, ko'mir sanoatini texnik qurollantirish birinchi bosqichi, Samarqandda, «Prezident Otel» qurilish nihoyasiga yetkazildi. Toshkentda 4 ta mehmonxona kompleks rekonstruksiya qilinib, ishga tushirildi. «O'zDEU avto» zavodida yangi modeldagi avtomobil ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Qo'qon superfosfat zavodi rekonstruksiya to'g'allandi. «Surxontekstil» qo'shma korxonasi tashkil etildi. Tayyor ipak buyumlar va ipak ip ishlab chiqarish bo'yicha «Velaysilk» ko'shma korxonasi, «Ishonch» AJ qayta texnik jihozlandi. «Besteks», «Baliqchi» va «Oyim Tekstil» qo'shma korxonalarida paxtadan gazlama va ip yigirish ishlab chiqarish yangi quvvatlari ishga tushirildi. 2005 yilda lokalizatsiya dasturi doirasida 158 ta loyiha amalga oshirildi, 145 turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish lokalizatsiyalashtirildi.

### 3.5. O'zbekiston Respublikasida investitsion muhit va shart-sharoitlar

O'zbekistonda xorijiy investorlar va investitsiyalarga teng huquqli shart-sharoitlar yaratilgan. Ularning doimiy ravishda to'lik xavfsizligi himoya qilinmoqda. Xorijiy investitsiyalar uchun huquqiy rejim O'zbekiston yuridik va jismoniy shaxslari amalga oshirilayotgan investitsiyalar huquqiy rejimidan kam bo'lmasligi kerak. Ular asosiylaridan biri shuki, huquqiy rejim xorijiy investorlarni mamlakat qonunchiligida o'zgarishlar ro'y berganda ham zarar ko'rmasligini kafolatlaydi va huquqini himoya qiladi. Buning ma'nosi shuki, qonunchilik aktlari o'zgargan taqdirda ham xorijiy investorlarning manfaatlariga zarar yetishiga yo'l qo'yilmaydi. Investitsiya amalga kirgan momentdan boshlab, shartlarga 10 yil davomida o'sha vaqtdagi qonun saqlanib qoladi. Xorijiy investor agar yangi qonun uning shartlarini bajarilishiga monelik qilmasa, sarmoyasini ko'payishiga yordam bersa uni qo'llanish huquqiga ega.

Xorijiy investorlar uchun qulay rejim qonunlarda va me'yoriy-huquqiy hujjatlar tartibida mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekistonda investitsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash uchun taraqqiy etgan institutsional infratuzilma yaratilgan. Vazirlar Mahkamasining tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar Departamenti, O'zbekiston Prezidenti islohatlar va investitsiyalar bo'yicha Mahkamalararo kengash uning bosh bo'g'ini hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 2 maydagi 205-son «To'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalarini huquqiy himoya qilish bo'yicha

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi quyidagi huquqlar berilgan:

- jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarni asoslangani va xorijiy investitsiyalar bilan korxonalarni zarur xo‘jjatlar orqali nechog‘lik ma‘suliyat bilan tan olishganligini o‘rganish, jumladan, jinoiy materiallar, xo‘jalik, ma‘muriy va fuqarolik ishlari;
- aniqlangan qonunchilik buzilishlari buzilish sabablari va ularni keltirib chiqargan sharoitni bartaraf etish yuzasidan vazirliklar rahbarlariga, muassasa va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek mahalliy hokimiyat organlari va boshqaruvlariga belgilangan muddatda albatta bajarish sharti bilan taqdim etadi;
- xorijiy investorlarning qonuniy manfaatlari va huquqlari buzilishi faktlari aniqlanganda tegishli organlar oldiga aybdor mansabdor shaxslar javobgarlikka tortish shuningdek adliya organlari qonuniy talablarini bajarmagan mansabdor shaxslar masalasini qo‘ydi;
- xorijiy investitsiyali korxonalar va xorijiy investorlar huquqlarini buzgan mahalliy hokimiyat organlari va boshqaruvlari, nazorat organlari qarorlari, harakatlarini to‘xtatish;
- xorijiy investitsiyali korxonalar va xorijiy investorlar qonuniy manfaatlari va huquqlari buzilgan hollarda davlat poshlinasi to‘lamasdan jinoiy, fuqarolik, xo‘jalik va ma‘muriy ishlar bo‘yicha sudlarga taklif bilan murojat qilish;
- xorijiy investitsiyali korxonalar va xorijiy investorlar qonuniy manfaatlari va huquqlari buzilganligi haqida murojaat qilinganda tekshiruvga tegishli mutaxassislarni jalb etish;

Shu bilan birga Adliya vazirligi tarkibida xorijiy investitsiyali korxonalar va xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Boshqarma tashkil qilindi.

Xorijiy investorlar bilan yaqin aloqada bo‘lish, ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekistonda ixtisoslashgan tashkilotlar tarmog‘i ishlab turibdi: Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, «O‘zbekinvest» eksport–import milliy sug‘urta kompaniyasi shtabi Londonda bo‘lgan siyosiy tavakalchilikni sug‘urta qilish bo‘yicha «O‘zbekinvest Interneshnl» qo‘shma kompaniyasi kabilar ishlab turibdi, yirik ko‘lamli loyihalarni amalga oshirish uchun lizing kompaniyasi tuzilgan. Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YEBRR), «Maloy Benk Berkard» (Malayziya) va O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki uning ta‘sischilaridan.

O‘zbekistonda xorijiy investorlar bo‘lishi mumkin:

- xorij davlatlari, xorij davlatlarining ma‘muriy yoki hududiy organlari;
- xalqaro tashkilotlar, bitimlar yoki shartnomalar bilan davlatlararo tashkil etilgan xalqaro ommaviy huquq sub‘ektlari;
- yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar qonunchilik aktlariga muvofiq tashkil qilingan va faoliyat yuritayotgan har qanday shirkatlar, tashkilot yoki assotsiatsiya;

- xorijiy davlatlar fuqarosi bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan holda chet elda yashayotgan jismoniy shaxslar;
- xorijiy investorlarga har bir konkret investitsiyalashda investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida himoyalash choralari kafolatlanadi;
- turg'un iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi mamlakat iqtisodiyoti tarkibida progressiv o'zgarishlar, afzal sohalar;
- respublikaning eksport quvvatini mustahkamlash va kengaytirishga, uning jahon xo'jaligi integratsiyasida galdagi ustun loyihalarini ta'minlash;
- xususiy tabirkorlik va kichik biznes sohasida xom ashyo va materiallarni qayta ishlashga, aholi bandligini ta'minlash, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va xizmatlarga qaratilgan loyihalar;

O'zbekiston investitsion qonunchiligida tarkibiy qism bo'lib, respublikani xalqaro shartnomalarga konvensiyalarga va bitimlarga qo'shilishi haqidagi muhim xo'jjatlar hisoblanadi. Ular tarkibiga kiradi:

O'zbekiston va YEI hamda unga a'zo davlatlar o'rtasida hamkorlik va sherikchilik to'g'risidagi kelishuv (1996 y); investitsiyalarni o'zaro himoya qilish va rag'batlantirish haqida davlatlararo kelishuv. Bu hamkorlik va sherikchilikda ikki tomonlama soliqqa tutilishni oldini oladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan, chet el investitsiya bilan korxonalar yo uning muassisligida, yo xorijlik investorning ishtiroki ulushi (pay, aksiya) natijasida tashkil etilishi mumkin.

To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalariga sharoit yaratishda ko'zda tutiladi:

- teng huquqli sherikchilik;
- o'zaro foydali;
- umumiy maqsadga erishish uchun moliyaviy va mehnat, material resurslarni birlashtirish;
- sherikka o'z mamlakatida samarali iqtisodiy faoliyat yuritishda ko'maklashish.

#### 4.5. Xorijiy investitsiyalar bilan korxonalarining o'sish dinamikasi

Mamlakatimiz iqtisodiy qudratini oshirish va mustahkamlashda iqtisodiyotga chet el investitsiyalarining jalb etish muhim iqtisodiy omillardan hisoblanadi. Shuning uchun chet el investitsiyalari hajmi yil sayin oshib borayapti. 2004 yilda O'zbekistonda umumiy 3090 korxonalar chet el investitsiyasi bilan ro'yxatga olingan bo'lsa, ulardan 2497 tasi qo'shma korxonalaridir.

Faqatgina 2003 yilda 262 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tdi, bu 2002 yilga nisbatan 126 % ni tashkil qiladi. To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarining amaldagi soni 6,5 % o'sishi bilan birga, ular faoliyati tuzilishi ham o'zgardi: tijorat va savdo-vositachilik faoliyati sohasida ulush qisqardi va moddiy ishlab chiqarish sohasida ulush ko'paydi. Chet el investitsiyasi bilan ishlab turgan korxonalarining 1307 tasi (59,2 %) sanoatda faoliyat ko'rsatayapti. Ulardan 21 % iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanayapti.



Agar 1995 yilda ishlab chiqarish sohasida chet el investitsiyasi bilan 308 korxonalar band bo'lsa, 2005 yil yakunlariga ko'ra, chet el investitsiyasi bilan ishlayotgan ishlab chiqarish korxonalari soni 6 barabarga oshdi.

Ular asosan mashinasozlik va metallni qayta ishlash, avtomobilsozlik, shuningdek oziq-ovqat, yangi sanoat, mahalliy resurslarni qayta ishlovchi sahalariga jalb etilmoqda.

Chet el investitsiyasi bilan korxonalar tashqi savdo obroti doimiy ravishda o'sib bormoqda va 2005 yilda u 34 % ga o'sdi. Chet el investitsiyalari mahsulotlari eksporti (ishlar, xizmatlar) respublika eksporti hajmida 15,1 % ni tashkil etdi. Butun chet el investitsiyasi eksport hajmida: oziq-ovqat – 31,2 %, kimyoviy mahsulotlar – 41,4 %, energiya tashuvchilar – 46,9%, mashina va uskunalari – 50 %, yengil sanoat mahsulotlari – 414,2 ni tashkil etdi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda jahonning 80 mamlakati vakillari investorlar hisoblanadi. Qo'shma korxonalar tashkil etishda ko'proq Turkiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Italiya, MDH mamlakatlarida – Rossiya, Ukraina, Qozog'iston va boshqalar faollik ko'rsatmoqdalar. Xorijiy investorlar ishtirokida tashkil etilgan yangi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar orasida 100 % li chet el kapitali bilan ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ulushi o'sdi. Bu ularning umumiy sonida 1/5 ni tashkil qiladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tashqi savdo aloqalarining ahamiyati va rolini ta'riflang.
2. O'zbekiston respublikasi tashqi iqtisodiy vazirligi qachon tashkil etilgan?
3. O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy aloqlari bo'yicha Agentligi qachon tuzilgan?
4. Tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha Agentlik oldiga qanday vazifalar quyilgan?
5. «O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risi»gi qonun yangi tahrirda qachon qabul qilingan?
6. Iqtisodiyotning bu sohasi me'yoriy-huquqiy bazasini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qanday qonunlar qabul qilingan?
7. O'zbekiston jahonning nechta mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni o'rnatgan?
8. Agentlik qaysi yo'nalishlar bo'yicha aloqani amalga oshiradi?
9. Mustaqillik yillarida respublikaning umumiy tashqi savdo hajmi necha marta ko'paydi?
10. Respublikada qaysi yildan boshlab tashqi savdo oborotida ijobiy saldo ta'minlanayapti?
11. 1990-2005 yillarda respublika eksportida xom ashyo resurslari ulushi necha protsentga qisqardi?
12. Mamlakat eksporti nomenklaturasini qaysi tovarlar bilan to'ldiriladi?
13. Oziq-ovqat tovarlari importi necha protsentga qisqardi?
14. Yangi uskunalar, yangi texnika va texnologiyalar sotib olish necha protsentga o'sdi?
15. O'zbekiston tashqi savdo oborotida YEI mamlakatlari necha protsentni egallaydi?
16. Respublika tashqi savdosida qaysi mamlakatlar O'zbekistonning asosiy sheriklari hisoblanadi?

## VII – Bob. XALQARO XIZMAT KO‘RSATISH VA SERVIS BOZORI

### 1.§. Xalqaro xizmat ko‘rsatish, servis bozori tavsifi va tushunchasi

Xizmatlar ko‘rsatish va servis odamlarning xilma-xil keng ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali majmua faoliyat turlari va tijoriy mashg‘ulotdir. YUNTKAD va Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan «Xalqaro transaksiyalarni xizmatlar bilan liberallashtirish»da xizmatlarga quyidagi aniqlik beriladi:

Xizmatlar (services) – institutsional birliklar nizomidagi o‘zgarish bo‘lib, qaysikim boshqa bor institutsional birlik bilan o‘zaro kelishuv asosida va harakat natijasida ro‘y beradi.

Bu aniqlik ko‘p qirrali operatsiyalar firma doirasini qamrab oladi. Shuning uchun xizmat tushunchasi keng va tor ma‘noda narxlanadi. *Birinchi holda* xizmatlar – insonning tijoriy mashg‘uloti va xilma – xil majmua turdagi faoliyatidir. Uning vositasida u boshqa odamlar bilan munosabatga kirishadi, *ikkinchi holda* –konkret aksiya, tadbir bo‘lib, qaysikim bir tomon (sharik) boshqa tomonga taklif qilishi mumkin.

Xizmat ko‘rsatish va servis bunday aytganda iqtisodiy sektorda uchlamchi deb ataladi. Jahon ichki yalpi mahsulotining 2/3 uning hissasiga to‘g‘ri keladi. Ular AQSH iqtisodiyotida va boshqa sanoati rivojlangan davlatlarda o‘rtacha 65% darajada kuzatiladi. Shuningdek rivojlanayotgan va o‘tish jarayonlarini kechayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida esa mutloq ustunlik qiladi.

Xizmatlar tovarlar va ularning moddiy ifodalanishidan bir qator farqlarga ega. U qo‘yidagilardan iborat:

- § odatda xizmatlar sezilmaydilar. Ko‘pchilik xizmatlar bu sezilmasligi va «ko‘rinmasligi» ko‘pincha tashqi savdoda eksport va importni ko‘rinmas (invisible) deb atashga asos hisoblanadi;
- § xizmatlar o‘z manbasidan ajralmasdir;
- § ularni ishlab chiqish va iste‘mol qilish odatda uzilmasdir;
- § ular uchun sifat, o‘zgaruvchanlik va saqlanmaslik harakterlidir.

Xalqaro savdo va iqtisodiyotda xizmatlar soni va roli eng avvalo ilmiy – texnik yuksalish natijasida tez ortadi. Shu jumladan, xalqaro iqtisodiy aloqalar ham kengayadi. Jahondagi ko‘pchilik mamlakatlarda, aholining daromadi, to‘lov qobiliyati oshadi. Chunki xizmatlar ko‘rsatish bir xil emas, ularning bir nechta tavsifi (klassifikatsiyasi) mavjud.

Xalqaro sanoat standartlashtirish tavsifiga asoslangan BMT qabul qilgan xizmatlar ko‘rsatish tasnifi o‘z ichiga qo‘yidagilarni kiritadi:

- kommunal xizmatlar va qurilish;
- ulgurji va chakana savdo, restoranlar, mehmonxonalar;
- tovarlarni yuklash, saqlash, aloqa, moliyaviy vositachilik;
- mudofaa va majburiy ijtimoiy xizmatlar;
- boshqa ijtimoiy va shaxsiy xizmatlar.

Bu tavsif bo'yicha xizmatlar mamlakatlar ichida amalga oshiriladi va iste'mol qilinadi ammo xalqaro savdoda ob'ekt bo'lishi mumkin emas.

XVF tavsifi to'lov balansini tuzishda qo'llanilganda rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi to'lovlar bilan bog'liq holda quyidagi xizmat turlarini o'z ichiga oladi:

- transport;
- safarlar;
- aloqa;
- qurilish;
- sug'urta;
- moliyaviy xizmatlar;
- kompyuter va axborot xizmatlari;
- royalti va litsenziya to'lovlari;
- boshqa biznes xizmatlar;
- shaxsiy, madaniy, rekreatsion xizmatlar;
- xukumat xizmatlari.

Ishlab chiqarish omillari harakati nuqtai nazaridan xizmatlar **omiliy** (factor serves), xalqaro munosabatlari bilan (mamlakatlararo) paydo bo'ladigan ishlab chiqarish omillari joy almashinuviga bo'linadi. Eng avvalo kapital va ishchi kuchlari (ular daromadlarda investitsiyalarga amalga oshiriladi, royalti va litsenziya to'lovlari, norezidentlar tomonidan to'lanadigan ish haqi to'lovlari), va **noomiliy** xizmatlar (non actor services) - qolgan xizmat turlari (transport, sayohat va boshqa nomoliyaviy xizmatlar).

GATT/BJST (VTO) doirasida xalqaro muzokaralar chog'ida 12 sektorga bo'lingan 160 dan ko'proq xizmat ko'rsatish turlari hisobga olinadi:

- 1) ishga aloqador xizmatlar (46 soha xizmat turlari);
- 2) aloqa xizmati (25 tur);
- 3) qurilish va injiniring xizmatlari (5 tur);
- 4) distribyutor xizmatlari (5 tur);
- 5) umumiy ta'lim xizmatlari (5 tur);
- 6) atrof –muhit muhofazasi bo'yicha xizmatlar (4 tur);
- 7) moliyaviy xizmat, sug'urta qo'shilgan holda (17 tur);
- 8) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar bo'yicha xizmat (4 tur);
- 9) turizm va sayohat (4 tur);
- 10) dam olish, sport va madaniyat sohasidagi xizmatlar (5 tur);
- 11) transport xizmatlari (33 tur);
- 12) boshqa xizmatlar.

GATS BJST doirasida xalqaro savdo xizmatlarini taqdim etish usullari bo'yicha tavsiflanadi. Bunda quyidagi xizmat ko'rsatish turlari ajratib ko'rsatiladi: davlatlararo chegara savdo xizmatlari; iste'molchining xizmatlar iste'mol qilinadigan mamlakatda harakatlanishi; xizmat ko'rsatiladigan mamlakatda tijoriy muassasa ishtiroki;

xizmat taqdim etilishi uchun jismoniy shaxsni boshqa mamlakatga vaqtincha ko'chirish. Ko'proq xizmat hajmi (80% ga yaqin summa) 1 va 3-usullarga to'g'ri keladi.

XVFnning xalqaro moliya statistikasi uch guruh xizmatlar bo'yicha ma'lumotlar e'lon qiladi:

§ transport xizmatlari;

§ turizm;

§ boshqa xususiy xizmatlar.

Xizmat ko'rsatishning ko'pchilik turlari xalqaro savdo ob'ekti bo'lishi mumkin. Xizmat ko'rsatishning savdosi –bu notovar tijoriy kelishuvdir. Tovarlar bilan savdodan farqli ravishda xizmatlar eksporti yoki importi bojxona chegarasini albatta kesib o'tishni bildirmaydi. Norezidentga xizmat ushbu mamlakat boshxona territoriyasi ichida ko'rsatilishi mumkin, bu holda kelishuv xalqaro hisoblanadi. Tovarlar eksporti va importi bo'yicha to'lovlar singari xalqaro xizmatlar savdosi to'lov balansida aks ettiriladi.

Xalqaro xizmatlar eksporti xalqaro savdoga nisbatan tez o'sib bormoqda. Xizmat ko'rsatish eksporti 1980 y. 402 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 1990 y. -802 mlrd. dollar, 2000y. – 1435 mlrd. dollar, 2004 y. -1490 mlrd. dollar, ya'ni ikki o'n yillikda 3,6 baravardan ko'proq o'sdi. Xalqaro savdoda tovarlar va xizmatlar eksport ulushi 20% dan ko'proqni tashkil qiladi. Biroq bu ko'rsatkich borgan sari o'sib borayapti. 2015 yilga borib, Rossiya Fanlar Akademiyasi qoshidagi Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar instituti bahosi bo'yicha 25 - 30% ni tashkil qilishi mumkin. Yangi–yangi xizmat turlari xalqaro savdoga qo'shilmoqda. Ilgari milliy doirada cheklangan xizmatlar roli ko'paymoqda (ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqalar). Boshqa tomondan, ko'p hollarda yirik va uzoq muddatli kelishuvlarda mos keladigan xizmatlar eksporti va tovarlar eksportini chegaralash ancha qiyin.

Ta'kidlash lozimki, «ko'rinmas» savdo xususiyati shundan iboratki, ko'pchilik xizmat ko'rsatish turlarini sof holda eksport qilib bo'lmaydi. Chunki xizmatlar ishlab chiqarish jarayonlari va iste'mol jarayonlarini makonda va zamonda (vaqtda) bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan GATS xizmatlar ko'rsatish savdosini amalga oshirishning to'rt usulini ajratadi:

- transchegara davlatlararo savdosi, ya'ni milliy iste'molchi xorijlik yetkazib beruvchi xizmatini sotib oladi;
- kommersiya (oldi-sotdi) asosidagi savdo. Qaysikim, xorijiy kompaniya o'z filialini yaratadi yoki milliy kompaniya chegara savdosi shaklidagi kompaniyalarni o'ziga qo'shib oladi. Yaxshi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi va har yillik iste'molchilarga xizmatlarni sotadi;
- xizmatlarni iste'mol qilish yoki ma'lum bir mamlakatning iste'molchilari xorijdagi xizmatlarni sotib olishi (jumladan, chiqish turizmi);
- jismoniy shaxslar migratsiyasi chog'ida, ya'ni xorijiy jismoniy shaxs mazkur davlat iste'molchisiga xizmat ko'rsatadi (masalan, chet ellik ishchilar kuchi bilan mehmonxona qurilishiga).

Xizmatlar ko'rsatish eksporti soxaviy tuzilmasida 1980 yillar boshigacha, transport xizmati ustunlik qilgandi. Biroq keyingi ikki o'n yillikda tez rivojlangan «boshqa xususiy xizmatlar» turizmga birinchilikni bo'shatib berdi. «Boshqa xususiy xizmatlar» xizmatlar eksportida birinchi o'rinni egalladi (40% dan ziyod). Chunki ular tarkibiga, xususan moliyaviy, informatsion, kommunikatsion, maslahat xizmatlari kiradi.

Xalqaro xizmat ko'rsatishlar almashinuvi eng avvalo sanoati rivojlangan mamlakatlar guruhlarida amalga oshiriladi. Tovarlar savdosidagi singari bu tendensiya mamlakatlar guruhlarida ulushi salmog'ini qisqartirish, ularning savdo xizmatini qo'shishdan iborat (1990 y oxirida 70% gacha). Natijada yangi industrial va boshqa rivojlanayotgan davlatlarda xizmat ko'rsatish sohasi faollashadi.

Xizmat ko'rsatish savdosi hajmi bo'yicha AQSH yetakchilik qilayapti (jahon eksportining 19% ga yaqini va jahon import xizmatining 14% ga yaqini). Xizmat ko'rsatish savdosi maksimal hajmi bo'yicha AQShda TMK kanallariga to'g'ri keladi.

Eng yaxshi xizmatlar ko'rsatish eksportchi o'n davlatlarga AQSH dan tashqari Buyukbritaniya, Fransiya, Italiya, Germaniya, Yaponiya, Ispaniya, Niderlandiya, Belgiya –Lyuksemburg va Gonkong kiradi. Birinchi o'nlik importerga esa – AQSH, Germaniya, Yaponiya, Buyukbritaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Kanada, Belgiya, Lyuksemburg va Xitoy kiradi. Deyarli mos keladigan ro'yxatda Germaniya, Yaponiya, Kanada va Xitoy xizmatlar netto-importyorlari hisoblanadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti tizimida milliy iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish eksportiga ixtisoslashuv haqida ham gapirish mumkin. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda bu eng avvalo moliyaviy, telekommunikatsion, axborot, ishga aloqador xizmatlar, ilg'or texnologiyalardir. Shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash va turizm bo'yicha xizmatlardir. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar ham xizmatlar ishlab chiqarish va taqdim etishga ixtisoslashmoqda. Jumladan turizm sohasi (Turkiya, Misr, Tailand va boshq), transport (Misr, Panama va boshqa ochiq kemachilik reestrlari deb ataladigan davlatlar), moliyaviy (Karib dengizi offshor markazlari va Tinch okeani orollari). Xalqaro xizmat ko'satish savdosida yangi industrial davlatlar, misol Xitoy va boshqa bir qator davlatlarning roli ham oshmoqda. Rossiya transport xizmati ko'rsatish netto-eksporteri hisoblanadi. Bu yerda tranzitni tashkil etish uchun o'zining Yevroosiyo joylashuvidan foydalanish, yuqori texnologiya va xalqaro turizm xizmatlarini rivojlantirishi istiqbollarga ega. Rossiya xizmatlar eksporti tuzilmasida 33 % transportga, 42% turizm va 25% boshqa «har xil xususiy xizmatlar»ga to'g'ri keladi.

Umumiy tarzda xalqaro xizmat ko'rsatish savdosida asosiy rivojlanish tendensiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

- § jahon xizmat ko'rsatish savdosi o'sish suratlarini jahon tovar-aylanmasi o'sish sur'atlariga taqqoslanganda nisbatan dinamikligidir;
- § jahon xizmat ko'rsatish eksporti va importida rivojlangan davlatlar ustunlik roli;

§ jahonning birnecha mamlakatlarida «ko‘rinmas» savdoning yuqori to‘plangani;

§ jahon «ko‘rinmas» savdosi hududiy taqsimlanishida G‘arbiy Yevropa davlatlari ustunlik qiladi, dollarda. Qaysikim, amaldagi tovar aylanmasining deyarli yarimiga to‘g‘ri keladi.

## 2.5. Xalqaro xizmat ko‘rsatish va servis bozorini tartibga solish

Xalqaro xizmat ko‘rsatish va servis bozori tegishli xalqaro tashkilotlar tomonidan tartibga solinadi. Ular orasidan 40 ga yaqin xalqaro tashkilotlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular, xususan Butunjahon savdo tashkiloti (BJST), BMT savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi (YUNKTAD), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR), fan, madaniyat va talim bo‘yicha BMT tashkiloti (YUNESKO), Intellektual mulk butun jahon tashkiloti (VOIS) h.k.

XXI asr boshlarida xizmat ko‘rsatish savdosini tartibga soluvchi asosiy xalqaro aktlardan biri –**Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh bitim (General Agreement on tradein Services, GATS, GATS)**. GATT Urugvay raundi chog‘ida qabul qilingan va Butun jahon savdo tashkilotini tashkil etish haqidagi Bitimga bosh ilovalardan biri hisoblanadi. BJST yuridik asoslaridan biri (GATT -1994 bilan bir qatorda) . GATS birinchi marta diskriminatsiyasiz xalqaro xizmat ko‘rsatish savdosi mexanizmini yaratdi. Uning asosida halol raqobat va kelishilgan qoidalar mujassamlashgan (GATS 35 moddadan iborat, 6 qismga birlashtirilgan, shuningdek ilovaga ega). Xizmat ko‘rsatish savdosining quyidagi jihatlari ko‘rib chiqiladi:

- belgilash va qo‘llanish sohasi;
- umumiy majburiyatlar va qoidalar (nisbatan qulayroq rejim, oshkoralik, rivojlanayotgan mamlakatlar ishtiroki xususiyatlari, iqtisodiy integratsiya hisobi, ichki tartibga solish, himoya choralari qo‘llanish imkoniyati, umumiy hollar, subsidiya va boshq.);
- spesifik majburiyatlar (bozorga kirish, milliy rejim, qo‘shimcha majburiyatlar);
- asta–sekin liberallashtirish (spesifik majburiyatlar bo‘yicha muzokaralar, spesifik majburiyatlar ro‘yxati va ularning o‘zgartirilishi);
- institutsional majburiyat (konsultatsiya, bahslarni tartibga olish va qarorlarni bajarilishi, xizmat ko‘rsatish savdosi bo‘yicha kengash);
- xulosaviy nizom.

Ilovalarda moliyaviy xizmat ko‘rsatish batafsil ko‘rib chiqiladi, ularning tavsifi beriladi, belgilashlar keltiriladi va GATS qoidalari va umumiy majburiyatlardan olish imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

GATS tartibga soladigan xizmatlar savdosida milliy chegara orqali ko‘chadigan xizmatlar ham bitim ishtirokchilari mamlakatlar territoriyasida ishlab chiqariladigan va xorijiy jismoniy va yuridik shaxslar iste‘mol qiladigan xizmatlar ham qo‘shiladi.

GATS ikki tur majburiyatni ko‘zda tutadi:

§ umumiy, ya'ni so'zsiz tartibda mamlakat tomonidan qabul qiladigan;

§ spesifik, ya'ni u yoki bu mamlakatlar xizmatlar bozoriga kirishning aniq shartiga dahldor.

Umumiy majburiyat – bu eng avvalo ko'proq qulay rejim (RNB), u ishtirokchi mamlakatlarini milliy xizmatlar bozoriga kirishni teng ta'minlaydi, ammo bunday kirish shartlarini belgilamaydi. GATSni imzolay turib, davlart darhol o'zining xizmatlar bozorining barcha sektorlarida yetkazib berishni milliy rejim darajasigacha liberallashtirishga majbur emas. Kirish haqidagi muzokaralar chog'ida xizmatlar alohida sektorlari uchun milliy iqtisodiyot siyosati va rivojlanish darajasi istiqbollarini hisobga olgan holda o'tish davri ma'lum davomiyligiga erishishi mumkin. Xizmatlar bozorining bunday keyingi liberallashtirilishi ko'p tomonlama yangi muzokaralar o'tkazish bilan bog'liq bo'ladi.

Xizmatlar turlari turli darajada liberallashtirilgan. Turli guruh mamlakatlar xizmatlar bozori ochiqligiga har xilda manfaatdorarlar. Ammo biroq BJST a'zolari bo'lgan ko'pchilik mamlakatlar milliy rejimdan olingan, yoki hatto qo'lay rejimni saqlashadi. Tabiiyki xizmatlar bozorini liberallashtirilishidan avvalo rivojlangan davlatlar va trans milliy korporatsiyalar manfaatdor. Xizmatlar bozorining turli sektorlari bir xil darajada liberallashtirilmagan. Ko'proq ochiq sohalarga turizm kiradi. 1990 yilda telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari bozorlarini liberallashtirish to'g'risida bitim tuzildi. U nafaqat gurkirab rivojlanib borayapti, balki arzonlashayapti ham, shuningdek moliyaviy xizmatlar bozorida sug'urta va kredit qiymatlarini pasaytirishga olib kelishi mumkin.

### **3.§. Xalqaro turizm**

**Turizm –xalqaro** xizmatlar savdosida muhim sohalardan biri bo'lib, ayni paytda jahon iqtisodiyotining jadal sur'atlarda o'sayotgan sohalridan biridir. Bu soha biznesning ko'proq daromad keltiradigan turlaridan. U yirik investitsiyalarni jalb etadi. O'sib borayotgan bandlikni ta'minlaydi. Daromad tushumini ko'paytiradi va shu jumladan mamlakatda davlat byudjeti tushumini ta'minlaydi.

Turizm o'zida jahon iqtisodiyotining murakkab va har tomonlama sohasini mujassam etgan holda, butun jahon xo'jaligiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Turizm aloxida mamlakatlar xo'jaligiga ham, xududlarga ham birday tegishli. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi valyuta tushumlarining yagona manbai hisoblanadi. Uning sharofati bilan iqtisodiy taraqqiyot yuqori darajasi va xalq turmush farovonligi qo'llab –quvvatlanib turiladi. Turizm jahon xo'jaligining uch yetakchi eksport sohalari qatoriga kirib, u faqatgina neft qazib olish va avtomobilsozlik sanoatlaridangina keyingi o'rinni egallaydi.

Hozirgi paytda turizm sohasi ulushiga butun jahon eksportining 8%ga yaqini, jahon xizmatlar savdosining 30%, jahon yalpi mahsulotining 10,8%, jahon kapital qo'yilmalarining 9,4%, jahon iste'molchilik harajatlarining 11%, butun jahon soliq tushumlarining 5% to'g'ri keldi. Bundan tashqari, turizm sohasi



aholining bandligiga katta ta'sir o'tkazmoqda. Mutaxassislar bahosicha, hozirgi zamon turizmi va uning bilan bog'liq bo'lgan sohalarida jahondagi har sakkizinchi xodim banddir.

Jahonning ko'pchilik davlatlarida turizm yagona tizim sifatida rivojlanib bormoqda. Qaysikim u mazkur mamlakat va uning xalqaro tarixi, diniy, ma'naviy, madaniy hamda urf-odatlar bilan tanishish imkoniyatlarini yaratib beradi. Turizm mamlakatlar byudjetiga salmoqli daromad keltiradi. Shuningdek u juda ko'pchilik xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq jismoniy va huquqiy shaxslarga yordam ko'rsatadi. Turizm sohasi nafaqat eng yirik, balki jahon iqtisodiyotining eng dinamik holda rivojlanayotgan sektorlaridan biridir. U tez suratlarda o'sishi bilan yuz yilning iqtisodiy fenomeni hodisasi sifatida tan olingan. XX asrning ikkinchi yarmi davomida xalqaro turistlar soni salkam 28 martaga ko'paydi, bu xizmat turidan tushgan tushumlar esa 237 martaga ortdi.

Butun dunyo bo'yicha turistik xizmatlarga o'sib borayotgan talab eng avvalo ijtimoiy – iqtisodiy sabablar bilan izohlanadi (umumiy daromadlar o'sishi va bo'sh vaqt ko'payishi, haq to'lanadigan ta'tillar muddati ko'payishi, pensiya ta'minotining yetarli darajasi, oila tarkibida bolalar kamayishi evaziga o'zgarishi va h.k), shuningdek transport taraqqiyotidagi o'sish, uni arzonlashishi va hammaning qurbi yetishi, valyuta cheklovlarining kamaytirilishi yoki bekor qilinishi, viza rejimini liberallashtirilishi kabilar.

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi turizm ham xalqaro, ham milliy tartibga solishning ob'ekti hisoblanadi. Xukumatlararo turizmning rivojlanishiga javob beruvchi yetakchi tashkilot, BMT bosh assambleyasi butunjahon turistik tashkiloti (World Tourist Organisation, WTO- BTT) ni tan oladi. BTT 1975 yildan buyon xalqaro turistik tashkilot rasmiy ittifoqi merosxo'ri sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

BTT a'zolikning quyidagi kategoriyalarini o'z ichiga oladi: 1) haqiqiy a'zolar (Suveren davlatlar, shu jumladan, ko'pchilik MDH mamlakatlari va Rossiya); 2) assotsiyalashgan a'zolar (o'zining tashqi siyosatiga mustaqil mas'ul emas hududlar); va 3) qo'shiluvchi a'zolar (hukumatlararo, nodavlat va notijoriy tashkilotlar va birlashmalar, ya'ni sohada faoliyat ko'rsatayotgan, turizm uchun qiziqish bildirayotgan).

BTT xalqaro turizmi tashkil qilish bo'yicha bir qator deklaratsiyalar va boshqa hujjatlar qabul qilgan, shu jumladan turizm bo'yicha Hartiya va turist xulqi Kodeksi (1985y), statistik spravochniklar va prognozlar nashr qiladi, turistik biznes uchun ma'lumotlar axborot bankini taklif qiladi. Unda xalqaro turizm uchun zarur bir qator muhim tushunchalar qayd etilgan («turizm», «turist» singari va boshqa).

Turizm salomatlikni mustahkamlashga yordam beradi va yashash joyidan tashqariga chiqish va faol dam olishni belgilaydi. Turizmدا «turist» (tashrif buyuruvchi) va «ekskursiyant» tushunchalari ajratiladi. **Turist – bu har qanday shaxs, qaysikim boshqa davlat hududida kamida 24 soat qoladi, lekin sog'lomlashtirish, bilimni boyitish, kasbiy – ishga doir, sport, diniy va boshqa maqsadlarda, vaqtincha yashayotgan mamlakatda shug'ullanishsiz to'lanadigan faoliyatda 1 yildan ortiq qolish mumkin emas.** Anna shunday

belgilanish orqali turizm va iqtisodiy migiratsiya o'rtasidagi chegara aniqlab olinadi. Xalqaro bitimlar bo'yicha turist maqomi sayohatchi uchun qator imtiyozlar yaratadi, qaysikim, soddalashtirilgan viza rejimi va yashash hamda transport xizmatlaridagi to'lovlarda chegirmaga ega.

**Chet elda 24 soatdan kam bo'lmagan sayohatchi ekskursant hisoblanadi va bu kategoriya avvalo G'arbiy Yevropa va Sharqiy O'rtayer dengizi mamlakatlarida keng tarqalgan.**

Turizm o'zida turistik industriyaga birlashgan butun bir xizmatlar majmuasini mujassamlashtirgan: mehmonxonalar, boshqa vaqtincha joylashish vositalari (motellar, kempinglar va boshqalar), umumiy ovqatlanish ob'ektlari, ko'ngilochar ob'ektlar va vositalar, bilimni boyitadigan ob'ektlar, ishga aloqador, sport va boshqalarga mo'ljallangan xizmatlar. Turistik industriyaning tarkibiy qismi bo'lib, o'z turistik biznesi hisoblanadi. Turistik biznesda harakat qiladi: a) turistik mahsulotlar (tur) ishlab chiqaradigan turoperatorlar – firmalar; b) turagentlar – mustaqil firmalar yoki turoperatorlar agentlari, qaysikim, turoperator bilan yozma kelishuvga muvofiq turistik mahsulotlarni tarqatadi. **Turistik industriya** – ko'p mablag' va mehnat talab qiladigan soha. BTT bahosi bo'yicha, 1990 y. oxirida xalqaro turizm ulushiga jahon ichki yalpi mahsuloti (IYAM)ning 11%, tovar va xizmatlarning jahon eksportini 6% va ishchi o'rinlarining 10%ga yaqini to'g'ri kelgan. Barcha mamlakatlar bo'ylab tashrif buyuruvchi turistlar har yilgi soni 900 mln. kishiga yetdi. Shu bilan birga o'n yilda xalqaro turizm bir yarim martaga o'sdi va o'sishi davom etayapti. O'sish sur'atlari bo'yicha jahon IYAM o'sishini quvib o'tayapti. Bu ham XXI asr boshidanoq xalqaro turizmni jahon iqtisodiyotining yirik sohasiga aylanishi haqida mulohazalar bildirishga asos bo'la oladi. Ammo sayohat dinamikasi milliy iqtisodiy kon'yukturasiga, shu jumladan jahon xo'jaligiga juda sezgir.

Hozirgi zamon turizmi uchun sezilarli xududiy notekislik harakterlidir. Bunday qaraganda, u umumiy ko'rinishda har xil ijtimoiy –iqtisodiy darajani aks ettiradi. Masalan, hozirgi vaqtda rivojlangan davlatlarga barcha turistik kelishlarning 57%, endi rivojlanayotgan mamlakatlarga 30%, o'tkinchi iqtisodiyot mamlakatlariga 13% to'g'ri keladi. Turistik kelishlarning regional tahlili va daromadlari tahlili chog'ida jahonning oltita turistik makroregionlari ajratiladi:

1. **Yevropa** – G'arbiy, Shimoliy, Janubiy, Markaziy va Sharqiy Yevropa, Sobiq SSSR respublikalari qo'shilgan holda, shuningdek Sharqiy O'rta yer dengizi davlatlari (Isroil, Turkiya, Kipr);
2. **Amerika** – Shimoliy, Janubiy, Markaziy Amerika mamlakatlari, Karib havzasi xududi va orol davlatlari;
3. **Osiyo –Tinch okeani** – Sharqiy va Janubi – Sharqiy Osiy, Avstraliya va Okeaniya;
4. **Afrika** – Afrika mamlakatlari, Misr va Liviyadan tashqari;
5. **Janubiy Osiyo** – Janubiy Osiyo barcha mamlakatlari;
6. **Yaqin Sharq** – G'arbiy mamlakatlari va Janubi – G'arbiy Osiy, Misr va Liviya.

Deyarli 62% xalqaro turistik safarlar dam olish maqsadida amalga oshiriladi, ishga aloqador turizm 20%, qolgan 18% esa boshqa maqsadlarga: tanishlar,

qarishdoshlarnikiga tashrifni, diniy sayohat (ziyosat, davolanish va h.k.)ni tashkil qiladi.

44% ga yaqin xalqaro turistlar mo'ljallangan manzillarga havo transportida, 42% - avtoyo'l (avtomashina va avtobus)larda, 8% - dengiz va nihoyat 7% temiryo'l orqali yetib kelishadi.

2020 yilgacha bo'lgan davrda xalqaro kelishlar BTT prognozlarini bo'yicha ikki martadan ziyodroqqa ko'payadi. (2003 y. 694 mln. dan 2010 yilga 1 mlrd. gacha va 2020 yilgacha 1,56 mlrd. gacha). Bu o'rtacha o'sish sur'atlaridan ozgina ko'p yiliga 4% shu bilan birga yillik o'sish sur'atlari Osiyo – Tinch okeani hududida, Janubiy Osiyo, Afrika va O'rta Sharq 5% oshadi. Yevropa va Amerikada esa o'sish ko'rsatkichlari o'rtachadan past (tegishli ravishda 3 va 3,9%) bo'ladi.

BTT va YEI komissiyasi prognozlarini asosida turistik industriyaning quyidagi asosiy rivojlanish tendensiyalari ajratiladi:

- § uzoq masofaga hududlararo safar ulushi ortadi (1995y. 17,9% ni tashkil etadi, 2020 yilga borib esa 24,2% gacha ko'payadi). Bunday safarlarga keyingi va tez narx tushishi tendensiyasi kuzatiladi, ayniqsa yuqori tezlikdagi aviatexnika keng tarqala boshlagach shunday bo'ladi;
- § turizmga tashqi omillar ta'siri kuchayadi; iqtisodiy vaziyat, siyosiy, sayohat xavfsizligi darajasi;
- § turizmga sezilarli ta'sir o'tkazadi; kompyuter rezervatsiya tizimi, texnologik taraqqiyot aviatashish takomillashuvi, elektron axborot, kommunikatsion tizim;
- § havo transportidan foydalanish kengayadi (qulay, to'g'ridan –to'g'ri reyslar soni ko'payishi natijasida);
- § hamma turdagi sayohatlarga harajatlar, birinchi navbatda transportga, oila byudjeti boshqa statiyalariga qaraganda tez ko'payadi (bugungi kunda o'rtacha klass oila byudjetida turizmga 8.12 ajratilayapti. Bu ovqat, kiyim – kechak, mebelga ajratilgan harajatlardan ko'pdir va faqat uy-joy harajatlaridan keyin turadi. Sayohat tez-tez bo'ladigan bo'ladi, lekin davomiyligi kamayadi.

Sayohatga harajatlar yanada sifatliroq dam olish evaziga ortadi:

- § bozor kon'yukturasi mavsumiy o'zgarishi yaqin kelajakda turizm industriyasi uchun muammo bo'lmay qoladi. Chunki marketing ulardan qulay foydalanish imkonini beradi;
- § boshqa yosh guruhlariga nisbatan ikki yosh guruhlar faol sayohat qiladilar: yoshlar va keksalar;
- § bozorning marketing segmentlanishi yorqinroq aks etadi. Taklifni har bir guruh ehtiyojiga qarab ko'rish zarur bo'ladi;
- § atrof –muhit holati turistlarni jalb etishda asosiy mustahkam omillardan biri bo'ladi, ayniqsa qishloq va qirg'oq bo'yi rayonlarda;
- § turizmga talab o'sishda davom etadi, ayniqsa madaniy diqqatga sazovor joylarni ko'rish, shuningdek faol dam olishga talab oshadi.

Sobiq SSSRda xalqaro turizm qat'iy monopoliyalashtirilgan ozginagina tashkilotlar doirasida davlat monopoliyasining tashqi faoliyatiga muvofiq ravishda

shakllangandi. Kirish (xorijiy) turizmi «inturist» davlat tashkiloti orqaligina amalga oshirilardi. Chiqish esa turizm va ekskursiyalar bo'yicha markaziy Sovet tomonidan bajarilardi. Bu tashkilot VLKSM MK huzuridagi «Sputnik» yoshlar xalqaro turizm Byurosi va Butunittifoq kasaba uyushmalari Markaziy soveti huzurida tashkil etilgan bo'lib, rasman jamoat tashkilotlari tasarrufida hisoblanardi.

Fuqarolarning xalqaro safarlari tez o'sishi 1980 y. ikkinchi yarmiga to'g'ri keldi. Bu davrda asosiy xalqaro almashinuv SSSR va Markaziy hamda Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'rtasida amalga oshirildi. SSSR sharoitida xalqaro turizm maksimal hajmiga 1989 yilda erishildi (turistlar kirishi – 2,3 mln. kishi, chiqishi – 2,2 mln. kishi).

#### **4.§. Transport xizmati ko'rsatish xalqaro bozori**

Xalqaro iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish chog'ida transport yuklar, yo'lovchilar, bagajlarni tashishni ta'minlaydi. Xuddi shular ikki va ko'proq milliy davlatlar o'rtasida transport operatsiyalarini tashkil qiladi. Xalqaro savdoda tovarlarni yetkazib berish jarayoni qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

- § tovarni eksportchi mamlakatlar ichkarisida chegara punktigacha yoki mazkur mamlakatlar portigacha tashib berish;
- § tovarni chegara punktidan (portdan) importer mamlakat ichki iste'mol punktigacha yetkazib berish;
- § tranzit (uchinchi mamlakat orqali) yoki agar tovarni eksportchi mamlakat va importchi mamlakat umumiy chegaralarga ega bo'lishmasa dengizda tashib beriladi. Transport operatsiyasi agar ular tranzit yoki dengiz yo'li bo'lib tashish bilan bog'liq bo'lsalar xalqaro hisoblanadi.

Xalqaro transport xizmatlari xalqaro transport bozorida sotiladi va sotib olinadi, qaysikim, transport turi tashiladigan yuklar xili, shuningdek xududiy xususiyatlarga ko'ra farqlanadi. Xalqaro transport aloqalar to'g'ridan –to'g'ri (ortish -tushirishsiz), to'g'ridan –to'g'ri va aralash (turli transport xillaridan foydalanish bilan, ammo yagona transport hujjati bilan), aralash (ikki va ko'proq transport turidan foydalanib) shaklda bo'ladi.

Xalqaro transport xizmatlari nafaqat bevosita tashish faoliyati, balki bir qator yo'l –yo'lakay operatsiyalar hamdir (yukni yaqindagi yuk terminaligacha eltish – port, temiryo'l tuguni va boshqalar; yukni qayta yuklash, tashiladigan yuk va tovarlarni bagajlarni tushirish; oraliq manzillarda vaqtincha saqlash, uni qo'riqlash, hujjatlarni qayta rasmiylashtirish, ba'zan sug'urtalash). Transport magistral turlariga to'lovlar bilan bog'liq va yo'l –yo'lakay operatsiyalarga to'lovlar harajatlari yuk egasining transport sarflarini tashkil qiladi.

Xalqaro transport jarayonlarida firma – yuk egasi va tashuvchi firmalar ishtirok etishadi, qaysikim o'rtalarida tashishga shartnoma tuziladi. Transport operatsiyalarida yuk egasidan tashqari stividorlar – firmalar (yuk terminallari operatorlari) ishtirok etishdi. Ular bilan xizmat ko'rsatishga firmalar ekspeditorlari ham shartnoma tuzadilar (ayrim mamlakatlarda ekspeditorlar fraktov agentlar, komissionerlar, brokerlar va h.k. deb ataladilar). Shartnoma bo'yicha yuk egasi

ekspeditori vositachi ekspeditorga uning aytilgan yuki bilan operatsiyalarni aniq bajarishni topshiradi: ortish –tushirish, yuklarni saqlash, yuk va bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish, stividorlar va tashuvchilar bilan hisob –kitob, sudlar va arbitrajlarda va boshqalarda o‘zining tijoriy manfaatlarini himoya qilish. Yuk egasi firma ekspeditori yoki bosh ekspeditor bilan bevosita shartnoma tuzishi ham mumkin. Ular butun tashish tashkiliy ishlarini o‘z zimmlariga olishadi.

Hozirgi zamon transport tarmog‘i va transportda tashish tuzilmasi jahon iqtisodiyoti rivojlanishi jarayonida vujudga keldi va xalqaro mehnat taqsimotida o‘z navbatida ko‘rsatilgan jarayonlarda faol rol o‘ynaydi. Umumiy tendensiya shundan iboratki, xalqaro yuklarni tashish xalqaro savdoga nisbatan sust o‘sayapti. Chunki tashiladigan xom ashyo hajmi, ayniqsa neft, sust o‘sayapti yoki umuman o‘smayapti. Material talab ishlab chiqarish xom ashyo manbaiga qarab ko‘chayapti. Transport tarmog‘i ortayapti, ammo transport har xil turlari bo‘yicha notekis bo‘layapti. Umumjahon ichki yalpi mahsulot – (IYAM)da transport ulushi, ayniqsa rivojlangan mamlakatlar IYAM da qisqarayapti Xuddi shunday bu tovarlar narxini tashkil etuvchi transport kattaligiga ham taaluqli (1990 yillarda 6%ga yaqin).

Xalqaro transport infratuzilmasi transport terminallari qo‘shilgan holda ko‘pincha davlat hisobiga yaratiladi va davlat tomonidan nazorat qilinadi. Xususiy temir va avtomobil yo‘llari mavjudligi umumiy qoidalarga zid kelmaydi. Boshqa tomondan, transport vositalari odatda xususiy mulkdir, transport xizmatlari bozorida deyarli xususiy kompaniyalar xizmat ko‘rsatadi. Bunga qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, xalqaro tashish va xalqaro transport yo‘li ichki yo‘llardan aloqada emas, va o‘sha bitta transport firmasi ham ichki ham xalqaro tashish bilan shug‘ullanadi. Xalqaro tashish mintaqaviy regional va umumjahon darjasida ko‘p tomonlama bitimlar bilan tartibga solinadi. Bu sohada ko‘p sonli (100ga yaqin) davlatlararo tashkilotlar, shu jumladan BMT ixtisoslashgan organlari: Xalqaro dengiz tashkiloti (International Maritime Organisation – IMO, IMO) va xalqaro fuqaro aviatsiyasi bo‘yicha tashkilot (International Civil Aviation Organisation, ICAO, IKAO) faoliyat ko‘rsatayapti.

Jahon transport tarmog‘i doimiy ravishda o‘sayapti, lekin transport turlari bo‘yicha bir tekis emas. Qaysikim yuk tashish tuzilmasida o‘zgarishlar va ilmiy – texnik progressda aks etadi. Masalan BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, XX asrning ikkinchi yarmida temiryo‘llar tarmog‘i va ichki suv yo‘llari hatto qisqargan. Avtomobil yo‘llari uzunligi ikki barovar ortgach, havo yo‘llari esa 3 –marta o‘sgan. Ayni paytda neftquvuri va neft mahsulotlarini tashish 4,2 marta ko‘paygan, magistral gazoprovodlar esa 6,5 martaga oshgan.

Jahon transport yuk aylanmasi tuzilmasi 2000 yilda 49 trln. t/km.ga yetgan. Shu yo‘nalishda transport tarmog‘i uzunligi o‘zgarayapti: temiryo‘l transporti salmog‘i pasaymoqda, dengiz transporti salmog‘i mana 30 yildir kim 61-62% darajada saqlanib turibdi. Qolgan transport turlari salmog‘i ortayapti. 1990 yillarda transport turlari bo‘yicha yuk oboroti tarkibida prinsipial o‘zgarishlar ro‘y bermadi. Temiryo‘l va avtomobil transporti o‘rtasida kuchayib borayotgan raqobat o‘ziga diqqatni tortayapti. Bunda avtomobil transporti g‘olib chiqmoqda.

Xalqaro yuklarni tashishda taraqqiyot sur'atlari susaygan bo'lsada, dengiz transporti hamon yetakchilik qilib kelmoqda. So'ngi yillarda dengizda yuklarni tashish 3,7 dan 5,1 mlrd. tonnagacha o'sdi, neft va neft mahsulotlari tashish hajmi 43%ni tashkil qiladi. Bosh yuklarni tashish tezroq o'sayapti, ayniqsa konteynerda tashish jadal tus olayapti. Aloxida axborot xizmatlari ma'lumotlari bo'yicha jahon savdo dengiz floti 29,1 mingta kemaga ega bo'lgan. Ularning umumiy tonnaji 776 mln. dedveytni tashkil qilgan holda, 32% tankerlarga to'g'ri kelgan, 34% balkerlar va qolganlari – bosh yuklar kemalari va boshqa tipdagi kemalardir. Yirik kemalar egalari –Gresiya (17,6% tonnaj), Yaponiya (12,7%), Norvegiya (7,7%), AQSH va Gonkongdir. Birinchi o'nlikka shuningdek Xitoy, Koreya, Buyukbritaniya, Germaniya, Shvesiya kiradi. Tonnaj bo'yicha Rossiyaga dunyoda 13 o'rin tegishli (2,1%). Ammo biroq 42% barcha kemalar (58% jahon tonnaji) ochiq kemachilik registridagi mamlakatlar bayrog'i ostida suzadi. Boshqacha aytganda, ular «qulay» yoki «arzon» bayroqlar bilan suzadi. Qulay bayroqlar kema egalariqa soliqlar, mehnat haqi va boshqa parametrlar bo'yicha harajatlarni minimallashtirish imkonini beradi. YUNKTAD ochiq kemachilik registriga Liberiya, Panama, Kipr, Singapur, Bermud orollari va Bagam orollari hamdo'stligini kiritadi. Ammo bu o'ziga xos soliq gavanalari ro'yxatiga boshqa mamlakatlarni ham kiritish mumkin. Ochiq kemachilik registri mamlakatlar orasida birinchi o'rinda Panama (16,3% jahon tonnaji), Liberiya (12%), keyingi o'rinlarda Malta, Bagam va Kipr turibdi.

Transport kommunikatsiyalari jahon tizimi kengayishida davom etayapti. Uni taraqqiyotidagi bosh yo'nalishi – transportning turli xillari ishini sinxronlashtirish, aralash tashishlarda ularni birgalikda ishlashini ta'minlash. Xalqaro masshtabda bunday tashishlarni ta'minlashda transport koridorlari yaratish tajriba qilib ko'rilmoqda, shu jumladan, RF, Markaziy Osiyo va Kavkaz orti mamlakatlari territoriyasida.

Temir yo'llar yagona tarmog'i shuningdek, magistral truboprovodlar nafaqat umumiy iqtisodiy kengliklar mavjudligini, balki mamlakatlarning siyoyosiy birligini ta'minlaydi. Ko'pgina mamlakatlarda temiryo'llar va magistral truboprovodlar davlat mulki bo'lib hisoblanadi. Dengiz, daryo, avtomobil va aviatsiya transportlari aksiyalashtirilgan va xususiyashtirilgan.

Xalqaro transport xizmati ko'rsatishda tarif siyosati katta ahamiyat kasb etmoqda. Investitsiyalar jalb etilayapti va davlat boshqaruvining maqbul yo'llari qidirilayapti. Temiryo'llar va magistral truboprovodlarni bozoriy tartibga solish choralari ko'rilmoqda.

## **5.5. Texnologiyalar bilan xalqaro savdo qilish**

Texnologiyalar bilan xalqaro savdo – tijoriy asosda xorijiy kontragentga ilmiy –texnik faoliyat natijalarini yetkazib berishdir. Bular nafaqat ilmiy, balki amaliy tajriba boyliklari hamdir.

Texnologiyalar bilan xalqaro savdo ob'ektlari bo'lib, intellektual faoliyat natijasida buyumga aylantirilgan va buyumga aylantirilmagan shakllar hisoblanadi va bu shakllar o'rtasida aniq chegeralar yo'q. Xalqaro texnologiya bozori

sub'ektlari sifatida davlat, oliy o'quv muassasalari va ilmiy tadqiqot tashkilotlari, turli firmalar va fondlar, shuningdek jismoniy shaxslar –ixtirochilar, olimlar chiqishi mumkin. Texnologiya intellektual mulk qismi hisoblanadi va tegishli tarzda milliy qonunchilik va xalqaro bitimlar bilan qo'riqlanadi. BMT tizim maxsus muassasa –**Butunjahon intellektual mulk** tashkiloti (World Intellectual Property Organisation, WIPO, VOIS) faoliyat ko'rsatadi. U ko'p sonli konvensiyalar, shartnomalar va davlatlar ittifoqiga tayanib ish yuritadi.

Texnologiyalar almashinishida quyidagi bosh xillarni ajratish mumkin: Ixtiro shaklidagi bilim va tajriba sanoat nusxalari, tovar belgilari, foydali modellar. Ixtirolar, ularni muallifligi va monopol huquqidan foydalanishni mustahkamlovchi davlat guvohnomasi –patent. Patent faqat berilgan mamlakatida amal qiladi, shuning uchun chet el patentligi keng tarqalgan. Agar patent egasi patentdan foydalanmasa, uni sotishi yoki litsenziya bitimga asosan foydalanishiga ruxsat berishi mumkin. Chet ellik kontagentga litsenziya berish xalqaro litsenziyalash deb ataladi.

Litsenziya bitimining uchta asosiy turi mavjud. **Oddiy** litsenziyani sotish chog'ida patent egasi –litsenziya beruvchi litsenziya ob'ektidan mustaqil foydalanish huquqini o'zida saqlab qoladi. Uni uchinchi shaxsga berish ham mumkin. **Mutloq** litsenziya shartnomasi tuzilayotganda litsenziya beruvchi sotib oluvchiga litsenziya ob'ektiga mutlaq huquq taqdim etadi. Lekin bu ob'ektni o'zi mustaqil ishlab chiqarish huquqini saqlab qoladi. **To'liq** litsenziya shartnomasi tuzish chog'ida litsenziya beruvchi shartnoma muddati davrida litsenziya ob'ektidan foydalanish huquqiga ega emas.

Litsenziyalar bilan xalqaro savdo – texnologiyalar bilan almashinuvning asosiy shaklidir. Litsenziya to'lovlari (litsenziya uchun to'lov) davriylikka – royalti va bir vaqtning o'zida – paushalga bo'linadi. **Royalti** – bu intellektual resurslar uchun renta. U litsenziya haridorining daromadidan ajralma ko'rinishida bitim muddati davomida to'lanadi. **Paushal to'lov** –litsenziya bitimida qat'iy belgilangan summa, ishlab chiqarish hajmi va mahsulotning sotilishiga bog'liq emas.

Ilmiy –texnik, ishlab chiqarish, boshqaruv, tijoriy, moliyaviy va boshqa harakterdagi nou –xau degan umumiy nomga birlashgan bilim va tajriba ular maxsus muhofaza hujjatlari bilan emas, konfidensial himoya qilingan, hujjat ko'rinishida bevosita amaliy ishlab chiqarish tajribasi sifatida uzatiladi.

Texnologiyalar bilan xalqaro almashinishga xalqaro injiniring va ishga doir turli xil xizmatlar qo'shiladi. Xalqaro injiniring – bu chet el kontragentiga komplek yoki alohida injener –texnik turini taqdim etish. Bular loyihalash, qurilish ob'ektni foydalanishga topshirish, korxonaga yangi texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishga buyurtma olish, boshqaruv, marketing va pudrat xizmatlari ko'rsatishdan iborat.

Xalqaro texnologiyalar almashinishda oldingi o'rinlarni sanoati rivojlangan mamlakatlar – AQSH, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya egallaydi. Yangi industrial mamlakatlar Xitoy va Xindistonning roli oshmoqda. Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotiga ilmiy –texnika progressi hissasi hal qiluvchi bo'lmoqda. Boshqa tomondan, ilmiy –texnika taraqqiyoti ilmiy –tadqiqotlarga va konstruktorlik –

tajriba ishlari (NIOKR)ga sarflanadigan mablag'larga, ilmiy, injener kadrlar tayyorlashga va innovatsion sohada davlat olib borayotgan siyosatga bog'liq. Masalan 2004 y. NIOKRda harajatlar ulushi AQSH, Yaponiya, Germaniyada IYAMning 2,7 -2,9% ni, Fransiya va Buyuk Britaniyada 2,3 – 2,4%ni tashqil qildi. Yangi industrial mamlakatlar Yevropa ko'rsatkichlariga yaqinlashmoqda, Koreya Respublikasi esa AQSH ko'rsatkichiga yetay deb qoldi. NIOKRni moliyalashtirish bo'yicha asosiy harajatlar tadbirkorlik tartiblariga to'g'ri keladi (OESR mamlakatlari bo'yicha 67%), lekin davlat byudjeti ulushi ham katta (AQShda 33%, NIOKR, 2004 y .)

## 6.5. Jahon konsalting xizmatlari bozori

Konsalting xizmatlari allaqachon butun jahon industriyasi iqtisodiyoti sohasi hisoblanadi. Qaysikim, u yuksalish jarayonlarini o'z boshidan kechirmoqda. Konsaltingni, individual faoliyatdan industriyaga aylanishi asosiy belgilari sifatlaridan biri shunda ko'rinadiki, konsalting xizmatlarining katta qismi individual konsultantlar tomonidan emas, balki korporatsiyalar tomonidan (konsalting firmasi) taqdim etiladi. Bu xizmat sohasi ko'proq Shimoliy Amerika (AQSH va Kanada), G'arbiy Yevropa, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Singapurda rivojlangan. Ammo konsalting firmalari jahonning deyarli hamma mintaqasida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Hozirgi kunda dunyoda ikkita yetakchi xalqaro kasbiy (professional) konsalting firmalar birlashmasi mavjud:

**1. Iqtisodiyot va boshqaruv bo'yicha konsultantlar assotsiatsiyasi Yevropa federatsiyasi (FEAKO).** Unga 1960 y. Parijda asos solingan. 1991 yilda esa uning shtab –kvartirasi Bryusselga ko'chirilgan. Hozirgi paytda Yevropa mamlakatlarining 25 milliy assotsiatsiyalari (har bir mamlakatdan bittadan, jumladan, G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan 17 ta va Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan 8ta) FEAKO a'zolari hisoblanadi. Assotsiatsiyalar – FEAKO a'zolari hisoblanadi. Assotsiatsiyalar – FEAKO a'zolari 12000 konsultantga ega, 1200 konsalting firmalarni o'z ichiga oladi.

**2. Menejment – konsalting firmalar assotsiatsiyasi (AMKF).** 1929 yilda asos solingan. U dunyoda eng eski konsalting assotsiatsiyasi hisoblanadi. Bo'lajak AQSH konsalting firmalari milliy assotsiatsiyasi (AKME) 1990 yil o'rtalariga kelib o'zini xalqaro assotsiatsiya sifatida ko'rsatdi. O'zining nomini «Butunjahon konsalting firmalar assotsiatsiyasi» deb atadi. FEAKOdan farqli ravishda AKME hozircha millatlararo emas, balki trans milliy birlashmadir. Chunki uning xalqaro maqomi shunga assoslanganki bu tashkilot a'zosi bo'lib yirik Amerika konsalting firmalari hisoblanadi. Ular dunyoning barcha mintaqalarida filiallarga ega.

Kasbiy konsalting assotsiatsiyasidan tashqari yana boshqa tashkilotlar ham mavjud. Qaysikim, konsultantlar menejment sohasida boshqa mutaxassislariga qo'shiladilar: o'qituvchilar, professional menejerlar va h.k. bu tashkilotlarga kiradi:

- Menejment taraqqiyoti Yevropa fondi (EFMD);



- Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari menejment taraqqiyoti assotsiatsiyasi (CEEMAN);
- Amerika menejment assotsiatsiyasi (AMA);
- Butunyanon menejment tashkiloti federatsiyasi (ZEH – NOH- REN).

Xalqaro konsalting xizmatlari taraqqiyoti harakterli xususiyatlari shundaki, unga yirik auditorlik firmalarini faol joriy etish kiritilgan. Qaysikimki, yuqori elitalari ulkan qo‘shilishi natijasida uning saflari asta –sekin torayib 1980 yillar boshida «katta sakkizlik»ni tashkil etdi. 1990 yilga kelib, «oltilik», bugungi kunda «katta beshlik» ko‘rinishini oldi. Hozirgi «katta beshlik» ishtirokchilariga «Prays Uotexua Kuprez», «Ernst end Yang», «KPMG», «Deloyt end Tush», «Artur Andersen»lar kiradi.

Konsultatsiya berish buxgalterlik xizmatlari tabiiy davomi sifatida rivojlana boshladi. Bu firmalar jadal sur‘atda o‘z manfaatlari ufqlarini kengaytirdilar va operatsion konsaltingda yetakchilikni egalladi. Ya‘ni, operativ boshqaruv muammolarini hal etish sohasida boshqaruv hisobini va boshqaruv hisobotini yo‘lga qo‘yishni amalga oshirdi. Ichki moliyaviy menejment va asosiy biznes – funksiya turli aspektlarini tartibga soldi. Bundan tashqari, konsultatsiya xizmatlari daromadlari oshishini tez baholab, an‘anaviy auditlarga taqsimlangan holda strategik konsalting maydonida faol raqobat olib bora boshladi.

Hozirgi zamon jahon industriyasi boshqaruv konsaltingida yuqori dinamik taraqqiyot kuzatilmoqda. Uning doirasida o‘n yillik yetakchilar ulushi to‘xtovsiz o‘smoqda.

Boshqaruv konsaltingi industriyasining gurkirab o‘sishi bilan parallel ravishda soha yetakchilari hajmlari ko‘payish jarayonlari tezlashishi va ularni transmilliylashuvi kuzatilmoqda. Bu jarayonlarga misol qilib, organik asosda yiriklashuvni ta‘minlagan alohida yetakchi kompaniyalarni ko‘rsatish mumkin. Oqibatda keyingi o‘n yilda ulkan qo‘shilishlar ro‘y berdi.

Konsalting xizmatlari jahon bozori tizimida injener konsalting xizmati – injiniring va reinjiniring muhim o‘rin egallaydi.

**Injiniring** (inglizcha engineering –ixtirochilik, bilim) o‘zida injener – konsultatsiya xizmati bo‘yicha korxonalar va ob‘ektlar yaratishni namoyon etadi. U ob‘ektga qo‘yilgan kapitalning samaradorligini oshirishda muhim usul hisoblanadi. Xizmatlar eksporti ma‘lum shakllarini ishlab chiqaruvchi mamlakatdan buyurtmachi mamlakatga yetkazishni ko‘rib chiqadi (bilimlar, texnologiya va tajribalarni uzatish). Injiniring qayta tadqiqotlar o‘tkazish, texnik – iqtisodiy tayyorgarlik asoslari, loyiha hujjatlari to‘plami, shuningdek ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil qilish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish, uskunalarni ekspluatatsiya qilish va tayyor mahsulotni sotish kabi ishlarni o‘z ichiga oladi.

Buyurtmachilarni qo‘yilgan kapitaldan eng yaxshi natija olishlari injiniring vazifasi hisoblanadi va bunga quyidagilar evaziga erishiladi:

- loyihalarni amalga oshirishga tizimli intizomlararo yondashuv;
- texnik va iqtisodiy qayta ishlashlarning ko‘p variantligi, buyurtmachi uchun optimal variantni tanlash bilan ularni moliyaviy baholash;

- progressiv qurilish va ishlab chiqarish texnologiyalarni, uskunalarni, konstruksiya va turli muqobil manbalardan tayyorlanadigan materiallarning loyihalarini ishlab chiqishda ularni qo'llash imkoniyatlarini hisobga olish; aniq sharoitga va buyurtmachi alohida talablarga javob berishini ta'minlaydi;
- loyihalarni amalga oshirishda boshqaruv va tashkil etishning barcha usullaridan hamma stadiyalarda foydalanish.

Injining xizmatlari xalqaro savdosida ijrochi firma tanlovi to'g'ridan – to'g'ri muzokaralar yoki pudrat savdosi (tender) chog'idagi jarayonlarda o'tkaziladi.

**Tender** (ing. Tender – taklif, pudratga buyurtma) – bu pudrat savdosi o'tkazishning konkurs shakli. O'zidan taqdim etilgan davog'arlar ofert nuqtai nazaridan musobaqalarni namoyon etadi, tender hujjatlariga ularni muvofiq kelishini aniqlaydi.

**Reinjining** (ing. Re - engineering) – bu ishlab chiqarish – savdo va investitsion jarayonlar bilan xo'jayinlik qiluvchi sub'ektni raqobatbardoshligini oshirish moliyaviy turg'unligini boshqarish va tashkil etish tizimini qayta qurish bo'yicha injener – konsultatsiya xizmati ko'rsatadi.

Reinjining ikki ko'rinishda bo'ladi: krizisli va taraqqiyotli.

**Krizisli reinjining** xo'jayinlik qiluvchi sub'ektga krizisli muammolarni hal qilishga qaratilgan. U moliyaviy –tijoriy va ishlab chiqarish –savdo faoliyati natijasi doimiy pasayib, raqobatbardoshlik keskin tushganda xo'jayinlik qiluvchi sub'ektga yordam tariqasida qo'llanadi. Bankrotlik tendensiyasi sezildimi va krizisni bartaraf etish kompleks choralari zarurmi darhol amalga oshiriladi.

Taraqqiyot reinjiningi taraqqiyot dinamikasi pasayganida va amaldagi ishlab chiqarish –savdo va investitsion jarayonlar boshqaruvi va tashkiliy strukturasi foyda olish bo'yicha yuqori darajasiga yetganda qo'llaniladi.

## 7.5. Jahon axborot xizmatlari bozori

Jahon axborot xizmatlari sektorining shakllanishida Internetning xizmat roli kattadir. U alohida industriya, ish o'rinlari manbai, elektron biznes asosi, individual va korporativ iste'molchigacha axborot yetkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu hodisa ko'lami, mohiyati chindan ham ulkan. Turli tahlilchilarning bahosicha, Internet – industriyasi umumiy aylanmasi 7trln. dollardan (2004 y.) ko'proqni tashkil qiladi.

Internetga keng qutbli kirish o'ylab yangi servislar uchun asos yaratadi. Talab bo'yicha video, interfaol ko'ngil ochish, bilimni boyitadigan interfaol dasturlarga kirish, odatdagi video darajasidan yuqoriroq sifatga erishish shular jumlasidandir. Yana bu texnologiyalar ertangi kunniki emas, balki buguniki. Internet personal kompyuterlar va mobil qurilmalar sonining oshishiga, unga ulanishga imkon beradi.

Gartner Dataguest ma'lumotlariga ko'ra, 2000 yil noyabrdan boshlab xosting (Webga axborot joylashtirish bo'yicha xizmatlar) tarmoqda ishchanlik

faoliyatini taraqqiy etishga olib keldi. Eng avvalo butun elektron kommertiya katta rol o'ynay boshladi. AQSH xosting bozorida tez o'sish kutilgandi – 1999 y. 2,1 mlrd. dollar. 2000 y. 2,8 mlrd. dollar, 2004 y. 9,3 mlrd. dollardan ko'proq.

Garther Dataguest xostingni ma'lumotlarni saqlash uchun uskunalar yetkazib beruvchi va ma'lum o'tkazish qobiliyatga ega kanal sifatida harakterlaydi. Shuningdek turli darjadagi ma'muriy va boshqaruv xizmatlari jamlangan ma'lum disklar kengliklariga ega.

Xosting provayder tomonidan maxsus xosting kompaniya xizmatlari bilan bir qatorda taqdim etilishi mumkin. Elektron kommertiya taraqqiyoti natijasida bu bozorning sezilarli o'sishni kutish mumkin. Bunda ham ulgurji, ham chakana bozor taraqqiyoti ko'zda tutilmoqda. Ya'ni servis provayderlar servisni ulgurji tarzda boshqa servis- provayderga sotishlari mumkin. Ular o'z navbatida oxirgi foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatadilar. Mazkur bozor tarmoqda amaliy servis taqdim etuvchi kompaniyalar hisobi saqlanib turadi.

**Internetdan kerakli axborotni tez va qulay olish usuli.** Yuqorida ta'kidlanganidek, potensial haridorning sezilarli qismi tovarlar hiqida axborotni aynan internetdan olishadilar. Ularning ulushi doimiy ravishda ko'payyapti: Tarmoq reklamasi hajmi odatdagidan tezroq o'smoqda. Masalan, agar 1999 y. ular 3 – 4,5 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 2000 y. 6 mlrd. dollarga yaqin bo'ldi. 2005 yilda sarflar 40 mlrd. dollar miqdorga yetdi. Bu butun reklama bozorining 6%dan ko'prog'ini tashkil qiladi. Bu o'sish asosan tarmoqdan yangi foydalanuvchilar soni o'sishi hisobiga rag'batlantiriladi.

Bugun Internetdagi reklamaga barcha sarflarning 75% Shimoliy Amerikaga to'g'ri kelayapti. Yevropaga – 12% ga yaqin, Osiyoga -7% ga yaqin. Ayrim tadqiqotchilarning taxminlariga ko'ra, 2005 y. AQShda tarmoq reklama hajmi televizion reklama hajmini ortda qoldirib, 22 mlrd. dollardan ko'proqni tashkil etdi. Televideniya, radio va boshqa Ommaviy axbort vositalari (OAV) dan farqli ravishda tarmoqda reklama maydoni potensial tarzda cheklanmagan. Ammo shunga qaramasdan alohida foydalanuvchilarning reklamalarga qiziqishi pasayapti. Bu yangiliklarning yo'qligi bilan bog'liq. Agar yarim yil avval 1% ga yaqin iste'molchi ko'rgan reklamasiga qiziqish bilan qaragan bo'lsalar, endi bu raqam 0,5% ga qisqardi. Bugungi kunda reklama beruvchi o'z reklamasini joylashtirishga yaxshilab o'ylab ko'rib kirishayapti. Misol uchun universal portallardan o'tuvchi reklama ulushi 1999 y. 60 dan 40%ga pasaydi. 2003y. 30% gacha tushdi. Shu munosabat bilan foydalanuvchilar ixtisoslashgan resurslarga ketmoqda. Negaki ular qiziqishlariga ko'proq javob oladilar. Umumiy tendensiya internetda amalga oshirilayotgan reklama maydonlari ulushining pasayishiga olib kelayapti. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra 2005 yilda tarmoqda faqat 20%gina imkoni bo'lgan reklama maydoni sotilgan.

Kundalik hayotimizga kompyuter texnikasi joriy etilayotgani, odamlar o'rtasida shaxsiy muloqatga, jonli muloqatga talabni oshirayapti: elektron pochta, telekonferensiya, masofadan turib o'qitish, uzoqlarga kirish imkoniyati o'zaro «televorking»ni (telework) mehnat munosabatlariga aylantirmoqda. Bularning hammasi ulkan mablag'larni tejashni ta'minlaydi: safarlarga, idora uskunolari va boshqa harajatlar. Tobora ko'proq odamlar uydan chiqmasdan mehnat qilishlari

mumkin. Xodimlar o'z transport harajatlarini kamaytirishadi, tig'iz paytda yo'llarda tiqin hosil bo'lmaydi. Ish beruvchilarni esa xodimlarni idoraga qanday joylashtirish, qanday tushligini tashkil etish haqida boshlari qotmaydi. Uch mahal ovqatlanish muammosini yana uy bekalari hal etishlariga to'g'ri keladi. Bu oilaviy muammolarni ko'paytiradi, hatto qo'ydi –chiqdilar bo'lishi mumkin.

Sharqiy Yevropada olisdan turib ishlash rejimi ham taraqqiy etayapti. Yana bu yangilik bir qator siyosiy va ijtimoiy omillar bilan rag'batlantirilayapti.

Televorking o'sishiga imkon beriyotgan sabablarga quyidagilar kiradi:

- televorkingning davlat tomonidan quvvatlanishi;
- kasaba uyushmalari tomonidan tan olinishi va quvvatlanishi;
- telekommunikatsion sektorning barqaror sarmoyalanishi;
- aloqa liniyasi o'tkazish qobiliyating o'sishi;
- internetga kirish arzonlashuvi.

Televorkingni ushlab turuvchi sabablar quyidagilardan iborat:

- madaniy an'analarning ommaviyligi cheklanganligi va televorking mashxurligi yetarli emasligi;
- mehnat qonunchiligida yetishmovchilik;
- savodli foydalanuvchilarning yetishmasligi;
- televorking tizimini quvvatlash uchun personallar yetishmasligi va h.k.

Juda ko'p mayda loyihalar amalga oshiriladi. Ular idoraga ega emas. Aniq dastur bilan ta'minlashning kattagina qismi offshor dasturlashtirish doirasida amalga oshiriladi. Bu televorkingning turli ko'rinishlari hisoblanadi. Qaysikim, uning markaziy idorasi – ofisi umuman chet elda joylashgan bo'ladi.

### Nazorat savollari

1. Xizmat ko'rsatish va servis tushunchasini ifodalang.
2. Jahon xo'jaligida xizmat ko'rsatish sohasi o'rnini aniqlang.
3. Xalqaro standartlashtirishga muvofiq xizmat ko'rsatish va servis turlarini ajrating.
4. Xizmat ko'rsatish va servis sohasining qaysi bir turlarini «ko'rinmas» savdo deb atashadi?
5. Qaysi mamlakat jahon xizmat ko'rsatish va servis bozorida yetakchilik qiladi?
6. Xalqaro xizmat ko'rsatish va servis bozorini tartibga soluvchi tashkilotlarni ayting va ularni tariflang.
7. Xalqaro turizmning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rnini ifodalang.
8. Nima uchun hozirgi zamon turizmiga hududiy notekislik harakterlidir?
9. Xalqaro xizmat ko'rsatish va servis bozorida transport tarmoqlari va kommunikatsiyalarning tutgan o'rnini aniqlang.
10. Xalqaro xizmat ko'rsatish va servis bozorida yangi texnologiyalar savdosini ta'riflang.
11. Jahon konsalting xizmatlari bozori nima? Uning turlari bo'yicha ta'rif bering.
12. Jahon axborot xizmatlari bozorini aniqlang.

## VIII Bob. SANOATI RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR VA ULARNING JAHON XO'JALIGIDAGI O'RNI

### 1.§ Rivojlangan mamlakatlarda takror ishlab chiqarish xususiyatlari

Jahon iqtisodiyoti o'z o'tmish tarixida taraqqiyotning uch bosqichini bosib o'tdi.

Birinchi bosqich-liberalizm va erkin savdo (XIX asr oxiri-XX asrning 20-yillari) davri.

Ikkinchi bosqich-xo'jalik faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi (XX asrning 30-70 yillari) davri.

Uchinchi bosqich-iqtisodiy isloh qilish va liberalizm, ishlab chiqarishni davlat tasarufidan chiqarish va xususiylashtirish, xizmat sohalari (XX asrning 80-yillaridan to hozirgacha).

Jahon iqtisodiyoti taraqqiyoti hamma bosqichlarda takror ishlab chiqarish jarayonlarida sanoati rivojlangan mamlakatlar muhim rol o'ynaydi. Butunjahon banki (1991 yilda) «Jahon taraqqiyoti to'g'risida doklad»ida quyidagilarni belgilaydi.

Taraqqiyot maqsadi turmush sifatini yaxshilash hisoblanadi. U o'z ichiga:

- yaxshi ta'lim;
- sog'likni saqlash va ovqatlanish;
- qashshoqlik ko'lamini qisqartirish;
- atrof-muhitni sog'lomlashtirish;
- imkoniyatlari tengligi;
- shaxs erkinligi;
- madaniy hayot darajasini oshirishni qamrab oladi.

Taraqqiyot maqsadi uch komponentni o'zida mujassamlashtirgan:

- Xavfsizlik va sog'liqni saqlash, uy-joy, oziq-ovqat, hayot uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarga ehtiyojni to'laroq qondirish.
- Turmush darajasini oshirish, daromadlar o'sishini ta'minlash, ishchi o'rinlarini ko'paytirish, ta'lim sifatini yaxshilash, insonparvarlik va madaniy qadriyatlarga e'tiborni kuchaytirish.
- Jamiyat va shaxsga ijtimoiy -iqtisodiy faoliyatni tanlashda katta imkoniyatlar yaratish va uni boshqa davlatlarga qaramlikdan xoli bo'lishini ta'minlash.

Taraqqiyotning bu maqsadlariga jahon iqtisodiyotini bir tekis turg'un rivojlantirish sharoitidagina erishish mumkin. Jamiyatni iqtisodiy rivojlantirish-bu ko'p omilli va ziddiyatli jarayondir. U ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqarish kuchlari evolyutsiyasini talab qiladi.

Iqtisodiy taraqqiyotning asosiy dinamik ko'rsatkichlari qo'yidagicha:

Ichki yalpi mahsulot, (IYAM) - Ichki milliy mahsulot, IMM aholi jon boshiga ichki yalpi mahsulot, sanoat ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi va h.k. hisoblanadi.

Jahon xo'jaligida asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha ijobiy o'sish sur'atlari saqlanib turibdi, ularning pasayishi taxmin qilinmoqda. Iqtisodiy o'sish sur'atlari o'zgarishi bir qator sabablar bilan bog'liq, asosiylardan biri taraqqiyotning siklligi hisoblanadi.

Keyingi ikki o'n yillikda siklning klassik sxemasi «krizis-depressiya-jonlanish-ko'tarilish-krizis» sezilarli o'zgarishga uchraydi.

1970-yillarda ichki yalpi mahsulot o'sishi sekinlashganda industrial mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi 5 % kamaydi. Inflyatsion jarayonlar tezlashdi va nominal daromad o'sishi sekinlashdi. 1970 yillarda sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarda ko'pgina an'anaviy sohalar (qora metallurgiya, kemasozlik, to'qimachilik sanoati) uzoq turg'un va pasayish holatida bo'ldi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda birlamchi energiyaga bo'lgan barcha talabning yarimini ta'minlab to'rgan neft bahosini keskin oshib ketishi jahon energetika krizisiga olib keldi. Rivojlanayotgan mamlakatlar moliyaviy qarzdorligi oshib ketdi. Ayni paytda xom ashyo va energetika krizisi fantalab (elektron, kompyuter, axborot) va materiallar, resurslar tejamkorligini tez rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bu davrda neft eksport qiluvchi mamlakatlar daromadlari oshdi. Fantalab texnologiyalarga tayangan mamlakatlar (Yaponiya, Janubiy Koreya, Gonkong, Singapur va boshqalar) tez rivojlana boshladi.

1980-yillar boshlaridan jahonning yetakchi mamlakatlari - AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya-taraqqiyotning yangi makroiqtisodiy modeliga o'ta boshladi. Jahon iqtisodiyotida Amerika dollariga asoslangan valyuta qurilishi o'zgarayapti. Valyuta belgilangan kursi goh oshib, goh tushib turibdi. Xalqaro valyuta fondi (XVF) ishtirokchi mamlakatlarning Yamayka konferensiyasida 1976 yildan buyon jahondagi o'zgarayotgan geosiyosatiga muvofiq yangi jahon valyuta tizimi yaratildi. Endi valyutaga talab va taklifdan kelib chiqilib, belgilangan kurs bo'yicha ish yuritish mumkin. Bu sharoitda yuzaga kelgan 1980 - yillar o'rtalaridagi moliyaviy krizis 1970 -yillarning boshlaridagi kabi vayron qiluvchi kuchga ega bo'lmaydi.

1990 yillarda moliyaviy baraqarorlik kuchaydi. 1998 yil mobaynida neft va neft mahsulotlari jahon bahosi keskin tushib ketdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va metall bahosi pasaydi. Jahonda qazib olinayotgan neftning 55 % ni nazorat qiluvchi OPEK davlatlari 1998 yilda 50 mlrd. dollar daromaddan mahrum bo'ldilar. Neft iste'molchilari esa 100 mlrd. dollar, shu jumladan, Yevropa mamlakatlari 33 mlrd. dollar zarar ko'rdilar. Bir vaqtning o'zida Osiyo-Tinch okeani mintaqasida jahon yetakchi kompaniyalarining fond birjalarida aksiyalar kurslari keskin tushib ketdi. Juda ko'p mamlakatlar (Tayland, Singapur, Xitoy) milliy valyuta kurslari dollarga nisbatan g'oyat qadrsiz darajada pasayib ketdi. Jahon yetakchi valyutasiga nisbatan dollar 10 % ga tushdi.

1990- yillardagi moliyaviy krizis jahon xo'jaligida yangi valyuta-Yevroning paydo bo'lishiga olib keldi. Iqtisodiyotni boshqarishda davlat roli kuchaydi. Bir qator mamlakatlar iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ishlab chiqarish quvvatlari yangilandi. Shunday qilib, XX asrning keyingi uch o'n yilligidagi krizislar tarkibiy harakterga ega bo'ldi. Jahon xo'jaligida yetakchi mamlakatlarda o'sish sur'atlari pasayishi (4-5 dan 1,5 -2 gacha) kuzatilgan bo'lsada, amalda salbiy

ko'rsatkichlar qayd etilmaydi. Global iqtisodiy krizisga tahdid jahon iqtisodiyotida muammolar yechimining turli yo'llarini topishni taqozo etmoqda. Rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan qashshoq davlatlarning 70 mlrd. dollarga yaqin qarzidan kechishni taklif qilinayapti. XVF va Jahon banki Janubi Sharqiy Osiyo mamlakatlarida krizis oqibatlarini tugatish va islohatlar o'tkazish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish dasturini ishlab chiqmoqda. 1999 yil fevralida «ettilik» mamlakatlar «moliyaviy barqarorlik forumi» tashkil etish haqida qaror qabul qildilar. Bu maslahat tuzilmasi krizis paydo bo'lishining oldini olish uchun xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar faoliyatini muntazam muvofiqlashtirib borishga qaratilgan.

## 2.5. Jahon xo'jaligida tarkibiy siljish va ilmiy-texnik progresslar

Ilmiy-texnik progresslar jahon iqtisodiyoti tuzilishi va xo'jalik o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy-texnik progresslar (ITP) – jamiyat ishlab chiqarishida yangi bilimlarning to'xtovsiz o'sib borish jarayoni va ularni hayotga tatbiq etilishidir. Bu kam mehnat sarflab, sifatli mahsulot ishlab chiqarish, mavjud resurslarni yangi manfaatlarga safarbar etishga yordam beradi.

Ilmiy texnik progresslar –tom ma'noda yangi texnikalarni, texnologiya va materiallarni, shuningdek progressiv usullarni boshqaruvga va ishlab chiqarishga keng joriy etish imkonini beradi. U esa ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi:

- evolyutsion texnika va texnologiyalarni bosqichma-bosqich takomillashtirib borish. Iqtisodiy o'sish son ko'rsatkichlari hisobiga oshib boradi;
- Inkilobiy (revolyutsion), texnikani sifat jihatdan yangilanishi va ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini keskin sakrashida namoyon bo'ladi.

Ilmiy-texnik progresslar iqtisodiyotni rivojlantirishda resurslarni tejaydi, tabiiy materiallar rolini kamaytiradi va ularni sintetik xom ashyo bilan almashtiradi. Majmuada zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish, egiluvchan ishlab chiqarish tizimini yaratishga, undan ishlab chiqarishda keng foydalanishga olib keldi.

Mamlakat ishlab chiqarishning ilmiy-texnik va texnologik darajasi ilmiy-tadqiqotlar va tajriba konstruktorlik ishlarga ajratilayotgan mablag'ga bog'liq. Jahon yalpi ichki mahsulotida ilmiy tadqiqotlarga harajatlar ulushi 3 % gacha ko'tarildi. Jahon iqtisodiyotida bu harajatlarning asosiy qismi sanoati rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi (96 % gacha).

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda bitta tadqiqotchiga rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan 4 marta ko'p mablag' ajratildi. Bu jahon xo'jaligi periferik markazi tuzilishini saqlashda bosh sabab bo'lib hisoblanadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlari (NIOKR)ga ajratilayotgan mablag'lar hajmi ko'payishi mehnat unumdorligini 0,23 % ga ko'paytirayapti, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa – 0,08 % ga. NIOKR ning

«ettilik»dagi umumiy natijalarining taxminan 25 % boshqa mamlakatlarda foydalanayapti.

Ilmiy texnika progresslari jamiyatning takror ishlab chiqarish, ijtimoiy va sohaviy tuzilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bozorni kengaytirishga yordam beradigan, uzoq foydalanishga mo'ljallangan mahsulotlar (avtomobillar, televizorlar, elektr tovarlari) ishlab chiqarilishini rag'batlantiradi va boshqa sohalar rivojiga ham ko'maklashadi.

Masalan, ko'plab avtomobillar ishlab chiqarish 70 yo'nalishdagi sohalar ishlab chiqarishini ko'payishiga rag'batlantiradi. Ilmiy texnik progresslar ommaviy ravishda tovarlar yaratmasdan turib, an'anaviy mehnat qurollari va iste'mol buyumlari texnik darajasini oshirish imkonini beradi. Bunda ishlab chiqarishda to'planib qolgan ortiqcha tovarlar bozorlarni kengaytirishga sharoit to'g'iradi.

Ilmiy texnik progresslar transport, telekommunikatsiya, axborot texnologiyasi sohalarida xalqaro safarbarlikni ixchamlashtirdi va kapital oqimi va nou-xauni faollashtirdi. Axborot va yo'ldosh aloqalar, ovoz, tekst, tasvir uzatish harajatlari va xalqaro to'lovlarni keskin kamaytirdilar. Ma'lumotlarni tezkor uzatish (masalan elektron pochta, Internet orqali) va telekonferensiya trasmilliy kompaniyalar (TMK) boshqaruvchilarini aloqa bilan ta'minlaydi va butun jahon bo'ylab ish yuritish imkonini yaratdi. Yangi texnologiyalar moliya bozori iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonlari bilan davlatlararo raqobatni vujudga keltiradi va milliy bozorlarni yangi talablarga reaksiyasi tezligini oshiradi. Axborot texnologiyalari axborot va bilimlar almashishini ko'paytirish imkonini beradi. Bu global yig'uv ishlab chiqarish va savdo aloqlarini yaratishga keng ufqlar ochadi.

Zamonaviy texnologiya (misol uchun, mikroelektronika, yangi materiallar, biotexnologiya, kommunikatsiya)lar birgalikda harakat qiladi va bir-birini rivojlantiradi. Mikroelektronika va ishlab chiqarish texnologiyasi o'sishda mikrosxemalar butunlay fundamental tadqiqotlar (kimyo, fizika) ga bog'liq va maxsus metallar, plastmassalar, keramik eritmalarning yangi turlarini ishlab chiqarishga tatbiq qiladi.

Ko'pchilik G'arbiy Yevropa mamlakatlarida kapitalni markazlashtirish va bir joyga to'plash jarayonlari davom etayapti. Mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi kam sonli yirik xo'jaliklar qo'lida, birinchi navbatda transmilliy korporatsiyalarda to'planayapti. Jahon xo'jaligida transmilliy korporatsiyalar o'rni kuchayishi bilan birga, faqat yirik ishlab chiqaruvchilargina mahsulot birligida ishlab chiqarishda ortiqcha mahsulotlarni kamaytirishga erisha oladilar. Hozirgi vaqtda monopoliya belgisi bo'lib na faqat kompaniyaning yirik hajmi va uni bozorni nazorat qilish kattaligi, balki uning monopolistik mo'ljallari va ularni amalga oshirishda hukmronlik mavqei mavjudligi ham hisoblanadi. Monopolistik mo'ljallar u yoki bu kompaniyaning bozorda narx-navoni nazorat qilishi va raqobatga o'rin qoldirmasligidir.

Rivojlangan mamlakatlar uchun monopoliya munosabatlari ikki tendensiya karakterida namoyon bo'ladi: bir tomondan, monopoliyani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, boshqa tomondan ilm-fan va tajriba-konstruktorlik (NIOKR)ni kengaytirishga yordamlashish.



TMK innovatsion davrda qisqartirish maqsadida texnologik hamkorlik bo'yicha strategik ittifoq tuzadi. Ekspertlarning taxminlariga ko'ra, 2010 yilga borib avtomobil kompaniyalari jahonda avtomobil ishlab chiqarishning 80 % dan ko'prog'ini nazorat qiladi. Transmilliy korporatsiyalarning samaradorligi ham mamlakat ichkarisida, ham jahon arenasida kelishilgan harakatini belgilaydi.

Jahon xo'jaligining hozirgi zamon bosqichidagi xususiyatlari – o'rta va kichik biznesni rag'batlantirish. Barcha mamlakatlarda kichik biznes xalqaro mehnat taqsimotida keng ishtirok etmoqda. Turli mintaqalarda esa o'z texnologiyalarini olg'a surayapti. Masalan, Yaponiyada ishlovchilar soni 30 kishigacha bo'lgan korxonalar 10 mln.ga yaqin. Italiya sanoatida esa korxonalarda band ishchi kuchlarining salkam yarimi odam soni 15 kishigacha bo'lgan korxonalarda mehnat qiladi. Germaniyada o'rta va kichik biznes sohasida faol aholining 2/3 qismi band, mayda firmalar yalpi milliy mahsulotning 50 % ni berayapti.

AQShda har yili 600 mingta o'rta va kichik firmalar tashkil qilinmoqda. Jahonning ko'pchilik mamlakatlarida kichik biznes 80 % gacha yangi ish o'rinlarini ta'minlaydi va iqtisodiyotning tarmoq tuzilishiga ta'sir o'tkazadi. Kichik va o'rta biznes «yirik-mayda» bog'lamda salmoqli sherik (partner) bo'lib qoladi. Kichik, o'rta tadbirkorlikning salmog'i iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish va barqarorlikda sezilarli ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, ilmiy texnik progresslar ishlab chiqarishni tashkil etishning turli shakllarini vujudga keltirdiki, bu mamlakatlar iqtisodiy o'sishni mo'atadillashtiradi va davlatni tartibga solishning izchil dastaklaridan oqilona foydalanish imkonini beradi.

### 3.§. Iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi

Keyingi yillarda jahon xo'jaligi taraqqiyoti shuni ko'rsatdiki, iqtisodiyotning ochiqligi va xo'jalik aloqalarining turli xilligi davlat rolining zaiflashuvi sinonimi hisoblanadi. Iqtisodiyotga davlat aralashuvi darajasi milliy tadbirkorlik, iqtisodiy taraqqiyot darajasi, qonunchilik muhitning mavjudligi bilan belgilanadi. Ma'lumki, odamlar (inson) resursi qanchalik raqobatbardosh bo'lsa, mamlakat shunchalik raqobatbardosh bo'ladi. Shuning uchun davlatni tartibga solish asosiy vazifalaridan biri o'qitish, ishchi kuchlari malakasini oshirish, qulay investitsion muhit yaratish va boshqalar bo'lib qoladi.

Bu vazifalarni amalga oshirish yo'llari iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy modellarida aks etgan: keynsian va monstaristli.

- Keynsian modeli tarafdorlari erkin bozor tizimi tug'ma illatlardan zarar ko'radi degan fikrdalar. Shuning uchun davlat ularning fikricha ishlab chiqarish darajasiga va bandlikka iqtisodiyotni barqarorlashtirish orqali faol rol o'ynashi kerak. Davlat diskret fiskal va pul-kredit siyosati keskin iqtisodiy o'sish va pasayishni yumshatish uchun zarur.

Keynsian modeli «katta iqtisodiy talvasa» (1920-1933 yillardagi krizis) davrida 1930 –yillarda ishlab chiqilgan edi. Davlat investitsion talab va bandlikka pul kredit va iqtisodiyotning istiqbolli sohalarni tanlash yo'li bilan ta'sir

o'tkazgandi. Model krizis sharoitida va undan chiqishning birinchi bosqichlaridagina samarali.

Iqtisodni gullab-yashnash davri (1980-yillar)da ko'pchilik taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiy siyosati asosiga iqtisodiy taraqqiyotning monstaristli modelini qo'ydilar.

- Monstarist yondoshuv shundan iboratki, bozor yetarli darajada raqobatli va bozor raqobati tizimi makro-iqtisodiy barqarorlikni yuqori darajada ta'minlaydi. Bozor raqobati ta'minlagan egiluvchan narx-navo va ish haqi shunga olib keladiki, harajatlarning tebranishi mahsulotlar narxi va resurslarga emas, ishlab chiqarish darajasi va bandlikka ta'sir qiladi.

Iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda davlat rolining nisbatan kamayishiga qaramay, u xo'jalik tizimiga ta'sir etishning qudratli dastaklariga ega. Shundan rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga aralash holda qaraladi. Rivojlangan mamlakatlarda davlatga asosiy fondlarning 30-40 % tegishli. Bu unga takror ishlab chiqarish jarayonlarida faol qatnashishga imkon beradi.

AQShda davlat tomonidan tartibga solish quyidagi vositalardan foydalanib mo'tadil iqtisodiy tizim yaratish maqsadini qo'yadi:

- Ishlab chiqarishni bevosita davlat buyurtmasi orqali tartibga solish. Bu konkurs asosida beriladi va taraqqiyotidan davlat manfaatdor iqtisodiy sohalar mahsulotlariga tegishlidir.
- Monopoliyaning qonuniy cheklanishi. AQSH antitrust qonunchiligi asosini Sherman (1890 yil), Kleyton (1914 y) qonunlari va boshqalar tashkil etadi.

Birinchi kompaniyalar o'rtasida bozorni monopoliyalashtirish yoki monopoliyaga aylantirishga qaratilgan maxfiy fitnani taqiqlaydi.

Ikkinchisi korporatsiyalarni hamma turdagi «cheklashlar» praktikasi (narxda diskriminatsiya va boshqalarni) man etadi. Qonun bilan (1914) antitrust qonunchiligi buzilishi va «raqobatning nohalol usullarini» qo'llaganlikning oldini olishi uchun federal savdo komissiyasi tuzildi. Speller-Kefover qonuni (1950 y) kompaniyalar qo'shilishiga qarshi yo'naltirilgan. Agar bir firmani boshqasi aktivlarini sotib olish oqibatida raqobatbardoshligi zaiflashgan bo'lsa uni taqiqlaydi.

Yevropa Itifoqi mamlakatlarida monopoliya va raqobatni tartibga solish me'yorlari aniq va qat'iy shakllantirilgan. Bu me'yorlar 1967 yilgi Rim shartnomasining 85-89 moddalarida mustahkamlab qo'yilgan. Korxonalar o'rtasida umumiy bozor prinsiplari bilan chiqisha olmaydigan har qanday bitim, raqobat erkinligini tuzish, to'sqinlik qilish, cheklash maqsadi ko'zlangan har qanday birlashish, koordinatsion faoliyati taqiqlanadi.

Yevropaliklar amerikaliklar qo'llamaydigan «sog'lom fikr qoidasi»ni qo'llanishga moyilroq. Masalan, Yevropada ma'lum sharoitda kompaniyalar o'rtasida maxfiy kelishuvga mamlakatlarining sanoat siyosati institutlari AQShda o'z analogiga ega emas. G'arbiy Yevropa mamlakatlari sanoat siyosati qo'yidagi xususiyatlarga ega:

- u xukumatni koordinatsiyalangan rejalashtirishi natijasi;

- ishlab chiqarish resurslari tanlangan sohalarga yo'naltiriladi;
- siyosatning bosh maqsadi – mamlakat firmalari raqobtabardoshligini ta'minlash.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari sanoat siyosati ma'lum darajada davlat iqtisodiy jarayonlarga ta'sir o'tkazish dastaklarini saqlab qoladi. Bu bilan iqtisodiyotga aralashish samarali ekanligini ko'rsatdi.

#### NAZORAT SAVOLLARI

1. Jahon iqtisodiyotida takror ishlab chiqarishning asosiy bosqichlarini ayting.
2. Tarkibiy krizis va ularning 90-yillar oxiridagi xususiyatlari hamda mohiyatini aniqlang?
3. Takroriy ishlab chiqarish jarayonlarida monopoliyaning roli va o'rnini aniqlang?
4. Ilmiy-texnika progresslari (ITP) shakllari va mohiyatini ayting?
5. Rivojlangan mamlakatlarda takroriy ishlab chiqarishni harakterlang?
6. Rivojlangan mamlakatlarda davlatni tartibga solish metodlarini ko'rsating.

## IX Bob. AQSH VA KANADA IQTISODIYOTI

### 1.§. AQShning ishlab chiqarish potentsiali va tabiiy resurslari

Amerika Qo'shma Shtatlari territoriyasining kattaligi jihatidan (9,3 mln. km<sup>2</sup>) RF, Braziliya va Kanadadan keyin jahonda to'rtinchi o'rinda turadi. AQSH tarkibiga uch qism kiradi. *Birinchisi* – asosiy territoriya, unda 48 ta shtatlar joylashgan, butun mamlakatning 4/5 qism maydonini egallaydi. U to'rtburchak massiv shakliga ega bo'lib, sharkdan g'arbga qarab salkam 4,7 va shimoldan janubga qarab 3 ming kilometr ga cho'zilib ketgan. Qolganlari undan uzokda joylashgan Alyaska yarim oroli, va Tinch okeanidagi Gavay orollari shtatlaridir. Mamlakatning iqtisodiy-geografik joylashishi juda qulay. Bu ko'p jihatdan sharqqa Atlantika okeani, g'arbda Tinch okeani bilan tutashligiga bog'liq. Dengiz chegaralari 12 ming kilometr ga cho'zilgan. Bu azaldan okean orti mamlakatlari bilan savdo aloqalarida yengillik tug'dirib keladi va ayni paytda mamlakat xavfsizligini kafolatlaydi.

Iqtisodiyoti kamroq rivojlangan mamlakatlar Kanada va Meksika bilan ko'shniligi ham AQSH iqtisodiy geografik joylashishida qo'lay imkoniyat yaratadi. Buning evaziga AQSH ularning tabiiy resurslari va ishchi kuchlaridan foydalanib katta daromad oladi. Lotin Amerikasi boshqa mamlakatlarning ham AQShga yaqin joylashgani mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga imkon beradi.

AQSH davlat tuzumiga ko'ra-Federativ respublika bo'lib, 50 ta shtatlardan iborat. Davlat boshlig'i prezident, to'rt yilga saylanadi. Oliy qonunchilik organ-kongress. Mamlakatda har bir shtat o'z konstitutsiyasi va ramziga ega. Bundan tashqari AQShda Kolumbiya Federativ okrugi alohida ajralib turadi. Uning territoriyasida mamlakat poytaxti Vashington shahri joylashgan.

AQSH prezidenti mamlakatning yuqori mansabdor shaxsi, davlat boshlig'i va xukumat boshlig'i o'rnida ishlab turish vakolatiga ham ega. Prezident Kongress qonun loyihalarini bekor qilish huquqiga ega. Prezident qonunchilik dasturlarini taklif qiladi, byudjet loyihasini ishlab chiqadi, oliy bosh qo'mondan hisoblanadi, xalqaro shartnomalar tuzadi va h.k. Sud xokimiyati mamlakatda Kongress tomonidan ta'sis etilgan AQSH Oliy sudi va quyidagi federal sudlar orqali amalga oshiriladi. Oliy sud konstitutsion nazorat bilan shug'ullanadi.

AQSH aholisi 300 mln. kishidan ziyod bo'lib, yer yuzi aholisining 1,7 % ni tashkil etadi. Aholining 86 % ni oklar, 11 % - qora tanlilar, 0,6 % hindilar, eskimoslar va aleutlar, 2,4 % ni boshqa etnik guruhlar tashkil qiladi. Rasmiy til-ingliz tili, uni 80 % dan ziyod amerikaliklar ona tili deb bilishadi. Diniy e'tiqodi bo'yicha ko'pchilik AQSH aholisini protestantlar (57 % ga yaqin) va katoliklar (28 % ga yaqin) tashkil etadi. AQSH da xotin-qizlar 51,4 %ni, erkaklar esa 48,6%ni tashkil qiladi.

Aholining sinfiy tarkibi taraqqiy etgan mamlakatlar uchun xos. Uncha katta bo'lmagan burjuaziya (taxminan 250 milliarderlar va millionerlar oilasi, bir qancha yirik va o'rta burjuaziya qatlamlari) millionlab ishchilar, xizmatchilar va mayda fermerlar mehnatidan foydalanadilar. Amerikaliklarning o'ndan to'qqiz (9/10)

qismi yollanib ishlaydi, ularning 1/3 qismi ishchilar. qishlok xo'jaligida band kishilar soni sanoatdagilarga qaraganda 7 marta kam.

Amerikaliklar o'z davlati tarixini 1776 yil 4 iyul – shimoliy Amerikaning 13 shtati Buyuk Britaniyadan mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilgan kundan boshlab hisoblashadi. 1787 yilda Filadelfiyada chaqirilgan Konvent tomonidan qabul qilingan Konstitutsiyada AQSH federativ davlat sifatida qonuniy mustahkamlab qo'yilgan. AQShning birinchi prezidenti Jorj Vashington bo'lgan. 1803 yilda AQSH Fransiyadan Luizianani sotib oldi, 1819 yilda Ispaniyani Floridadan voz kechishga majbur qildi. 1840-1850 yillarda Meksikadan bir qism terretoriyani ajratib oldi.

1941 yilda 7 dekabrda Yaponiya Tinch okeanidagi Amerikaning Perl-Harbor harbiy-dengiz bazasiga hujum qilishi AQShni Gitlerga qarshi koalitsiya tarkibida ikkinchi jahon urushiga qo'shilishiga bahona bo'ldi.

AQSH 1945 yil BMT ustavi tasdiqlangan San-Fransisko konferensiyasida ishtirok etdi. AQShning faol ishtirokida 1949 yilda NATO bloki tuzildi: 1950-1953 yillarda Koreya bilan urush olib bordi; 60-yillar oxiri va 70 yillar boshida Hindixitoyda urush chiqardi. 1950 yildan AQSH tarkibiga 49-shtat sifatida Alyaska, 50-sifatida Gavay orollari kirdi.

Mamlakat boy tabiiy resurslar va qulay tabiiy sharoitga ega. Ammo uzoq vaqt nooqilona foydalanish oqibatida mamlakatda bir qator eng yaxshi konlar qashshoqlashib qoldi. Biroq ilmiy texnika progressi uncha boy bo'lmagan va sifatli konlarni ochishga imkon yaratdi. Bu esa AQShning xom ashyo bazasini sezilarli to'ldirdi. Jumladan, ko'mir zaxiralari, molibden, oltingugurt, fosforitlar va kaliy tuzlari qazib olish ko'paydi. Milliy ishlab chiqarish talabni temir va mis rudasi, bir necha kam darajada qo'rg'oshin-rux, uran rudalari qondirishi mumkin. Marganes rudasi, qalayi, nikel, grafit, xrom, boksit, noyob metallar kam. Neft va tabiiy gaz potentsiallari anchagina katta, ammo ishlatilayotgan konlar tez qashshoqlanib qolayapti. Yangi konlarni qidirib topish va foydalanishga topshirish juda sust borayapti. Bunga sabab shuki, monopoliyaga AQShdagiga nisbatan qazib olish qiymati ancha arzon bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar, shuningdek Kanada va Avstraliya boyliklari ma'qul kelayapti. Oqibatda importda yoqilg'i va mineral xom ashyo ulushi ortayapti, milliy mineral baza roli pasayapti. Alyaskada neft konlari ikkinchi jahon urushidan keyinroq ochilgandi, ammo kon zahirasi nisbatan kam ekan. 60-yillarda Alyaskada qidiruv ishlari qayta boshlandi va natijada Pradxo-Beyda zahirasi 2 mlrd. tonadan ziyod noyob koni topildi. U Boforta dengizi qirg'oqlarida, Barrou burunidan 300 km. janubi-sharqda, abadiy muzliklar bag'rida joylashgan.

Turli ko'rinishdagi resurslar va tabiiy sharoit xo'jalik rivojlanishi uchun yaxshi tabiiy baza bo'lib qolmokda. Shu bilan birga ulardan foydalanishni ayovsizlarcha olib borilishi atrof muhitning holatini yomonlashtirmokda, havo va suvni ifloslantirishga olib kelayapti.

Tabiatga ayniqsa ko'p sonli urbanizatsiyalashgan (shaharlashgan) territoriyalar-sanoat korxonalarining katta qismi joylashgan, ko'p miqdordagi avtomobillar mavjud joylarga katta zarar yetkazmoqda.

## 2.5. Iqtisodiyotning tuzilish xususiyatlari

XIX asrning oxirlaridayoq AQSH sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Buyuk Britaniyani quvib o'tib, jahonda birinchi o'ringa chiqqan edi. Hozir ham mehnat unumdorligi va ko'pchilik fantalab ishlab chiqarishda birinchilikni egallab kelmoqda. U shuningdek ayrim an'anaviy sanoat va qishloq xo'jaligi, noishlab chiqarish sohalarida o'z ustunligini saqlab turibdi. Jami ishlab chiqarilayotgan aviaraketa-kosmik apparatlarning 3/4 qismidan ko'prog'i, elektron-hisoblash (ayniqsa sanoat va harbiy) texnikalarining 2/3, ko'mir kazib olish va AES quvvatining 1/3, g'arb dunyosida yig'ishtirib olinayotgan g'allaning 1/3 qismiga yaqini AQSH ga to'g'ri keladi.

Davlat xo'jalikning barcha sohalariga aralashadi, ishlab chiqarish tuzilishi va joylashtirilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Soliq imtiyozlari va kredit yordamida sanoatning yangi sohalarini o'sishini rivojlantiradi hamda yangi sanoat rayonlari barpo etishga ko'maklashadi. Shuningdek davlat ilmiy tadqiqotlarni, ayniqsa qurol-yaroq ishlab chiqarishni moliyalashtirishga katta e'tibor qaratadi.

Milliy darajada sanoat mahsulotlari qiymati qishloq xo'jaligi mahsulotlarinikidan 10 marta ko'p. AQSH sanoati katta, texnik jihatdan yaxshi ta'minlangan material bazasiga ega.

Yonilg'i-energetika majmuasi. Energiya xo'jaligida yetakchi rol neft va tabiiy gazga tegishli. Mamlakatda qazib olinayotgan neft va tabiiy gazning yarimidan ko'pini Texas shtati va unga tutash janubiy hududlar bermoqda. G'arbda Koliforniya va Alyaskada neft ishlab chiqarishga katta ahamiyat berilayapti. Neft va tabiiy gaz qazib olinayotgan rayonlardan qayta ishlash markaziga keltiriladi, uning bir qismi Shimolda joylashgan. Ilmiy-texnik progress natijasida kommunal xo'jaligi, temir yo'llarda va flotda ko'mir iste'moli barham topdi. Endilikda undan asosan elektrostansiyalarda foydalanayapti. Ko'mir 15 dan ziyod shtatalarda qazib olinmokda. Mamlakatning katta ko'mir konlari Kentukki, G'arbiy Virjiniya, Pensilvaniya kabi hududlarida mamlakatda eng yirik Appalachi ko'mir havzasi joylashgan konlardir. Keyingi paytlarda g'arbdagi Vayoming shtati ochiq holda ko'mir qazib olish va tarkibida oltingugurt kamligi bilan katta ahamiyat kasb etayapti.

Elektr energiyasi ishlab chiqarish tez sur'atlar bilan o'sayapti. Hozirgi vaqtda AQSH bu sohada yetakchi hisoblanadi. Asosiy elektro energiya ulushini yoqilg'i energetika stansiya (TES)lar beradi. Ammo g'arbda quvvati 1-2 mln. kv.t.ga ega bo'lgan GESlar iste'mol qilinayotgan energiyaning yarimidan ko'pini yetkazib beradi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishda atom elektr stansiya (AES)larning ahamiyati oshib borayapti.

Qora va rangli metallurgiya. Qora metallurgiya avvalgidek mamlakat shimolida Illinoys, Indiana, Ogayo, Pensilvaniya, Merilend shtatlarida konsentrlashtirilgan. Yuqori ko'l yaknida joylashgan kon AQShda kazib olinayotgan temir rudasining salkam 4/5 qismini berayapti. Yaqin-yaqingacha qora metallning 2/3 qismini Pitessburg, Klivlend, Chikago va boshqa ko'l bo'yi rayonlari berardi.

Rangli metallurgiya zavodlari xom ashyo qazib olinadigan rayonlar yoki xom ashyo tashib keltiriladigan portlarga yaqin joylashgan. Shuning uchun ham ularning ko'pchiligi G'arb va Janubda joylashgan.

Mashinasozlik majuasi yuqori fantalabligi bilan qayta ishlash sanoatidan 2,5 marta ziyod turadi. Kompleksning yana bir muhim xususiyati ishlab chiqarish kapital hajmining pastligidir: u 40 % sanoat mahsuloti ishlab chiqara turib, asosiy ishlab chiqarish kapitalining 20 % ga yaqinligini jamlaydi xolos. Nihoyat bu majmuada sanoatda band ishchi kuchining 40 % dan ortig'i foydalaniladi. Bu yerda yuksak texnika darajasidagi ishchi o'rinlari to'plangan. Sohalar orasida mashinasozlikning elektronika, samolyot-raketasozlik harbiy buyurtmalar asosini tashkil qiladigan sohalari boshqalarga qaraganda tez o'sayapti.

Stanoksozlik esa Ko'lbo'yi va Shimoli-Sharkiy megapolislar atrofida to'plangan. Janub va G'arb zavodlarida stanok va uskunalar Shimolda esa samolyotlar ishlab chiqarish rivojlangan. Avtomobilsozlik- AQSH sanoatida milliy soha hisoblanadi. Bu yerda birinchi marta avtomobil ishlab chiqarish ommaviy tarzda yo'lga qo'yilgan: har bir ishlovchi amerikalikning yettidan bittasi avtomobil ishlab chiqaruvchi yoki unga xizmat ko'rsatadi. Avtomobil zavodlari mamlakatning 26 shtatida 125 ta shaharda joylashgan. Ammo biroq, eng ko'p avtomobil Ko'lbo'yi megopolisida ishlab chiqariladi. Bu yerda bosh «avtomobil shtati» Michigan va AQShning «avtomobil poytaxti» Detroyit joylashgan.

Ximiya sanoati o'nlab markazlarda ishlab turibdi. Lekin ularning alohida uzoq rayonlarda to'plangani ham harakterli. AQSH ning neft va gaz-ximiya sanoati bosh rayonlari Meksika ko'rfazidagi havzasi hududida joylashgan. Bu yerda 200 dan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatayapti va AQShning «neft ximiya poytaxti» Xyustonda joylashgan.

Yengil va oziq-ovqat sanoati. Yengil sanoat korxonalari orasida to'qimachilik va charm ko'n-poyafzal sanoati ko'proq rivojlangan. To'qimachilik sanoati ikki asr davomida shimoliy Atlantika shtatlarida-Yangi Angliya deb ataladigan, Markaziy Boston bo'lgan joyda jamlangan. Ammo keyingi yillarda bu sohaning janubiy Atlantika shtatlariga migratsiyasi ro'y berdi. Bu yerda arzon ishchi kuchiga ega rayonlar ya'ni, paxta yetishtiruvchi rayonlar va sintetik tola ishlab chiqaruvchi korxonalar, mahsulotlarni realizatsiya qilish uchun bozorlar mavjud.

Oziq-ovqat sanoati asosan qishloq xo'jaligi rayonlari va yirik shaharlarda (ayniqsa Shimol va G'arbda) joylashgan bo'lib, qudratli kombinatsiyani hosil qiladi.

Agrosanoat kompleksi. Mamlakat katta yer resurslari va yer, yaylov va dalalar AQSH asosiy territoriyasining salkam 1/2 qismini tashkil etadi. Agrosanoat kompleksi AQSH iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi.

AQSH da o'simlikchilik turlaridan birinchi navbatda g'alla ekinlari hisoblanadi, bu barcha maydonlarning 2/3 qismini egallaydi. Asosiy oziq-ovqat ekini-bug'doy, ozuqa ekinlari (makkajo'xori) ko'proq yetishtiriladi. Moyli ekinlar orasida soya muhim o'rin egallaydi. Keyingi yillarda bu ekin hosildorligi keskin oshdi. U ovqatga (soya moyi sifatida) ishlatiladi. Mollar uchun to'yimli ozuqa hisoblanadi. Tolali ekinlar orasida paxta yetakchi o'rinda turadi, XXI asrda u bosh

eksport mahsulotiga aylanadi. Shakarli ekinlar orasida qand lavlagi va shakar qamish deyarli birining o'rinni egallaydi. Meva va sabzovatning roli juda ulkan.

**Chorvachilik.** AQShda chorvachilik ham sut, ham go'sht yo'nalishida rivojlanmoqda. Shuningdek cho'chqachilik va parrandachilik sanoat asosida taraqqiy etmoqda. Jo'ja go'shti (broylerlar) ishlab chiqarish AQSH qishloq xo'jaligining industrilashtirilgan sohalaridan hisoblanadi va qishloq joylarida joylashtirilgan. Har yili 4 mlrd. dona gacha broyler ishlab chiqariladi. AQSH agrsanoat kompleksi aholini to'liq oziq-ovqat bilan ta'minlash imkoniga ega. Biroq monopoliya egalik qiladigan fermerlik mahsulotlari narxi balandligi uchun amerikaliklarning ko'pchilik qismini harid quvvati o'tmaydi.

AQSH xalqaro turizm taraqqiyoti bo'yicha Yevropadan ancha orqada. Lekin shunga qaramay, mamlakatga har yili 30-40 mln. sayyoh kelib ketadi. Ichki turizm juda yaxshi rivojlangan, o'z ichiga avtoservisni qamrab olgan «mehmondorchilik industriya»si kuchli rivojlangan. Florida, Kaliforniya, Gavayi, G'arb shtatlari, ayniqsa qoyali tog'lar atrofi qirg'oq bo'yi turizmining bosh rayonlari hisoblanadi.

**Transport kompleksi.** AQSH jahonda keng rivojlangan transport tarmoqlariga ega. Bu mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynaydi.

AQSH transport majmuasiga umumiy foydalaniladigan transport-temiryo'l, avtomobil, dengiz, ichki suv, havo va boshqa vositalar kiradi. Yuk va yo'lovchi tashish ishlarini shaxsiy, maxsus umumiy foydalaniladigan sanoat avtomobillar, personal samolyotlar va boshqalar bajaradi.

AQSH ichki yuk tashish 1/3 qismi temiryo'llar ulushiga to'g'ri keladi. Qisqa masofalarga qishloq xo'jaligi, sanoat yuklarini shuningdek yo'lovchilarni tashishda avtomobillardan ko'proq foydalaniladi. Yengil avtomobillarning asosiy qismi shaxsiy foydalaniladigan avtomobillardir. Ayrim avtomobil yo'llari xususiy mulk, unda yurish uchun pul tulanadi.

Quvurlar transporti yaxshi rivojlangan. Neft-gaz mahsulotlari o'tkaziladigan quvurlarning umumiy uzunligi 600 ming kilometrni tashkil etadi

Daryo transporti asosan Missisipi daryosida saqlanib qolgan. Daryo flotining 1/3 qismiga yaqinini tankerlar va quyiladigan birjalar tashkil etadi. AQSH transport okean savdosi ko'payishi bilan eski dengiz transporti ahamiyati ham oshib borayapti. Qo'shma Shtatlar xo'jaligining muhim an'anaviy bo'g'ini – ichki savdodir. Uning ichki milliy mahsulotdagi ulushi kattaligi mamlakat iqtisodiyotida yetakchi o'ringa chiqaradi.

**Bank tizimi va moliyaviy kapital.** Sanoatda, pul-kredit sohasida va Amerika iqtisodiyotining boshqa bosh sektorlarida yetakchi o'rinni yirik xo'jalik birlashmalari egallaydi. Ularning qo'lida jamiyat kapitali ishlab chiqarish va tovarlar realizatsiyasi, xizmatlarning sezilarli qismi to'plangan. Biznesning barcha sohalarida yetakchilarni mustahkamlash hozirgi zamon Amerika iqtisodiyotiga xos qirralardir.

Iqtisodiyot o'sishi sharoitida kompaniyalarni sotib olishi va qo'shilishi soni rekord darajaga yetdi. Kompaniyalarni sotib olish va qo'shilishi umumiy summasi 2004 yilda 879 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bu jarayon iqtisodiyotning barcha sektorlariga energetikadan tortib, moliyagacha tegib o'tdi. AQSH xususiy evolyutsiyasi muhim yo'nalishlaridan biri ayrim korxonalarni mo'tadil rezervlar



qidirishi va kompaniya doirasida ularning birlashishi bo'ldi. Ishlab chiqarishni markazlashtirish va ishlab chiqaruvchi kapital mos kelmasligi kuchaydi. Hatto kapital bo'yicha eng yirik korporatsiyalarda bir korxonada ishlab chiqarish hajmi samaradorlik chegaralari bilan belgilana boshladi. Shu bilan birga kichik biznes salmoqli rol o'ynashda davom etayapti. AQSH eksportida o'rta va kichik firmalar ishtiroki 55 % ni tashkil qiladi.

AQShda ko'plab kichik va o'rta firmalar mavjud. Ular mustaqil faoliyat yuritadi, bozorda o'zining o'rmini topadi.

Ammo yirik kapital ham ularni e'tiborsiz qoldirayotgani yo'q. Bunda kichik biznesning yuqori manyoverligi hisobga olinayapti, uning bozorda egiluvchan maslashishi, ko'pgina turlarni tejaliqsh imkoniyatlari katta.

Kichik va o'rta biznesni texnologik, ijara pudrati, kontrakt tizimi jihatidan turg'un bozor, ta'minot manbai, yangi texnologiyalarni moliyalashtirishda yirik biznesga qarashli uni ularga bog'lab qo'yadi.

Amerika iqtisodiyoti qayta turlanishida «tavakkalchilik kapitali» o'suvchi rol o'ynaydi: kichik kompaniyalarga tavakkal ilmiy izlanishlarni sinash, yangi tartibni tezroq joriy etish uchun yangilikni olish vazifalari yuklanadi. Xususiy kapitalning umumiy harajatlari uncha katta bo'lmagan firmalar uchun ilmiy-texnik, tajribalar, tadqiqotlar, konstruktorlik ishlanmalariga ajratilayotgan mablag'ning atigi 5 %ni tashkil etsada, AQShda ular ixtirolarning yarmi yaqiniga ega. Mayda va o'rta kompaniyalar bilan yiriklarini o'zaro birgalikda harakat qilishlarida AQSH kredit tizimi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

AQSH kredit tizimi jahonda birmuncha taraqqiy etgan va o'zida davlat va xususiy kredit hujjatlarini mujassam etgan. Uning asosiy komponenti federal rezerv tizimi (FRS) dir. U Markaziy bank funksiyasini (1913) bajaradi. FRS boshqaruvchilar kengashidan 12 ta federal rezerv banklaridan, kongress tomonidan tuzilgan bir necha ming bank a'zolaridan iborat. Ochiq bozorda operatsiyalar bo'yicha Federal komitetga va Federal maslahat kengashiga ega. FRS davlatning pul kredit siyosatini amalga oshiradi, iqtisodiyotga kredit va pul muomalasi sohasi orqali ta'sir o'tkazadi. Pul-kredit siyosatining muhim instrumenti ochiq bozorda xukumat qimmatbaho qog'ozlari bilan operatsiyalar, bank rezervlarini to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish va hisobot stavkalari mexanizmi orqali kreditlarni kengaytirish yoki cheklash hisoblanadi.

Banklar faoliyati sohasida nafaqat an'anaviy, balki yangi operatsiyalar ham qo'llaniladi. Ular ilgari ixtisoslashgan moliya institutlari mo'ljalida turardi: sug'urta biznes, investitsion operatsiyalar, brokerlik ishlarini bajaradi. Bank sohasi iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishda moliyalashtirishda yangi shakllarini «kashf» etdi: lizing, faktoring ishlar, axborot va maslahat servisi ishtiroki daromad keltiradigan sanoat ob'ektlari qurilishini kreditlash. Masalan, lizingni moliyalashtirishning 45 % va faktorning operatsiyalar hajmining 75 % ga yirik tijorat banklar xizmat ko'rsatadi.

AQSH bank-kredit tizimi tarkibida o'zgarishlar bosh yo'nalishi eng qudratli moliya institutlarini universallashtirishga qaratilgan.

Mamlakat bank-kredit sohasi samaradorligining oshishi moliya muassasalari qo'shilishlarini jadallashtirib yubordi. Keyingi yillarda AQSH tijoriy banklari soni

3 mingtadan ko'proqqa qisqardi. Ular yirikroq koalitsiyalarga birlashdi. Ular nafaqat ayrim sohalarni, balki butun milliy iqtisodiyotni nazorat ostiga olganlar. Endi ular bir-birlari bilan raqobatlashadilar. Neft, po'lat, avtomobil «qirollari» bilan birga boshqa tipdagi magnatlar paydo bo'ldilar: ularning mulki ma'lum sohalarga bog'langan emas, anonim ravishda moliya institutlari oralig'i aloqalaridan foydalanishadi va milliy masshtabda iqtisodiy potensialga hissa ko'shishadi.

AQSH iqtisodiy o'sishi yuz yillik arafasida AQSH bank tizimi kelgusi taraqqiyotida jiddiy tarkibiy-funksional muammolarni to'g'diradi. Ular qatoriga naqd pul oborotini samarali ishlab turishni ham kiritish mumkin. AQSH to'lov tizimi taraqqiyoti bashorat (prognoz)lariga qaraganda hisob-kitoblarning pul vositalari joriy etilishiga qaramay, naqd holda to'g'ridan-to'g'ri banknotlar, tangalar va turli chek to'lovlari vositalari-istiqbolda nafaqat muomiladan chiqmaydi, balki ishonchli milliy to'lov vositasi bo'lib qoladi.

Oborotda mavjud naqd pul mutloq o'sishi uni nisbatan 1,5 % ga ko'payishiga olib keladi. Bu to'g'ridan-to'g'ri Amerika iqtisodiyoti yuqori rivojlanish darajasi bilan bog'liq. AQSH aholisi sonining ortishi, jamiyat barcha qatlamlarida turmush darajasining o'sishi bilan bog'liq. Yaqin vaqtlarda naqd pul hajmini AQSH hududi uchun 7 % ga, Amerika valyutasiga tashqi talab bo'yicha 13 % ga ko'payishi kutilayapti.

To'lov vositasi sifatida cheklarning ahamiyati oshishda davom etayapti. Amerika ekspertlarining bahosicha, cheklar soni yiliga 3 % ga ko'payyapti. Shuning uchun ham AQSH da nakd pul muomilasi milliy tashkiliy tarkibi kelgusida ham avvalgidek qoladi.

AQSH byudjet siyosati. AQSH ning davlat sifatida birinchi bir yarim asr tarixi davomida federal byudjet yarim stixiyali ravishda shakllandi. Barcha ijrochi xokimiyatlar tarkibida mamlakat xo'jaligi talab va ehtiyojini tahlil etib, yagona byudjet loyihasini tuzadigan, birgalikda harajatlarga talabnoma beradigan mahkamalar, yagona hisob-kitobni amalga oshiradigan organ yo'q edi. Bu sohada sifatli bosqich, Amerika byudjet statistikasi ta'kidlashicha, Koreya bilan urush davridan boshlanadi: 1949 moliya yilidan byudjet o'sishi (joriy narxlarda) deyarli to'xtovsiz davom etayapti. Harajatlarning ko'payishi mutloq boshqacha manzara kasb etayapti: bu tendensiya «tinchlik» yillarida ham to'xtagani yo'q.

Xuddi o'sha davrdan AQSH davlat harajatlarini moliyalashtirish «muntazam-tanqislik» bilan boshlandi va 1998 yilga kelibgina, federal harajatlar 1,7 trln. dollarga yetgandagina nihoyasiga yetdi.

Amerika byudjet siyosatida keyingi o'n yilda ko'zda tutilmagan ko'lamda biror bir voqealar rivoji ro'y berganini eslash qiyin. Barcha ko'rsatkichlar iqtisodiy o'sishning murakkab dinamikasi, ma'muriyatning tashqi iqtisodiy doktorinasi, inflyatsiya sur'atlari, prognozlar, dasturlar ko'lam va real daromadlarga qarab, inqirozga yo'l qo'ymaslik tadbirlari bilan qo'shib olib borilayapti.

### 3.§. AQSH tashqi iqtisodiy aloqallari

Tashqi iqtisodiy aloqalar davlatning ko'p jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilaydi. AQSH da tashqi savdo mamlakat barcha xo'jaligining ichki bozor bilan birgalikda taksimlovchi tarmog'i bo'lib, uni tartibga solishni bitta mahkama-savdo vazirligi amalga oshiradi. AQSH savdo vazirligi bayonotiga ko'ra, «AQShning bosh savdo siyosati Amerika eksporti yo'lida turgan xorijiy to'siqlarni bartaraf etish, ayniqsa amerikaliklar xalqaro darajada raqobatbardoshlikka ega sohalarda».

AQSH savdo vazirligi reja-strategiyasi jahon iqtisodiyotida AQSH tovarlarini raqobatbardoshligini ta'minlovchi tashqi savdo siyosati vazifalarini hal etishga, mamlakat iqtisodiy infratuzilmasini mustahkamlash (zavodlar, fermer xo'jaliklari, xususiy firmalar va h.k.) va milliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatchilardan himoya qilishga qaratilgan.

AQSH tashqi savdo siyosati strategiyasi yo'nalishlari orasida quyidagilarni ajratish mumkin:

- eksportni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, xorijiy kontraktlar uchun kurashda milliy kompaniyalar manfaatlarini himoya qilish;
- kompensatsion poshlinalar va antidemping qonunlarni faol qo'llash;
- tashqi bozorda AQSH kompaniyalari manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash;
- eksport nazorati rejimi samaradorligini oshirish va boshqalar.

Hozirgi vaqtda AQSH iqtisodiyotida eksport roli o'sayapti. Uning yillik hajmi 1 trln. dollarga yaqinlashayapti. Bu mamlakat iqtisodiy o'sishini 30 % ga ko'payishini ta'minlaydi. Korxonalarda yuqori ish haqi bilan 12 mln. ishchi o'rni yaratadi. Eksportni 15 % (mamlakatda o'rtachadan yuqori) ga oshiradi.

AQShda eksportga hamkorlik qiluvchi 100 dan ortiq markaz tuzilgan. Bu markazlar tarmog'i jahonning 70 mamlakatida 130 tijorat xizmat vakolatxonalarini bilan bog'langan. Ularga Amerika eksportining 95 % dan ziyotrog'i to'g'ri keladi.

Eksport AQSH ichki milliy mahsulotiga nisbatan taxminan 6,7-7,2 % ni, import-7% dan ko'proqni tashkil etadi. AQSH tashqi savdo xususiyatlari shuki, 1998 yildan tovar eksport hajmi qiymatlarda pasaya boshladi. Buning asosiy sabablari shuki, AQSH iqtisodi ko'tarildi. Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida moliyaviy beqarorlikda neft mojarolari tufayli talab kamaydi.

AQSH da qishloq xo'jaligi eksportining kamayishi kuzatilayapti. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar ikkita muammo bilan to'qnash keldilar: ichki bozorda qayta ishlab chiqarish va jahon bozorida talabning qisqarishi. AQSH agrosanoat majyasi sezilarli darajada tashqi bozorga qaratilgan: u yetishtirilgan har 3 tonna g'allaning 2 tonnasini eksport qiladi. Bularning bari AQSH savdo balansida to'qchilikning o'sishiga olib keldi.

Keyingi vaqtda import masalasida ham muammo o'tkirlashayapti. Ya'ni u ichki bozorda tobora ko'proq yangi-yangi o'rinlarni egallab olayapti. AQSH bozorlarida sotilayotgan poyafzallarning 68 %, kiyim kechakning 53 %, po'latning

23 %, neft va neft mahsulotlarining 50 % xorijlik yetkazib beruvchilar hisasiga to'g'ri kelayapti.

Savdo balansidagi passiv saldoni mamlakatning xalqaro raqobatdagi o'rni pasayapti, deb tushunmaslik kerak. AQSH haqli ravishda jahon iqtisodiyotining lokomotivi rolini bajarayapti.

AQSH ga jahon zayom mablag'larining yarmiga yaqini to'g'ri keladi. Xorijda to'g'ridan-to'g'ri Amerika investitsiyalari jamg'armalari jahonning 1/4 qismini hosil qiladi.

AQSH ga keltirilayotgan kapital hajmi yiliga 193 mlrd. dollardan oshadi. Bu iqtisodiyotni yuksak darajada baynalminallashgan va mamlakatni iqtisodiy jihatdan tez rivojlanayotganligining muhim omillari ekanligidan guvohlik beradi.

AQSH uchun integratsion jarayonlarda faol ishtirok etish harakterli. Boshqa davlatlar bilan AQSH iqtisodiy aloqalari juda keng va xilma-xil. Amerika-Yevropa aloqallarini mustahkamlashda YEI mamlakatlari muhim rol o'ynaydi. Bu birgalikdagi xo'jalik harakatlari juda faol bo'lsada, YEI mamlakatlari Amerika bozori Kanada yoki Yaponiyaga nisbatan amalda kam darajada bog'liq. YEI tovar bozori AQSH iqtisodiyoti uchun aksincha Yaponiya va Kanada bozoriga qaraganda muhim rol o'ynaydi. Importi umumiy hajmining 26 % dan oshmaydi.

Hozirgi vaqtda jahonda tez rivojlanayotgan mintaqa Osiyo-Tinch okeanidir. Mintaqa mamlakatlari xalqaro mehnat taqsimoti jarayonlariga faol jalb etilgan. Ular ulushiga Amerika eksporti 22 % ga to'g'ri keladi. Mintaqa mamlakatlari kapital qo'yish ob'ekti va ortiqcha mollarni bozorga chiqarish ulkan imkoniyati, AQSH xo'jalik jarayonlarini baynallashtirishga qaratilgan roli o'sishi jihatdan ham muhimdir. Bu yerda AQSH ning bosh okean orti hamkori Yaponiya joylashgan. U AQSH ning butunjahon xo'jaligi strategik yetakchilik o'rniga «da'vo» qilmokda.

1989 yilda Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (ATES) konferensiyasi tuzildi. Unga AQSH, Yaponiya, Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya, ASEAN mamlakatlari, Rossiya, Janubiy Koreya va boshqalar kiradi. ATES faoliyat sohasiga tinch okeani tabiiy resurslarini muhofaza qilish va iqtisodiy munosabatlardan tortib madaniy aloqalargacha bo'lgan keng masalalar kiradi. ATES savdo va investitsiyalarni kengaytirishda ishtirok etadi. Butunjahon savdo tashkiloti kuchi bilan xalqaro savdoni liberalizatsiya qilishda hamkorlik ko'rsatadi.

#### 4. §. Kanada iqtisodiyotining umumiy ta'rifi

Kanada iqtisodiy jihatdan yuksak rivojlangan davlat. Bozor iqtisodiyotida yetakchi rivojlangan mamlakatlar «sakkizligi»ga kiradi. U «ko'chma kapitalizm» mamlakatlari tipiga kiradi. 10 mln. kv. kilometr maydonga ega bo'lib, maydoni bo'yicha jahonda Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Kanada Shimoliy Amerika qit'asi maydonning sezilarli katta qismini egallaydi.

Kanada foydali qazilmalarga juda boy mamlakat bo'lib, unda yoqilg'i-energetika, metallurgiya va nometallurgiya turlari ko'p. Rangli va qimmatbaho metallar, temir rudasi, uran, neft va tabiiy gaz, kaliy tuzi kabi jahon ahamiyatiga

molik boyliklar katta zahirasiga ega. Ko'mir resurslariga boy. Bular mamlakatning katta mineral-xom ashyo bazasini tashkil qiladi va uni jahonda rivojlangan davlatga aylantirmokda. AQSH iqtisodiyoti uchun ham bu katta ahamiyatga ega. Kanada rayonlarida qazilma boyliklar konlari energoresurslarga boy imkoniyatlar bilan uyg'unlashib ketgan.

Kanada iqlimi mo'tadil kontinental bo'lib, u to'rtta iqlim provinsiyalaridan iborat: qutbiy, subarktik, mo'tadil va tog'li. Kanada ulkan suv zahiralari bilan ham ajralib turadi. Ichimlik suv zahirasi bo'yicha (12,9 ming km<sup>3</sup>) Braziliya va Rossiyadan keyin uchinchi o'rinda turadi.

Mamlakatning deyarli yarim maydoni qalin o'rmonlardan iborat. Kanada yog'och zahiralari bo'yicha Rossiya va Braziliyagagina o'rin bo'shatib beradi. Aholi boshiga yog'och ishlab chiqarish hajmi bo'yicha esa jahonda birinchi o'rinda turadi.

1663 yilda Kanada rasman Fransiyaning mustamlakasiga aylandi. Yetti yillik urushdan keyin Parij shartnomasi bo'yicha urushdan keyin 1763 yilda Kanada Angliyaning mustamlakasi bo'ldi. 1867 yilda Kanada to'g'risidagi Aktga muvofiq mamlakat konstitutsion o'zgarish va huquqiy jihatdan mustaqil bo'lish huquqini qo'lga kiritdi. Endilikda Kanada 10 ta provinsiya va uchta hudud (Yukon, Nunovut va Shimoliy G'arbiy hududlar) dan iborat federativ davlat. Davlat boshlig'i nomigagina Angliya qirolichasi, u bosh vazir tavsiyasiga ko'ra general-gubernatorlarni tayinlaydi. Hokimiyat qonunchilik oliy organi-parlament, quyi palata va senatdan iborat: quyi palataga depututlar aholi soniga qarab provinsiyalardan saylanadi, senatorlar general-gebernatorlar tomonidan tayinlanadi. Ijroiyy hokimiyati boshlig'i bosh vazir, u ayni vaqtda bosh qo'mondan ham hisoblanadi. Ministrlar soveti sifatida u parlament oldida ma'suldir.

Kanada millatlar Hamdo'stligi a'zosi (sobiq Britaniya). Mamlakat OESR, NATO, OAG lar a'zosi hisoblanadi.

Mamlakat aholisi 32 mln. kishiga yaqinni tashkil etadi. Immigratsiya-Kanada aholisining asosiy geografik qiyofasini belgilovchi bosh omildir. Mamlakat aholisi ko'p millatli. Hozirgi zamon emigrantlarining 19 % yevropaliklarga to'g'ri keladi (shundan 2,4 % - Buyuk Britaniyadan), lotin amerikaliklar, 7 % ni afrikaliklar tashkil qiladi. Kanadada ayni paytda ikki millat va 80 dan ziyod elatlar yashayapti.

Kanada-yuqori urbanizatsiyalashgan mamlakat, 78 % aholi shaharlarda yashaydi. Kanada rivojlangan mamlakatlar orasida ishsizlikning yuqori darajadali bilan ajralib turadi (8-10 % iqtisodiy faol aholi). Turmush darajasi bo'yicha Kanada aholisi jahonda uchinchi o'rinda turadi. Mamlakatda kompyuterlash keng tarqalgan.

Kanada boshqalar singari bozor iqtisodiyoti yuksak rivojlangan mamlakat hisoblanadi. Endilikda industrial taraqqiyoti bosqichi sari qadam tashlamoqda. Ichki milliy mahsulot hajmi bo'yicha jahondagi birinchi o'nlik davlatlar qatoriga kiradi (836 mlrd. dollar). Sanoat mahsulotlari qiymati va tashqi savdo oboroti bo'yicha bu yuqori ko'rsatkichdir. Ammo Kanada aholi jon boshiga IMM hajmi bo'yicha AQShdan ancha orqada (34 ming dollarga qarshi 27 ming dollar). Bu mamlakat qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari bo'yicha bir qator bosh ishlab

chiqaruvchi mamlakatlar guruhida mustahkam o'rinni egallaydi. Uning uchun ishlab chiqarishning yuqori markazlashtirilgani, mehnatni geografik taqsimlash taraqqiy etgani, yuqori energetika ta'minlangani harakterlidir. Kanadaning an'anaviy xususiyati-ko'proq xom ashyoga rol berilganidir. Bunda tog'-kon sanoati, energetika va qishloq xo'jaligi, o'rmon va yog'ochni qayta ishlash sanoati jahon bozoriga tovar yetkazib beruvchilar sifatida katta ahamiyat kasb etgan. Ichki yalpi mahsulot ishlab chiqarishda qayta ishlash, sanoati ulushi (1/5) boshqa rivojlangan davlatlardagidan past. Tashqi savdo AQSH ga nisbatan iqtisodiyotda katta rol uynaydi. Kanadaning jahon bozorida mustaqilligi ortib borayapti: xom ashyo sohasi mahsulotni 1/4 dan 2/3 qismgacha eksport qilayapti.

Xorijiy kapital qo'yilmalarining yarimi AQSH ga qolganlari Osiyo va Lotin Amerikasi, Yevropa ittifoqiga chiqarilayapti.

Sanoati. Kanada iqtisodiyotining bu sohasi yuqori texnik darajasi va murakkab tarkibi bilan ajralib turadi. Mamlakatda energetika va tog'-kon sanoati, rangli metallurgiya, bir qator energiya talab sohalari, eksportida xom ashyoni qayta ishlash sanoati sohalari orasida, mashinasozlikdan tashqari, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz, shuningdek oziq-ovqat sanoati roli ayniqsa katta. Keyingi yillarda fantalab sohalari (elektronika va elektro-texnika, farmatsevtika va boshqalar) ahamiyati oshdi.

Kanada elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha (567 mlrd. kvts.) jahonda oltinchi o'rinda turadi. Energiyaning deyarli 3/5 qismini GES lar ishlab chiqaradi. Yoqilg'i-energetika balansida 3/4 qism suyuq va gazsimon yoqilg'iga to'g'ri keladi.

Tog'-kon sanoati-mamlakat iqtisodiyotining bazaviy sohalaridan biri bo'lib eksportda muhim (20% qiymatgacha) rol o'ynaydi. Tog'-kon mahsulotlari yetakchi turlari qiymati bo'yicha: neft, tabiiy gaz, oltin, ko'mir, mis, rux, nikel, temir rudasi, uran, kaliy tuzi muhim o'rin tutadi. Ikkinchi o'rinda kaliy tuzi va nikeli ruda, uchinchi gaz qazib olish, mis rudasi va platina turadi. Kanada oltin, kumush, mis, ko'rg'oshin, rux, molibden, kobalt va temir rudasi bo'yicha bosh ishlab chiqaruvchilar qatoriga kiradi. Kanada neft qazib olish hajmi bo'yicha dunyodagi birinchi o'nlik mamlakatlar safida turibdi.

Qayta ishlash sanoati ishlab chiqarish va kapitalni yuqori konsentratsiyalanganini bilan ajralib turadi. Qayta ishlash sanoati strukturasi mashinasozlik sohasi (transport mashinasozligi, o'rmon va tog'-kon sanoati uchun elektr kuchlanish uskunalari) bosh rol o'ynaydi. Qayta ishlash sanoatida band kishilar soni va mahsulotning 1/3 mashinasozlikka to'g'ri keladi.

O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati boy o'rmon resurslaridan foydalaniladi. Kanada jahonda yog'och chiqarish bo'yicha to'rtinchi, taxta ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi va qog'oz ishlab chiqarish bo'yicha to'rtinchi o'rinda turadi.

Qishloq xo'jaligi. Mamlakatda qudratli agrosanoat kompleksi shakllangan, oziq-ovqat sanoati unda bosh rol o'ynaydi. Mamlakat sanoati qayta ishlaydigan jami mahsulotning 13 % uning ulushiga to'g'ri keladi. Kanada qishloq xo'jaligi yuksak darajada mexanizatsiyalashgan, ixtisoslashgan, yuqori mehnat unumdorligi, ishlab chiqarishni bir maqsadga qaratilgani bilan harakterlanadi. Bu

asosiy tur oziq-ovqat bilan ichki talabni to'liq ta'minlaydi va mahsulotning deyarli yarimi jahon bozoriga olib chiqiladi.

Keyingi yillarda mamlakatda fermer xo'jaliklari soni qisqarishi ro'y berayapti. 30% xo'jaliklar yiriklarga (tovar mahsulotlari kattaligi bo'yicha), 15 %-o'rtacha, 55 % mayda xo'jaliklarga taaluqli. Fermerlarning katta qismi-chorvachiliklar (go'sht, sut beradigan yirik shoxli mollar), g'allachilikka ixtisoslashgan korxonalaridir.

Mamlakatda qishloq xo'jaligi ekinlari maydoni 73 mln. gektarni tashkil etadi. Aholi jon boshiga ekin maydoni bo'yicha Kanada Avstraliyagagina bo'sh keladi, Rossiya va AQShda esa yarimiga ustun turadi. Ekin maydonining asosiy qismi (3/5)ni haydaladigan yerlar tashkil etadi.

Kanadada g'allachilik xo'jaligi (javdar, makkajo'xori va soya) taraqqiy etgan. G'alla yetishtirish bo'yicha Kanada (yiliga 50-55 mln. tonna) jahonda yettinchi o'rinni egallaydi. U g'alla yetishtiruvchi yetakchi guruhlarga kiradi. Eksport bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Kanada fermalarida dunyodagi moyli zig'irning 1/3 va rapsning 1/5 yetishtiriladi. Umuman mamlakat qishloq xo'jaligi yuksak eksportligi bilan ajralib turadi. Bu ayniqsa eng avvalo dehqonchilikka (g'alla va moyli ekinlar) tegishli. Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish kiyinchiligi-qayta ishlashdagi surunkali krizis-agrar sohada davlatni tartibga solish roli juda muhim ekanligini ko'rsatdi.

Transport. Territoriyaning kattaligi, aholini notekis joylashganligi va xo'jalik ko'lami azaldan mamlakat uchun transport masalasini ko'ndalang quygandi. Asosiy transport turlari-temiryo'llar, avtomobillar, aviatsiya, havo suv va o'tkazish quvurlaridir.

Xizmat sohasi. Xizmat sohasi jadal rivojlanayapti. Sohalarda yaratilgan xizmat ko'rsatish hajmi yalpi mahsulotda 3,4 % ga ko'paydi. Ko'tara savdo tez rivojlanayapti (o'sish 10 % dan yuqori), umumiy ovqatlanish va mehmonxona xo'jaligi korxonalari (6%), aloqal (5%), chakana savdo (4,2 %), transport va omborxonalar xo'jaligi (4%) o'sayapti.

Kanadada 1998 yildan davlat byudjeti takchilligiga butunlay barham berildi. Shunga qaramay mamlakatda qarzdorlik kattaligicha qolayapti. U ichki yalpi mahsulotda 10% ni tashkil etadi.

Federal hokimiyat davlatni tartibga solishni qisqartirayapti va amalda hammasini xususiy investorlarga sotayapti, qayta ishlash sohasidagi davlatga tegishli yirik korxonalar va neftgaz sanoati, havo, temiryo'l transporti va aloqa shular jumlasidandir. 1999 yildan boshlab federal hukumat protsent stavkalarini pasaytirishga kirishdi. Qisqa muddatli kreditlar protsent stavkasi AQSH dagiga nisbatan past.

Aholi jon boshiga umumiy tashqi savdo oboroti hajmi bo'yicha Kanada jahonning yetakchi mamlakatlari qatorida turadi. Yalpi milliy mahsulotda Kanada eksport va import 2/3 tashkil qiladi. Eksport tarkibida xom ashyo ulushi 4/5 ga yaqin, mashina va uskunalar 17%, iste'mol mollari 4%, g'allaning 4/5, o'rmon-yog'och, silyuloza-qog'oz, alyumin sanoatlarida 1/2 qismi eksport qilinadi. Importda ham sanoat buyumlari, ko'proq tayyor mahsulotlar ustunlik qiladi. Ko'mir, neft, tropik qishloq xo'jaligi mahsulotlari keltiriladi. Savdo balansida

saldo ijobiy va 34-35 mlrd. dollardan oshadi. Kanada rivojlangan mamlakatlarning avvalo AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniyaning yirik savdo-sotiq hamkorlaridan bo'lib qolmokka.

Kanadadan eksport taxminan 170 mlrd. dollarni tashkil qiladi. Kanadalik investorlarning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kapital qo'yimalari 65 % ga yaqini AQSH ga to'g'ri keladi.

1988 yilda AQSH va Kanada o'rtasida Shimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi tuzish haqida (NAFTA) bitim imzolandi. 1992 yilda unga Meksika ham qo'shildi. 1994 yildan boshlab bitim rasman kuchga kirdi.

NAFTA tuzilishidan quyidagi maqsadlar ko'zlangan:

- uning a'zolari o'rtasida savdo to'siqlariga barham berish;
- halol raqobat muhitini yaratish;
- xorijiy investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytirish;
- intellektual mulk huquqlari himoyasini kafolatlash;
- huquqiy kelishmovchiliklarni hal etish uchun samarali arbitraj tashkil etish;
- korxonalar va madaniy dasturlar o'rtasida kooperatsiyasida ko'p tomonlama nou-xau almashinish va mintaqaviy rag'batlantirish;
- atrof muhit tozaligini muhofaza qilishda hamkorlik qilish.

NAFTA bitimi har ikkala mamlakat bank aktivlarini hal etish va investitsiyalarga cheklovlarni kamaytirish, ikki tomonlama tovar va xizmatlar savdosidagi to'siklarni bartaraf etishga ko'maklashadi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. AQSH tabiiy resurslar potentsalini harakterlang.
2. AQSH iqtisodiyotining hozirgi zamon holati nima bilan harakterlidir.
3. Milliy iqtisodiyot o'sishining asosiy omillarini ayting.
4. Amerika iqtisodiyotning boshqarish modeli asosiy qirralarini ajrating?
5. Hozirgi zamon bosqichida AQSH tashqi savdo strategiyasining asosiy xususiyatlari qanday?
6. Kanadaning jahon xo'jaligidagi o'rni va rolini aniqlang?
7. Kanadaning iqtisodiy taraqqiyoti xususiyatlarini aytib bering?
8. Kanada iqtisodiy islohatlarining asosiy yo'nalishlarini ko'rsating?
9. Kanadaning AQSH va Meksika bilan o'zaro aloqalarini harakterlang.



## X Bob. YAPONIYA IQTISODIYOTI

### 1.Ş. Jahon xo‘jaligida Yaponiyaning tutgan o‘rni va roli

Yaponiya juda ko‘p va mayda orollarda joylashgan mamlakat bo‘lib, u shimoldan sharqqa hamda janubi-g‘arbga qarab, salkam 3,5 ming kilometr ga cho‘zilib ketgan. Uning umumiy yer maydoni 378 ming kv. kilometrni tashkil etadi. Yaponiyada orollarning umumiy soni 3900 taga yetadi. Ulardan eng kattalari Xonsyu, Xokkaydo, Kyusyu va Sikoku orollari hisoblanadi.

Mamlakat 47 hudud (prefektur)ga bo‘lingan. Har birining shahar va qishloqni boshqaruvchi o‘z hukumatlari bor. Aholi soni bo‘yicha Yaponiya (127 mln. kishi) Xitoy, Hindiston, AQSH, Indoneziya, Braziliya, Rossiya va Pokistondan keyin 8-o‘rinda turadi. Mamlakat aholisining 99% dan ko‘prog‘ini yaponlar tashkil qiladi.

Aholining 3/4 qismi shaharlarda yashaydi. Aholi zichligi bir kv. kilometr ga 332 kishi to‘g‘ri keladi. Poytaxti Tokio, unda 12 mln. dan ortiq aholi yashaydi. Yaponiya aholisi tarkibida erkaklar va xotin-kizlar nisbati deyarli barobar: ayollar 50,9% erkaklar 49,1 %.

Yaponiya insoniyat jamiyati keksarishda davom etayapti. 65 yoshdan oshgan odamlar soni butun aholining 16,5 % ini tashkil qiladi, 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar esa 15%.

Mamlakatning rasmiy tili Yapon tilidir. Hukmron din esa Buddizm va Sintoizm. Pul birligi-iyena.

Yaponiya-konstitutsion monarxiya davlati. Mamlakat konstitutsiyasiga muvofiq imperator «xalq birligi va davlat ramzi» hisoblanadi. 1990 yil yanvarida Akixito Yaponiya imperatori bo‘ldi. Davlat hokimiyati oliy organi va yagona qonunchilik organi - parlament, u ikki palatadan-palata vakillari (512 deputat) va palata maslahatchilari (252) dan iborat.

Yaponiya yuksak darajada rivojlangan mamlakatdir. U dunyo aholisining 2,4% va quruqlik yer maydonining 0,3% iga egaligiga qaramay, iqtisodiy potentsiali jihatidan AQSH dan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi. Uning ichki milliy mahsuloti 3,4 trln. dollarga yetadi. Bu jahon ishlab chiqarishining 14,3 % ni tashkil qiladi. Mamlakat ichki yalpi mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 30 ming dollardan oshadi.

Yaponiya kema, avtomobil, traktor, stanoklar, kompyuterlar, sanoat robotlari ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda elektr energiyasi, kimyoviy tola, alyumin va mis eritish, neftni qayta ishlash bo‘yicha esa ikkinchi o‘rinda turadi.

Yaponiya iqtisodiyoti tashqi savdoga juda bog‘liq. Mamlakat o‘ziga zarur paxta, jun, boksitning 100%, miss rudasi, neft, temir rudasining 99 % ini, toshko‘mirning 82 % ini import orkali oladi. Yaponiya xalqaro savdoda AQSH va Germaniyadan keyin uchinchi o‘rinni egallaydi. Jahon eksportida qariyb 8,9 %, importda esa 6,3 % ulush uning hissasiga to‘g‘ri keladi. Dengiz mahsulotlarini olish bo‘yicha Yaponiya dunyoda birinchi o‘rinda turadi (12 mln. tonnaga yaqin).

Yaponiya oltin valyuta zahiralari hajmi bo'yicha ham jahonda birinchi o'rinda turadi. Jahon bank aktivlarining 40% uning ulushiga to'g'ri keladi. Olti yapon banki jahonning o'n yirik banklari qatoriga kiradi. Yaponiya Uning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari 310 mlrd. dollardan ortiq bo'lib, bu jahon investitsiyasining qariyb 12,7 % ini tashkil qiladi.

Yaponiya dunyodagi eng yirik kredit beruvchi mamlakat bo'lib qolmoqda. Taraqqiyotga rasmiy ko'mak doirasida endi rivojlanayotgan mamlakatlarga imtiyozli iqtisodiy yordam ko'rsatish bo'yicha u dunyoda birinchi o'ringa chiqdi. Uning rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatishga ajratilgan ularning mablag'i hajmi yiliga taxminan 11 mlrd. dollardan ortadi.

Ilm – fan va tajriba – konstruktorlik (NIOKR)ga harajatlari bo'yicha Yaponiya AQSH dan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda NIOKRga harajatlar mamlakat ichki yalpi mahsulotda 3% dan ko'proqni tashkil etadi. Jahonda ro'yxatga olingan jami patentlarning 40% yapon patent boshqarmasi ulushiga to'g'ri keladi. Yaponiyada Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) jahonning juda ko'p mamlakatlariga boshqaruvchi kadrlar menejerlar tayyorlab beradigan Universiteti joylashgan.

## 2.5. Yaponiya iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari

Keyingi o'n yilda Yaponiya iqtisodiyotining o'sishi sifatini ta'minlovchi asosiy yo'nalishlar qo'yidagilardan iborat:

- fantalab sanoat ulushining bosqichma-bosqich o'sishi iqtisodiy modeli intensivligi va katta tarkibiy siljishi;
- resurslar va energiyani tejash texnologiyasi evaziga ishlab chiqarish bazasining yangilanishi;
- barcha ishlab chiqarish jarayonlarida elektronika taraqqiyoti va uning joriy etilishi.

Kommunikatsiya tizimida inqilobiy o'zgarishlar va jamiyat axborot modeliga o'tilishi. Yaponiya iqtisodiyotining yuqori darajada o'sish sur'atlari quyidagi omilar ta'sirida ifodalanadi.

Ijtimoiy struktura (tuzilish). Yaponiyada mayda tadbirkorlikning katta qatlami xos bo'lib, unda oila tipidagi xususiy korxonalar, chakana savdo, umumiy ovqatlanish, qayta ishlash sanoatlarini ham qamrab olgan. Masalan, qayta ishlash sanoatida yollanma ishchilarning 3/4 300 gacha ishchi o'rni bo'lgan korxonalarda banddir. Yaponiya qishloq xo'jaligi deyarli yollanma mehnatsiz faoliyat yuritadi. Mamlakatda 2 mln. 600 mingdan ortiq dehqon xo'jaligi mavjud. Ularning ko'pchiligi mayda xo'jaliklardir. Yer uchastkalarining o'rtacha hajmi 1,9 gektar. Ammo ularning 17% ga yaqini mutlaqo qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi. Qolganlari shaharlar yaqinligi, transport tarmoqlari rivojlanganidan foydalanib boshqa sohalardan katta daromad olishadi.

Yaponiyaga yuqori darajada bandlik ham xos. Mamlakatda ish stajiga qarab haq to'lash «umrbod yollash tizimi»-bu, norasmiy yapon institutidir. U fakat yirik

korxonalarga yoyilgan va eng yuqori malakali xodimlar menedjerlarni qamrab olgan (yollanib ishlatyotganlarning jamisi 10 % dan ko'proq).

Shu sababli Yaponiyada yuqori boshqaruv bo'g'inlarida deyarli mehnat bozori yo'q. Menedjer mavqei-bu bir firma yoki uning sho'basida bir umrlik mavqeidir. Boshqaruvning yuqori bo'g'ini vakillari o'z mahsulot yetkazib beruvchilari bilan doimiy ishonchli hamkorlik qiluvchi, ularning ishonchini oqlovchi, o'z firmasi obro'si, sha'ni uchun kurashuvchi, shular bilan bir qatorda menedjerlik mavqeini mustahkamlash uchun intiluvchi odamlardir.

Qolgan yollanma xodimlarning ishsizlik shakli kamligi (13-15%) bir kator sabablar bilan izohlanadi: ko'pchilik Osiyo jamiyatlari uchun xos ijtimoiy sheriklik an'analari keng tarqalgan. Ish joyida o'qitish yaxshi yo'lga qo'yilgan, bundan ish beruvchi «inson kapitali» va sarflangan harajatni juda qadrlaydi; vaqtbay ishlarga kontraktlar (yoki to'liq bo'lmagan ish kuni) savdo va xizmat sohaslarida keng tarqalgan.

Firmalarning vertikal integratsiyasi. Yaponiyada kreyretsu – yirik kompaniyalarni mayda va o'rtalari bilan birlashishi ko'p tarqalgan. Vertikal ishlab chiqarish integratsiyasi jamlangan. Bu usul xo'jalikda yetakchi o'rinni egallagan moliya guruhlarini tuzishga olib keldi. Qoida bo'yicha ular yirik banklar, universal savdo va sanoat kompaniyalari: «Mitsui», «Mitsubisi», «Sumitomo», «Fuye», shuningdek «Daniti Kange», «Sanva»lardir.

Moliya kapitalini guruhlash uchun ishtirokchi kompaniyalar aksiyalarni o'zaro almashinib egallashi harakterli. Ammo ulardan har biri boshqa kompaniyalar aksiyalarining nisbatan kamroq paketiga ega bo'lishadi. Natijada kompaniyalar ustidan nazorat ravshan ko'rinishda jismoniy shaxslardan huquqiy shaxslarga o'tadi. Sanoat ijtimoiy tarkibi va kredit sohasida individual kapital roli pasayadi. Ishlab turgan kapitalda individual mulkning aksiya shakli atigi 1% ga to'g'ri keladi.

Mehnat munosabatlari. Iqtisodiy taraqqiyotning yapon modeli qiyofasi ishchi kuchlari xususiyatlari va milliy an'analardan foydalanishda namoyon bo'ladi. Mamlakatda uzoq vaqt umrbod yollanish prinsipi targ'ib qilindi. Kadrlar piramidasi qurishga, bandlikni ta'minlashga qodir yirik kompaniyalar bu prinsipni amalga oshirish uchun kichik va o'rta firmalarga qaraganda katta imkoniyatlarga ega. Ko'rinib turibdiki, na kompaniyalarda, na qonunchilikda umrbod yollanishga kafolat beruvchi qoida yo'q. Shu bilan birga xodimlar ham, ma'muriyat ham jamoa (kollektiv) shartnomada ish davomiyligi punktini o'zaro kelishmasdan qarab chiqishadi. Hukumat bandlikni subsidiyalar yordamida qo'llab-quvvatlashga intilayapti. Shuningdek, bir joyda ko'p yillar uzluksiz ishlagani albatta e'tiborga olinadi.

Ish stajiga qarab ish haqi darajasi belgilanadi. U o'rta yoshlarda tez o'sdi. Bunda asosiy stavkaga turli qo'shimchalardan keng foydalanildi.

Mehnat munosabatlari esa «Firma bizning umumiy uyimiz» falsafasiga qurilgan. Ishchi kuchlaridan foydalanish asosan «inson potentsiali» konsepsiyasida mujassamlashgan. Hali XX asrning 60-70 yillari miqyosida bir qator yapon kompaniyalari xodimlar o'z ishlari turli xilligi bilan ajralib turishga va to'la qonli bo'lsagina qoniqish hosil qiladilar, degan xulosaga keldilar. O'shanda yig'ish

operatsiyalarida konveyer liniyasidan voz kechishdi va ularni aylanadigan stollarga almashtirishdi. Uning atrofida bitta ishchi bir buyumni yoki bir butun blokni o'zi yig'a boshladi. Bunda ish xususiyati va grafigi, ish xavfsizligi, sifati va h.k. larni ishchilarning o'zlari nazorat qiladigan bo'ldi. Natijada texnologik operatsiyaning mustahkamlanishi tufayli brak mahsulot 6 dan 0,3 % ga pasaydi. Mehnat unumdorligi 20% ga oshdi, tannarx 30% ga kamaydi. Bunda boshqaruv va tashkiliy ish asosi bo'lib kichik o'zini-o'zi boshqarish guruhlari chiqdi. Ular butun korxonani vertikal bo'ylab ham, gorizontol bo'yicha ham qamrab oladi. Har bir guruh bir xil sharoitda uskunalarni tejamli ishlatish usullarini doimo izlash, faoliyatlarini rag'batlantirish yo'llarini qidirish bilan qiziqib ishlashadi.

Guruh o'ziga tegishli yoki bo'lim, firmaga tegishli masalalar hal etilayotganda ishtirok etadi. Mehnat munosabatlarida ayollar ishchi kuchi o'ziga xos o'rinni egallaydi. Ko'pgina kompaniyalar rahbarlari ayol kishilarga «sarflanadigan material» sifatida qarashadi. Ayollar ko'p hollarda soatbay ishlarda yoki yugurdaklikda foydalaniladilar. Yugurdak ayollar kompaniya ma'muriyati uchun o'ziga xos qalqondirlar. Noqulay iqtisodiy sharoitlarda, omadsizliklarda xodimlarning bu toifasi birinchi bo'lib qisqarishga tushadilar. Yaponiya ayollarining mehnat haqi darajasi erkaklarnikiga nisbatan ikki marta kam.

Yaponiya uchun uzun ish kuni xos. Erkaklar haftada o'rtacha 57,7 soatini ishda o'tkazadilar, bu amerikaliklar va g'arbiy Yevropaliklarnikidan 10 soat ko'p. Ish haftasining davomiyligi ko'p jihatdan mehnatga haq to'lash darajasini belgilaydi va u uch toifaga bo'linadi: bazali stavka, vaqtdan tashqari va mukofat. Bazali stavka odatda past darajada belgilanadi, ishdan tashqari va mukofat uchun ishlash esa erkin xohish-istakni, ya'ni ko'proq haq olish ishtiyoqini to'g'diradi. Bu tizim bankrotlikdan qochish uchun g'oyat samaralidir. Kompaniyalarda mehnatga haq to'lashda keskin tafovutlar ko'zga tashlanmaydi.

Davlat roli. Yaponiyaning iqtisodiyot modeli xususiyatlari shundan iboratki, unda umumiy muammolarni hal etishda davlat apparati va yirik kapital birgalikda ish ko'radi. Hozirgacha hukumat va bank, savdo, sanoat kompaniyalari birgalikda yakdil ish yuritishlari qayd etiladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillar davrida davlat tadbirkorligi kamtarin joy egalladi. Mamlakatda umumdavlat, hududiy maqsadli, sohaviy va firma ichki rejalashtirish tizimidan keng foydalaniladi. Umumdavlat darajasida ijtimoiy-iqtisodiy mo'ljallar, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi dasturlar, rejalar tizimi ishlab chiqiladi.

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining umumilmiy asosiy maqsad va vazifalarida direktiv harakterga ega ichki korporativ rejalar aniq mujassamlashtirildi. Bu bilan rejalashtirishning bir-biri bilan uyg'unlashgan murakkab tizimi vujudga keladi. Umum davlat dasturlarini ishlab chiqayotganda, korporativ ichidagi rejalarini tuzishda yirik birlashgan xususiy kompaniyalar - «Keydanren», «Tyukay», «Nikkeyn», shuningdek tegishli assotsiatsiyalar va sanoat-moliya guruhlari bilan maslahatlashib olinadi.

Umumdavlat rejalashtirish tizimi besh guruh rejalaridan iborat:

- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot rejasi;
- yordam, foydalanish va taraqqiy ettirish rejasi;

- ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish va sohaviy rejalar;
- maqsadli umumdavlat dasturlari;
- hududiy rejalashtirish.

Reja va dasturlar alohida bo'lishlariga qaramay, keng moliyaviy vositalar bilan mustahkamlaydi, ularning yuksak samaradorligi va amalga oshirilishi tashkiliy, huquqiy jihatdan ta'minlanadi. Umumdavlat iqtisodiy rejalarini-bu o'ziga xos davlat investitsion dasturlari, butun davlat iqtisodiy-ijtimoiy resurslarini qo'llab-quvvatlovchi va tavsiyalar beruvchi dastur-amallardir.

Davlat tartibga solishi va keng qo'llab-quvvatlashi sharoitida mayda fermerlardan iborat qishloq xo'jaligi rivojlandi. Yollanma mehnat va ijara pudrati munosabatlari bu yerda keng tarqalmadi. Faqat 7% xo'jalik 2 gektardan ziyod yerga ega, 70% xo'jalik o'z daromadini sohadan emas, balki sanoatdan va xizmat ko'rsatish sohalaridan oladi. Mayda yer egalari o'z yer uchastkalarida dam olish kunlari va bayramlardagina ishlashadi. Davlat juda ko'p qishloq xo'jaligi mahsulotlarini jahon bozoridagi narxdan yuqori bahoda sotib oluvchi monopolist hisoblanadi. Bu qo'llab-quvvatlash mazkur sohada qulay sun'iy muhitga solish tizimida jahon bozori va ichki bozorga taqsimlangan protsent stavkasi va valyuta nazorati muhim o'rin tutadi.

Yaponiya iqtisodiy modelini shuningdek yuqori lavozimli shaxslar ham to'ldiradi. Odatga ko'ra ularning ko'rsatmalarini firmalar bajarishga majbur. Agar kimdir buni buzsa firma shafqatsiz jazolanadi.

Yaponiya iqtisodiy modeli keyingi o'n yilda «yarim-davlat» ko'rinishdan bozor prinsiplariga asoslangan tobora ochiqroq tusga o'zgarayapti. Juda ko'p sanoat kompaniyalari to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish prinsipiga o'tdilar (qimmatbaho qog'ozlar chiqarish, ayniqsa aksiyalar va boshqa vositalar).

Bank tizimi. Mamlakatda to'qqizta yirik tijorat banklari mavjud bo'lib, ular butun mamlakat bo'yicha o'z bo'limlarini (shahar) ochish huquqiga ega: «Tokio-Mitsubisi», «Sakura», «Dayiti-Kange», «Sanva», «Sumitomo», «Fudzi», «Asaxi» va «Tokay» tijorat banklari shular jumlasidandir. Shuningdek 129 ta hududiy (fakat o'z tasarrufida bo'limi bor) banklar, 33 trust-banklar-xususiy pay va pensiya jamg'armalarini boshqaruvchi va uzoq muddatli kredit beruvchi uchta bank: sanoat banki, uzoq muddatli kredit banki (LTCB) va yapon kredit banki ishlab turibdi. Bundan tashqari mayda kredit assotsiatsiyasi va qishloq xo'jaligi uchun katta kooperativ bank tarmoqlari faoliyat ko'rsatmokda. Hozirgi kunda davlatga 13 ta bank qarashli: eksport-import banki, Yaponiya taraqqiyot banki, uy-joy qurilishi uchun moliya korporatsiyasi va mayda tadbirkorlikni moliyalashtirishga ixtisoslashgan bir necha banklar.

«Shahar» banki, trust bank va uch uzoq muddatli kredit banki birjalarda o'z aksiyalarini kodlashtirgan yirik korporatsiyalar orasida doimiy mijozlariga ega. Har bir bunday bank ma'lum doiradagi firmalar uchun «bosh» bo'lib hisoblanadi. Ular kompaniyalarga o'rtacha 15 dan 20 % gacha uzoq muddatli kreditlar beradi. Mijozga doimiy xizmat ko'rsatishga kirishar ekan, bosh bank uning moliyaviy faoliyatini chuqur tekshirib ko'radi. Kompaniyaning bosh «tashxizchisi»ga va boshqa banklar uchun kredit to'lov qobiliyatini norasmiy kafolatlovchisiga

aylanadi. Bank kompaniya daromadi yoki aksiyasi kursidan emas, bankrotlik xavfi yo'qligidan, daromadi barqarorligidan manfaatdor.

Iqtisodiyotda davlat sektori va davlat byudjeti. Markaziy xukumatga hammasi bo'lib, beshta davlat korxonasi tegishli (jumladan «Monetniy dvor» - «Zarbxona» va davlat o'rmon xo'jaligi), 13 bank, oliy o'quv muassasalari tarmog'i, 73 tashkilotda davlatning pay ulushi (ko'proq notijoriy tashkilotlarda). Ular safiga fundamental ilmiy tekshirish institutlari, laboratoriyalar, ilmiy-texnika axboroti markazi, madaniy almashinish Yaponiya jamg'armasi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi, neft konlarini qidirib topish, o'rmon resurslarini ishlab chiqarishga ko'maklashuvchi korxonalarni kiritish mumkin. Nihoyat, avtomobil yo'larining saqlanishi, qurilish ko'proq, tug'on, noyob muhandislik inshootlariga ixtisoslashgan korxonalar guruhi (masalan, ichki dengiz orqali ko'p qanotli ko'prik qurilishi u Xonsyu va Sikoku orollarini bog'laydi) bor.

Mahalliy darajada davlatga vodoprovod va kanalizatsiya, chiqindini yig'ishtirib olish va utilizatsiya qilish korxonasi, shahar transporti, maktablar, kasalxonalarni qurish va ulardan foydalanish, pullik avtomobil yo'llari, port inshootlari, yopiq bozorlarda band bir necha ming aksionerlik va pay kompaniyalariga qarashlidir.

Yaponiya nisbatan «kichik» hukumatli mamlakat bo'lib hisoboblanadi. Uning byudjet harajatlari IYAM ning 26-27 %ni tashkil qiladi. Soliq stavkasi samarali, IYAPning 22-23 % ni tashkil etadi. Yaponiya-kuchli iqtisodiyotli, xo'jalik faoliyatiga aralashmasdan, soliq-byudjet, pul-kredit, bosh-tarif orqali tartibga solinadigan tashqi savdo, bozorda rakobatni qo'llab-quvvatlash va tabiiy monopolistlarning faoliyatini tartibga solish dastaklari orqali amalga oshirilayotgan mamlakat.

Yaponiya byudjetining asosiy harajatlar qismi xususisiatlari milliy mudofaani moliyalashtirish darajasining pastligi (barcha harajatlarning 6% yoki IYAPning 1% dan kamrog'i) bilan hisoblanadi. Yirik harajatlar moddalariga ijtimoiy sug'urta va pensiya sohasi (18-20%), hududiy ma'lumotlarga ajratmalar (16-18%), shuningdek infratuzilmalarga investitsiyalar kiradi. Keyingisini moliyalashtirish uchun na faqat joriy yig'imlar, balki davlat tizimidagi pochta, omonat kassalari tushumlaridan ham foylaniladi. Bu kassalarda 20 % yaponlarning shaxsiy jamg'armalari saqlanadi.

Hozirgi paytda mamlakat byudjetning eng yirik moddasi davlat qarziga xizmat ko'rsatish hisoblanadi.

Yaponiya markaziy banki muomiladagi pul massasini tartibga soladi va banklarning kredit ekspansiyasi oldini oladi. Korporativ sektor bank moliyalashtirishga kuchli qaram bo'lib turadi. Yaponiya banki tijorat veksellar orqali shahar banklariga ma'muriy limitlar o'rnatgan. Yaponiya banki diskont stavkasi orkali butun pul bozori stavkalar tizimini boshqaradi. Hozirgi vaqtda pul bozori stavkasi erkin shakllanmokda. Yaponiya banking bosh vazifasi esa pul massasi va banknot emissiyali hajmini aniqlashdan iborat.

### 3.§. Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalari

Yaponiyada tashqi savdo asosini sanoat mollari tashkil qiladi. Shu munosabat bilan tashqi savdo vazirligida tashqi savdo boshqarmasi, sanoat boshqarmasi bilan birlashtirilgan. Bosh vazirlik yoqilg'i resurslari va xom ashyo sotib olinishini quvvatlaydi. Sanoat sohalarida tarkibiy qayta qo'rishlarga ko'maklashadi, ularni oqilona joylashtirishda kichik va o'rta tadbirkorlikka yordam beradi va nihoyat u sanoat mulkini qo'riqlash huquqiga ega.

Tashqi savdo vazirligining samarali ish faoliyati yetakchi xususiy monopolistik birlashmalar bilan mustahkam bog'liq. Chunki bu birlashmalarda Yaponiyaning kapital harakati va tashqi savdoning strategik taraqqiyoti masalalari bo'yicha yapon korporatsiyasi pozitsiyasi shakllanadi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi butun davrda Yaponiya eksportining fizik hajmi 70 martaga ko'paydi. Bu muvaffaqiyatlar zamirida esa mahsulotlarning raqobatbardoshligi, yuqori darajadagi yangi texnologiyalar, kadrlar siyosati va firmalar obro'si yotibdi. Raqobat uchun kurashda Yaponiya firmalarining usullaridan biri-bu tovar modellarini tez almashtirishdir. Yaponiya eksportida yarim o'tkazgichlar 50%, yengil avtomobillar 22 %, telekommunikatsiya uskunalari 23 % po'lat 17% ga to'g'ri keladi. Importda esa yarim fabrikatlar va xom ashyolar asosiy rol o'ynaydi. Yaponiyaga jahon temir rudasi eksportining 30% dan ko'prog'i, rangli metallar, toshko'mir, paxta va junning 19 % to'g'ri keladi. Yaponiya to'g'ridan-to'g'ri kapital quyilmalar bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turadi. Sakkiz yapon kompaniyasi chet eldagi hajmi bo'yicha jahondagi yirik 50 yirik investorlari qatoriga kiradi («Xitachi», «Toyota», «Soni» va boshqalar). Asosiy kapital quyilmalar kredit sohasiga qaratilgan (42,4%), savdoda (11,3%), ko'chmas mulk (11,1%). Kapital quyishda asosiy bozor bo'lib, Tinch okeani qirg'og'i mamlakatlari ATR, AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlari hisoblanadi.

Madaniyatlar, til va an'analar yaqinligi iqtisodiy aloqalarda Sharq bilan hamkorlikka yordam berayapti, Yaponiya atrofida uning strategik maqsadlarida barqarorlikni ta'minlayapti.

Sharq mamlakatlariga eksportning 50%, xalqaro kapital chiqarishning 3% dan ko'prog'i Yaponiyaga to'g'ri keladi.

Yaponiya savdo dialoglarida tashabbus o'zidan chiqishini ma'kul ko'radi. Muzokaralar chog'ida sheriklariga ham shunday yo'lni taklif qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar bilan iqtisodiy munosabatlarda Yaponiyaga xos xususiyatlar-ularning ichki bozorini qayta o'rganadi, erkin savdo imkoniyatlari mavjud hududlarga, davlatlarga ular uchun ham manfaatli bo'lgan xizmatlar, texnologiyalar, tovarlar taklif qiladi. Sharqiy Yevropa bilan munosabatlarda (Chexiya, Vengriya) Yaponiya tomoni ularning yuksak darajada rivojlangandan kelib chiqib siyosat yuritadi. XXR, MDH davlatlari, Osiyo mamlakatlari bilan esa Yaponiya firmalari infratuzilmalari rivojlanmaganligi, mamlakatlar ichida kooperatsion yetkazib berishlar uyg'unligi, energiya, xom ashyo taqchilligi omillarini hisobga oladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Jahon xo'jaligida Yaponiyaning o'rini tahlil qiling.
2. Yaponiya iqtisodiyotining hozirgi holati nima bilan izohlanadi?
3. Yaponiya iqtisodiyotining tez rivojlanishiga qaysi omillar ta'sir etgan?
4. Yaponiya antikrizis mo'ljallari nimadan iborat?
5. Hozirgi bosqichda Yaponiya tashqi aloqalari yo'nalishi asosiy xususiyatlari qanday?
6. Raqobat uchun kurashda Yaponiya firmalarining usullaridan bir nima?
7. Yaponiya chetga kapital chiqarish bo'yicha nechanchi o'rinda turadi?
8. Yaponiyaning eng nufuzli savdo sheriklari (davlatlar)ni sanab o'ting.
9. Yapon ishbiarmonlari savdo dialoglar (muzokaralar) chog'ida o'z sheriklaridan nimalarni kutishadi va xush ko'rishadi?
10. Yaponiyalik tadbirkorlar endi rivojlanayotgan mamlakatlar bilan iqtisodiy munosabatlarini o'rnatishda o'z ishlarini nimalardan boshlaydi?



## XI Bob. G‘ARBIY YEVIROPA MAMLIKATLARI IQTISODIYOTI

### 1. §. Jahon xo‘jaligida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining tutgan o‘rni

G‘arbiy Yevropa–jahon xo‘jaligida dinamik holda rivojlanib borayotgan mintaqa bo‘lib hisoblanadi. Ayni paytda Yevropa hududida maydoni, aholi soni, davlat tuzimi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti turlicha bo‘lgan 40 dan ziyod davlatlar bor. G‘arbiy Yevropa davlatlarini territoriyasiga qarab quyidagi guruhga bo‘lish mumkin:

- yirik davlatlar (Fransiya, Ispaniya, Shvesiya, Germaniya, Finlandiya, Norvegiya, Italiya, Buyuk Britaniya);
- o‘rtacha davlatlar (Ispaniya, Gresiya, Portugaliya, Irlandiya, Avstriya);
- kichik davlatlar (Daniya, Belgiya, Niderlandiya, Shvesariya);
- mitti davlatlar (Andorra Malta, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, San-Marino, Vatikan).

G‘arbiy Yevropaning umumiy maydoni 3,9 mln. kv.km. Aholisi soni 375 mln. kishidan oshadi.

G‘arbiy Yevropa – bu butunligicha qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, tovarlar va xizmatlar eksporti, valyuta va oltin zahirasi, xalqaro turizm rivojlangani hajmi bo‘yicha jahonda birinchi o‘rinda turadi. G‘arbiy Yevropa integratsion jarayonlari taraqqiy etgani bilan ajralib turadi. G‘arbiy Yevropada integratsiyaga a‘zo mamlakatlar hududiy siyosat yuritishda kelishilib olishga sharoit yaratadi, iqtisodiy va siyosiy ustunlikdan foydalanib, hamkorlik qilishga imkoniyatlarni kengaytiradi.

G‘arbiy Yevropa integratsiya yo‘liga 1950–yillarda (1952-ko‘mir va po‘lat ishlab chiqarishni Yevropada birlashishi) kirgan edi. O‘shanda Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg erkin savdo hududi yaratishgandi. Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YEES) tuzish haqida aynan shu mamlakatlar 1957 yilda Rim shartnomasini imzolaydilar. 1958 yilda G‘arbiy Yevropada «Yevratom» (unga yuqorida sanab o‘tilgan 6 mamlakat kirdi) birlashmasi tuzildi. Rim shartnomasini imzolagan mamlakatlarni Yevropa hamjamiyati yoki «Umumiy bozor» deb atay boshladilar. Umumiy bozor mamlakatlarida quyidagi prinsiplar qabul qilindi: erkin savdo, kapitalning erkin harakati, ishchi kuchlari va xizmatlar, yashash joyini tanlash erkinligi.

1993 yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyati Yevropa Ittifoqi (YEI)ni barpo etishni ko‘zda tutdi. (Maastrixt bitimi). Hozirgi paytda YEI G‘arbiy Yevropaning 27 mamlakatini o‘z ichiga olgan–Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Gresiya, Daniya, Islandiya, Ispaniya, Latviya, Litva, Lyuksemburg, Niderlandiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Sloveniya, Germaniya, Finlyandiya, Fransiya, Shvesiya, Chexiya, Slovakiya, Estoniya kabi mamlakatlarni birlashtiradi.

G‘arbiy Yevropada integratsion jarayonlar samaradorligini quyidagi omillar ta‘minlaydi: o‘xshash ijtimoiy tarkiblar iqtisodiyotning yuksak taraqqiy etgani, barqaror qonunchilik bazasi.

G'arbiy Yevropa – jahonning jadal holatda rivojlanayotgan hissasini, birinchi navbatda Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya kabi davlatlar belgilaydi.

## 2.§. Germaniya iqtisodiyoti

Germaniya yaxlit davlat sifatida 1990 yil 3 oktyabrda tashkil topdi: GFR va GDR birlashdi. Germaniya territoriyasi 357,0 ming kv. km, aholisi-82 mln. kishidan ziyodroq. Territoriyasining hajmi bo'yicha Germaniya Yevropada 5-o'rin (Fransiya, Ispaniya, Shvesiya va Norvegiyadan keyin)ni, aholisi soni bo'yicha 1-o'rinni egallaydi.

Germaniya jahonning yirik va iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlaridan biri. Mineral xom ashyo resurslariga boy. Masalan, ularga toshko'mir, temir va marganes rudasi, nikel, kobalt, volfram, molibden, mis, xrom, qo'rg'oshin, qalayi, uran, kaliy tuzi, gilmoya va h.k. kiradi.

Mamlakat mehnat resurslari bilan ta'minlangan. Bu yerda past haq to'lanadigan chet ellik ishchilardan keng foydalaniladi. Germaniya-aholisi yuqori darajada to'plangan mamlakat. Mamlakat G'arbiy qismida aholi o'rtacha zichligi 1 kv. km. ga 245 kishini, sharqiy qismida 155 kishini tashkil qiladi. Germaniya Yevropa mamlakatlari orasida ko'proq urbanizatsiyalashgan. Shaharlarda mamlakatning 88 % aholisi yashaydi. Milliy tarkibi bir turli-99% va asosan nemislar. Diniy e'tiqodi bo'yicha 49 % aholi protestontlar, 45% katoliklar.

Germaniya davlat tuzimi – 16 federal yerni birlashtirgan respublika. Davlat boshlig'i federal prezident. Qonunchilik hokimiyati palatalardan iborat, federal parlament: bundestag (deputatlar palatasi), va bundesrat (yer palatasi). Ijroi hokimiyati federativ kansler boshchiligidagi mahkama tomonidan amalga oshiriladi.

Germaniya 1955 yildan buyon NATO harbiy bloki a'zosi. Yevropa hamjamiyatiga kiradi. Germaniya G'arbiy Yevropa va jahonning qudratli mamlakatlaridan hisoblanadi. Uning taraqqiy etgan mamlakatlar sanoati ishlab chiqarishidagi ulushi 12%, sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha AQSH va Yaponiyadan keyin uchinchi o'rinda turadi. Germaniya xalqaro migratsiyada ishtirokini ancha ko'paytirdi va yirik kapital eksporti va importiga aylandi.

Germaniya – industrial-agrar mamlakat bo'lib, iqtisodiyotining harakterli qirralari qo'yidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish va kapitalning yuqori darajada to'plangani («Folksvagen», «Tissen», «Krup», «Simens», «Bosh», «BASF» konsernlari);
- ilmiy-texnika progressi (ITP) yutuqlarini doimiy joriy etilishi, ta'limga, ilmiy-tadqiqot, tajriba konstruktorlik (NIOKR)ga harajatlarning o'sishi;
- yuqori sifat va ekologik xavfsiz mahsulotlar evaziga raqobatbardoshlikni oshirish;
- xorijiy kapitalning sezilarli roli.

Germaniya sanoatining yetakchi sohalari: mashinasozlik, kemasozlik, asbobsozlik (priborsozlik), kimyo sanoati, elektronika, energetika. Sanoat tipidagi qishloq xo'jaligi yuksak taraqqiy etgani bilan ajralib turadi.

Germaniyaning birlashishi jahon xo'jaligi aloqalari va Yevropada vujudga kelgan siyosiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda olg'a tashlangan qonuniy qadam bo'ldi.

GFR va GDR birlashishga to'rтки bo'lgan iqtisodiy vaziyat quyidagicha kechgan:

- Germaniya iqtisodiyotining ishonchli rivojlanishiga qaramay, yillar davomida shafqatsiz raqobat, bozor to'kinligi doirasi ufqlarida inqiroz (krizis) vaziyati xavf solib turardi;
- qo'shni GDRdagi qudratli ijtimoiy dastur GFRni ijtimoiy sohalarga katta mablag' ajratishga majbur etadi;
- GDR mansub bo'lgan sotsialistik mamlakatlar iqtisodiyotida inqiroz belgilari kuchaydi, sanoat o'sish sur'atlari pasaydi;
- sobiq GDR bozorlariga mol chiqarish imkoniyati kattaligi, barcha ishlab chiqarish turlarini taraqqiy etishi va yangi texnologiya qo'llanilishi;
- GDR da nisbatan arzon ishchi kuchlari mavjudligi;
- GDR o'zining iqtisodiy rivoji bilan jahonda 10-o'rinda turadi. Birlashish jarayoni GFR tadbikorlariga moliyaviy qiyinchiliklar to'g'iradi.

Ikki davlatning bir-biri bilan birlashishga ijtimoiy siyosiy turtki Buyuk Germaniya g'oyasi bo'lib, u ko'p asrlik tarixga ega. Birlashish arafasida bu g'oya turli vositalar, usullar bilan zo'r berib targ'ib qilindi. Turli ishdagi kishilarga mo'ljallab ishtiyoq bilan kitoblar yozildi, filmlar ishlandi. Harbiy jasorat, shonshavkat, vatanparvarlik tushunchalari nemis millati bilan o'zaro chuqur bog'lanib ketgan edi. 1945 yildagi urush mag'lubiyati nemis xalqi uchun milliy isnod sifatida qabul qilindi. G'arbiy va sharqiy qismdagi nemislar uchun bu og'ir zarba edi. Bundan xolos bo'lish uchun birlashish lozim degan motiv olg'a surildi.

Sharqiy nemislar GDRda barqaror hayot ta'minlangan bo'lsada o'z turmush darajasini SSSR bilan emas balki, GFR bilan taqqoslashardi. Qudratli G'arbiy Germaniya iqtisodiyoti bilan xalqaro yarmarkalarda (masalan, Leysigda) uchrashuvlar, qarindoshlarnikiga borib kelganda ko'rganlari ham ularni GFRga havas va qiziqish uyg'otardi.

1990 yil 1 iyulda GDR va GFR o'rtasida valyuta, ijtimoiy-iqtisodiy ittifoq haqidagi shartnoma kuchga kiradi. 1990 yilda 3 oktyabrda Berlin devori buzib tashlanadi. Germaniyaning G'arbiy va Sharqiy yerlari birlashishi oqibatida ijobiy va salbiy holatlar paydo bo'ldi:

- G'arbiy-nemis markasi sharqiy nemis markasini yutib yuboradi, sharqiy-nemislar jamg'armalari tezda turli tovarlar va xizmatlarga sarflanib ketdi;
- GDRning raqobatga bardoshsiz ko'pgina korxonalari yopildi, ishsizlik uchun to'langan nafaqa yo'qotilgan ishning o'rnini qoplay olmaydi;
- turli ijtimoiy dasturlar qisqardi, inflyatsiya jarayonlari kuchaydi;
- mulkchilik bilan bog'liq muammolar o'tkirlashdi.

GFR qonunlari sharqiy yerlarga tarqaldi. Ko'pchilik sobiq egalar sharqiy yerlardagi mulkini da'vo qilib chiqishdi.

Birlashish g'arbiy yerlar uchun bir qator iqtisodiy tanlanishni vujudga keltirdi:

- milliy ichki mahsulot o'sish sur'atlari keyingi 15 yilda maksimal darajaga ko'tarilib -4,5 % ni tashkil etdi; ishlab chiqarish quvvatlari yuklanishi oshdi. Bandlik soni o'sdi, ishsizlar qisqardi;
- g'arbiy yerlarda shaxsiy iste'mol soliqlarning kamayishi evaziga ko'paydi; Agar GFRda ilgari iqtisodiyotni harakatlantiruvchi asosiy kuch eksport bo'lsa, endi o'sishni ichki ustunligi rag'batlantirdi.

Sharqiy yer va sobiq SSSR respublikalaridan ko'chib kelganlar oqimining kuchayishi uy-joyga talabni oshirdi. Bu esa qurilishga kapital qo'yilmalarni ko'paytirdi. Ishlab chiqarish quvvatlari yuklanishi ko'payishi va iste'mol mollarini ishonchli sotilishi sanoatda investitsiyalarning o'sishiga (12 %) olib keldi. Jami investitsiyalarning taxminan 25 % ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga yo'naltirildi. G'arbiy Germaniya korxonalari ishlab chiqarish quvvatlari bir yil ichida (birlashgandan so'ng) 3,5 % ga o'sdi.

Iqtisodiy momentlarni ham ijobiy, ham salbiy tomonlarini hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, birlashish GFRni taraqqiy etishiga qudratli turtki bo'ldi.

Birlashgan Germaniya ichki yalpi mahsuloti (IYAM) o'sish sur'atlari 1998 yilda 2,8 % ni tashkil etdi. G'arbiy va sharqiy qismlar taraqqiyot sur'atlari yaqinlashishi ko'zga tashlanayapti. Ichki talabning o'sishi investitsion faollikka sabab bo'lmoqda. Kapital quyilmalar 4 % dan ko'proqqa ko'paydi. Investitsion faoliyatni ratsionalizatsiya va ishlab chiqarishni, modernizatsiya qilishga yo'naltirilishi iqtisodiyot rivojlanishini ta'minlabgina qolmay, balki sohaviy differentsiatsiyani sezilarli saqlash imkonini berdi. Qurilish, to'qimachilik va tikuvchilik sohalarida inqiroz chuqurlashdi.

Qayta o'zgarishlar ishlab bo'lingan va sinalgan qonunchilik doirasida ro'y berayapti. G'arblik va sharqlik nemislar o'z tabiatlariga ko'ra yagona millat, yuqori ishchanlik, ma'suliyatini chuqur his etish, aniqlik, milliy intizomlik ularga xos xususiyatlardir.

1990 yillar oxiriga kelib, birlashgan Germaniyada soliq, nafaqa va ta'limda islohatlar boshlandi. Hukumat davlat moliyalashtirishini sog'lomlashtirish vazifasini qo'ymoqda. Bu soliqdagi katta kemtiklarni va to'lovlarni 35 % ga qisqartirish imkonini beradi. Soliq islohatlari birinchi bosqichi 1999 yilda boshlandi. Ish haqidan soliqlarni kamayishi va korporatsiyalar daromadlari neft mahsulotlari va elektr energiyasiga soliqlarni oshirish yo'li bilan qoplanadi.

Ish haqi siyosati sohasida kurs o'sishni ushlab qaratilgan. Keyingi 2 yilda bir ish soatiga hisoblangan mehnat haqi tarifi 1,7 % ga ko'paydi. Bunda ish haqi hajmining o'zgarishi mehnat unumdorligining o'rta mudatli dinamikasiga mo'ljallanayapti.

Germaniyada iqtisodiy islohatlarning muhim yo'nalishi 10-12 % ni tashkil etgan ishsizlikka qarshi kurash (4 mln. kishidan ziyod) hisoblanadi. Yangi ish o'rinlari yaratish, ayniqsa sharqiy yerlarda, asosiy vazifa bo'lib turibdi.

Nafaqa (pensiya) islohatlarida asta-sekin jamg'arib boriladigan tizimga o'tish mo'ljallanayapti. Bunda majburiy nafaqa sug'urtasi saqlanib qoladi. Ayrim yuqori nafaqalar hajmi kamaytiriladi, kam daromadli shaxslar qo'shimcha to'lovlar

oladi. 1999 yil 1 yanvardan boshlab pensiya jamg'armasiga badallar 0,8 % ga kamaydi.

1999 yildan boshlab Germaniyada ta'lim islohatlari boshlandi. Uning bosh maqsadi-yoshlarni sifatli ma'lumot olishlarida ota-onalari daromadlariga bog'liq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. Germaniya hukumati uch yil davomida fan va ta'limga harajatlarni ikki borobar oshirishni rejalashtirilayapti.

Germaniyaning sharqiy qismi investitsiyalarga davlat hamkorlik qiladigan istiqbolli rayon bo'lib qoladi, birinchi navbatda yuksak texnologiyalar sohasida. Hukumat sharq yerlarini moliyalashtirishni kelajakda ham qo'llab-quvvatlashda davom etadi.

Germaniya iqtisodiy taraqqiyotda Yevropada 1-chi, jahonda 3-o'rinni egallaydi.

**Eksport.** Ichki talab yetakchi bo'lishiga qaramay eksport Germaniya iqtisodiyoti o'sishida qudratli omil bo'lib qolayapti. Germaniyada eksport siyosatiga jiddiy e'tibor qaratilayapti. Shuning uchun ham har uchinchi muhandis, texnik yoki tadbirkor eksportga ishlayapti. Mamlakat eksporti tarkibida sanoat mollari 90 % ga yaqinni tashkil qiladi. Eksportga mamlakat jami sanoat mahsulotining 1/3 qismi jo'natilayapti. Mamlakatning tashqi savdo aylanmasida eksport importdan oshadi. Eksport o'sishi 5-7% tashkil etadi. Eksportning asosiy sohalari-ximiya, mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika tarmoqlaridir. Ular xalqaro bozorda salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Yuqorida nomlari tilga olingan sohalarning mahsulotlari eksportning yarimidan ziyodini tashkil qiladi. Keyingi yillarda Germaniya eksporti geografiyasi borgan sari kengayapti. Mamlakat eksportining kengayishi MDH mamlakatlari evaziga bo'layapti. Germaniyaning tashqi savdo aloqalari asosan G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSH ga qaratilgan. Bugungi kunda 50 % nemis eksporti YEI ning 10 mamlakatiga, 10 % -AQSH ga, 30% - Rossiyaga to'g'ri keladi.

**Import.** Germaniya ko'p darajada tashqi bozorga bog'liq mamlakatdir. Import hajmi bo'yicha u jahon savdosida ikkinchi o'rinni egallaydi. Import yiliga 4-5 % ga o'sayapti. Mamlakat savdo balansida saldo 60 mlrd. yevrodan oshadi. Import tarkibida turli xil xom ashyo, yoqilg'i (neft mahsulotlari, tabiiy gaz), qishloq xo'jaligi mahsulotlari (tropik mevalar, paxta, choy, kofe, kakao, guruch va boshq.) salmoqli ulushga ega.

Germaniyaning asosiy savdo sheriklari Yevropa ittifoqi (YEI) mamlakatlari hisoblanadi. Ular ulushiga mamlakat eksporti va importining 1/5 to'g'ri keladi.

Germaniya iqtisodiy potentsiali haqida gapirar ekanmiz bugun boshqa rivojlangan mamlakatlar singari uning boshqa davlatlarda joylashgan «ikkinchi iqtisodiyotini» ham hisobga olish lozim. Germaniyaning deyarli barcha yirik monopolistlari transmilliy kompaniyalarga aylanishgan. Ular xorijda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiradilar, xizmat ko'rsatish sohaslariga egalik qiladilar. Jahonning 50 yirik TMK lari tarkibida Germaniyaning soni 7 tagacha ko'paydi. Germaniya chetga kapital eksport qilishda ham faol ishtiroq etmoqda. Kapital eksporti, importdan ustun turadi. Germaniya chetga kapital eksport qilish bo'yicha jahonda beshinchi o'rinni egallaydi. Jahon kapital bozorining 50 % uning

ulushiga to'g'ri keladi. Germaniyada asosiy kapital eksport qiluvchilar TMK lar hisoblanishadi.

Keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga nemis kapitalini investitsiya qilishga qiziqish oshayapti, birinchi navbatda eksport talab sohalari-ximiya, tog'-kon, yengil, oziq-ovqat sanoati, yo'l-transport va boshqa tarmoqlarga.

### 3.5. Buyuk Britaniya iqtisodiyoti

Buyuk Britaniyaning rasmiy nomi: Buyuk Britaniya orollarida joylashgan Qo'shma qirolligi. Britaniya, Shimoliy Irlandiya yoki Olesster provinsiyasi uning tarkibiy qismlardir.

Shimoliy Irlandiya 1921 yilda Buyuk Britaniyaga zo'rovonlik bilan qo'shib olingan. Angliya-Irlandiya shartnomasiga asosan hozirgacha u Angliyaning mustamlakasi bo'lib kelmoqda.

Mamlakat territoriyasi 244 ming kv. km. Ikkinchi jahon urushi arafasida Britaniya imperiyasi hududi 34,6 mln. kv.km. Shu jumladan mustamlakaniki-18,8 mln. kv.km. ni tashkil etgan holda, aholisi -70 mln. kishidan ortiq.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Britaniyaning mustamlakachilik siyosati tez yemirila boshladi. Hozirgi vaqtda Buyuk Britaniya nazorati ostida 25 ga yaqin qaram mustamlakalar bo'lib, ular 1 mln. kv. km. hududni egallagan orollardan iborat. Ularning aholisi 10,3 mln. kishini tashkil etadi. Mamlakat Yevropada dunyo okeaniga olib boradigan, Amerika, Afrika va dunyoning boshqa qismlariga boradigan dengiz yo'lidagi Britaniya orollarida joylashgan. Qulay geografik joylashuv mamlakat hukmron doiralariga jahon bozorini egallash, iqtisodiy-siyosiy bosqinchiliklarni amalga oshirishga yordam berdi.

Buyuk Britaniya aholisi - 58 mln. kishi bo'lib, ulardan 85% inglizlar, 15% shotlandlar, irlandlar, uelsliklardir. Mamlakat umumiy aholisi soni bir qator yillar davomida sezilarli o'zgarishsiz saqlanib turibdi. Tug'ilish va o'lim deyarli bir xil (1000 kishiga 11-12 kishi). Aholining bu tabiiy harakati mamlakatda mehnat resurslarining qisqarishiga tahdid tug'dirmoqda. Yirik burjuaziya, moliya kapitali magnatlari (korchalonlari) katta yoshdagi umumiy aholining taxminan 1% ini tashkil qiladi. Lekin ular Buyuk Britaniya milliy boyligining 60% ga egalik qilishadi. Yollanib ishlovchi shaxslar mamlakat mustaqil aholisining 90% dan ortig'ini tashkil qiladi.

Buyuk Britaniya hududida qimmatli tabiiy foydali qazilma boyliklar unchalik ko'p emas. Endilikda temir qazib olish aytarli nolgacha pasaydi. Boshqa iqtisodiy muhim ruda qazilmalariga ko'rg'oshin kiradi, u iqtisodiyot talabining yarimigina qondiradi. Rux, mis, ohaktosh, gilmoya, qum, gips, resurslari yetarlicha.

Boshqa tomondan, Buyuk Britaniya katta energiya zahiralari ega: neft, tabiiy gaz va ko'mir, YEI mamlakatlaridagidan ko'p. Ilgari muhim hayot manbai bo'lgan energiya-ko'mir o'z ahamiyatini yo'qotayapti. Ko'mir qazib olish salkam uch marta kamaydi. Elektrstansiyalar hamon avvalgidek ko'p ko'mir yoqayapti. Ammo boshqa alternativ yonilg'ilarga nisbatan qiymati pasayib ketayapti.

Shimoliy dengizda neft konlarining ochilishi neftni qayta ishlash sanoatini tez sur'atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratdi.

1975 yildan har yili qazib olinayotgan neft miqdori to'xtovsiz o'sib borayapti. Bu Buyuk Britaniyani nafaqat yirik neft iste'molchisiga, balki uni eksport qiluvchiga aylantirdi. Buyuk Britaniya bir kunda o'rtacha darajada 2,6 mln. barreley neft qazib oladi. Jahon neft qazib oluvchilari orasida oltinchi o'rinni egallaydi. Buyuk Britaniyada neft zahiralari raqami 770 mln. tonnaga yetadi. Tabiiy gaz zahiralari 22,7 trln. kub fut atrofida baholanmokda. Mamlakat asosiy tabiiy boyligi-toshko'mir, temir rudasi, neft, gaz, magniy, qalayi, kaolin, oshtuzi va boshqalar.

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma qirolligi konstitutsion monarxiya davlatlaridir. Qonunchilik hokimiyati monarx (kirolicha) va parlamentga tegishli. Parlament qo'yi palata va lordlar palatasidan iborat. Davlat rasmiy boshlig'i-qirolicha (1952 yildan – Yelizoveta II). Hokimiyat amalda xukmron partiyalar shakllantirgan vazirlar mahkamasi qo'lida jamlangan.

Buyuk Britaniya – Millatlar hamdo'stligi markazi – siyosiy – iqtisodiy birlashma. Unga Buyuk Britaniyadan tashqari, Kanada, Astraliya, Yangi Zelandiya, Hindiston, Pokiston, Shri Lanka va boshqa mamlakatlar kiradi. Hozirgi kunda Buyuk Britaniyaga qaram hududlar Avstraliya va Yangi Zelandiyadir.

Buyuk Britaniya NATO harbiy-siyosiy blokida faol eshtirok etadi. 1973 yildan Yevropa ittifoqi a'zosi.

Buyuk Britaniya qishloq xo'jaligi bilan yuksak taraqqiy etgan industrial mamlakat. U jahon xo'jaligida muhim o'rin egallaydi. Mamlakat sanoati IYAM ning 50 % ga yaqinini, eksportning 90 % ini beradi. Jahon umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha (7%) dunyoda AQSH, Yaponiya, Germaniya va Fransiyadan keyin 5-o'rinni egallaydi. Jahon umumiy eksporti hajmi bo'yicha u dunyoda 4-o'rinda (6%), xorijiy investitsiyalar hajmi bo'yicha 2-o'rinda turadi. Harakatdagi yirik savdo flotiga ega.

Buyuk Britaniya iqtisodiyotning asosini xususiy sektor tashkil etadi. IYAM ishlab chiqarishning 80%, bandlikning 75 % uning ulushiga to'g'ri keladi. Buyuk Britaniyada ishsizlik darajasi YEIda 10,8 % bo'lgan holda, 6,2 % ni tashkil etadi. Bandlikning 73 % xizmat sohasiga to'g'ri keladi. Unda moliyaviy xizmatlar ustun turadi. 20 % - sanoatda va taxminan 7% qurilishda band.

Iqtisodiyotning asosiy sohalari. Buyuk Britaniyaning yetakchi milliy sektori xizmat sohasi (IYAMda 61,4 %) hisoblanadi. Keyingi vaqtda uning roli sezilarli o'sdi.

Britaniya xo'jaligida ahamiyati jihatidan bundan keyin sanoat (IYAMda 22,3 %), so'ngra transport (9,7 %) va qurilish (5,2 %) sohasi turadi. IYAMning 1,4 % qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi.

Sanoati. Buyuk Britaniya sanoati Shimoliy Angliya va Angliyaning markaziy grafligida joylangan. Buyuk Britaniya – bu rux, qo'rg'oshin, ohak yetkazib beradigan yirik eksport davlati. Bundan tashqari kumush, mis, temir rudasi va boshqa xom ashyolar katta zahirasiga ega. Yiliga 2000 tonna qo'rg'oshin va qalayi ishlab chiqaradi.

Neft-gaz sohasi. Neft-gaz yirik zahiralari 1960 yilda Shimoliy dengiz kontinental shelfida aniqlangan. Shu boyluk tufayli Buyuk Britaniya uglevodorodlarni eksport qiluvchi muhim mamlakatga aylandi. Neft zahiralari 5 mlrd. barreleyga yetadi. 25 ga yaqin dengiz neft, gaz quduqlari foydalanilayapti, ularning asosiy qismi Shimoliy dengizda joylashgan. Neft sohasi asosan xususiy mulk hisoblanadi. Ular orasida VR (40 % qazib oladi) va Enterprise (yirik mustaqil neft kompaniyasi) mustahkam o'rin egallaydi.

Qazib olinayotgan neftning katta qismi eksport qilinadi; bir paytning o'zida qayta ishlash uchun biroz sifatsizroq va yaqin sharq nefti tashib kelinadi. Buyuk Britaniya neftni qayta ishlash sanoatiga jahon neft haydash quvvatining 2,4 % ulushi to'g'ri keladi.

Britaniya energetikasida tabiiy gaz tobora ko'proq ahamiyat kasb etayapti. Uning zahiralari aniqlash va qazib olish hajmi doimiy ravishda o'sib borayapti. Hukumat siyosati milliy energetika tarkibida asta-sekin ko'mirni tabiiy gaz bilan almashtirishga qaratilmoqda. Har yili qazib olinayotgan gaz 100 mlrd. kubometrni tashkil qiladi.

Asosiy gaz zahiralari Janubiy gaz havzasi, Shimoliy va Irland dengizlarida jamlangan. 2001 yilda «Vesterlend» gazoprovodi ishga tushirildi. Bu quvur orqali Norvegiya gazi Buyuk Britaniyaga yetkazib berilayapti.

Ko'mir sohasi. Ko'mir zahirasi 2 mlrd. tonna baholanadi. Kelajakda boshqa energiya manbalaridan foydalanish ko'payishi natijasida ko'mir sohasi qisqarib boradi.

Energetika. Buyuk Britaniya elektr stansiyalari quvvati 70 mln. kv. ga yetadi. 80% issiqlik elektrostansiyalarida ishlab chiqariladi, 18 % ni atom, 2% ni gidroelektrostansiyalar ishlab beradi.

Qishloq xo'jaligi. Buyuk Britaniyada qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotning 2% ini yaratadi va ishga qobiliyatli aholining atiga 2% igina ish bilan ta'minlaydi. Shunga qaramasdan, mahsulotga bo'lgan ichki talabning uchdan ikki qismini qoplaydi. Angliya qishloq xo'jaligi yuqori samarali va shuning uchun ham katta hajmda oziq-ovqat mahsulotlari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda qulay imkoniyatlarga ega.

Baliq xo'jaligi. Bu sohada ko'rsatkichlar pasayishi kuzatilayapti. Har yili baliq ovlash o'rtacha 750 ming tonnani tashkil etadi. Bir necha yillar davomida Shimoliy va Irland dengizlarida, Saagerrak ko'rfazi va Shotlandiyadan g'arbdagi suvlarda treska zahiralari qisqarayotgani kuzatilayapti.

O'rmon xo'jaligi. Buyuk Britaniya o'rmonlari maydoni 24 ming kv. km. (10% yerni) egallaydi. O'rmon fondining yarimi o'rmon xo'jaligi bo'yicha Komissiya tasarrufiga kiritilgan. Mamlakatda har yili 7,5 mln. kubometr o'rmon kesiladi. Yog'ochga bo'lgan ichki talabning 90 % import yog'och taxta hisobiga qondirildi.

Xizmat sohasi. Buyuk Britaniya iqtisodiyotiga xos harakterli fenomen xizmat sohaslarining o'sayotganidir. U aholi real daromadlari oshayotganligida, shuningdek xizmat va tovarlar o'rtasidagi harajatlar nisbatida, namoyon bo'ladi. Ayniqsa moliya sektori va ko'ngilochar sektor hamda turizm vakillari yutishayapti. Ilgari bozorda unchalik sezilarli ulushi bo'lmagan sektorlar, yoki



umuman amalda bo'lmagan sektorlar ko'proq ahamiyat kasb eta boshladilar. Ular kompyuter ishlab chiqarish va dastur ta'minoti, reklama, bozorni tadqiq qilish, ko'rgazmalar o'tkazish, konferensiya va taqdimot marosimlaridir.

Turizm. Buyuk Britaniya iqtisodiyoti sohalarida muhim o'rin egallaydi. Bu soha IYAM ning 4,5 %ni ishlab chiqaradi. Turizmdan daromad olish bo'yicha mamlakat dunyoda AQSH, Ispaniya, Fransiya va Italiyadan keyin beshinchi o'rinda turadi.

Moliyalari. London fond birjasi Yevropada yirik hisoblanadi. 90-yillar o'rtalaridan boshlab britan markaziy banklari yuqori daromadli moliya muassasalariga aylandi. Buyuk Britaniya bank tizimi yuqori darajada to'plangani va markazlashgani bilan ajralib turadi.

Angliya banki pul-kredit siyosatini amalga oshiradi. Barcha tijorat banklari Angliya banki nazorati ostida, bu bank Angliya va Uelsda banknotlar chiqarish huquqiga ega (Shotlandiya va Shimoliy Irlandiya o'z hududlarida pul chiqarish uchun cheklanmagan huquqlarga ega). Angliya banki aholi bilan ishlaydigan banklarni, (xuddi jamg'arma bank kabi), investitsion, ipotek va boshqa britan yoki chet el banklarini litsenziyalaydi. U xorijiy valyuta bozoriga faol aralashadi va funt barqarorligini saqlashga harakat qiladi. Funt-sterling dunyoning asosiy valyutalaridan biri, London esa jahonning muhim savdo markazlaridan hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada bir necha tashkil etilgan moliyaviy bozorlar ishlab turibdi. Qimmatbaho qog'ozlar bozori xalqaro fond birjasidan tashkil topgan ro'yxatdan o'tgan qimmatbaho qog'ozlar va aksiyalar bilan ishlaydi.

Buyuk Britaniya iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari-mustaqillik, jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashgan, taraqqiyot darajasi bir tekisda.

90-yillar o'rtalaridan boshlab Britaniya iqtisodiyoti iqtisodiy ko'tarilish fazasiga kirdi. IYAM o'sish sur'atlari o'rtacha 2,8 % ni tashkil etdi. Xizmat sohasi dinamik rivojlanishda -2,6 %. Ish faoliyatida sustkashlik moliya va qayta ishlash sanoati sohalariga xos edi.

90-yillar oxiriga kelib, iqtisodiy taraqqiyotda iste'mol harajatlari (uy-joy, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar sotib olish, ta'lim va madaniyat sohalarida) rag'batlantiruvchi rol o'ynaydi. Keyingi yillarda chakana savdo va umumiy ovqatlanish, xizmatlar, moliyaviy, sug'artaviy, telekommunikatsion, axborot texnologiyasi va rivojlangan kompyuter sohalar o'sishdan o'zib taraqqiy etib bormoqda.

Buyuk Britaniya xukumati oldida ikkita vazifa turibdi: inflyatsiyaning o'sishiga yo'l qo'ymaslik, iqtisodiyotda resessiyadan (iqtisodiy o'sishning sustlashuvi) qochish. Bu vazifalarni amalga oshirish quyidagi elementlarni o'z ichiga olgan iqtisodiy siyosat doirasida olib borilayapti.

1. Protsent stavkalarini o'zgartirish. Valyuta siyosati bo'yicha Angliya banki 1998 yilgacha protsent stavkalarini 7,5 % gacha oshirdi, biroq keyingi yillarda protsent stavkalari pasaya borib 5,5 % ni tashkil etayapti.

2. Davlat harajatlari o'sishini cheklash hisobiga byudjet takchilligini qisqartirish. 1998 yilda Moliyaviy akt e'lon qilindi. Unga muvofiq «Moliyaviy barqarorlik kodi» amalga kiritildi. «Kod» hukumatga qarzlar kapital qo'yilmalar

uchun talab qilinganidan ko'p bo'lmisligi va joriy harajatlarni moliyalashtirish uchun foydalanmasligi ustidan nazorat qilish majburiyatini yukladi.

3. Davlat mablag'laridan samarali foydalanish. Vazirliklar va mahkamalar harajatlarni belgilangan darajasidan oshirmasliklari lozim. Bu hukumat tomonidan uch yil muddatga belgilab qo'yilgan. Kelajakda ko'zda tutilgan harajatlar ta'lim, kasb o'quvi va jamoat transportiga mo'ljallangan.

4. Byudjetning daromadlar qismi uchun alohida 10% soliq stavkasi ko'zda tutilgan bo'lib, daromadning birinchi 1,5 ming funt sterlingidan olinadi. Daromad solig'ini bazaviy o'zgarishsiz qoldirildi (23%), minimal ish haki hajmi soatiga 3,6 funt sterling va aholining eng kam haq to'lanadigan qismi uchun soliq kreditlari joriy etilgan.

5. Xususiy investitsiyalarni soliq bilan rag'batlantirish. Korporatsiyalarga soliq stavkasi 31 % dan 30 %ga kamaytirildi, uncha katta bo'lmagan firmalarga (yillik oboroti 300 ming f.st.) 21 dan 20 % ga kamaytirishdi. Hukumat asosiy e'tiborni o'z kompaniyalari aksiyalarini sotib olgan ishchi va xizmatchilarni rag'batlantirishga qaratilmoqda.

6. Milliy tovarlarning raqobatbardoshligini va mehnat unumdorligini oshirish. Savdo va sanoat vazirligi innovatsion fondini, fan taraqqiyotiga ajratiladigan malblag' hajmini ko'paytirish. Axborot texnologiyasini rivojlantirish sohasida ishlab chiqilgan milliy strategiya, universitetlarda amalga oshirilgan ilmiy-texnik, tajriba-tadqiqotlar, NIOKR ni kommersiyalashga mo'ljallangan maxsus fond tuzilgan.

7. Xususiy raqobatga to'sqinlik qilishga, belgilangan bitimlar tizimini taqiqlashga qarshi raqobatbardoshlik haqida qonun qabul qilingan. Xususiy savdo bo'yicha boshqarma kompaniyalardan raqobatga qarshi faoliyat shubxa uyg'otganda, har qanday axborotni talab qilib olishga, korxonalar rahbariga jarima solish yoki ularni ikki yil muddatga qamash huquqiga ega. Qonunni buzgan firmaga uning tovar oborotini 10% gacha jarima solish belgilab qo'yilgan.

8. Yevropa valyuta ittifoqiga kirishga tayyorgarlik. Hisoblarni registratsiya qilish, kompyuter dasturlariga o'zgartirish kiritishga davlat byudjetidan maxsus mablag' ajratiladi.

Yevroni joriy etishga tayyorgarlik uchun 120 mln. funt sterlingdan ziyod sarflandi. Mazkur jarayon uch yilga yaqin vaqtni oldi.

Mamlakatning depressiv-turg'un holatidagi rayonlari. Buyuk Britaniya iqtisodiyoti ayrim sanoat regionlari o'rtasida keskin farq bilan harakterlanadi. Buyuk Britaniyada norasmiy ma'lumotlarda, na ilmiy ishlarda aniq qaysi rayonlar depressiv rayonlar ekanligi haqida qat'iy bir xulosa aytilmaydi. Rasman «taraqqiy etayotgan rayonlar» ajratib ko'rsatiladi. Ya'ni davlat rag'batlantirayotgan xo'jalik ob'ektlari joylashgan territoriyalar. Odatda ularga Shimoliy rayon, Shotlandiya, Uels, Shimoliy-G'arbiy rayon kiritiladi.

(Depressiv)-turg'un rayonlar qoloqligiga quyidagi sabablar ko'rsatiladi:

- yangi va yangilik yetarli rivojlanmagan sharoitda «eskirayotgan sohalar» ga ixtisoslashish;
- an'anaviy sanoat sohalari va sust rivojlangan infratuzilmasi va xizmat sohalariga qaramlik;

- katta bozorlar va qarorlar qabul qilinadigan markazdan uzoqligi;
- shu holat va depressivlik oqibatida «yomon investitsion muhit».

Depressiv - turg'un rayonlarning sohaviy tarkibi. Shotlandiya - ko'mir qazib olish, qora metallurgiya, kemasozlik, og'ir mashinasozlik, to'qimachilik sanoatiga ixtisoslashgan. Shimoliy dengizda neftga boy ochiq konlar ko'p. Bular regionda ximiya va neftni qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish imkonini beradi. 90-yillar oxiridan boshlab Shotlandiyada TMK-transmilliy korporatsiya nazorat qiluvchi elektron sanoati rivojlana boshladi.

Uels – ko'mir qazib olish va qora metallurgiya rayonga TMK katta qiziqish bilan qarayapti 20% chet el qo'yilmalari Uelsga yo'naltirilayapti.

Shimoliy rayon-ko'mir qazib olish salmog'i yuqori, qora metallurgiya, og'ir mashinasozlik, kemasozlik, ximiya sanoati taraqqiy qilgan. Sanoatining katta qismi sharqiy rayonda jamlangan. Shimoliy rayonda NIOKRning zaif bazasi saqlanib turibdi, rivojlangan xizmat sohasi, malakali ishchi kuchlari yo'q.

Shimoliy-g'arbiy rayon to'qimachilik sanoati, ko'mir qazib olish, qora metallurgiya, kemasozlik, mashinasozlik rivojlangani bilan harakterlanadi. Xo'jalikning katta qismi ikki aglomeratsiyada-Liverpul va Manchesterda jamlangan.

90- yillardan boshlab depressiv rayonlarda yangi sohalar rivojlana boshladi: elektronika va radioelektronika, avtomobilsozlik, aviatsiya priborsozligi va boshqalar. Ammo biroq ko'rsatilgan rayonlarda ommaviy ishlab chiqarish joylashgan bo'lsada, boshqaruv va ilmiy bo'linmalar mamlakatning janubida jamlangan.

Shunday qilib, Buyuk Britaniyada mintaqaviy (regional) ijtimoiy-iqtisodiy disproporsiya mavjud. Bu esa ularni yumshatish uchun davlat siyosatining zururligini taqozo etadi: yangi shaharlar, sanoat va ilmiy parklar, inqiroz (krizis) rayonlariga moliyaviy yordam ko'rsatuvchi markazlar tashkil etilishi zarur.

Yordam kerak bo'lgan ma'lum hududlarda qo'yidagi ko'rsatkichlar hisobga olinadi: ishsizlik darajasi, ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi, yangi ish o'rinlari yaratish istiqbollari.

Hududiy siyosatning asosiy maqsadlari. – eski sohalarni tez almashtiruvchi sohalarga moslashtirish. Ularda butun depressiya rayonlari iqtisodiyoti joylashgan. 80-yillar boshigacha, «rivojlantirish rayonlari» ga boshqa hududlardan yirik kompaniyalarni jalb etishga zo'r berilgandi. Eng avval Janubiy Sharqiy, shuningdek TMK lar jalb qilindi. Bunga qo'shimcha to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy imtiyozlar yo'li bilan, ham infratuzilmani taraqqiy ettirish yo'li bilan erishildi.

90 - yillarda kichik biznesni rivojlantirishga urg'u berildi. Ammo kichik firmalar axborotlar va zarur kapitalga, malakali ishchi kuchlarga, salmokli buyurtmachilar va boshqalarni talab qiladigan alohida «ishchi muhit» ga muhtoj. Shu sabab, ya'ni aholi va yirik sanoatlar joylashgan markazlardan olisdalik kichik biznesni rivojlantirishiga imkon bermadi.

Buyuk Britaniyada aholi zich hududlardan depressiv rayonlarga ularning migratsiyasini rag'batlantirish bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqilgan. G'arbiy Midlenddan va Janubi-Sharkdan (nisbatan rivojlangan rayonlar) «rivojlanayotgan

rayonlar»ga kompaniyalarni o'tkazish ma'qullandi. Ayni paytda Janubiy-Sharqiy rayonlarda yangi qurilishlar cheklandi.

Hozirgi paytda regional dasturni qo'llab-quvvatlash uchun «tadbirkorlik zonasi» yaratilayapti. Bu uncha katta bo'lmagan yer uchastkasida sanoat va tijorat korxonalari qurish va imtiyozli shartlar bilan barpo etilayapti. Yer va mulk solig'idan 10 yilga ozod qilinadi, malakali kadrlar bepul tayyorlanadi.

Xukumat moliyaviy yordamini tanlab ko'rsatayapti: yangi loyihalar qo'llab-quvvatlanadi, qudratli ishlab chiqarish, sifatli tovar va xizmatlar va nihoyat fantalab loyihalar ma'qullanayapti.

Davlat fantalab korxonalarga loyihani amalga oshirishda minimal zarur mablag'lar ajratayapti. Yordam 30 yil muddatga qarz sifatida beriladi. Yangi korxonalar barpo etishda yer sotib olishni qoplash uchun 1 ming funt-sterlingacha qarz olish mumkin.

Buyuk Britaniyaga mintaqaviy (regional) siyosatni amalga oshirish uchun YEI mamlakatlariga a'zoliq yordam berayapti. YEI «rivojlanayotgan rayonlar»da kompaniyalarga ko'mak berayapti, yordam loyiha qiymatining 20-30 % atrofida rayon «kategoriyasi» ga qarab belgilanadi.

Mamlakatda regional siyosat YEI ning turli fond va muassasalaridan to'ldirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyaning Yevropa fondida mintaqaviy taraqqiyot kvotasi (1975 yilda tuzilgan) 21,4 dan 28,5% gacha uning summasi kattaligida.

Buyuk Britaniya fondi tashkil etilganidan buyon 3 mlrd. f. sterlingdan ziyodroq mablag' oldi, uning 800 mln. f-st ga yaqini Shotlandiyaga, 450-Uels va Shimoliy rayonga, 400 mln. f-st. Shimoliy-G'arbiy rayonga kelib tushdi. Mablag'lar asosan fondan grafliklar va okruglarga turli xil infratuzilma ob'ektlari barpo etish uchun sarflandi. Ayni paytda e'tibor mintaqaviy rivojlantirish dasturiga qaratilmoqda: bu holda harajatlar fondan davlat harajatlarini 55 % gacha qoplaydi.

Yevropa ijtimoiy fondi o'zining mablag'larining katta qismini «rivojlanayotgan rayonlar» ga yo'naltirmoqda. U harajatlarni 50 % gacha to'layapti. Natijada ishini yo'qotganlarni o'qitish, xo'jalik va sanoatni qayta qurish, ularni ishga joylashtirishga yordam berayapti.

Yevropa investitsion banki «rivojlanayotgan rayonlar» ehtiyojlari uchun imtiyozli ssudalar bilan ta'minlayapti. Bu ham 50 % gacha harajatlarni qoplashga yordam berayapti. Buyuk Britaniya inqiroz rayonlariga yordam Yevropa hamjamiyati orqali ko'mir va po'lat, imtiyozli qarzlarni, konchilar va metallurglarni o'qitish, uy-joy qurilishiga mablag' sifatida kelib tushayapti.

Buyuk Britaniya yirik beshta savdo mamlakatlaridan bir sifatida AQSH, Germaniya, Yaponiya va Fransiyadan keyin joy olgan. U sanoat mollari, neft, ximiyaviy moddalar, avtomobillar, avia kosmos uchun mahsulotlar, metallar, tayyor gazmol va mashinalar eksporti bo'yicha Yevropada yetakchi o'rinni egallaydi.

Buyuk Britaniya eksportining asosiy yo'nalishlari -AQSH (15 %), Germaniya (11,6 %). Fransiya (9,6 %), Niderlandiya (7,3 %) va Irlandiya (6,9%) mamlakatlariga qaratilgan.

Buyuk Britaniya - bu yirik qishloq xo'jaligi tovarlari, xom ashyo, tayyor va oraliq mahsulotlari, shuningdek (YEI mamlakatlari va Yaponiyadan) importchisi hisoblanadi. Mamlakat importining asosiy manbalari - AQSH (14 %), Germaniya (11,7 %), Fransiya (7,7 %), Niderlandiya (6,1 %) va Belgiya (4,8 %) davlatlari hisoblanadi.

Buyuk Britaniya uchun import qiymatining eksportdan ortiq turishi harakterlidir. Britaniya tovarlarining tashqi bozorda sotilishini qiyinlashishida funt sterling kursi dinamikasi bilan bog'liq: boshqa valyutalar bilan taqqoslaganda uning amaldagi kursi eng yuqori darajada turadi. Buyuk Britaniya eksportiga noqulay ta'sir qiladi va raqobatni o'tkirlashtiradi.

Buyuk Britaniya - Yevropalik bo'lmagan investorlar - AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvan uchun bosh investitsiya ob'ektidir. Chet el investitsiyalari umumiy summasi 150 mlrd. dollardan oshadi. Xorijiy investorlarga Buyuk Britaniyada 15 % dan ko'proq ishchi o'rinlari tegishlidir.

#### 4.§. Fransiya iqtisodiyoti

Fransiya - G'arbiy Yevropadagi eng yirik davlatdir. U hududiy jihatdan Yevropa Ittifoqida birinchi o'rinni egallaydi. Mamlakatning umumiy maydoni 544 ming kvadrat km.ni tashkil etib, uning uchdan ikki qismi tekislikdan iborat. Bu yerni iqlim o'zgarishlariga qarab uch xil mintaqaga bo'lish mumkin: ya'ni okean mintaqasi (g'arbdan), o'rta yer dengiz mintaqasi (janubdan) va kontinental mintaqasi (mamlakat markazi va sharqdan). Mamlakatning 82 foizi hududini, aniqrog'i 45 mln. gektar maydonini qishloq xo'jaligi yerlari va o'rmonzorlar egallaydi. Faqatgina o'rmonzorlar salmog'i jihatidan Fransiya Yevropa Ittifoqida Shvesiya va Finlyandiya dan keyingi uchinchi o'rinda turadi.

Mamlakat aholisi - 62 million kishidan ortiq bo'lib, bir kv. km ga 105 kishi to'g'ri keladi. Aholining teng yarmidan ortiqrog'i shaharlarda yashaydi. Aholi soni jihatidan Fransiya Yevropada Germaniyadan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Mavjud aholining 93 foizini fransuzlar tashkil etadi. Fransiyada tug'ilish darajasi past taxminan 1000 kishi hisobiga 12 ta chaqaloq to'g'ri keladi.

Fransiya - dinga erkinlik bergan davlat. Bu yerda qariyb barcha dinlarga mansub aholi istiqomat qiladi, ya'ni bu yerda katoliklar 81,4 foizni, musulmonlar 6,9 foizni, protestantlar 1,6 foizni, iudistlar 0,4 foizni va boshqa dindagilar 8,1 foizni tashkil etadi.

Fransiyaning salkam 25,6 mln. aholisi faol aholi toifasiga kiradi. Ulardan 19,5 millioni doimiy ishi bilan band bo'lganlar va 3,1 millioni yoki faol aholining 12,5 foizi ishsizdir. Mamlakatda erkaklar ayollarga qaraganda ko'proq, ya'ni barcha aholining 53 foizini erkaklar, 47 foizini ayollar tashkil etadi.

Fransiyaning davlat tuzilishi - respublika. Uni davlat prezidenti boshqaradi. Prezident 7 yilga saylanadi. Fransiya respublikasi quyidagi holatda tarkib topgan: mustamlaka yerlar (22 ta chegaradosh va 96 ta ma'muriy terretorial okrug), 4 ta dengizorti ma'muriy terretorial okrug (Gvadelupa, Martinika, Gviana, Reyun), 4 ta dengizorti hudud (Fransuz Polineziyasi, Yangi Kaledoniya oroli,

Uolles va Futuna, Janubiy yerlar va Fransiya Antarktidasi), shuningdek, alohida haq-huquqlarga ega hudud (Mayor, Sen-Per Mikelon).

Mamlakatning oliy organi – parlament. U senat va ikki palatali parlamentdan tashkil topgan.

Fransiya Yevropa Ittifoqi (YEI), Yevratom, G'arbiy Yevropa ittifoqi va bir necha siyosiy hamda iqtisodiy tashkilotlar a'zosi. 1949 yildan esa NATOga a'zo bo'lgan.

Fransiya keng taraqqiy etgan industrial – agrar davlat. U ko'pgina yerosti qazilma boyliklariga ham ega. Ya'ni bu yerdan temir rudasi, toshko'mir, uran rudasi, boksit va kaliy tuzi ko'p miqdorda qazib olinadi. Yalpi ichki mahsulot (YAIM) va sanoat mollari ishlab chiqarish jihatidan u dunyoda to'rtinchi (AQSH, Yaponiya, Germaniyadan keyingi) o'rinni egallaydi. Chetga mahsulot eksport qilish (asosan mashina va zamonaviy texnologiyalar) bo'yicha ham to'rtinchi, qimmatli zahiralarga egaligi bo'yicha esa uchinchi (AQSH va Yaponiyadan keyingi) o'rinni band etgan. Shuningdek, Fransiya Yevropada qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va chetga eksport qilish borasida birinchi o'rinda turadi. Bu mahsulotlar kosmosda, aviasozlikda, aloqa va telekommunikatsiya, energetika, informatika, transport taraqqiyoti va meditsina sohasida muhim rol o'ynaydi. Mamlakat G'arbiy Yevropadagi integratsiyalashuv jarayonlarida ham faol ishtirok etadi.

Fransiya iqtisodiyoti uchun harakterli jihatlardan biri-yirik monopoliya mahsulotlari ishlab chiqarishdir. Ayni kunda ikkita yirik kompaniya po'lat eritish va undan mahsulot tayyorlash bo'yicha 70 foizlik ulushni, elektrli va elektr texnologiya asbob-uskunalari ishlab chiqarish bo'yicha 50 foizlik ulushni va avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha qariyb 100 foizlik ulushni o'z qo'lida ushlab turibdi. Eng monopollashgan ishlab chiqarish harbiy sohadagi sanoat mollaridir. E'tiborlisi, fransuzlarga xos sanoatlashtirishning muhim ko'rinishi katta-katta ishlab chiqarish ob'ektlarini butunlay hokimlik tarzida egallaganlikdadir. Bunday holatda mamlakatda yuz xil turdagi sanoat ishlab chiqarish turlari 20 ta shunday yirik mulk egalari tasarrufida. Masalan, «Peja-Sitreon» va «Reno» monopolistlarida avtomobil sanoati, «Elf-Akiten» monopolistlarida neft sanoati va «Yunizor-Syansilor» da qora metallurgiya, shuningdek, «Kompaniya jeneral elektrosite» da yadro energetika, «Ron-Pulenska» monopolistlarida esa kimyo sanoati kabilar. Mazkur mamlakat iqtisodiyotining yana bir o'ziga xosligi gigant, yirik korxonalar hamda kichik o'rta tadbirkorlik korxonalari kapitallari (mablag'lari) markazlashgan moliyaviy muassasalarda saqlanmasligidir.

So'nggi yillarda Fransiya iqtisodiyotida barqaror o'sish ko'proq fransuz monopolistlarining xorijlik sheriklar bilan hamkorlikda ishlashlarida namoyon bo'lmoqda. Ya'ni, ular xalqaro harakterga ega bo'layotir. Masalan, «Ron-Pulenska»ning mavjud tovar aylanmasida 60 foizlik ulush xorij operatsiyalariga to'g'ri keladi. Umuman hozirda mamlakat iqtisodiy hayoti xorijga siljish siyosati asosida o'zaro bog'langan holda rivojlanmoqda. Natijada katta sarmoya va salohiyatga ega qo'shma korxonalar tashkil etildi. Masalan, 1989 yilda «Pejo» va «Fiat» qo'shma korxonasi faoliyat boshlagan bo'lsa, keyinchalik ikkita yirik

kompaniya – «Jeneral elektrik» va «Altom» lar o'rtasida elektr jihozlari va temiryo'l vagonlari ishlab chiqarish borasida kelishuv yo'lga qo'yildi.

Fransiya iqtisodiyotida moliyaviy operatsiyalar tashkiliy tizim shaklida yuritiladi. Xorij valyutalari barcha mamlakatlardagidan farq qilgan holda nazoratga olingan valyuta ayirboshlash guruhleri va ularning filiallari orqali almashtiriladi.

Bugungi Fransiyaning o'ziga xos xususiyati-bank operatsiyalarida ro'y berayotgan pullarni o'zlashtirish yoki maqsadli faoliyatdan tashqari harajatlarni sodir etishga qarshi qat'iy chora ko'rilganidir. Davlat kapitali asosan sanoat rivojiga yo'naltirilgan. Shu jihatdan banklar ham sanoat kompaniyalari, qo'shma korxonalar bilan bir tan, bir jon. Sanoat kapitallar esa o'z navbatida xolding kompaniyalari, investitsiya jamg'armalari va kompaniyalarning hududiy taraqqiy etishi uchun yo'naltiriladi. Fransiyada mavjud moliyaviy mablag'ning tashkil etilgan shakli moliyaviy guruh deb yuritiladi. Moliyaviy guruh – bu sanoatning, bankning, savdo monopoliyasining, ilmiy-ishlab chiqarish sohalarining topgan mablag'lari majmuidir. Bu mablag'lar nafaqat sanoatchilar yoki bank burjuazlariga beriladi, balki u mamlakatda doimiy ravishda iqtisodiyotni sog'lomlashtirish va rivojlantirish uchun sarf etib boriladi. Ular asosan kichik va o'rta kapitalistlar, omonat kassalarini sug'urta qiluvchi kompaniyalar va shirkatlar (kooperativ) shaklida ishlayotgan mehnatkashlarga beriladi. Fransiya iqtisodiyotini yuksaltiruvchi bunday moliyaviy guruh asosan to'rtta («Pariba», «Syuez», «Rotshild» va «Ampen Shreyder» guruhleri) va shu singari guruhlar mamlakatdan chetda faoliyat yuritadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyotida kichik biznes alohida rol o'ynaydi. Bugungi kunda mamlakatda 35 mingdan ziyod kichik va o'rta tadbirkorlik sub'ektlari faoliyat yuritadi, ularda 2 mln. aholi band. Mamlakat eksport salohiyatida bu qatlam 23 foizni tashkil etadi. Kichik va o'rta biznes sub'ektlari mamlakatda asosan mavjud monopoliyaning asosiy kuchi va ta'lim sohasini yangi texnologiyalar bilan ta'minlovchi dastak sifatida xizmat qiladi.

1980 yilda banklarga pul mablag'larini qo'ygan omonatchilarni turli moliyaviy xavf-xatarlardan qo'riqlash hamda mamlakatda faoliyat yuritayotgan banklar bir-birini qo'llab-quvvatlash uchun Fransuz banklari assotsiatsiyaga (AG'V) a'zo fransuz banklari hech qanday to'lovi yo'q va ular kafolatli jamg'armalar tuzmagan. Faqatgina inqirozga yuz tutgan yoki omonatchilar pullarini qaytarmaslik darajaga tushgan bankka assotsiatsiya taqsimotiga ko'ra har bir bank o'z moliyaviy ulushini qo'shadi. Hamjihatlik nuqtai nazaridan olib qaralganda bu mexanizm AG'Vga a'zo banklarning istiqbolli faoliyat yuritishi va omonatlarni sug'urtalanishida o'ziga xos kafolat rolini o'ynaydi.

Fransiya hukumati mavjud moliyaviy resurslarni mamlakat ichki iqtisodiy aloqlariga jalb etishning yangicha yo'lini faollik bilan amalda qo'llay boshladi. Bu ish asosan 1990 yil davlat tasarrufidagi mulk va ob'ektlarni sotishdan boshlanadi. Mazkur jarayonda ko'plab yirik rentabellik kompaniyalar, milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan kosmik va aviasozlik texnikalari, telekommunikatsiya va transport vositalari xususiylashtirildi. Dunyo bozorida o'z mahsulotlari bilan muhim o'rnashib olishda xususiylashtirishning ahamiyati salmoqli ekani vaqt o'tishi bilan o'z isbotini topa boshladi. Shuning barobarida

katta kompaniyalarning sotilishidan va davlat kapitalidan yig'ilgan mablag' mamlakat ichkarisida faoliyat yuritayotgan ayrim istiqbolli, ammo moliyaviy ko'makka muhtoj korxonalarni G'arbiy Yevropada faoliyat yuritayotgan firmalar bilan hamkorlikda ishlashi uchun sarf etildi. Natijada tez orada har qanday davlatning sifatli mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan ishlab chiqarish korxonalari kashf etila boshlandi. Shulardan biri –«Frans telikom» bo'lsa, yana biri – «Aerospasyal» aerokosmik konsernidir. Davlatning dastlabki tashkil etgan hamkorlikdagi korxonasi «Aerospasyal» - «Matra» hozirda aeronavtika va aerosozlik sanoatida mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda beshinchi o'rinni egallaydi. Shuningdek, neft mahsulotlarini qayta ishlash bilan mashg'ul bo'lgan «Total» - «Petrofina» va ta'lim sohasida yuqori natijalarga ega bo'layotgan «Reno» hamda Yaponiyaning «Nissan» kompaniyalari erishayotgan muvaffaqiyatlar bugun nafaqat Yevropada, balki dunyo bo'yicha e'tirof etilayotir. Nufuzli xorij kompaniyalari bilan bu kabi hamkorlikdagi korxonalar faqat Fransiya uchun emas, balki Yevropa iqtisodiyoti uchun yutuq bo'lmoqda.

Iqtisodiyotni boshqaradigan asosiy shakllar. Fransiyaning biz ta'kidlagan monopolik kapitali uchun harakterli jihatlardan biri moliya va pul-kredit munosabatlari barqarorligini ta'minlab turishdan iborat. Agarda iqtisodiyotning bu muhim tarmoqlarida pasayish darajasi sezilsa davlat ushbu zahiralardan foydalaniladi.

1980 yillar o'rtalarida Fransiya hukumati mamlakatda keng ko'lamli xususiyashtirish dasturini e'lon qildi. Natijada yalpi ichki mahsulot ulushida davlat sektori ishtiroki pasaydi, ya'ni davlat ishi bilan band bo'lganlar 16 foizni, ishlab chiqarish bilan band bo'lganlar 28 foizni, jami pul aylanma harakatda 36 foizni tashkil etdi. Xususiy sektor esa elektr energiya ishlab chiqarilishida 70 foiz, aloqa va transport sohasida 59 foiz, aviatsiya sanoatida 84 foiz, avtomobil ishlab chiqarishda 40 foiz, qurol-yarog' ishlab chiqarishda esa 75 foiz ulushiga ega bo'ldi. Davlat 90 foiz depozit va 85 foiz kredit mablag'larini o'z nazoratiga oldi.

Fransiyada davlat mulki asosan uch xil shaklda boshqariladi:

1. Milliy jamiyat shaklida. (masalan, «Gaz de Frans», Elektrisiti de Frans», «Sharbonaj de Frans» banki va boshqalar kabi);
2. Ma'muriy boshqaruv. (Atom energiyasi bo'yicha kommisariat, pochta xizmati, tamaki va gurgurt sanoati boshqaruvi va boshqalar).
3. «Aralash iqtisodiyot» jamiyati. («Fransez de petrol» kompaniyasi). Bundan tashqari davlat mulkini tashkil etuvchi jihatlar yangi tarmoqlarda ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan (masalan, informatika, energetika, yadro sanoati, bioindustriya) va faoliyati turini o'zgartirgan, keskin burilish yoqasida turgan kompaniyalar sanaladi.

Aksariyat mamlakatlarda asosiy mablag', ichki iqtisodiy kengayish va takroriy ishlab chiqarish ta'minoti kabi vazifalarni davlat hal etmaydi. Ya'ni, davlat bu borada islohatchi emas. Ammo, Fransiya uchun harakterli tomon aynan shu – ya'ni bosh islohatchi sifatida bu jarayon idora etadi, hatto tijorat banklarining aktivlari va stavka foizlarini doimiy nazoratida ushlaydi.

Rivojlangan bozor munosabatlariga o'tish davri rejasi boshlangan o'sha 90-yillar o'rtasida dastlabki belgilangan maqsad mamlakatdagi mavjud ishlab



chiqarish sur'atini barqaror saqlash, bozorning chet el mahsulotlari bilan to'lishini kamaytirish, ishsizlik kelib chiqmasligini qattiq nazorat qilishdan iborat edi. Bu vazifani uddalash uchun mamlakatda 14 turdagi noan'anaviy tuzilmalar tashkil topdi. Bundan ko'zlangan maqsad esa aniq edi: zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, mamlakat ichkarisida yuqori sifatli raqobat muhitini yaratish, Yevropa bozorini egallashga keng ko'lami tayyorgarlik ko'rish va boshqalar.

Mamlakat umumiy iqtisodiyotida davlat aralashuvi ko'lami Fransiyada AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlardan ko'ra ancha yuqori sanaladi.

Fransiya iqtisodiyotida zamonaviylashgan sohalar tizimi quyidagicha holatni tashkil etadi: sanoatda – 26,7 foiz, qishloq xo'jaligida – 4,3 foiz, qurilishda – 5,6 foiz va xizmat ko'rsatish sohasida 5,8 foizdan iborat.

Oxirgi yillarda Fransiya iqtisodiyoti tizimida keskin o'zgarishlar ko'zga tashlandi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi mohiyatili o'sdi. Jumladan, sanoatdagi ulush ichki mahsulotlar hisobidan 50 foizni, eksport hisobidan esa qariyb 90 foizni tashkil etmoqda. Ayniqsa sanoat taraqqiyoti avtomobilsozlik, aviasozlik, elektronika, atom energetikasi, neft kimyo va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarish sohasida yaqqol ko'zga tashlandi. Bugungi kunda fransuz aviatsiya-raketa sanoati jahonda uchinchi o'rinni egallaydi. Shuningdek, kimyo sanoati, alyuminiy ishlab chiqarish, radioelektronika sanoatida rivojlanish salmog'i keskin oshmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatda harbiy-aerokosmik sanoati ham dinamik ravishda yuksaldi. Bu o'sish yillik 10 foizni tashkil etdi. Shu qatori yillik o'sishda farmatsevtika (7,4 foiz) va elektronika (6 foiz) sanoati ham doimiy taraqqiyot yo'liga chiqqan. Fakat yillar salmog'ini solishtirganda mashinasozlik, stanoksozlik va temiryo'l transporti mahsulotlari ishlab chiqarishdagina o'zgarish sezilayapti, xolos.

Informatika, aerokosmik sanoat, stanoksozlik sohasi uchun zarur texnologiya va uskunalar ishlab chiqarish uchun ikki tomonlama eksport-import operatsiyalari va po'latni qayta ishlash, to'qimachilik xomashyosi, organik kimyo kabi yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarish ham fransuz sanoatida o'ziga xos xususiyat kasb etayotir.

Fransiya sanoati keng ko'lamdagi va chukur o'tkazilgan qayta qurish jarayon yangi yuksalish yo'liga chiqib oldi. Bu o'z navbatida fan-texnika taraqqiyoti bilan o'zaro uzviy bog'liq holda olib borildi. Har yili davlat ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanma (NIOKR) lari rivoji uchun ichki daromaddan 2,2 foiz miqdorida moliyaviy mablag' ajratadi. Katta bilim, salohiyat mushtarakligi samarasi o'laroq tez orada elektrotexnologiya, transport ehtiyot qismlari, aerokosmik va harbiy sanoat uchun zarur jihozlar ishlab chiqarilishida rivojlanish ko'zga tashlandi. So'nggi paytda jahon oksoqlanishi sezilayotgan avtomobil sanoatida ham muhim siljishlar bo'ldi. Dunyo ayniqsa iste'moli uchun o'ta ahamiyatli bo'lgan kemasozlik, charm poyabzal, oziq-ovqat, yog'ochni qayta ishlash, metallurgiya, neft xomashyosi, shuningdek issiqlik – energetika resurslari lokalizatsiyasi, atom elektrostansiyasi kabi sohalarda yangi islohatlar jarayonini o'tash talab etilayotgan edi. Hozirda kechayotgan bu jarayon Fransiyani kelgusida mazkur tarmoqlar bo'yicha jahon bozorida yanada katta salohiyatga ega bo'lishida

o'z samarasini ko'rsatadi. Birgina energetika zahirasi jihatidan mamlakat 77 foizlik ulushga ega. Fransiya har yili 490 mlrd. kilovatt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega. Umuman olganda mamlakat elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda AQSH, Xitoy, Yaponiya, Rossiya va Kanadadan keyingi 6-o'rinni band etgan.

Fransiya qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchi va uni chetga eksport qiluvchi dunyodagi yetakchi davlatlardan biri. Uning tabiiy iqlim sharoiti bu yerda qishloq xo'jalik mahsulotlaridan mo'l hosil yetishtirishning imkonini beradi. Chorvachilik Fransiya qishloq xo'jaligining eng rivojlangan tarmog'i bo'lib, sohada qo'lga kiritilayotgan sarmoyaning uchdan ikki qismi aynan shu tarmoqqa to'g'ri keladi. Chorvachilikda esa naslchilik, bo'rdoqichilik va go'sht-sut yo'nalishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Fransiya mol go'shti, yog', sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda nufuzli mamlakat sirasiga kiradi. Masalan, u bu borada Yevropa Ittifokida ikkinchi, dunyoda esa beshinchi o'rinni egallaydi. Don mahsulotlaridan - bug'doy, arpa, sholi va makkajo'xori, shu bilan birga qand lavlagi, kartoshka va sabzovat ekinlari yetishtirishda ham Fransiyada katta tajriba to'plangan. Vino tayyorlashda u jahonda Italiyadan keyingi ikkinchi, konyak ishlab chiqarishda esa birinchi o'rinni egallaydi.

Mamlakatda qishloq xo'jalik maydonlari ko'pgina yer sohiblariga bo'lib berilgan. Xo'jalik yuritish ikki turda - oilaviy pudrat va sanoatlashgan usulda tashkil etilgan. Fransuz qishloq xo'jaligi yangicha kechgan islohatlar tufayli soha juda tez sanotlashdi, hech qanday bank va savdo mablag'larisiz rivojlandi. Agar ilgari qishloq xo'jaligi mahsulotlari monopolist tashkilotlar kapitali vositasida qayta ishlangan bo'lsa, hozirda soha o'z kapitali, o'z korxonalariga ega. Fransiya qishloq xo'jaligi mamlakatda yagona agrosanoat majmuasi tarkibiga kiradi.

Bu yerda 7 foiz aholi qishloq xo'jaligi sohasi bilan band. Kichik fermalar ko'p yer egalarining o'rtacha yer maydoni 23 gektarni tashkil etadi. Ammo, har yili xo'jaliklar soni kamaymoqda (yillik 2,5 foiz). Shu bois so'nggi yillarda kichik xo'jaliklar kooperativlarga birlashmoqda, natijada esa soha zamonaviy qishloq xo'jalik texnikalari bilan boyimokda.

Ayni paytda dehqonlarning 80 foizi ana shunday kooperativlarga birlashdi va ularning 600 tasi jami g'allaning 70 foizini, sut va sut mahsulotlarining teng yarmini yetishtirib bermokda. Fransuz qishloq xo'jaligi kooperatsiyasiga uyushgan barcha kooperativlar qariyb 4 mingtani tashkil etadi va mamlakatda yetishtirilayotgan qand lavlagi, go'sht, uzum, tamaki xom ashyosining salmoqli qismini yetkazib beradi.

Fransiya tashqi iqtisodiyotida tashqi savdo asosiy o'rin egallaydi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida katta mazmun kasb etadi. Fransiya-Xalqaro savdo faoliyatining faol a'zosi. Qariyb beshdan bir qismlik milliy mahsulot eksportga chiqariladi. Fransiya eksport salohiyati bo'yicha dunyoda beshinchi o'rinda turadi. Juda kam miqdorda energetik va xomashyo bazasiga ega. Shu bois yokilg'i va ko'pgina xomashyoni chetdan keltiradi. Masalan, mamlakat ichkarisiga 40 foiz yokilg'i, 100 foiz qalay, 10 foiz xromli ruda, paxta xomashyosi va 100 foiz asal

import qilinadi. Mamlakat ko'mir, koks, neft, temir rudasi, boksit, rangli metall, torf, yokoch importi bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi.

Tashqi savdoda mamlakat zamonaviy texnologiyalar sotish bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Shuningdek, Fransiya dunyoda qishloq xo'jalik mahsulotlari, kimyoviy tovarlar, yarimfabrikat mollar, metall va ulardan ishlangan buyumlar yetkazib beruvchi va harid qiluvchi yirik davlat bo'lib qolmoqda.

Ayni davrda tashqi savdo mamlakat iqtisodiyotining asosiy kuchiga aylangan. U nafakat iqtisodni yuksaltirishda rol o'ynaydi, balki Fransiyaning siyosiy maydondagi obrusini xalqaro miqyosda va Yevropa hamjamiyatida ko'tarishga xizmat qiladi.

Fransiyaning eksport va import operatsiyalarida asosiy savdo sherigi Yevropa Ittifoqi davlatlari bo'lib qolmoqda. Bu ittifoqda Fransiyaning tashqi iqtisodiy aylanmasi beshdan uch qismga teng. Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Ispaniya, Lyuksemburg kabi davlatlarnikini solishtirganda, ularning tashqi savdodagi ulushlari uchdan bir qismga ega ekani yaqqol ko'rinadi.

AQSH – fransiyaning yirik iqtisodiy hamkori. U shuningdek, kapital eksport va import qiluvchi ko'zga ko'ringan davlat hamdir. Chetga kapital qo'yish bobida u AQSH, Yaponiya, Shvesariya va Niderlandiyadan keyin turadi. Investitsiya berishdan maqsadi birinchi navbatda mamlakatni har tomonlama taraqqiyotini kafolatlash. Bu manfaat yo'lida fransuz firmalari boshqa kapitalist mamlakatlardan farqli o'laroq o'z mablag'laridan investitsiyalar kiritishadi.

Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik tashkiloti (OESR) yo'nalishi bo'yicha chetga bergan investitsiya salmog'i 13 foizga o'sdi.

Fransiya o'zi uchun xorij investitsiyalarini ham kiritishdan manfaatdor. Bu mablag'lar asosan mamlakatning bank, moliya, xizmat ko'rsatish, sug'urtalash faoliyatlariga yo'naltirilmoqda. Kechagi bu sarmoyalar fransuz iqtisodiyotida muhim rol o'ynash bilan birga yangi texnologiyalar, tajriba va ko'nikmalar olib keladi. Bu esa fransuz firmalarining yanada rivojlanishi uchun asqotadi va savdo balansini yangicha muvaffaqiyatlarga erishishini ta'minlaydi.

## 5.§. Italiya iqtisodiyoti

Italiya Respublikasi Yevropaning janubida, Apennin yarimorolida, Sitsiliya, Sardiniya va kichik orollar qo'ynida joylashgan. Hududi – 301 ming kv. km. Aholi soni 58 mln. dan ortiqni tashkil etadi, ularning 98 foizi esa italyanlardir. Poytaxti – Rim. Asosiy dini katolik.

Davlat tuzumi-parlament. Davlat boshlig'i-prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyat senat va palata deputatlaridan iborat parlamentdir.

Italiya NATO bloki a'zosi. U G'arbiy Yevropa integratsiyasining faol a'zosi. Aynan 1957 yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini tuzish haqida bitim imzolangan. U agrar – industriya sohada keng taraqqiy etgan davlat. Dunyo yalpi ichki mahsuloti (YAIM) da uning ulushi uch foizga teng. Aholi jon boshiga YAIM qariyb 20 minng dolarga to'g'ri keladi. Mamlakat mahsuloti hajmini dunyo sanoati

mollari bilan solishtirganda 3,2 foizni (dunyoda 6-o‘rin) tashkil etadi. Har xil ko‘rsatkichlar bo‘yicha olib qaraganda, quyidagi manzara hosil bo‘ladi: sanoat va qurilish-35 %, turli xizmatlar – 6%, qishloq xo‘jaligi -4%.

Qishloq xo‘jalik tarmog‘ida qariyb 18 mln. aholi band bo‘lib, o‘rtacha fermerlar maydoni Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlaridagidan ancha kam ya‘ni 7 gektar. Italiya yer osti boyliklariga unchalik boy davlat emas. Bu yerda asosan kam miqdorda ko‘mir, neft, rux, qo‘rg‘oshin, oltingugurt, simob, boksit va marmar qazib olinadi.

Italiya iqtisodiyotining o‘ziga xos tomoni aksariyat mulkning yirik monopolistlar ixtiyorida ekanidir. Masalan, uchta yirik xususiy monopolist firma-«Montedison», «FIAT», «Pirelli» davlat iqtisodiy tuzilmasining asosini tashkil etadi. Mamlakatdagi IRI, ENI, EFIM, ENEL singari iqtisodiy tashkilotlar Italiyadagi ana shu-«FIAT», «Falk», «Montedison», «Zanussi», «Sina-Vikoza», «Olivetti» kabi salohiyatli firmalar iqtisodiyotning ichki va tashqi aloqalardagi kapital muammolarini nazorat qiladi.

Sanoat-Italiya iqtisodiyotining barqarorligini ta‘minlovchi soha. U mamlakat yalpi ichki mahsulotida 35 foizdan ziyod ulushga ega. Mamlakat ishchilarining teng yarmi shu sohada faoliyat yuritadi. Italiya sanoati tizimining muhim ko‘rinishi sanoatdagi mavjud barcha yo‘nalishlardagi zahiralarni katta miqdorda ishlab chiqarish va kam miqdorda foydali qazilmalarni qazishda aks etadi. Hozirda neft, neftkimyo, kimyo, metallurgiya, elektroenergetika, avtomobil, mashinasozlikning bir necha sohalari, stanoksozlik, tabiiy va sintetik tola mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha Italiya sanoati yuqori suratda taraqqiy etmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar ishlab chiqish bo‘yicha Italiya dunyoda yetakchi mamlakatlar sirasiga kiradi. Ya‘ni bu borada u AQSH va Yaponiyadan keyingi 3 o‘rinni egallaydi.

**Qishloq xo‘jaligi.** Mamlakatning bu sohasi uchun ahamiyatli tomoni, faoliyat yuritishdagi kapitalistik tuzimiga xos eskicha usulining davom etib kelayotganidir. Davlatning janub va shimoli bu sohada asosiy kuch sanaladi. Qishloq xo‘jaligi xom ashyosining ko‘p qismi mamlakatning o‘zida qayta ishlanadi. Urug‘chilik rivoji esa alohida e‘tiborga ega. G‘alla, makka, lavlagi, shuningdek, meva va uzum yetishtirishda yuqori madaniyatga erishilgan. Qishloq xo‘jaligini yangi texnologiyalar bilan ta‘minlash va unumdorlikga erishish bo‘yicha Italiya Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ichida yetakchi hisoblanadi. Ish yuritish fermer xo‘jaliklari shaklida tashkil etilgan.

Italiya iqtisodiyoti mamlakatdagi mavjud kichik va o‘rta biznes taraqqiyoti bilan harakterlanadi. Bu xalq iste‘moli mollari, yengil sanoat va ko‘pchilik kabilarida bozor konyunkturasiga tez moslashadigan soha har bir kichik tadbirkorlik firmasida o‘rtacha 100 kishi ishlaydi va ular bir yoki ikki xil mahsulot tayyorlashadi. Ixtisoslashgan kichik korxonalar «monopolistik birlashma»ga uyushgan. Bu uyushma-konglomerat o‘z zimmasiga ijtimoiy ta‘lim va xalq iste‘moli mahsulotlarini to‘liq yetkazishdek ma‘suliyatni o‘z zimmasiga olgan.

Italiya turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha jug‘rofiy-iqtisodiy imkoniyatga ega. Har yili bu yerga 30 miliondan ortiq sayyoh tashrif buyiradi.

Xo'jalik boshqaruvidagi islohat. Mamlakatda bu borada kechgan islohatlarning asosiy yo'nalishi korporativ boshqaruvni yo'lga qo'yishda o'z aksini topgan. Italiyada yirik kapital aholi qo'lida ekani bilan harakterlanadi. Shu bois mamlakat bu mablag'larni moliyaviy xolding kompaniyalari orqali nazorat tizimini yo'lga qo'ygan.

El mamlakatlari ichida Italiya bozori boshqaruvchilik vazifasini o'taydi. Istiqbolsiz va byudjetidan qarzi yuqori bo'lgan davlat tasarrufidagi mulklarni xususiyashtirish o'z samaralarini bermoqda. Hozirda bu jarayon natijasida 30 ta davlat sektori korxonalari, jumladan «Telekom» (1,5 mln. aksiyadorga ega), energetika guruhleri sug'urta kompaniyalari xususiy maqomga ega bo'ldi. Endilikda temir yo'l tarmog'ida ham korporativ boshqaruvni yo'lga qo'yish islohatlari bermoqda.

Davlat mablag'larini sog'lomlashtirish. Qayta qurish har qanday mamlakatda xo'jalik boshqaruvini yangilash bilan birga ma'muriy boshqaruvda ham islohatlar jarayoni kechishini talab etadi. Bu esa Italiya byudjet federalizmi modelini muvaffaqiyatli amalga oshirilishida va bu orqali hududiy va mahalliy hokimiyat boshqaruviga ham talay huquqlarni berdi. Bu huquqlar mamlakatda ham iqtisodiy, ham ma'muriy boshqaruv borasida Italiyani YEI davlatlari orasida mavqeini oshirmoqda. Bu islohatlar samarasi ularoq mamlakat iqtisodiyoti Yevropa valyuta tizimiga a'zo davlatlar orasida byudjet to'lovlari tanqisligi 7% dan 3% ga tushdi.

Italiya iqtisodiyotida solik, sog'liqni saqlash, nafaqa pensiya ta'minoti tizimlarida kechgan islohatlar o'z samarasini bermoqda. Mamlakatda kechayotgan soliq borasidagi o'zgarishlar natijasida soliq to'lovlari soddalashtirildi, investitsiya faoliyati kengayishiga zamin yaratdi. Soliqlar hajmi 53,2% dan 37% ga tushirildi. Aksiya, qimmatli qog'ozlar operatsiyalari uchun soliq uchdan ikki qismga pasaytirildi. Tadbirkorlarning sog'liqni saqlash jamg'armasiga to'lanadigan badallari olib tashlandi.

Maastrixt bitimiga ko'ra Italiya hokimiyat sarf-harajatlari uchun yalpi daromaddan 1,4 % gacha badal to'lovlari to'lanishini joriy etgandi. U bozordagi mavqeini oshirdi. Inflyatsiya darajasi yillik 1,5 % ga kamaydi. Hozirgi kunda mamlakatni birgina muammo o'ylantirmoqda: ichki iqtisodiyotda pul-moliya ko'rsatkichlari dinamikasini barqaror holda ushlab turaoladimi?

Mehnat bozori. Mamlakat janubida ishga yaroqli aholining 18 % i ishsizlik darajasida turibdi, bu esa iqtisodiy balansga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Shu nuqtai nazardan hokimiyat mehnat bozorini tashkil etishga oid qonunchilikda ko'zda tutilgan jihatlarga alohida e'tibor qaratdi. Yangi ish o'rinlari yaratish uchun kichik va o'rta biznes korxonalari tashkil etishga keng imkoniyatlar yaratdi. Mehnat bozori islohati 1992 yilda boshlandi va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi natijasida ishsizlikka birmuncha barham berildi. Hatto chetda ishlash migratsiya va tashqi savdoda keng faoliyat yuritishga zamin yaratildi. Bunday sharoitlar uchun 1996 yilda boshqa davlatlar bilan kontraktlar tuzildi. Ish bilan ta'minlangan tadbirkorlik firmalar uch yillik ish haki solig'idan ozod qilindi.

Yer islohatini amalga oshirish bilan bog'liq sa'y-harakatlar mamlakatda yer zahiralardan keng ko'lamda foydalanish imkonini berdi. Bu quyidagi

yo'nalishda o'z aksini topgan: birinchidan, yer 30 yil muddatga yillik 3,5 % lik to'lov bilan ijaraga berilgan. Ikkinchidan, yirik mulkdorlarga foydalanish imkoni bo'lmagan ortiqcha yerlar berilib, kompensatsiya imkoniyati bilan 25 yil muddatga mo'ljallangan 5 foizlik qimmatli qog'ozlar joriy etilgan. Bundan ko'zlangan maqsad unumsiz yerlarni manfaatdorlik evaziga madaniylashtirishdir. Islohatlar samarasi o'laroq kooperativlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlashda imtiyozlar va qo'shimcha pul, texnik jihatlar bilan ta'minlandilar.

Hozirda ham mavjud bo'lgan «Shimol-Janub» muammosi aslida XIX asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Chunki Italiya 1361 yilgacha bitta knyazlikdan tarkib topgan, mamlakatning shimol va markazi kapitalistik, janubi esa feodalizm tuzumi ostida edi. 1860 yilda shimoliy Italiya qiroli Pemont qo'lga kiritgan Garibaldi inqilobidan keyin Burbonov dinastiyasi, janubdagi Sitsiliya qirolligi va Neopol hamda Palermoni o'z tarkibiga qo'shib oldi. Mana, 100 yildan oshiq vaqt o'tibdiki, «Shimol-Janub» muammosi hokimiyat uchun aktual masala bo'lib turibdi. Hozirda shimolda iqtisodiyotning barcha sohasida rivojlanish bo'lgani, aksincha janubda bu borada yetarlicha muammo mavjudligi sabablari ko'p. Bu o'z navbatida Italiya siyosiy hayotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

XX asr o'rtalarida bir oz muddat Shimol va Janub o'rtasida birlashuv barham berilgandi. O'shanda mahsulot ishlab chiqarishda, masalan ip-gazlama mollari tayyorlashda ikki tomon natijalarida qariyb tafovut sezilmagan. (G'arb-Shimolda-yillik 16 mln. metr, janubda -13 mln. metr) o'shanda janubiy Italiya sanoatining ayrim turlari ishlab chiqarish bo'yicha shimolni ortda qoldirishni ham uddalagan.

Biz yuqorida hozirda shimol va janub borasidagi taraqqiyotning ikki xilligida bir necha sabablar borligini aytgandik. Bular quyidagilarda o'z aksini topgan:

1. XX asr boshlarida kechgan kapitalizmga o'tish jarayoni qishloq xo'jaligi sohasida feodal tuzumiga singib ketgan janubliklar hayotida ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Ya'ni, yirik yer egalari-feodolizm tasarruflaridagi yerlarni bo'linib ketishiga tish-tirnog'i bilan qarshilik qildilar va o'z maqsadlariga erishdilar. Bu paytga kelib shimolda kapitalistik jamiyatga o'tish tez sur'atlar bilan amalga oshdi.

2. Yangicha tuzumni o'zlashtirgan shimoliy Italiyada korxonalar soni ortgani sayin ishchi kuchiga, xomashyoga talab ko'paya bordi. Natijada janub xomashyo yetishtirib beradigan va o'zaro mehnatni tashkil etadigan hududga aylandi. O'tgan asrning 50-yillariga kelib, shimoliy Italiyada yuksalish janubliklardan bir necha hissa ortib ketdi.

3. Ikkinchi jahon urushi Janub iqtisodiyotini yanada orqaga surdi. Italiya urushda ko'p narsa yo'qotdi. Milliy boyliklarning aksariyati yo'q qilindi-aholi va jamoat inshootlari, ko'priklar, portlar buzilib ketdi. Dengiz floti umuman inkirozga yuz tutdi. Yuzaga kelgan iqtisodiy bo'hronga barham berish, iqtisodiyotni oyoqqa turg'izish uchun asosiy kuch qishloq xo'jaligi istiqbolli bo'lib qoldi. Oqibatda janub yerlarida ko'p hosil olinib, uni shimolda qayta ishlab, foyda olish, qurilish va bunyodkorlik ishlariga sarf etildi. Bu esa janubiy Italiyaning ijtimoiy-iqtisodiy turmushiga salbiy ta'sirini o'tkazdi.

4. Ikki tomon iqtisodiyotidagi tafovutlardan yana biri-janubning shimolga qaraganda past darajada rivojlanganligidir. Bu yer port, temir yo'l, boshqa telekommunikatsiya tizimlari shimoldan farqli ravishda kam imkoniyatga ega. Yerlari ham unumsiz, quruq yer. Bu yerda ortiqcha mehnat va ko'p harajat evaziga hosil olinadi.

5. Aholining joylashishi va zichligi, shuningdek, janubda aholi soni ortishi shimolga qaraganda yillik 1,5 foiz yuqoriligi ham sabablardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib «Shimol-Janub» muammosi yechimiga urushdan keyin, 1950-1960 yillarda faol kirishildi. Bu harakat «Vanino rejasi» deb ataldi va u quyidagi yo'nalishda muammoni hal etishga kirishdi:

- janub rayonlariga qo'shimcha kuvvatlar kiritishdi, shaxsiy kapitallarni hudud rivojlanishiga jalb etildi;
- davlat korxonalarini daromad mablag'lari mavjud sohalar taraqqiyotiga jalb etildi va shu maqsadda «Janub kassasi» tashkil topdi. Shimoldagi kichik korxonalar bu kassani mablag' bilan ta'minlovchilari bo'ldi.

Ammo «Vanino rejasi» Italiya iqtisodiyotini o'sishi va janubning rivojlanishini ta'minlay oladi. Qaytanga bu urinish YEI davlatlari ichida mamlakatni ancha obrusizlantiradi va hududiy nomutanosiblikni yuzaga keltirdi. Masalan, 1980 yilda Janubning yalpi daromadi Shimolniki bilan solishtirganda 59 % ni tashkil etgan bo'lsa, 1990 yilda bu ko'rsatkich 50 % ga tushib qoldi. Shimolda ishsizlik 1990 yillarda 10 % bo'lgan bo'lsa, Janubda 18 % ga yetdi. Iqtisodchilar ta'biricha, davlat Yevropa integratsiyalashuvi sari yurib, bu ikki iqtisodiy hududning munosabatlarini cheklasa Shimoliy Italiya Yevropa bozorida o'z mavqeiga ega bo'ladi, ammo Janubiy Italiyada iqtisodiy tanglik yuzaga keladi.

Shimol va Janub o'rtasidagi iqtisodiy keskinlik keltirib chiqarayotgan munosabatlarni yaxshilash uchun qator muammolar ko'ndalang turibdi. Aniqrog'i,

1. Aloqalar mustahkamlashishi uchun Janubda keskin taraqqiyot yuzaga keltirilishi kerak. Hech bo'lmaganda davlat boshqaruvi bu yerda yirik korxonalar barpo etilishini talab qilishi va o'z nazoratiga olishi lozim.

2. Janubdagi ishsizlik va migratsiya muammosi hukumat bu muammolar bo'yicha qat'iy dasturga ega emas. Shu bois Janublik oilalar hatto oilaviy bo'lib chetda ishlayapti. Hali bu muammo Italiya hukumati uchun yetarli tashvish tug'diradi.

3. Janubda kichik korxonalar kamligi muammosi. Shimolning yirik kompaniyalari har kanday YEI ga a'zo davlatlar firmalari bilan hamkorlikka kirisha oladi va ular bilan raqobatlasha oladi. Janub korxonalarini esa bu korxonalar bilan tenglasha olmaydi. «Vanino rejasi» ga ko'ra tashkil etilgan davlat korxonalarini hatto ichki bozorga ham to'la kirib borolmagan. Shuningdek, Italiya va xorijning aksariyat kompaniyalari bu hududga kapital va investitsiyalarini infratuzilma haminqadar, ishonchli hamkorlar kam, jinoiy vaziyat qaror topgan qo'poruvchilik harakati mavjudligi bois Janubga xorij kapitali kirmaydi, G'arbiy Yevropa, AQSH va boshqa davlatlardan keladigan sayyohlaridan tushadigan mablag'lari esa ko'p hollarda mafiya qo'liga o'tadi.

4. Janubiy Italiya qishloq xo'jaligi muammosi. Yuqorida ta'kidlaganidek, janub yerlarida ish haligacha eski feodallik tuzumi usulida yuritiladi. Bu esa

sohada yetarli natija bermayotir. Xususiyl boylar ko'paymokda. Italiya 1970 yilda qishloq xo'jaligida chuqur islohatlar boshlagan, ya'ni yerlarni yirik kooperativlar ittiyoriga bo'lgandi. Bu islohat juda sekin davom etmoqda.

5. Mafiya va uyushgan jinoy guruhlariga qarshi kurashish muammosi. Mana, mamlakat qirq yildan buyon Janubda qo'nim topgan Sitsiliya mafiyasiga qarshi kurashadi. Ammo natijasi guyoki qumga sepilgan suvdek. Bu uyushgan jinoyat guruhi harakati Janub iqtisodiyotining taraqqiy etmayotgani ta'sirini ko'rsatmokda.

Umuman, Italiya uchun muammo bo'lgan «Shimol-Janub» Yevropa Ittifoqi mamlakatlari iqtisodiyotiga ham yetarli tashvish keltirmokda. Shu bois YEI ga a'zo davlatlar bu hududdagi tanglikni bartaraf etish uchun industriya, kapital mablag'lar, ilmiy-texnik resurslar kiritishga shay.

Italiyaning jo'g'rofiy joylashishi yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Janubiy va Markaziy Yevropa mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqallar qilishga qulay. Uning taraqqiyoti bevosita tashqi aloqallarni yaxshilash bilan bog'liq. Ammo, bu yerda tabiiy resurslarning yetishmasligi bu muddaoning keng ko'lamda joriy etilishiga imkon bermaydi. Eksportsiz esa iqtisodiyotda ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan mamlakatda so'nggi o'n yillikda eksport o'sishi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi:

- 1992 yil sentyabrda milliy valyuta – liraning qadrsizlanishi kuzatildi. Oqibatda xorijda Italiya mahsuloti narxi keskin pasaydi, raqobatbardoshligi kamaydi (Italiya banki bo'yicha baho-18 % ni tashkil etdi). Ammo bu savdo balansini yaxshilashga zamin yaratdi. Mahsulot arzonligi bois eksport va xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari 10 % gacha o'sdi, import esa 1,3 % ga kamaydi;
- Butunjahon savdo tashkiloti (BJST) doirasida mamlakat 1994 yil bahorida poshina uchun bojlarni pasaytirdi. Natijada yalpi ichki mahsulot (YAIM) tayyorlashda so'nggi sakkiz yil ichida 2 % lik o'sish kuzatildi;
- 1993 yilda transmilliy korporatsiya (TMK)lar bu yerdan barcha sohalardagi mahsulotlarni erkin sotib olishlari uchun eshiklar ochib qo'yildi. Haridorlarni ko'proq farmatsevtika, kosmetika va zamonaviy texnologiyalar sanoati qiziqitirdi. Natijada eksport ulushida AQSH, Shvesariya, Angliya, Fransiya va nemis firmalarining o'rni salmoqli tus oldi.
- eksport salohiyatida kredit va sug'urta tizimida joriy etilgan imtiyozlar alohida mazmun kasb etdi. Bu sohalarni soddalashtirish va amaliyotga doimiy tadbiq etib borish maqsadida 1978 yilda tashkil etilgan kreditlarni sug'urtalash milliy institutida ixtisoslashgan eksport kreditlarini sug'urtalash (CAZE) bo'limi ochildi. Bu bo'lim faoliyatini davlat moliya vazirligi o'z nazoratiga oldi. Uning asosiy funksiyasi uzoq, o'rta va qisqa muddatli eksport kreditlarini sug'artalash, eksport mukofatlarini taqsimlashdan iborat bo'ldi. CAZE hozirda ham 150 ta mamlakatning eksport kreditlarini sug'urtalagan.

Ayni kunda bu bo'lim Italiyadan olib ketilayotgan zamonaviy texnologiyalar, litsenziya va patentlar, shuningdek, investitsiya va xomashyolarni



harid qilinishidagi mablag'larni ham sug'urta qilmoqda. Bu ilgari, uchinchi davlatning vositachilik faoliyatiga chek qo'ydi, endilikda bu bo'lim nufuzi ham oshgan.

Italiya tajribasida eksport krediti ikki xil firmalar va banklar krediti yo'nalishlariga ega. Firma kreditlari xorijlik ishbilarmonlar uchun vositachilik harajatlarini yo'q qilgan holda taqdim etilgan kreditning 75-80 foizini davlat kafolati bo'yicha saqlashni, bank krediti esa tuzilgan shartnoma bo'yicha 80-85 foizigacha davlat kafolatini berishni o'z zimmasiga olgan:

- eksportni rag'batlantirish uchun eksport qiluvchilar to'lovlaridan ozod qilindi;
- muddatda ko'rsatganidan ertaroq import qilishgan va mahsulotni qayta ishlab eksportga chiqargan mijozlar bojxona poshlinalarini to'lamaydigan bo'lishdi;
- davlat byudjetiga qaytarilmagan katta hajmdagi mablag' mamlakat sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va raqobatbardosh tovarlar salmog'ini oshirishga yo'naltirildi.

Shunday qilib, Italiya siyosati milliy eksportni rag'batlantirish orqali mamlakatning asosiy hududlarida tom ma'nodagi iqtisodiy siyosatni vujudga keltirdi.

#### Nazorat savollari

1. Jahon xo'jaligida G'arbiy Yevropa mamlakatlarining o'rni va rolini ayting.
2. G'arbiy Yevropadagi integratsiya jarayoni qay mazmunda nihoyasiga yetdi?
3. G'arbiy Yevropa iqtisodiyoti qaysi mahsulotlari bilan o'ziga xos xususiyat jalb etildi?
4. Qo'shilgan Germaniya iqtisodiyoti va siyosatini tahlil qiling.
5. Ikkala Germaniyaning qo'shilishi qanday natijalarni keltirib chiqaradi.
6. Buyuk Britaniyaning jahon xo'jaligida tutgan o'rni va rolini ayting.
7. Buyuk Britaniya iqtisodiyoti sohalariga ta'rif bering.
8. Buyuk Britaniyaning turg'un-degressiv holatdagi rayonlarini ayting.
9. Fransiya iqtisodiyotining asosiy rivojlanish xususiyatlarini gapirib bering.
10. Italiya iqtisodiyotiga qisqacha ta'rif bering.

## XII Bob. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR JAHON XO‘JALIK TIZIMIDA

### 1.§. Jahon xo‘jaligida rivojlanayotgan mamlakatlarning tutgan o‘rni va roli

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining taraqqiyoti tashqi iqtisodiy aloqalar rivoji bilan bevosita bog‘liq. Ular mavjud fond (mulk) larni zamonaviylashtirish va kengaytirishda, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy nomutanosiblikni yengillatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo eksportida rivojlanayotgan mamlakatlarning ulushi salkam 30 % ni tashkil etadi. Jumladan sanoat mollari – 21 % dan, mashinasozlik mahsulotlari 20 % dan iborat. So‘nggi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlardan tayyor mahsulotlar eksport qilinishi ancha mustahkamlandi. Ammo shuni alohida ta‘kidlash kerakki, rivojlanish bosqichidagi mamlakatlarga yangi texnologiyalarni to‘liq joriy etish oson kechmaydi. Buning uchun ular avvalo muhim vazifa-sanoat taraqqiyotiga har tomonlama erishmoqlari lozim. Bunda ixtisoslashgan kadrlar, kommunikatsiya masalalari, zarur shart-sharoitlar yaratilishi ma‘lum vaqt o‘tishini talab etadi. Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) da barcha real import ehtiyojlari va eksport imkoniyatlar majmuida aks etadi. Bu mamlakatlar uchun xalqaro tashqi daromad olishdagi mustahkam, ishonarli manba bo‘lib qoladi.

Dunyo bozorida rivojlanayotgan mamlakatlar mavqeining o‘zgarishi sanoatlashtirish strategiyasida eksport borasida qaramlik dinamikasining pasayishini ko‘rsatadi. Masalan, 1960 yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarda import o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarilishi rivojlangani bois, dunyo bozorida eksport hajmi 25 % gacha qisqardi. Albatta, bundan Xitoy mustasno. 1970 yillarda esa bu ko‘rsatkich yana 10 % ga kamaydi. 80-yilga kelib esa bu borada rivojlanish yanada yuksaldi. Sanoat eksporti summa miqdori so‘nggi o‘n yil ichida 9,9 boravarga o‘sdii. Xalqaro mehnat taqsimotidagi asosiy tarkibiy o‘rinda sanoat mahsulotlari eksporti endilikda texnik murakkablik tomondan jadallashadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda an‘anaviy tovarlar eksporti yangitdan taksimlanishni keltirib chiqardi. Bunda taraqqiy etayotgan davlatlarning jahon bozorida o‘z o‘rinlarini egallashlari uchun qo‘shimcha eksport resurslarni izlab topish, dunyo bozoridagi narxlarda arzonlashayotgan xomashyo resurslari savdosidagi muhitni o‘zlashtirish, rivojlangan mamlakatlar tomonidan tashqi savdodagi qattiqqo‘llikni cheklash va talabni o‘zgarib borishini o‘rganish qat’iy talab etiladi. Bu yerda eksportning xilma-xilligi asosiy rolni o‘ynaydi: ya‘ni xomashyoni qayta ishlash va jahon bozoriga turli-tuman tayyor sanoat mahsulotlari bilan kirib borish samara beradi.

So‘nggi o‘n yillikda rivojlanayotgan mamlakatlar dunyo bozorida xizmat ko‘rsatish turini mustahkam egallashga urinmoqdalar. Ya‘ni birinchi navbatda sayyohlikni. Masalan, Misr davlati uchun turizm mamlakatga valyuta kiritish bo‘yicha uchunchi o‘rinda turadi. Ayniqsa bu soha Turkiyada gurkirab rivojlanmokda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar eksportining eng o'ziga xos xususiyati ishchi kuchi eksportda namoyon bo'lmoqda. Bu mamlakatlarga kiritilayotgan chet el valyutasining yillik o'sishi 10 % ni tashkil etmoqda. Pokistonda ishchi kuchi ortidan kelayotgan foyda xorijga eksport qilinayotgan tovar va ko'rsatilayotgan xizmatlardan 5 baravar ko'p bo'lmoqda. Misr yalpi ichki mahsuloti ulushida bu yo'nalish orqali 40 % foyda kelayotgan bo'lsa, Marokkoda – 50 %, Turkiyada-60%, Hindistonda bu ko'rsatikich 80 % ni tashkil etmoqda.

Mahsulot ishlab chiqarish tizimidagi siljish va o'z ehtiyojini qondirish uchun rivojlanayotgan sanoatlashtirish jarayoni sifatli import mahsulotlarida ishlab chiqarish imkonini beradi. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi o'zini ta'minlashning o'sishi chetdan tayyor mahsulotlar importini qisqarishiga olib kelyapti. Ayni paytda bu kabi mamlakatlarda importga fakat milliy xo'jalik mahsulotlari, yonilg'i, ma'danli va qishloq xo'jalik xomashyolari kiritish mo'ljallangan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda texnika importiga moyillik yuqori. Shu bois ham transmilliy korporatsiya (TMK) ichki savdosida texnika eksporti yuqori ko'rsatkichni ko'rsatmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning yangi texnologiyalarni harid qilayotganligini quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:

- Texnika va zamonaviy uskunalar – Osiyo mamlakatlariga.
- To'g'ridan-to'g'ri chet el kapitallari – Lotin Amerikasi mamlakatlariga.
- Tuhfa sifatida texnik yordamlar – Afrika mamlakatlariga.

Importga keltirilgan texnologiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, zarur moliya vositalarini talab etadi. Yalpi ish kuchlari yaratadi. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarga katta imkoniyat beradi. Shuningdek, ishlash, intilish muhtojlikdan qutqaradi, iqtisodiyotni yuksalishi va mamlakatning barkaror rivojlanishiga katta turtki beradi.

## 2.5. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari

Dunyo xo'jaligi rivojida asosiy yo'nalishlardan biri rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining bu yerda kechayotgan islohat jarayonlariga faol yondashuvdir. Bular kuchli tabaqalanishni keltirib chiqarishi ham mumkin. Agar 1950 yilda o'sish jarayonlarini o'zlashtirgan aholi 34 ta mamlakatni tashkil etib, iqtisodiy o'zgarish 2,4 barobarga oshgan bo'lsa, uning aksi bo'lgan mamlakatlar 47 tani tashkil etgan. 2004 yilga kelib esa bu ko'rsatkichlar -2,9 baravariga va 12,2 baravarlarga ortishi kuzatilgan. Dunyo xo'jaligida boy mamlakatlar va kambag'al davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovut 2004 yilda 20:1 tenglikni tashkil etdi.

BMT ma'lumotlariga qaraganda, bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar jahon yalpi ichki mahsuloti (YAIM) dagi ulushi 48,9 % ni tashkil etadi. YAIM da bu aholining yillik mahsuloti 500-1500 AQSH dollariga teng. Aksariyat yirik mamlakatlarning YAIMdagi qayta ishlash sanoati borasida ulushi yiliga 10 gacha yuqorilamoqda, xolos.

Hozirda aksariyat mamlakatlarda, ayniqsa rivojlanayotganlarida tabiiy xomashyo zahiralari mamlakatning chekka va uzoq joylarida mavjud. Bu borada Rossiya alohida o'rin tutadi. Masalan, uning 89 % neft zahirasi, 72 % - tabiiy gaz, 45 % - temir rudasi, 70 % - mis, 94 % - qalay, 63 % - nikel, 38% - volfrom, 20 % - uran rudasi, 73 % - alyumin rudasi, 74 % - fosfor va fasforli minerali ana shunday hududlarda joylashgan. Rivojlanayotgan davlatlar taxminan dunyo iste'moli uchun yetarli bo'lgan gidroenergiya resurslarining teng yarimga ega.

Har qancha bo'lsin turli-tuman yo'nalishlar bilan o'z iqtisodiyotini rivojlantirayotgan mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari ushbu to'rt xil ko'rinishida o'z aksini topadi:

1. Ko'p ukladli iqtisodiyot. Ya'ni turli mulk shakllari va har xil xo'jalik turlarining yaxlitligini ta'minlovchi iqtisodiyotni tashkil etish. Qator rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat monopoliyasiga tegishli katta-kichik kooperativ, umumiy mulklar xususiy va individual mulkdorlarga beriladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat ukladlari yetakchi o'rinni egallaydi. Ukladlar o'zining bahosi, harakterli tomonlari bilan aholi turmush tarziga ham ta'sir etadi. Ayniqsa qishloq xo'jaligi eng qadimgi ukladlardan sanaladi. Xususiy kapitalistik uklad esa mulkdorlikning asosiy shakli hisoblanadi. U asosan savdo, xususiylashtirish, sug'urta va xizmat ko'rsatishda rivojlanishni yaqqol namoyon etadi.

2. Taraqqiyotga kichik tadbirkorlikni joriy etish kichik biznes sub'ektlarini vujudga keltirish sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni ta'minlaydi. Chunki kichik korxonalar yirik korxonalardan farqli o'laroq, kam mablag' evaziga qisqa muddatda iste'molchi talabiga mos mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Kichik va o'rta korxonalar fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tez joriy etishi qobiliyati bilan ham ahamiyatga molik.

3. Dunyo xo'jalik tizimida qaramlik holati tashqi iqtisodiy aloqalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Iqtisodiyot strukturani qoloqlikdan chiqarishda kichik tadbirkorlik taraqqiyoti, agrar-xomashyo zahirasini o'zlashtirish, jamoaviy ishlab chiqarishni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun G'arb davlatlari bu islohatlarni joriy etib bo'lganlar va tashqi iqtisodiy aloqalarni yuqori saviyada yo'lga qo'yib olishgan.

4. Ijtimoiy jamiyat tuzilishi. Jamoaviy mulkchilik ham zarur. Chunki u jamoa munosabatlari va fuqarolik tashkilotlarini shakllantiradi. Zero, kamabag'allik, aholi ko'payishi, ishsizlikning yuqori darajaga kelishi rivojlanayotgan mamlakatlar harakteriga xos xususiyat.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishdagi tobelik darajasi uch kategoriyaga bo'linadi:

- aholi jon boshiga yuqori daromad oluvchi mamlakatlar (Bruney, Qatar, Quvayt, Birlashgan Arab amirligi, Singapur va boshqalar);
- aholi jon boshiga YAIM da o'rtacha ko'rsatkichga ega mamlakatlar (Liviya, Tunis, Urugvay, Paragvay va boshqalar). Ular faoliyati uchun xomashyo va agrar sohaga ixtisoslashuv, sanoat xilma-xilligiga erishuv asosiy xususiyat sanaladi;

- qashshoq mamlakatlar. Bu guruhga tropik Afrika, Janubiy Osiyo va Okeaniya, hamda qator Lotin Amerikasi mamlakatlari kiradi. Qashshoq mamlakatlar hududida jahon aholisining 2,5 % i yashaydi va ularning dunyo YAIMidagi mahsulot ulushi 1% ni tashkil etadi. Rivojlanmagan mamlakatlar uchun tashqi omil taraqqiyot uchun asosiy rol o'ynaydi. Afsuski, bu mamlakatlarda qashshoqlikdan qutulishga o'z kuchlari bilan urinish kerakli natijani bermaydi.

### 3.5. Chet el kapitali va uning milliy davlat taraqqiyotiga ta'siri.

Transmilliy korporatsiya (TMK) va rivojlanayotgan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida xorij kapitali o'zining katta ta'sirini ko'rsatadi. 1950 yillar boshida AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya kapitali rivojlanayotgan mamlakatlarning taxminan 70-100 % igacha neft, tabiiy gaz, mineral resurslar zahiralari nazorat qilardi. Shuningdek, rivojlangan davlatlar mablag'lari Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi qishloq xo'jaligining katta qismini o'z izmiga olgandi. 1960 yillar oxiriga kelib chet el korxonalari va ular kiritgan kapital rivojlanayotgan mamlakatlarning jami 25 % lik mahsulotiga egalik qildi. Ammo, yildan yilga bu ko'rsatkich kamayib bordi. 2002 yilda xorij korporatsiyalari filiallari kapitali bunday mamlakatlar YAIM ining 7 % ini tashkil etdi xolos. Mavjud ishlab chiqarilgan mahsulot eksportining 30 % i esa albatta TMK vositalari orqali amalga oshirildi. Markaziy Amerika, Karib havzasi va Osiyodagi TMK korxonalari ichki bozorning xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarini o'z kapitali bilan nazorat qilib turadi. Jahon banki bergan ma'lumotlarga qaraganda, Sharqiy Osiyo mamlakatlariga 40 %, Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlariga 37 %, Markaziy Osiyoga 18 %, Janubiy Osiyoga 3,5 %, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlariga 1% xususiy kapital mablag'lari jalb etilgan.

XX asr oxirlarida rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti rivojida chet el kapitali katta o'rin egallaydi. Dunyo miqyosidagi YAIM bo'yicha bu o'sish o'rtacha 4% ni tashkil etdi.

Iqtisodiy taraqqiyot qoloqlikni yengishda ishlab chiqarish va savdoni o'zaro bog'liqlik bilan olib borish vazifasini ko'ndalang qo'yadi. Shuningdek, iqtisodiy siyosat rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodi oyokka turib olishlarida davlat korxonalarini xususiylashtirish, tashqi dunyo bilan ochiq iqtisodiyot aloqalarni o'rnatish, davlat taraqqiyotini ta'minlash uchun bozor munosabatlarini shakllantirish kabi islohatlarni tezlatishni talab etadi.

1960 yil o'rtalarida rivojlanayotgan mamlakatlar BMT tarkibida «77» nomli takomillashayotgan davlatlar guruhini tashkil etdi. Hozirda bu guruhdan 132 mamlakat joy olgan. Takomillashayotgan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlarga o'z YAIMlarida 1%, shu bilan birga yordam sifatida 0,7 % mablag' berayaptilar. Bu talabni rivojlangan mamlakatlar alohida ko'llayotgani yo'k. Ammo rivojlanayotgan mamlakatlar bilan o'zaro iqtisodiy aloqalarda bu ko'maklar o'z ifodasini topmokka.

Rivojlanayotgan mamlakatlarga uzoq muddatli investiyalarni kiritish YAIM salmog'ining o'sishiga katta yordam beradi. Investitsiya hisobiga umumiy tarzdagi ulush 27 % gacha bo'ladigan bo'lsa, undan keladigan foyda, ya'ni xususiy resurslar 72 % foizgacha oshadi. Shu jihatdan xorij kapitali Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi iqtisodiyotida asosiy rolni o'ynaydi. Shuni ham ta'kidlash joizki, kapital jalb qiluvchi mamlakatlarning ishlab chiqarish sohalariga bevosita xorijiy investitsiyalarning kiritilishi va uning o'sib borishi, bu davlatlarni iqtisodiy qoloqlikdan tezroq qutilishining asosiy shartlaridan biri sanaladi. Chet el investorlari mamlakatning davlat korxonalarini xususiylashtirilishining tezlashishi va yangi ish o'rinlari yaratilishiga xususiy mulkdorlar safi kengayishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida ham investitsiyalarning o'rni beqiyos. Masalan, 2004 yilda ishlab chiqarishga 650 mlrd. AQSH dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari kiritilgan bo'lsa, rakam investitsiya kiritilishi borasida 1990 yilga nisbatan 4 baravarga oshganini ko'ramiz. Hozirgacha esa investitsiya portfeli o'sishidagi salmok 6 martaga ko'pdir. Albatta, chet el investitsiyalari taqsimotida turlicha ko'rinish kasb etgan, ya'ni: 341 mlrd. AQSH dollari Osiyo davlatlariga (Xitoy, Singapur, Indoneziya, Malayziya), 187 mlrd, AQSH dollari Lotin Amerikasiga (Meksika, Braziliya, Bermud, Argentina), 54 mlrd. AQSH dollari Afrika davlatlariga (Misr, Nigeriya).

Chet el investitsiyalarni jalb etish bilan rivojlanayotgan mamlakatlar muammolari butkul yechilib qolmaydi. Albatta, qayta ayrim masalalarda keskinlashuv paydo bo'lishi mumkin. Masalan:

- aksariyat investitsiyalar taraqqiyot jarayoni baravar bo'lmagan, istiqbolli mamlakatlarga kiritiladi (Xitoy, Meksika, Braziliya kabi);
- chet el investitsiyasi jalb etishda raqobatni kuchaytiradi;
- imtiyozlardagi ziddiyatlar: xorij investitsiyasi ko'proq xususiy korxonalar sohibalarini qiziqtiradi. Investitsiya portfeliga ega bo'lgan mulkdor ko'pgina imtiyozlarga ham ega bo'ladi. O'z navbatida bu imtiyozdan foydalanuvchilar ham borib-borib bir-biriga raqib bo'lib qolishadi.

Tan olib aytish kerak, jalb etilgan chet el investitsiyasi foydasi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishida sezilarli ravishda natija berdi. So'nggi yillarda ushbu sarmoyalar sabab ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar eksport salohiyatlarini oshirishga erishdilar. Hatto, tashkil etilgan qo'shma korxonalar mahsuloti tashqi bozorda har qanday mamlakat tovarlari bilan to'liq raqobatlasha oladigan darajadagi sifatga erishdi. 1990 yil oxirlarida rivojlanayotgan mamlakatlarga kapital eksporti yillik o'rtacha 25-30 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi va xorijiy investitsiya jamg'armasi 130 mlrd. AQSH dollaridan oshdi. Shunday qilib rivojlanayotgan mamlakatlar xorij investitsiyalarining yangi manbalarini joriy etgan hududlar safiga kirishdi.

Chet el investitsiyasini jalb etish borasidagi iqtisodiy siljishlarni Hindiston misolida ko'rib o'tsak. Bu yirik davlat-dunyo mahsulot va mehnat bozorida kattaligi jihatidan Xitoydan keyingi ikkinchi o'rinda turadi.

Alohida ta'kidlab o'tish kerakki, jalb etilgan chet el kapitali Hindiston iqtisodiyoti taraqqiyotiga ta'sirining o'ziga xoslik tomoni bor. Bu xorij investorlari

uchun istiqbolli sanalgan aholining ko'p qismi yoshlardan tashkil topganidir. (Hindiston aholisining 58 % i yoshlar, yohud o'rtacha yosh – 24 ni tashkil etadi). Misol tariqasida keltirish mumkinki, rivojlangan G'arbiy Yevropa davlatlari va Yaponiya doimiy ravishda qarrilar soni oshayotgan mamlakatlar sirasiga kirmoqda. Garchi shunday bo'lsa-da ozchilik yoshlar nafaqat yirik korxonalarining iste'mol tovarlarida yetarlicha ulushga ega bo'lishayotir, balki yuqori texnologiyali mahsulotlar (kompyuter, telekommunikatsiya vositalari), zamonaviy xizmat turlari (sug'urta, axborot, turizm) ishlab chiqarishda ham yetakchi bo'lishayotir.

Muhimi, Hindistonda yuqori malakali ilmiy-texnologik bilimlarni va boshqaruvlikni o'zlashtirayotgan xodimlar katta qismni egallaydi. Bu borada Hindiston AQShdan keyingi o'rinda turadi. Beshta hind texnologiya instituti va to'rtta boshqaruvni tashkil etishni o'rgatadigan oliy o'quv yurtlarida dunyoda shuhrat qozongan kasb sirlari o'qitiladi. Ximiya, avtomobilsozlik, elektr va yadro sanoati, qurilish va oziq-ovqat sanoati bo'yicha ixtisoslashgan kadrlar yetishib chiqadi. Chet el investitsiya jalb etilishida Hindistonning yutug'i ham shunda. Ayni vaqtda Hindiston rivojlanayotgan mamlakatlar orasida ta'minot borasidagi qayta ishlash, texnologik va elektron vositalar axboroti bo'yicha yetakchi sanaladi.

Chet el investorlari Hindistonda asosan infratuzilmani rivojlantirish, mehnat madaniyatini shakllantirish va tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash yo'nalishida o'z faoliyatlarini yurgizishayapti. Bu yerda barcha tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishlar xususiy sektor qo'lida. Davlat korxonalari asosiy kommunal xizmatlar va shu yo'nalishdagi infratuzilmalar bilan shug'ullanadi.

Hozirgi Hindiston yaqin kelajakda chet el investitsiyasining jalb etish va o'zi kapitalini eksport qilish bo'yicha katta ishlar qilmoqda. Shu maqsadda hukumatning qariyb barcha mamlakatda vakolatxonalarini ochildi va shu maqsadda seminar va tadbirlar o'tkazmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining o'sishi uchun qarzga katta mablag' olish odati alohida mazmun kasb etayotir. Ammo bu yo'l bilan dunyo xo'jaligi tizimida kreditor qarzdorlik yildan-yilga oshib bormoqda. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar bu kreditlarni olgach, har yili eksportdan kelayotgan daromadlarining 30-40 % ini shu qarzlardan qutilishga sarflashadi. Bu esa rivojlanish uchun nokulay vaziyatni, ya'ni kreditlar narxining oshishi, sug'urta kafolatlarini talab etish, kredit summalarini tarqatish muammolarini keltirib chiqaradi. Hozirda rivojlanayotgan mamlakatlarning umumiy qarzdorligi 1,8 trln. AQSH dollaridan oshgan.

Jahon banki ekspertlari ma'lum qilishicha, so'nggi o'n yil ichida rivojlanayotgan mamlakatlar katta kuvvat bilan dunyo bozoriga kirib borishayapti, ayniqsa, «beshta yirik iqtisodiy salohiyatga ega» - Xitoy, Hindiston, Meksika, Braziliya va Rossiya mamlakatlari «Keyingi yuz yillik choragida yuzaga kelgan gigant iqtisodiyotli davlatlar» ga aylandi. Shuningdek, jahon banki xabarlariga qaraganda 2006 yilda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti yillik o'rtacha 5,4 % ga o'sadi. MDH va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining ulushi ortishi taxmin qilinmoqda.

Ekspertlarning ishonch bildirishicha, yaqin yillar ichida global iqtisodiyotda Xitoy, Meksika, Braziliya, Hindiston va Rossiya boshqa mamlakatlar

tez integratsiyalashuvga kirib ketadi va jahon bozorida nufuzli o'rin egallaydi. Bunday taraqqiyotga erishish bu mamlakatlarda so'nggi chorak asr mabaynida qayta qurish va bozor tamoyillarini tez o'zlashtirganlikda ko'rinadi. Taxminlarga ko'ra, bu besh mamlakat 2020 yilga borib, dunyo yalpi mahsuloti yetishtirish bo'yicha 16 % lik ulushni egallaydi (1992 yilda ularning bu ko'rsatkichi 7,2 % bo'lgan). Bu natija esa dunyo mahsuloti tayyorlashda rivojlangan davlatlarning ulushini 81,5 % dan 66,7 % ga tushiradi.

#### **4.5. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatlashtirish modeli va taraqqiyotdagi yo'li**

Rivojlanayotgan mamlakatlarda qoloqlikni tugatishning strategik vositasi-xo'jalikni sanoatlashtirish, ya'ni xalqaro mehnat taqsimoti (XMT)ni chuqurlashtirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishni jadallashtirish. Buning natijasida qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishi bilan birga barcha iqtisodiy tarmoklarning zamonaviylashgan tizimi yuzaga kelishini ta'minlaydi, yangi iqtisodiy tartib joriy etilishiga zamin hozirlaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ishlab chiqarishidagi o'ziga munosiblik tamoyillariga ko'ra sanoatlashtirish uch model asosida tashkil etilgan.

- Energetika, metallurgiya va ximiya kabi strategik ahamiyatga ega sanoat turlarini xususiylashtirish hamda iste'molga joriy etish. Bu model milliy mulkni yirik korxonalar xolida tashkil etib, uni ko'rsatmalar tarzida boshqarish yo'lga qo'yiladi. Hozirda bu usul Jazoir, Efiopiya, Misr, V'etnam kabi davlatlarda o'z aksini topgan.
- Xorij kapitalini cheklangan holda import o'rnini bosuvchi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i - og'ir sanoat rivojlanishiga ahamiyat qaratish (Lotin Amerikasi davlatlari kabi). Bunda importyorlardan bu milliy sanoat tarmog'ini takomillashtirish borasida ichki iste'mol uchun bo'lgan ehtiyojini doimiy tarzda qondirish talab etiladi.
- Eksport yo'nalishini aniqlash, ya'ni tashqi bozorga mahsulotlarning alohida turlarini chiqarishni belgilab, sanoatning shu turiga asosiy kuchni jalb etish. Shu maqsadda chet el investitsiyasini tarmoqning bilim va ko'p mehnat talab qiluvchi mahsulot ishlab chiqarilishiga kiritish asosiy vazifa sanaladi. (Osiyo va Tinch Okeani hududi mamlakatlari singari).

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida kechayotgan islohatlarda Jahon banki (JB) va Xalqaro valyuta fondi (XVF) asosiy moliya muassasi rolini o'ynamokda. Bu tashkilotlar rivojlanayotgan mamlakatlardagi xususiylashtirish va sanoatlashtirish jarayonlarining faol ishtirokchisi bo'layapti. Istaymizmi-yo'qmi har qanday xo'jalik taraqqiyotida tarmoqlarni sanoatlashtirish birinchi masala bo'lib qoladi. Masalan, 1960 yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar YAIMida ulush quyidagicha ko'rinish kasb etgandi: qishloq xo'jaligi tarmog'i-31,6%, sanoat - 26,6%, shundan qayta ishlash - 15,6 %, xizmat ko'rsatish - 42,8 % bo'lgan - 2004 yilda esa bu holat boshqacha ko'rinish namoyon etdi. Ya'ni, qishloq xo'jaligi tarmog'i - 15,6 %, sanoat -34,5 % va shundan qayta ishlash -19,1 %, xizmat



ko'rsatish esa 50,1 % ko'rsatkichni tashkil etdi. O'tgan davrdagi sanoatlashtirish tizimidagi o'zgarishlarni taqqoslaydigan bo'lsak Afrika va Janubiy – Sharqiy Osiyoda o'sish bundan ham yuqori bo'lganini ko'ramiz.

Rivojlanayotgan mamlakatlar oldida o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko'lamini kengaytirib, uni integratsiyalashuviga joriy etish vazifasi yuklangan. Ayniqsa xalqaro iste'mol ahamiyatiga molik bo'lgan mahsulot eksportiga e'tibor qaratish yuqori natija beradi. Masalan, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar mikroelektron texnologiyalarni yuqori sifat bilan ishlab chiqarib, bu tovarlarni bozorga taklif etishi kutilgan natijani berdi. Bunday mamlakatlar qatoriga Hindiston, Meksika, Argentina, Janubiy Koreya davlatlarini kiritish mumkin. Ularda metall qirqish dastgohlari, metallurgiya uchun zamonaviy uskunalar, kimyoviy, oziq-ovqat, yengil sanoat mahsulotlari, shuningdek, traktorlar, transport vositalari ehtiyot qismlari va qishloq xo'jalik texnikalari ishlab chiqarish va ularni eksportga chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. Shuni ham qo'shimcha qilish kerakki, bu mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlar orasida o'ta murakkab hisoblangan mashinasozlik, yuk ko'tarish kranlari, temir presslovchi dastgohlar, elektr va dizelli lokomotivlar, samolyotlar va tankerlar ishlab chiqarishda yagona sanaladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda po'lat eritish sanoati ayniqsa yuqori saviyada rivojlanmoqda. Braziliya, Venesuela, Hindiston va Meksikadagi yirik korxonalarda mavjud bo'lgan po'lat erituvchi texnologiyalar zamonaviylariga almashtirilmokda. Buning uchun chet el investorlari o'z sarmoyalarini ochiq ko'ngil bilan kiritayotirlar.

Mamlakatlar iqtisodiyoti taraqqiyotida yirik korxonalar alohida o'rin egallaydi. Shu bois trans milliy korporatsiya (TMK) Afrikaning ko'pgina qashshoq mamlakatlarida yirik kompaniyalar faoliyatini yo'lga qo'yishga harakat qilmoqda. Shu maqsadda so'ngi yillarda Madakaskarda 50 % mahsulotni qayta ishlash quvvatiga ega korxonalar, Serra-Leoneda 35%, Liberiya-36%, Mozambikda 10-14% gacha quvvatga teng bo'lgan yirik korxonalar tashkil etildi. Natijada bu mamlakatlarda ham sanoat rivojlana boshladi. Mayda mahsulotlar, qishloq xo'jalik xom ashyolarini yarim fabrika holatida qayta ishlash, mahalliy iste'molga zarur tovarlar ishlab chiqarish yo'lga kuyilib, bu borada keng xizmat ko'rsatish turlari ham joriy etildi. O'z navbatida mahalliy aholi rivojlangan texnologiyalarda mehnat qila boshladi.

Rivojlangan davlatlardan farqli ravishda rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasining taraqqiy etmagani xalqaro mehnat taqsimotida ham salbiy ta'sir ko'rsatmokda. Masalan, bu mamlakatlarda yuqori texnologiya va ilmiy xizmatlarga, shuningdek, aloqa, telekommunikatsiya va moliya tizimi sohalarida xizmat ko'rsatish qoniqarsiz ahvolda. Mavjud bo'lgan oddiy xizmat turlari faqat mamlakat ichkarisi tadbirkorlari uchungina xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega xolos. Eng yomoni, bu mamlakatlarda transport va aloqa sohalari davlat monopoliyasi sirasiga kiradi.

Qishloq xo'jaligi sohasiga zamonaviy texnologiyalarni kiritish jahondagi barcha rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eng og'ir masala bo'lib qolayapti. Masalan, bu hududlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi 80 % lik maydoni

irrigatsiya tizimini yangilashni taqozo etadi. Bu yerlarda suvning ifloslanishi oqibatida inson iste'mol qiladigan oddiy mahsulotlarning kaloriyasi tobora pasaymoqda. Bu holat 2004 yillar boshida aholi jon boshiga rivojlanayotgan mamlakatlarda 100 % ni tashkil etdi. Albatta, keyingi paytlarda bu tomonga yaxshi o'zgarishlar qilish uchun harakat qilinmoqda. Ammo, haligacha bu muammo Osiyo va ayniqsa Afrikada o'tkir muammoligicha qolmokda.

1970 yil oxirlariga kelib rivojlanayotgan mamlakatlarda «yashil inqilob» deb ataluvchi harakat amalga oshirildi. Buning natijasida yirik davlatlar va xalqaro tashkilotlar moliyalari evaziga oziq-ovqat mollari tayyorlash muammosi qisman hal etiladi. «Yashil inqilob»ning bajargan ishlari asosan jadallik bilan rivojlanish mumkin bo'lgan qishloq xo'jalik hududlarida o'z aksini topdi. Tanlangan bunday rayonlarda avvalo ishchi kuchi yetarli bo'ldi, bu yerga ilg'or texnika va texnologiyalar kiritildi, sara urug'chilik va yuqori hosildorlik manbalari joriy etildi. Bu esa tanlangan hududlarda yetishtirilgan mahsulotning nafakat ichki iste'mol bozorini ta'minlashga erishtirdi, balki sifatli tayyorlangan qishloq xo'jalik mahsulotlarini chetga eksport qilish imkonini ham berdi.

O'z navbatida «yashil inqilob»ning salbiy tomonlari ham bo'ldi. Ya'ni, yuqorida aytilganidek, barcha imkoniyatlar qulay sharoitga ega bo'lgan hududlargina yaratildi. Bu nomutanosiblik oqibatida boshqa hududlar bu joylarga tobe bo'la boshladi. Qishloq xo'jaligidagi taraqqiyotda ham ikki xil o'zgarish ro'y berdi, ya'ni bunday hududlar katta foyda tufayli zamonaviylasha borgan bo'lsa, bu yerdan olis vohalar qishloq xo'jaligi sohasida qoloqlik girdobiga tobora g'arq bo'laveradi. Masalan, Hindiston, Xitoy, Liviya, kabi mamlakatlarda bir tomondan yirik qishloq xo'jalik korxonalari tashkil topib, rivojlana borgan bo'lsa, ikkinchi tomonda xo'jalik yuritish eskicha usulda qolaverdi. Faqatgina so'nggi o'n yil mobaynida Janubiy, Janubiy-Sharqiy va Sharqiy Osiyoda qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash (zamonaviylashtirish) keng yoyildi. Natijada bu hosildorlikka katta ta'sir ko'rsatdi: 2004 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda g'alla hosildorligi yillik 2,8 % ga o'sdi. Jumladan, bu ko'rsatkich Osiyoda – 3,1 % ni, Afrikada – 2,7 %ni, Lotin Amerikasida esa 1,9 % ni tashkil etdi.

Bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarni umumiy iqtisodiy taraqqiyotga erishish darajasi va umumsoha tizimi rivojidadagi mavjud imkoniyatlari o'lchovi bo'yicha katta ikkita guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi – neft eksport qilish imkoniga ega mamlakatlar, ikkinchisi – yangitdan sanoatlashayotgan mamlakatlar.

## 5.§. Neft eksporti bilan shug'ullanuvchi mamlakatlar taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari

Neft eksport qiladigan mamlakatlar tashkiloti – (OPEK) – neft kazib oluvchi, eksport qiluvchi va neft savdosiga sharoit yaratib beruvchi rivojlanayotgan mamlakatlar ishini muvofiqlab turish uchun tashkil etilgan. OPEKka a'zo davlatlar 13 tadir: Aljir, Venesuela, Gabon, Indoneziya, Iroq, Eron, Qatar, Quvayt, Liviya, Nigeriya, Birlashgan Arab amrligi (BAA), Saudiya

Arabistoni va Ekvador. Dunyo neft mahsuloti iste'molida bu davlatlarning neft qazib olish ulushi 50 % ni, eksport qilish esa 80 % ni tashkil etadi.

Neft eksport qiluvchi mamlakatlarning asosiy belgilari aholi jon boshiga daromadning yuqoriligi, mustahkam tabiiy—xomashyo imkoniyatiga ega ekanligi, qulay iqtisodiy-geografik sharoitda joylashuvi va energetik xomashyo va moliya bozorida yetakchi rol o'ynashida namoyondir. Bu mamlakatlarda neftdan keladigan foyda evaziga aksariyat aholi yirik sarmoyadorga aylanishgan.

1970 yilgacha yuqorida nomlari aytilgan davlatlar daromadi, past edi. Chunki u paytlarda ularga 1 barrel neftdan keladigan daromad 2,5 AQSH dollaridan oshmasdi. Bu paytda bu davlatlarda neft qazib olish uchun ilg'or texnologiyalar yo'q edi. Shu bois bu yumushni konsessiya olgan chet el investorlari bajarardi va qazib olishdan tushadigan yalpi foydaning 90 % ini o'z ixtiyorlarida qoldirishadi.

1970-1975 yillarda OPEKka a'zo davlatlarda kechgan energetik krizis neft narxining 1 barrelini 32 dollarga oshishiga olib keldi. Oqibatda konsessiya shartnomasi bo'yicha ishlayotgan investorlar bu yerda o'zlarining ishlari bilan shug'ullanishlaridan ko'ra investitsiya kiritib, shundan foydalanishni lozim ko'rishdi. Bu esa OPEK ka a'zo mamlakatlar uchun ayni muddao bo'ldi. Endi ular neft qazib olish uchun kerakli zamonaviy texnologiyalarni pul evaziga sotib olishdi. Jahon bozorida neftni yuqori narxda sotayotganliklari esa xalq xo'jaligining boshqa turlarini ham rivojlantirish imkonini berdi.

Neft narxining o'sishi o'z-o'zidan neft import qiluvchi mamlakatlardan uni eksport qiluvchi mamlakatlarga katta foyda olishni keltirib chiqardi. Endi neftni import qiluvchi mamlakatlarda dollar kursining pasayishi, inflyatsiya darajasining o'sishi bo'y ko'rsata boshladi. Hatto ayrim rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini neftning keskin o'sishi boshi berk ko'chaga olib keldi.

1982-1986 yillarda neft narxi 34 dollardan 8 dollarga tushib ketdi. Bu paytda OPEK ka a'zo davlatlarda iqtisodiy qayta qurish kechayotganda va bu past narx ular iqtisodiyotiga hech kanday zarar yetkazmadi. Shundoq ham ularning o'rtacha yillik rivojlanishi 4 % ni tashkil etib turdi. Jahonga asosiy neft eksport qiluvchi mamlakatlar Fors ko'rfazida joylashgan Bahrayn, Quvayt, Ummon, Katar, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab amirliklaridir. Ular bugun dunyo mamlakatlarining neft mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun 190 mlrd. AQSH dollariga teng neft eksportga chiqarishadi. Bu yerda «Shell», «Ekson», «Mitsui» kabi yirik kompaniyalar, ko'pmillatli qo'shma korxonalar faoliyat olib boradi. Fors ko'rfazida mavjud ishchilarning ko'p qismi chet el fuqarolari hisoblanadi.

Fors ko'rfazi mamlakatlarida birgina neft qazib olish emas, balki gaz, energiya, moliya va bank sohalarida ham qo'shma korxonalar va kompaniyalar tashkil etilganligi, natijada bu imkoniyatlar evaziga huddudda ilmiy-texnik inqilobi-yu xalqaro mehnat taqsimoti jabhalari siljishi sodir bo'lmoqda.

Birlashgan Arab amirligi (ABB) – Fors ko'rfazida anchayin taraqqiy etgan davlat. Ammo haligacha Buyuk Britaniyaning mustamlakachilik munosabatlari bu yerda saqlanib qolgan BAA ning iqtisodiy holati qo'yidagi uchta omilda aks etgan:

- juda katta energiya resursiga egaligida; neft-zahirasi – 7 mlrd, gaz – 9,8 trln. metr kub;

- yirik moliyaviy kapitallar, energiya resurslari sotuvidan to'plangan jamg'armalar;
- zarur geosiyosiy holat, ya'ni amirlik yirik tranzit savdo markazi, havo va dengiz kommunikatsiya imkoniyatlariga ega hudud. Mamlakatda 14 ta dengiz porti va 16 ta xalqaro aeroport mavjud.

BAA iqtisodiyotida davlat sektori asosiy tarmoq neft qazib olish, neft va gazni qayta ishlash, elektr energiyasi mahsulotlari ishlab chiqarish hamda infratuzilmalar uchun qurilish ob'ektlarini o'z ixtiyoriga olgan. Xususiy sektor esa asosan o'z mablag'larini xizmat ko'rsatish, oziq-ovqat, charm-poyafzal mahsulotlari va tikuv faoliyatlariga jalb etgan neft sanoatidagi barqarorlikni «katta yettilik» deb ataluvchi kompaniyalar nazorat qiladi. Masalan, nufuzli «Anok» (Abi Labi Neyshnl Oyl Kompani») kompaniyasi o'ziga tegishli «British Petroleum», «Total», «Mobil», va «Portok» kompaniyalari bilan birga 40 % aksiyaga egalik qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, hukumat mavjud milliy iqtisodiyot sohasini chet el tajavuzlaridan qattiq himoya qiladi. Bu yerda xorijlik investor korxonaning 49 % lik aksiyasidan ko'p aksiyaga ega bo'lmasligi shart qilib qo'yilgan. Shuningdek, mamlakatdagi yirik kompaniyalar, qo'shma korxonalar boshliqlari albatta BAA fuqarosi bo'lmog'i kerak.

## 6.5. Yangi sanoatlashgan mamlakatlar guruhining shaklanishi

Keyingi 30 yilda qator Janubi-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanish keskin o'sdi. 1965 yildan 2004 yilgacha bu mamlakatlarning daromad darajasida o'sish qariyb 100 baravarni tashkil etdi. O'rtacha yillik iqtisodiy koeffitsiyent darajasi 5-7 % ga teng bo'ldi. Bu hol ularni Yangi sanoatlashgan mamlakatlar (YASM) guruhiga bo'lib yubordi. Bular – Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan, Malayziya, Tailand, Argentina, Meksika, Braziliya, Hindiston kabi mamlakatlardir. Bu guruhga mansub mamlakatlar avvalo bu yerga chet el kapitalining kiritilishiga erkinlik yaratdi, xususiy tadbirkorlik va bozor munosabatlariga keng yo'l ochdi.

YASM guruhiga kiruvchi mamlakatlar ichida Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari alohida ajralib turadi. Bu mamlakatlarda sanoatlashish o'sishning tenglik asosidagi iqtisodiy modeli tarzida kechdi, ya'ni:

- qishloq xo'jaligida erishilgan taraqqiyotdan ketma-ketlik bilan yengil va og'ir sanoatga o'tildi. Bunda zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanish yetakchi o'rinda qaraladi;
- mehnatdan kapitalga, kapital jamg'arilganidan so'ng esa ilmiy mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tildi;
- import siyosatidan eksport siyosatiga o'tildi;
- bozor munosabatlariga o'tish rag'batlantirildi.

Iqtisodiyotning o'sib borishi mundarijalarga yondashuvni keltirib chiqaradi. Infratuzilmaning zamonaviylashuvi va sanoat bazalaridan qayta qurish ichki iste'mol ehtiyojlarini qondirishda, aholining o'rta qatlamini harakatga keltiradi. Ularni mahsulot tayyorlashdagi ulushini orttiradi, bozorda muvaffaqiyatli faoliyat

yuritishni rag'batlantiradi. YASM shaxsiy texnologik va ilmiy-texnik imkoniyatlarni shakllantiradi.

YASMning investitsiya kiritish rejimlari o'zlariga mos ravishda tanlangan bo'lib, chet el kompaniyalarini ko'proq iqtisodiy imkoniyatlar cheklangan va zaiflashgan hududlarga kiritishni lozim ko'rishdi. Tajribadan ma'lumki, bunday hududlarda ko'proq chet ellik ishtirokchilarning aksiyadorlik kapitallari oshishi ko'zga tashlanadi. Ilg'or hududlarda esa ular mavjud imkoniyatlar evaziga mahsulot ishlab chiqarib, uni 100% eksportga chiqarishni mo'ljallaydilar. Yangi sanoatlashgan mamlakatlar (YASM) albatta birinchi yo'lni lozim ko'rishadi. Negaki xorij puli, sarmoyasi evaziga istiqbolsiz hududlar ham asta-sekin rivojlanish bosqichiga chiqib olishadi. Masalan, Indoneziya va Janubiy Koreya bunday hududlarda moliyaviy muammolar va kapital qo'yilmalarning sug'urtasini ta'minlangan bo'lsa, Braziliya informatika, hisob-kitobni rivojlantirishga e'tibor qaratdi.

Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida rag'batlantiruvchi investitsiyalar asosan yangi korxonalariga berildi. Bunday tanlangan korxonalar uchun uning daromadidan soliq olishda imtiyoz yaratildi. Masalan, Singapur mana shunday kompaniyalar to'laydigan soliqning 40 % ini kechib yubordi. Bu imtiyoz tufayli kompaniyalar 5-10 yilda jahon bozorida chiqarilayot mahsulotlar bilan raqobatlasha oladigan mahsulotlar ishlab chiqarishga erishdilar.

Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish Braziliya, Hindiston, Malayziya, Janubiy Koreya, Meksika davlatlarida rivojlandi. Chunki, bu soha hukumat tomonidan quvvatlab turildi. Hatto bunday mahsulot bilan mashg'ul kichik korxonalar ham raqobat maydonida himoya qilindi. Natijada kichik korxonalar ham eksport mahsulotlarni tashqi bozorga chiqarish imkoniyatiga ega bo'la borishdi. Shuningdek, bu borada ularga poshina, kvota va tayyor mahsulotlarga beriladigan litsenziyalar uchun va shuningdek, chetdan import qilayotgan xomashyo, texnologiya va zamonaviy dastgohlar uchun bu to'lovlarda keskin imkoniyatlar yaratib berdi.

YASM ning bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli Angliya-Saksoniya tipi singari davlat boshqaruvi ostida amalga oshmokda. Davlat asosan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni rejalashtiradi, tashqi bozorga chiqarilayotgan tovarlar, sarmoya va pullarni nazorat qiladi. Ayrim mahsulotlar narxlarini belgilaydi va stavka foizlarini davlat nazoratiga oladi. Masalan, Janubiy Koreyada 1994 yil «XXI asrga barcha sohalarga ilg'or texnologiyalarni kiritgan holda kirib borish» rejasi tuzildi. Natijada so'nggi o'n yil ichida Koreya sanoatining 9 xil sohasi dunyoda eng rivojlangan texnologiyalarga ega bo'ldi. Bu esa dunyodagi yirik mahsulot yetishtiruvchi uchta mamlakatdan biriga aylanishiga zamin yaratdi. Avtomobil sanoati rivojlanishi bo'yicha AQSH, Germaniya va Yaponiyadan keyingi to'rtinchi o'ringa chiqib oldi. Maishiy elektronika va kimyoviy preparatlar ishlab chiqarish bo'yicha esa Koreya dunyoda beshinchi mamlakat bo'lib qoldi.

Tan olib e'tirof etish kerak. Janubi-Sharqiy Osiyo YASMDa geografik joylashuv, tarixiy manbalarga ega ekanligi, madaniyat va diniy kardoshlik rishtalari, iqtisodiy boy resurslarga ega ekanligi bilan ham alohida ajralib turadi.

## 7.8. Afrika mamlakatlari taraqqiyoti va ularda iqtisodiy islohatlarning kechishi

Afrika mamlakatlarining aksariyati endi rivojlanayotgan mamlakatlarga dahldor. Ularning ko'pchiligi dengiz yo'llariga chiqish imkoniyatidan mustasno va tashqi dunyo bilan past aloqalda. Bu mamlakatlarda aholi jon boshiga daromad eng kam ko'rsatkichga ega (100-500 AQSH dollari). Asosiy soha qishloq xo'jaligi esa xo'jayinlik, hukmronlik asosida shug'ullanadi. Afrika rivojlanayotgan mamlakatlarga kiritilgan chet el investitsiyasi umumiy investitsiyaning 3 % ini tashkil etdi, xolos. Afrika davlatlariga nisbatan uzoq muddatli majburiyatlar jamg'arma summasi 325 mlrd. dollardan oshgan. Ko'pgina mamlakatlarda YAIMdagi tashqi qarz 70 % gacha ko'tarilgan va eksport borasida esa qarzdorlik 2,5 marta oshgan.

So'nggi yillarda Afrika iqtisodiyotida biroz ijobiy siljishga erishildi. 1990 yilning 2-yarmida Afrika mamlakatlarining YAIM dagi o'sish sur'ati 2-3 %ni tashkil etdi. Ayniqsa iqtisodiy o'zgarishlar Mavrikiya, Botsvana, Lesoto va boshqa shular kabi kichik mamlakatlarda ancha sezildi. Afrikaning 27 ta mamlakatida iqtisodiy sur'at aholining o'sish sur'atiga solishtirganda yaxshilandi. Jahon banki ekspertlari ta'kidlashicha, 2005 yilda Afrika davlatlarining YAIM o'sishidagi sur'at o'rtacha 3,8 % ga yetgan.

### Nazorat savollari

1. Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) da rivojlanayotgan mamlakatlarning o'rni va roli qanday?
2. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining umumiy jihatlariga ta'rif bering.
3. Rivojlanayotgan mamlakatlarning eksport va import munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirib bering.
4. Rivojlanyotgan mamlakatlar iqtisodiyotida chet el investitsiyasining roli qanday?
5. Rivojlanayotgan mamlakatlar qarzlarini yechish muammosi yo'llarini ayting.
6. Rivojlanayotgan mamlakatlarni sanoatlashtirish modeli haqida gapirib bering.
7. «Yashil inqilob» ning mohiyati qanday maqsadlarni ko'zlaydi.
8. qaysi davlatlar neft eksporti bilan mashg'ul mamlakatlar (OPEK) qatoriga kiradi va hozirda ularning nechasi OPEK tarkibida?
9. Yangi sanoatlashgan mamlakatlar (YASM) ni sanab o'ting.
10. Yangi sanoatlashgan mamlakatlarning sanoatlashish omillari qaysilar?

## XIII Bob. XITOIY IQTISODIYOTI

### 1.§. Xitoy iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlari.

Xitoy xalq respublikasi (XXR) – hududi jihatidan dunyo mamlakatlari orasida uchinchi o‘rinda turadi. Uning umumiy maydoni – 9,6 mln. kv. km. Aholisi 1 mlrd. 350 mln. kishidan ziyod. Mamlakatda 50 dan ortiq millat vakillari yashaydi. Xitoy millatiga mansub aholi esa 94 %ni tashkil etadi.

Xitoyning uch ming yillik tarixi guvohlik berishicha, uzoq yillar o‘ta qoloq «hayot qurib podsholik»ka buysingan xitoyliklarning kattagina qismi milodiy yillarga kelib sivilizatsiyalashayotgan yangi hudud aholisiga yaqinlasha borgan. Natijada hech qaysi davlat tarixida uchramaydigan holatda, ya’ni qisqa davrda varvarlar (madaniyatdan chetda qolgan chet elliklar) kabilar turmush tarzini yaxshilovchi an’analar va madaniyatli hayot uchun «tez asirga tushgan» lar sirasiga kirgan. Hududlararo madaniyatli turmush kechirishga bo‘lgan o‘zaro ko‘maklar tufayli Xitoyning umumiy hududi kengayib borgan.

Hozirgi Xitoy 26 ta provinsiya holda uchta markaziylik shaharlardan (Pekin, Shanxay, Tyanzin) tarkib topgan. Xitoy iqtisodiyoti umumiy mulkchilik tamoyillari asosida rivojlanmoqda. Bu yerda hali ham besh yillik davlat rejalari mavjud bo‘lib, taraqqiyot shu reja asosida yuksalmoqda. Shu sababdan ham Xitoy dunyoda eng yirik sanoat korxonalariga ega davlat, deya ta’riflanadi. Umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha Xitoy dunyoda 4-o‘rinni, korxonalar soni ko‘pligi jihatidan esa 8-o‘rinni egallaydi.

Xitoy iqtisodiyotida energetika kompleksi (ko‘mir sanoati) yetakchi rol o‘ynaydi. Mamlakatning neft o‘chog‘i sanalgan – Datsan hududida Xitoyning teng yarim nefti qazib olinadi. Elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi GES va GRESlar esa asosan Yanszi va Xuanxe daryolarida qurilgan. 1980 yillardan boshlab ximiya sanoati, mineral o‘g‘itlar (azot) mahsuloti, kimyoviy va farmatsevtikaga oid tovarlar ishlab chiqish rivojlana boshlandi.

Xitoy yengil sanoatida to‘qimachilik (ipakchilik va paxtani qayta ishlash) sohasi asosiy tarmoq bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, Xitoy iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi ham yetakchi rol o‘ynaydi. Asosiy dehqonchilik qilinadigan yerlar mamlakatning sharqiy hududlari hisoblanib, u yerlarda ko‘p miqdorda sholi, g‘alla, makka va choy yetishtiriladi. Xitoy mamlakati hududi uch xil iqtisodiy mintaqaga bo‘linadi.

1. Sharqiy (dengizbo‘yi) mintaqqa. Bu mintaqada iqtisodiy munosabatlar ancha taraqqiy etgan. Bu yerda yirik sanoat markazi, erkin iqtisodiy hududlar (EIH), dengiz portlari, trans-milliy korporatsiya (TMK)larning xalqaro ofislari joylashgan.

2. Markaziy mintaqada issiqlik va energiya ishlab chiqarish, kimyoviy mahsulotlar, xomashyo va yarim fabrikat tovarlar hamda savdo-sotiq rivojlangan.

3. G‘arbiy mintaqqa. Bu yerda esa chorvachilik tarmoqlari rivojlangan. Shuningdek, g‘arbiy mintaqada xilma-xil mineral xom ashyolar qayta ishlanadi.

**XXR – barcha qadimiy ishlab chiqarish texnologik usullarini saqlab qolgan davlat sanaladi. Masalan, qishloq xo‘jaligida asosan qo‘l kuchi bilan mahsulot tayyorlanadi. Ayniqsa, qishloq joylarda bu juda ommalashgan. Faqat shaharlardagina mahsulotlarni tayyorlash mashinalashtirilgan, xolos.**

**Hozirgi paytda Xitoy iqtisodiyoti yiliga 7-10 % gacha o‘smoqda. Bu yutuqning asosiy omillari bo‘lib ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish va tizimli siljish holatlarida ko‘rinadi. Ayniksa hozirgi davrda Xitoyda yengil sanoatda qayta ishlash va sifatli xizmatlar ko‘rsatish sohalari benihoya ravnaq topmoqda. 2004 yilda umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida yangi tarmoqlar hissasi qariyb 30 foizgacha oshdi. (1990 yillar boshida u -10 % edi).**

**Xitoy dunyodagi eng erkin iqtisodiy hududlar yaratgan mamlakatlardan biri sanaladi. Ayni paytda bu yerda 2100 dan ziyod xorij firmalari samarali faoliyat yuritmoqda.**

**XXI asrning dunyo sanoat mahsulotlari YAIM tayyorlashdagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Ammo, aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarilishini hisoblaganda Xitoy rivojlangan mamlakatlar ko‘rsatkichidan birmuncha past ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Har holda Xitoy o‘zida mavjud imkoniyatlardan uzoq kelajakni o‘ylagan holda foydalanilmoqda. Uning yalpi milliy mahsulot (YAMM) hajmida Yaponiyadan keyingi o‘rinda turishi ham bundan dalolat beradi.**

## **2.§. Xitoyda iqtisodiy islohatlarning kechishi**

**1967 yildan boshlab Xitoy madaniyatidagi o‘zgarishlar uning iqtisodiyotiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Aslida 1958 yilda Mao Szedun tomonidan taklif etilgan «Katta sakrash» yo‘nalishi Xitoyni 5-10 yil ichida dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari qatoriga olib chiqishi kerak edi. Mamlakat xalq xo‘jaligi oldiga amalda bajarib bo‘lmaydigan – cho‘yan va po‘lat eritish, ko‘mir-u, neft qazib chiqarishdek og‘ir vazifalar yuklatildi. O‘sha davr iqtisodiy siyosatiga ko‘ra, yer, suv, hatto hovli, uy-joylar ham jamoat mulki bo‘lib sanalardi. Xullas, sotsializm qurishning xitoycha usuli xalq xo‘jaligini batamom izdan chiqardi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi pasayib ketdi, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy muammolar ko‘paydi. Mao Szedunning o‘limi (1976) dan so‘ngina Xitoy iqtisodiy taraqqiyotida ijobiy siljishlar ro‘y beraboshladi. 1978 yilda Xitoy kommunistik partiyasi esa «katta sakrash» ga milliy falokat deb baho berdi. Shu yildan boshlab mamlakatda iqtisodiy islohatlar amalga oshirila boshlandi. Islohatlardan ko‘zlangan asosiy maqsad har bir kishi boshiga olinadigan daromadni o‘rtacha rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazilishidan iborat edi.**

**Bu islohatlarda quyidagi muammolarni bartaraf etish mo‘ljallandi:**

- rejali mahsulot tayyorlashda to‘liq aholi ehtiyoji uchun mahsulot ishlab chiqarishdan yarim ehtiyojni qondiruvchi tovar ishlab chiqarish tizimiga o‘tish;**
- agrar sohadan sanoatlashuvga, qishloq ishlab chiqarishidan esa posyolka va shahar turiga o‘tish;**



- «o‘z kuchiga tayanish» yo‘nalishidan «ochiq eshiklar» siyosatiga o‘tish;
- «axloqiy prinsip» lar tashkiliy tuzilmasidan haq-huquqlarga ega tuzilmalarga o‘tish.

Bu islohatlar tarixiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy an‘analar bayrog‘i ostida amalga oshira boshlandi. Islohatlar «Rejali iqtisodiyot-asosiy, bozor boshqarilishi ko‘mak beruvchi» aqidasi ta yanagan holda kechdi. 1984-1990 yillarda Xitoyda sotsialistik bozor iqtisodiy tizimi yaratildi. Unga ko‘ra tovarni baholash markaziy masala sanaldi. Bu tizimga o‘tish erkin narx va iste‘molchi talabiga mos bahodagi mahsulot ishlab chiqarishni yuzaga keltirdi.

Bu islohat uch bosqichda amalga oshiriladi.

- davlat baholarini qilingan harajatga yaqinlashtrish;
- mamlakatda mavjud belgilangan narxlarni markazlashtiril-ganidan erkin narxlarga bosqichma bosqich o‘tkazish;
- mahsulot ishlab chiqarishdagi va iste‘moldagi narxlar mutanosibligini doimiy ravishda nazorat qilish.

Xitoyda 1990 yillar boshida bozor munosabatlaridagi islohatlar modeli sotsialistik bozor iqtisodiyoti nomini oldi. Uning asosiy xususiyati umumiy, jamoatchilik tarzida mahsulot ishlab chiqarishni keng yo‘lga qo‘yish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishdan iborat edi. Bu islohat bo‘yicha davlat korxonalarida faoliyat yuritayotgan kishilar mulkka davlat va umumiy mulk tarzida munosabatda bo‘lishlari shart qilib qo‘yildi. Metall qazib olish davlat monopoliyasiga aylandi.

Xitoy davlatchiligi uzoq tarixdan buyon imperiya tizimida kelmoqda. Unda davlat mulki – asosiy shakl bo‘lib harbiy va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan barcha mulklar davlat mulki hisoblanadi. Masalan, Xitoyda tovar-pul munosabatlari hech qachon aholi turmushi uchun xizmat qilmaydi. U faqat umumiy foydalanish masalalariga yo‘naltiriladi, xolos.

Agrar sohadan sanoatlashuvga o‘tish. Xalq kommunalari yer shartnoma asosida dehqonga berilib, u esa ortiqcha mahsulotini o‘zi istaganicha tasarruf etish huquqiga ega bo‘lishi bilan karakterlanadi. So‘nggi yillarda qishloqda ishlab chiqarish 1984 yillarga nisbatan 14 marta, aholi ish bilan bandligi 4 marta oshdi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi ulushi YAIM tayyorlashda 40 % gacha ortdi va bu ijtimoiy ta‘minotda katta foyda berdi. Qishloq aholisi daromadlaridan 50 % soliq byudjetga undiriladigan bo‘ldi.

Xitoyda qishloq ishlab chiqarishdan posyolka va shahar turiga o‘tish mamlakat iqtisodiyoti rivojida katta ahamiyat kasb etdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mamlakatda «ochiq eshiklar» siyosati tufayli olis qishloq larga AQSH, Yaponiya va Yevropa davlatlarining kompaniya va firmalari kirib keldi. Bunga esa Xitoy hukmati yetarli darajada sharoit yaratdi. Ya‘ni, ular har qanday soliq va bojlardan ozod etildi. Bu yerdagi arzon ishchi kuchi esa xorij ishbilarmonlariga xush yoqdi. Natijada Xitoydan aksariyat qishloqlar posyolka va shahar singari sanoatlashdi, zamonaviy texnologiyalar bilan boyidi.

To‘lik o‘z aholisi ehtiyoji uchun mahsulot ishlab chiqarishdan, yarim ehtiyojni qondirish tizimiga o‘tish ham xitoy iqtisodiyoti rivojiga ko‘mak berdi.

Endilikda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy haridori davlat bo'lib qoldi va u bu mahsulotlarni eksport qilishga qattiq e'tibor qaratdi. Natijada mamlakatga ko'shimcha valyuta kiritildi. Aholi daromadi oshishi hisobiga hosildorlik va unumdor yerlardan foydalanish kuchaydi. Masalan, paxtaning yalpi hajmi 15 % gacha, choy bargini yig'ish esa 22 % ga oshdi.

1979 yillar boshida Xitoy davlati chet el investorlariga barcha eshiklarni ochib berdi. Xitoydan tashqarida yashayotgan 60 mln. xitoylikning barchasi o'z investitsiyalarini Xitoyga olib kelib ish boshladi. Ular keyingi yillar ichida Xitoy iqtisodiyotini tezlik bilan rivojlantirish, jahon bozorlarida haridorbop, sifatli mahsulotlar, tovarlarning olib chiqilishiga asosiy dastak sifatida faoliyat yuritdi.

Mamlakatga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish maqsadida Xitoy xukumi dengizbo'yi rayonlaridagi 4 ta asosiy shahar – Shanxay, Chjuxay, Shantod, Xoykoularni «erkin iqtisodiy hudud» deya e'lon qildi. 1984 yilda xorij investorlari uchun 14 ta dengiz portlari tashkil etildi. Yaratilgan qulay imkoniyatlar evaziga g'arblik ishbilarmon doiralar mamlakat ichki bozorlarini sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish va yangi ish o'rinlarini yaratish bilan birga Xitoy eksportining 40 % ini uddalab keldi.

Xitoy xorij investorlari uchun yana 18 ta shaharlarni tashkil etdi. Aniqrog'i, ishchi kuchi arzon bo'lgan qishloqlarni shaharlashtirdi. Natijada, bu yerda transmilliy korporatsiya (TMK) majmuasiga kiruvchi butun boshli yirik zavodlar, korxonalar qurilib, ishga tushdi. Xitoy hukumati 22 holatda investorlarga sog'lom sharoit yaratuvchi ro'yxat tuzdi va buning amalini qat'iy nazoratga oldi. Shaharlarda alohida ular uchun valyuta ayirboshlash shoxobchalari tashkil etdiki, xorij investorlari bu yerdagi mavjud xomashyo va zarur mahsulotlarni milliy pul-yuanda harid qilsin.

Mamlakatda yangi korporativ siyosat joriy etildi va unga ko'ra avtorlik huquqini muhofaza etuvchi me'yoriy akt qabul qilindi. Bu qulaylik sharofati bilan Yaponiya, AQSH va G'arbiy Yevropa investitsiyalar oqimining to'g'ridan-to'g'ri kirib kelishi faollashdi.

1992 yilda Xitoy jahon andozalariga mos, zamonaviy xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan va Jahon savdo tashkiloti (JST) talablariga to'g'ri keladigan yangi bozor yo'nalishlariga ham keng yo'l ochdi. Natijada xorijlik investorlar uchun ilgari mavjud bo'lmagan iqtisodiy sektorlar xususiylashtirish, transport, telekommunikatsiya, yo'l taraqqiyoti, erkin savdo, sug'urta, buxgalterlik xizmatlari va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari bo'yicha faoliyat yuritishga doimiy yo'l ochildi. Bu borada qo'shma korxonalar, yangi sohalar bo'yicha ilk bor faoliyat boshlagan firmalarga alohida imtiyozlar, texnologiyalar keltirish va eksport qilish uchun qulayliklar yaratildi. Xitoy uchun harakterli jihati undaki, tez fursatda mamlakatdagi aksiyadorlik qo'shma korxonalaridagi chet ellik investorlar ulushi 22 % dan 50 % ga o'sdi. Ulardagi hissa investorlar tomonidan mablag', texnologiya va zamonaviy uskunalar bo'lsa, shu yerlik tadbirkorlar tomoni esa infratuzilma, mehnat resurslari va zarur aloqalarni yo'lga qo'ydi.

So'nggi yillarda Xitoyda 100 % xorij kapital evaziga faoliyat yuritayotgan korxonalar soni ko'paydi. Ilgari bunday korxonalar faqat «erkin iqtisodiy hudud» lardagina bo'lgan bo'lsa, hozirda ularni Xitoyning istalgan joyida ko'rish mumkin.

Bungacha Xitoy hududiga yangi, texnologiya va zamonaviy dastgohlarni kirituvchi xorij tadbirkorlariga katta imtiyozlar, imkoniyatlar yaratilgan. Ular qonun bo'yicha har qanday tahdidlardan muhofaza qilinadi.

1995 yilda Xitoyda chet el kompaniyalari tomonidan xolding kompaniya tashkil etish bo'yicha qonun qabul qilindi. Unda yozilishicha, xolding tashkilotlarida uchta imkoniyat bo'lishi shart qilib ko'rsatildi. Birinchidan, kompaniya moliyaviy jihatdan albatta tetik bo'lishi zarur. Uning aktivlari kamida 400 mln. AQSH dollarini tashkil etishi shart; ikkinchidan, aksiyadorlik kapital jamg'arma ulushida eng kam bo'lganda 10 mln. dollarlik aksiyaga ega bo'lishlik; uchinchidan esa Xitoydagi hech bo'lmaganda uchta investitsiya loyihasini ma'qullashi kerak.

Xitoyda to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyasini jalb etish uchun turli rag'batlarga moslashmoq talab etiladi. Ular o'z ichiga soliqqa oid ta'tillar, import tariflari bo'yicha imtiyozlar, chet el xodimlarini kabul qilish va kuzatish tartiblarida yengilliklar yaratishni qamrab olgan.

Agar investitsiyalar hajmi mamlakat belgilagan darajadan past bo'lsa, mahalliy hokimiyat hech qanday maxsus ruxsatnomasiz xorij investitsiyasi mablag'lariga xususiy korxonalar mablag'larini ham qo'shishi mumkin. Bu holatda ishlab chiqarishdan kelayotgan foydaning ko'proq ulushi mahalliy tadbirkorga tegadi. Bu esa shu yer bozorini to'ldirish va ichki davlat xo'jalik aylanmasining o'sishida muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy jihatdan aholining ko'chishi ham iqtisodiyotning yangi qirralarini ochishga ko'mak beradi. Mamlakatda har yili 50 mln. aholi hududdan hududga, qishloqdan shaharga ko'chadi. Bunga davlat qabul qilgan «bolalarini almashtirish» amaliyoti ham asosiy sabablardan biri edi. Chunki Xitoyda korxonalar yoki tashkilotda ishlayotgan har bir ishchi yoki xodim pensiyaga chiqadigan bo'lsa, uning o'rniga farzandi kelib ishlashi mumkin, degan konsepsiya qabul qilingandi. Bu tabaqachilik munosabatlarni saqlab qolgan bo'lsada, ishda zamonaviy menejment usullarini taraqqiy ettirishda salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bois 1980 yillar boshida bu konsepsiya bekor qilindi, ishlash uchun erkin raqobat asosida tanlash imkoniyati yaratildi.

Xitoyda ta'lim muammosi ham o'tkir masala hisoblanadi. Ayniksa, qishloq xo'jaligi sohasida xizmat ko'rsatuvchi sohalarga qaraganda ikki barobar bilimsizlik yuqori hisoblanadi. Bu sohada taxminan 8,5 foiz aqliy yetuklik bilan ishlaydigan kishilar bor xolos. XXR da «yangi savodsizlar» tushunchasi mavjud. Har yili 4 mln. dan ziyod bola boshlang'ich maktabni, 2 mln. o'quvchi to'liqsiz o'rta maktabni tark etadi. 2 mln. dan ortiq yoshlar esa umuman o'qishni istashmaydi yoxud bunga sharoit topmaydi. So'nggi yillarda Xitoyda ingliz tilini o'rgatish keng ommalashmoqda.

Keyingi 20 yil ichida kechgan iqtisodiy islohatlar tufayli Xitoyning YAIM i 5,6 martaga ko'paydi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi 7 barobarga o'sdi, aholi jon boshiga mahsulot taqsimoti 4,5 martaga oshdi. Islohatlar jarayoni boshida mamlakatning 250 mln. aholisi (5 dan 1 aholi) qashshoqlikda turmush kechirardi, ya'ni yillik daromad odam boshiga 50 AQSH dollarini tashkil etardi, xolos. Ayni kunda kambag'allikda kun kechirayotgan aholi soni 36 mln. gacha kamaydi va bu

jami aholining 3 % ini tashkil etadi. Islohat davrida sinalgan yo‘l iqtisodiy nochor aholini ijtimoiy himoya qilish bundagi Xitoy siyosatining bosh yo‘nalishlaridan biri va mamlakatdagi kam ta‘minlangan aholi qatlami muntazam himoyada.

Hozirgi kunda qo‘shma korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar hajmi jihatdan Xitoy dunyoda AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya va Angliyadan keyingi 7-o‘rinni egallaydi. Valyuta zahirasi jihatidan faqat Yaponiyadan keyin ikkinchi o‘rinda turadi (150 mlrd. AQSH dollar). XXR xo‘jaligida po‘lat eritish, ko‘mir qazish, rangli televizorlar chiqarish bo‘yicha lider hisoblansa, elektr energiya ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda AQShdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. So‘nggi 20 yilda g‘alla tayyorlash mamlakatda 2 baravarga, go‘sht ishlab chiqarish 6 baravarga, baliq va dengiz mahsulotlari tayyorlash 7 baravarga ortdi.

Xullas, so‘nggi chorak asrda mamlakatda kechgan iqtisodiy islohatlar tufayli Xitoy xalq respublikasi olamshumul yutuqlarga erishdi va erishmoqda. Hatto bugungi kunda ayrim karomatgo‘ylar: «XXI asr-Xitoy asri bo‘ladi» deb aytishmoqda. Ammo nima bo‘lganda ham bu mamlakat imperiyaligicha qolib kelmoqda. Bir kun kelib Xitoy ham ozod huquqiy demokratik davlatga aylanishi shubhasiz. Zero, unda yashayotgan buyuk mahnatkash xalq shunga loyiq. Bugun esa iqtisodiy barqarorlik va jamoat qo‘lga kiritayotgan muvaffaqiyatlar to‘liq davlat nazoratida.

### 3.5. Xitoyning tashqi iqtisodiy aloqalari

Aytish mumkinki, tashqi iqtisodiy siyosat har qanday milliy iqtisodiyot taraqqiyotini ta‘minlashning muhim vositasidir. Shu ma‘noda Xitoyning tashqi iqtisodiy siyosati jahon bozori bilan mustahkam bog‘liq holda eksportga ishlaydigan tarmoqlari ustunlik qiladigan ochiq iqtisodiyotni vujudga keltirishga qaratildi. Xitoy iqtisodiy islohatlar davrida katta hududga, ko‘p millionli aholiga va xilma-xil resurslarga ega bo‘lgan har qanday mamlakat ham boshqa davlatlar bilan doimiy va keng ko‘lamdagi iqtisodiy aloqallarni yo‘lga qo‘ymas ekan rivojlanish haqida o‘ylash ham ortiqcha, degan qarorga kelgandi.

Xitoy tashqi iqtisodiy aloqalarida «davlatning tuganmas quvvatlari majmuasi» degan aqida mavjud. Bu aqida tufayli mamlakat ichkarisidagi ishlab chiqarish korxonalarini yanada mukammalroq texnikalar bilan qurollantirishga, ilg‘or texnologiya va ilmiy-texnik tajribasi hamda ishlab chiqarishning yanada unumliroq tuzilishini joriy etishga tabiiy resurslarni o‘zlashtirishga, chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirishga yordam berib, yangi buyumlar chiqarishni tashkil etishga ketadigan vaqtni qisqartirib, ishlab chiqarish va butun xo‘jalik faoliyatini oshirishga, hosil qilingan milliy daromadni ko‘paytirishga erishilmoqda.

Xitoyning tashqi iqtisodiy aloqalari taraqqiyotida tashqi savdo muhim rol o‘ynaydi. XXR ning tovar ayirboshlash hajmi 325 mlrd. dollarni tashkil etdi. (Bu dunyoda 10 o‘rin deganidir). Har yili xorijga mahsulot chiqarish 4 % dan 20 %

gacha oshib boradi. Tovar eksporti mamlakatga 75 % valyuta tushumini ta'minlaydi. Eksport hajmi jihatidan Xitoy jahonda 13-o'rinda, import hajmi jihatidan esa 16-o'rinni band etadi.

Xitoy tashqi savdosi uchun eng muhim vazifa bu texnik va texnologiyalar yaratib, uni chetga sotishdir. Bu borada ham mamlakat ancha yuqori ko'rsatkichga ega. Shuningdek, Xitoy chetdan zamonaviy texnikalar harid qilishni ham kanda qilmaydi. So'nggi yillarda shunday texnologiyalar mamlakatga kiritilgani sababli 8 ming xildan ziyod yangi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga erishildi. XXR dunyoda paxta mahsulotlari va tabiiy ipak gazlamalari hamda elektronika va mashinasozlik tovarlarini eksport qilish bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Xitoy eksportida tayyor mahsulotlar jami tashqi savdoga chiqarilgan mahsulotlarning 2/3 qismini tashkil etadi. Tashqi savdoda Xitoyning eng ishonchli sheriklari AQSH, Yaponiya va G'arbiy Yevropa davlatlaridir. Masalan, Yaponiya bilan mashinasozlik va texnologiya bo'yicha savdolar 50 % ni tashkil etsa, AQSH yuqori texnologik mahsulotlar, samolyot va elektron hisoblash texnikasini harid qilish bo'yicha yetakchi sanaladi.

XXR da chet el investitsiyasi 200 mlrd. dollarni tashkil etadi. Shuning 70 % i xalqaro tashkilotlar va xorij korxonalar kreditlari va zayomlari hajmida ko'rinadi. Dengizbo'yi rayonidagi 80 % korxonalar xorij kapitali hisobiga faoliyat yuritadi. Bu yer erkin iqtisodiy hudud sanalib, chet ellik ishbilarmonlar uchun bir qator imtiyozlar rejimi ishlab chiqarilgan.

Ko'p yillar davomida Xitoy hukumati uchun Gangkong (Syangan), Makao (Aomin) va Tayvan singari yirik hududlarni teng huquqli a'zo sifatida mamlakatga qo'shib olish siyosati o'z ishini yurgizdi. Chunki, Gonkong hududlari XIX asr oxirlarida Buyuk Britaniyaga uzoq muddatli ijaraga berilgandi. Bu muhim siyosat tufayli Gongkong 1997 yil 3 iyulda Xitoy ixtiyoriga qaytdi. Faqat hozirda «bir davlatda ikki tizim» formulasi mujassam. Tan olish kerakki, Gongkong so'nggi 50 yil ichida kuchli rivojlandi. Bugun bu yerdagi mavjud imkoniyatlar XXR iqtisodiyotining muhim ustunlaridan biri sanaladi. Syanganda chet el investitsiyasi hajmi mamlakatning qariyb 3 dan 2 qismiga teng. Investitsion kontraktlar esa 80 % ni tashkil etadi. Tashqi iqtisodiy aylanma (oborot)da esa uning ulushi 40 % ni tashkil etadi.

Tayvan hududi esa 1940 yilgacha Xitoyning bir bo'lagi sifatida bo'lib, ko'p yillar XXR oppozitsiyasi hisoblandi. 1990 yilda ikki mamlakat o'rtasida aloqalar yaxshilandi. Tayvan bugungi Xitoy iqtisodiyotida investitsiya hajmi jihatidan Syangandan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Resurslarning qo'shilishi, Tayvan kapitali va texnologiyalari, Syangan va Makao (Aomin)ning tashqi savdo aloqalari birlashishi «Katta Xitoy» ni yaratilishini ta'minladi va yangi iqtisodiy taraqqiyotga erishgan hudud bo'lib qoldi.

AQSH Xitoy bilan 1979 yilda diplomatik aloqalarni o'rnatdi. 1980 yillar boshida Xitoy va AQSH o'rtasida tovar ayirboshlash keskin kuchaydi. Xitoy xalq xo'jaligini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash uchun mashinasozlik va elektronika mahsulotlari import qilindi. O'z navbatida AQSH ga birinchi darajali xomashyo mahsulotlari yetkazildi. O'sha paytda Xitoy va AQSH savdo saldo balansi barqarorlashdi va bu 60 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi.

Ikki tomonlama iqtisodiy aloqalar siyosiy munosabatlarning yaxshilanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Boshqa sohalar bo'yicha ham keng ko'lamdagi ayirboshlash siyosati amalga oshirildi. Ammo, 1992 yillarda Xitoy rivojlanish yo'liga chikib olgach, har qanday ishlab chiqarish sohasida Amerika bilan raqobatlashish darajasiga yetdi. Oqibatda ikki davlat o'rtasida «savdo urushi» avj oldi. Bunga Xitoyning AQSH dan import qilinadigan tovarlar yo'lidagi bevosita taqiqlashlar, kvotalar, litsenziyalar, sifat andozalariga rioya qilishga ortiqcha talablardan iborat g'ovlarni olib tashlashdan bosh tortgani sabab bo'ldi. Chunki XXP ma'murlari AQSH bilan savdoda katta ustunlikka erishgan edi va o'zaro savdodagi ahvol xitoyliklar foydasiga hal bo'lardi. Oxir-oqibat AQSH xalqaro savdoda eksportni sezilarli tarzda cheklashni lozim ko'rdi.

Yaponiya Xitoy bilan o'zining tashqi iqtisodiy aloqalarini 1972 yildayoq me'yorlashtirgan edi. 1979 yilda esa ikki davlat o'rtasida tinchlik va do'stlik shartnomasi imzolandi. Yapon firmalari Xitoy bozoriga faol kirib bordi. XXRning tashqi savdo oborotida Yaponiya ulushi 20 % ni tashkil etadi. Yaponiya Xitoyga texnologik uskunalarni eksport qilsa, u yerdan katta hajmda xomashyo va yarimfabrikat mahsulotlarni import qiladi. Xitoyda Yaponiyaning imtiyozli kreditlari mavjud. Bir so'z bilan aytganda barcha sohalarda bu ikki mamlakat o'rtasida istiqbolli munosabatlar yo'nalishida shakllangan.

XXR ning Janubiy Koreya bilan aloqallari ham yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. Bu ikki mamlakat o'rtasida birinchi qo'shma korxonalar 1985 yilda tashkil topdi. Janubiy Koreyadan 50 dan ortiq to'qimachilik, elektrotexnika va terini qayta ishlovchi korxonalar texnologiyalari keltirildi. 1992 yil avgustda bu mamlakatlar o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi va bu iqtisodiy sohalar rivojiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Tovar ayirboshlash hajmi 20 mlrd. dollarga yetdi.

### Nazorat savollari

1. Xitoyning zamonaviy shart-sharoitga ega iqtisodiy imkoniyatlari qanday baholandi?
2. Xitoy iqtisodiyotida 1970-80 yillarda qanday siljish tizimi amalga oshirildi?
3. Xitoy qishloq xo'jaligi taraqqiyotida o'ziga xos qanday jihatlar mujassam, deb o'ylaysiz?
4. Mamlakat iqtisodiyotini boshqarish modeli nechog'li e'tiborga, afzallikka ega deb o'ylaysiz?
5. Xitoyning tashqi iqtisodiy aloqalari rivojidadagi asosiy xususiyatlarni sanab o'ting?
6. Xitoy iqtisodiyoti rivojida xalqaro munosabatlarning o'rni haqida gapirib bering.

## XIV Bob. ROSSIYA FEDERATSIYASI IQTISODIYOTI

### 1.§. Jahon xo‘jaligida Rossiyaning tutgan o‘rni va roli

Rossiya Federatsiyasi (RF) 17,1 mln. kv. km. lik katta hududga ega bo‘lib, u egalab turgan territoriyasi jihatdan dunyoda birinchi o‘rinda turadi. Rossiya Sharqiy Yevropaning katta qismini va Osiyo qit‘asining ma‘lum maydonini tasarruf etgan. Rossiya hududi jihatidan butun G‘arbiy Yevropa davlatlari egallab turgan maydondan ham bir necha bor ziyod va 14 ta chet el davlatlari bilan chegaradoshdir.

Mamlakat aholisi – 146 mln. kishidan iborat bo‘lib, u aholi soni jihatidan dunyoda Xitoy, Hindiston, AQSH, Indoneziya va Braziliyadan keyin 6-o‘rinda turadi. Aholi tarkibi xilma-xil bo‘lib, unda 100 dan ortiq turli millat vakillari istiqomat qiladi. Shuning 83 foizi rusalardan iborat. 75 foiz aholi esa shaharlarda yashaydi.

Rossiya Federatsiyasi mustakil davlat sifatida 1991 yil 12 iyulda e‘lon qilindi. U BMT va MDH a‘zosi. Davlat tuzumi – federativ respublika. Rossiya Federatsiya 20 ta avtonom respublika va 10 ta avtonom okrugi ma‘muriy hududdan iborat.

Rossiya jahon iqtisodiyotida jiddiy o‘rin tutadi. Dunyo xo‘jaligidagi YAIMda Rossiyaning ulushini solishtirganda, u AQSH ulushidan 10 martaga, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya va Eron ulushidan 5 martaga kam ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Jahon iqtisodiyotida Rossiya investitsiyasining solishtirma salmog‘i bor-yo‘g‘i 1 % ni tashkil etadi. Tashqi savdo borasida ham u jiddiy ulushga ega, 1,4 %. Bu esa rivojlangan mamlakatlar salmog‘idan ancha kam, janubiy Koreya ulushidan esa 2 baravar kam ekanini ko‘rsatadi. Ammo Rossiya qurol-aslaha zihirasiga egaligi jihatdan dunyoda birinchi o‘rinda turadi (55%), harbiy harajatlari esa AQShnikidan 16 baravarga, Xitoy qiladigan harajatdan esa 4 baravarga past. Rossiyaning tashqi dunyodagi qarzi deyarli yo‘q hisobida.

Dunyo YAIMida rivojlangan g‘arb mamlakatlarining ulushi tobora pasayayotgani jahonda Rossiya singari rivojlanayotgan mamlakatlarning kuchayotgani bilan harakterlanmoqda. Ekspertlar ta‘kidlashicha, ularning ulushi 2015 yilga borib 7,8 foizga qisqaradi. Rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi esa 3,5 % ga ortadi. YAIMda umumiy ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha Rossiya bu davr ichida 15-o‘rindan 13-o‘ringa ko‘tarilishi taxmin etilmoqda. RF aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha dunyo mamlakatlari orasida kuchli otilikka kirishi kutilayotir.

### 2.§. Tabiiy resurslar va mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarining o‘ziga xosligi

Rossiya dunyoda ma‘danli xom ashyo resurslar zahirasi mavjudligi bo‘yicha asosiy rol o‘ynaydi. Mamlakatning bugunda mavjud bo‘lgan qimmatbaho yerosti va yer usti boyliklari zhirasi 28,6 trln. dollarni tashkil etadi. Hozirda Rossiya

dunyodagi jami yerosti qazilmalarini qazib olish bo'yicha yetakchi sanaladi. Xususan, bu yerda dunyoning 10 % nefti, 30 % tabiiy gaz, 10 % toshko'miri, 14 % temir rudasi, 15 % rangli va kam uchraydigan metallar qazib olinadi. Rossiya MDH mamlakatlari ichida zahira foydali qazilmalari borligi jihatidan ham oldinda. U MDH mamlakatlar ichida 85 % neft zahirasiga, 53 % - simob, 95 % - nikel, 78 % - boksit zahirasi ega sanaladi. Rossiyada o'rmonlar aholi jon boshiga 5 gektardan ortiqroq to'g'ri keladi (bu Kanadada 8,6 gektarni, AQShda esa 0,8 gektarni tashkil etadi).

Rossiya tabiiy-xomashyo kapitalining 25-30 foizi milliy-bo'ylik sanaladi. 30-60 %i zahira esa rentabellsiz hisoblanadi. Shu bois milliy bo'ylik summasining 8-10 %ini ma'danli - xomashyo bazasi tashkil etadi va uning taxmin qilingan 28 trln. dollaridan 1,5 trln. dollarigina hozirda foydalanishga yaroqli sanaladi.

Rossiya toshko'mir va ko'mirni qazib olish bo'yicha dunyoda yetakchilik qiladi. Ammo, so'nggi yillarda mamlakatda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatlar tufayli ko'mir qazib olish shaxtalari va kar'erlaridagi ish unumli pasaydi. Mamlakat 1980 - yillarda temir rudasi qazib olish va po'lat eritish bo'yicha dunyoda 2-o'rinni egalladi. Biroq bu foydali qazilmalarni qazib olishda 1990 yillar o'rtasida Rossiyada ikki hissaga kamaydi. Ayniqsa, po'lat eritish borasida mamlakat hatto Qozog'iston va Ukraina ko'rsatkichidan ham pasaydi.

Hozirgi paytda Rossiyada qimmatli, ammo kam uchraydigan metallar qazib chiqarish deyarli to'xtagan. Biroq, bu xomashyolar mavjud. Oltin, kumush, platina, olmos, qimmatbaho toshlar har qanday davlat uchun valyuta xomashyo sanaladi. Rossiya bu mineral qazilmalarga boy. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida oltin qazib olish bo'yicha (yillik-300-400 tonna) mamlakat dunyodagi Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) dan keyingi 2-o'rinda edi. Hozir esa Rossiyada yiliga 100 tonna atrofida oltin qazib olinadi. U bu borada dunyoda Janubiy Afrika Respublikasi (JAR), AQSH, Avstraliya, Kanada va Xitoydan keyingi 6-o'rinni egallaydi.

Issiqlik va energetika majmuasi mavjudligi jihatidan ham Rossiya oldingi o'rinlardan joy olgan. U aholi jon boshiga elektr energiya va boshqa elektr mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlari va Shimoliy Amerika davlatlaridan 1,5-2 marta ko'p ishlab chiqarish salohiyatiga ega.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatda mavjud bo'lgan asosiy ma'danli qazilmalarni qazib olish va uni iste'mol uchun ta'minlash borasida Rossiya xorij mamlakatlaridan ancha orqada qolgan. Masalan, Rossiyada shunday qazilma boyliklarni izlash - geologik ishlari hali talab darajasida emas.

Rossiyada sanoat, qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik sohalaridagi mavjud texnologiyalarning eskirgani (50% gacha) va transport xizmati borasidagi eskirish (46% gacha) ancha achinarli holatni keltirib chiqargan. Bu yerda texnologiyalardan foydalanish muddati o'rtacha 17 yil (AQShda 6-8 yil) ni tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarilgan mahsulotning raqobatbardosh bo'lishida salbiy ta'sir ko'rsatmokban. Chet el mahsulotlari bilan solishtirganda ularning sifatligi 30% gacha kam tarzda qabul qilinmoqda.

Qishloq xo'jaligida investitsiya kiritilishi yildan-yilga qisqarib bordi, ammo uning oldini olishning iloji topilmayapti. Masalan, 1992 yildan buyon sohaga



mablag' va kapital kiritish hajmi yiliga 16% dan 60% gacha kamayib bordi. Oqibatda Rossiya iste'mol uchun oziq-ovqat mahsulotlarining 60% ini import qilishga majbur bo'ldi. Umuman olganda, Rossiyada qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish 1990 yilda 35 % ga kamaydi. Jumladan, g'alla-46% ga, qand lavlagi-40% ga, go'sht va go'sht mahsulotlari 40% ga, sut mahsulotlari-30% ga qisqardi. Mamlakatda qoramollar soni esa 31 % ga, cho'chqachilik-40%ga, qo'y va echkichilik – 39% ga kamayib ketdi. Buning barchasi Rossiya iqtisodiyotini xavfli holatga keltirdi. Shu bilan birga, Rossiya qishloq xo'jaligi mahsulotlarining nobudgarchilikka yo'l qo'yilishi ham mamlakatga katta talofat yetkazdirdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining nobudgarchilik darajasi rivojlangan mamlakatlarnikiga nisbatan 10-20 martaga ortig'icha kuzatildi.

Sanoati rivojlangan ko'pgina mamlakatlar qishloq xo'jaligini albatta moliyaviy mablag' bilan ta'min etadilar. Rossiyada esa bu sohani moliyalashtirish darajasi 9% ni tashkil etadi, xolos. Vaholanki bu holat Shvesariyada -52, Yaponiyada -74, Avstriyada esa -44 % ko'rsatkichga ega. Qishloq xo'jaligida yaratilgan dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, xo'jalik yuritishning bir turidan ikkinchi turiga o'tib turish sohada o'zgarishini ta'minlaydi. Rossiyada esa yer munosabatlariga ko'p yillardan buyon e'tibor berilmayotir. Bugun esa mamlakat oldida qishloq xo'jaligida yuzaga kelgan ko'pchilik tanazzulni yengib o'tish, yerga egasizlik siyosatiga barham berish, sohadagi mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish va qishloq xo'jaligida keng ko'lamli islohatni amalga oshirish vazifasi turibdi.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rinni egallovchi masalalardan biri – bu ishchi kuchidir. Rossiya esa dunyoda keksa fuqarolari soni ko'payotgan birinchi davlatdir. Ma'lumotlarga qaraganda, Rossiyadagi 146 mln. aholining 40 mln. i nafaqaxo'rlar hisoblanadi. Mamlakat YAIM aholi jon boshiga yillik daromad 1,5 ming AQSH dollari, o'rtacha yosh esa bu yerda 66 yoshni tashkil etadi. Savodxonlik darajasi 99% ni tashkil etib, oliy o'quv yurtiga kiruvchilar yoshlarning 77 % ni tashkil qiladi. Rossiyada ta'limni rivojlantirish uchun YAIMdan 3,5 % mablag' ajratiladi.

Hozirda davlat hukumati asosiy e'tiborini ijtimoiy (uy-joy, ta'lim, nafaqa, ish haqi, meditsina, demografiya kabi) siyosatga qaratgan. Onalik va bolalikni asrash hatto iqtisodiy muammolarga ham daxl qilmokda. Aynan shu borada davlat alohida dastur ishlab chiqqan. Negaki mamlakatda o'lish ko'p, tug'ilish kam. Agar bugunda buning oldi olinmas ekan 2050 yilga borib, mamlakat aholisi umumiy soni 100 mln. nafarga tushib qolish ehtimoli bor. Bu -17 mln. kvadrat kilometr hududdagi juda katta aholi soni yo'qoldi degandir. Ekspertlar ma'lumot berishicha, Rossiya hududida 300 mln. dan ortiq aholi yashashi va yaxshi turmush kechirishi mumkin ekan.

### 3.5. Rossiyadagi asosiy iqtisodiy islohatlar yo'nalishlari

Ma'lumki, Rossiya bozor iqtisodiyotiga 1990 yillar boshidan o'ta boshlagandi. Mamlakatda pala-partish holatda bozor munosabatlariga o'tilishi

mayda korxonalarni, zamonaviylashmagan ishlab chiqarish tizimini, tashqi iqtisodiy aloqalarda tartibsizlik va korxonalarni xususiylashtirishda qiymat va baholash borasidagi mutanosibliklarni keltirib chiqardi. Bu esa mamlakatni ancha obro'sizlantirdi. Endi Rossiya hukumati oldida bu muammoni hal etish uchun ikkita yo'l mavjud edi. Birinchidan, iqtisodiy ahvolni to'la o'zgartirish uchun aksariyat korxonalarni ishlab chiqarilgan qat'iy tartiblar ostida xususiylashtirish. Ikkinchidan, bozorni rivojlantirish uchun davlat nazoratini, rolini o'rnatish.

Davlat byudjeti amalda iqtisodiy siyosatga qaratilgan bo'ladi. Aksariyat mamlakatlarda davlat byudjeti shitob bilan o'smoqda. Dunyo tajribasidan ma'lumki, agarda mamlakatda iqtisodiy tahchilik sezilsa, davlat ushbu byudjet hisobidan aholi turmush tarzini ma'lum muddatlargacha barqaror ushlab turadi. Rossiyada esa ko'pdan buyon davlat byudjetida taqchilik sezilib qoldi va hozirgi kunda u ijobiy holga kelmoqda.

Yangi soliqlar tizimiga o'tish, korxonalar foydasi va fuqarolardan undiriladigan soliqlar darajasini oshirish byudjetni muntazam ta'minlaydi. Shu jihatdan Rossiyada soliqlar tizimi uch xil – federal, oblastlar va mahalliy. Yaqinda isloh etilgan bu soliqlar tizimi Rossiya byudjetining to'lishga ko'mak bera boshladi.

Pul-kredit siyosati-davlatni moliyaviy tartibga solishning g'oyat muhim usullaridan biridir. U pirovordida jamiyatda makroiqtisodiy barqarorlikka erishishga qaratilgan. Rossiyada pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi muassasa Markaziy Bank (MB) hisoblanadi. U bu siyosatni uch xil vosita orqali boshqaradi: mavjud pul zahirasi, MB ning stavkalaridagi foiz darajasi, tijorat banklari moliyalashtirayotgan mablag'larni boshqarish.

Davlat qurilishi tofoautlari nuqtai nazaridan hozirda rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy munosabatlarni boshqarish vazirlik va idoralarga yuklatilgan. Chet el tajribasining ko'rsatilishicha, bu borada boshqaruv 12-15 ta vazirlikdan oshmasligi kerak. Rossiyada esa buning aksi, bu yurtda davlat boshqaruvi -24 ta federal vazirlik, 18 ta davlat ko'mitasi, 17 ta federal xizmat, 5 ta federal agentlik, 3 ta federal komissiya va 1 ta boshqarma faoliyat yuritib keladi. So'nggi yillarda boshqaruv tizimida ham juda katta qisqarish ro'y berdi va u ijobiy tomoniga o'zgardi.

Rossiyada davlat boshqaruvida ma'muriy islohatlarni amalga oshirish uchun bugun zamin yetarli. Buning uchun birinchi navbatda iqtisodiy taraqqiyotda davlat aralashuvini kamaytirish lozim. Bunga erishish uchun esa zarur qonunchilik bazalari ishlab chiqish, korrupsiyaga qarshi kurashish, barqaror raqobat muhitini shakllantirish, xususiy tadbirkorlikka keng yo'l berish va sanoatlashtirish faoliyatida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasini hal etish talab etiladi.

Sir emaski, sanoat mahsulotlari rivojlanishi iqtisodiyotning yuksalish omili sanaladi. Rossiyada bu borada ichki talab haligacha past ko'rsatkichda qolmokda. Davlat iste'moli uchun real daromadlar va investitsiyadagi asosiy kapitallar o'sishi ham sezilarli darajaga ko'tarilmagan.

Har qanday iqtisodiyotning rivojlanishida iste'mol darajasi muhim rol o'ynaydi. Rossiyada esa aholi har qanday mahsulotga nisbatan kuchli ehtiyoj

sezmaydi. Mahsulot ishlab chiqarishni harakatga keltiruvchi kuch-bu asosan investitsiya sanaladi. Investitsiyani mamlakatga kiritish tizimini muqarar yaratgan, ya'ni o'rta va uzoq muddatga sarmoya kiritilishiga erishgan davlatlar yuksalganini jahon tajribasi ko'rsatib turibdi. Biroq, Rossiyada xorijliklar uchun sarmoyani joylashtirishga ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy sharoitlar talab darajasida yaratilgan. Ayniksa bu holat 1998 yilgacha juda xunuk manzara kasb etardi. Ammo, 2000 yilga kelib mamlakatga investitsiya kiritish dinamikasi eng yuqori cho'qqiga chiqdi, natijada sanoat ishlab chiqarish salmog'i 108,1 % ga o'sdi. Keyingi paytlarda yana sarmoya jalb etish borasida qator muammolar ko'ndalang turibdi. Davlat hukumati hozirda bu to'siqlarni bartaraf etish yo'larini qidirmoqda.

#### 4.5. Rossiyaning tashqi savdo aloqalari

Rossiya iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy aloqalari muhim rol o'ynaydi. Mamlakat YAIMida eksport masshtabi 38 % ni, import esa 16 % ni tashkil etadi. Eksport qilinadigan mahsulotlar ichida mineral o'g'itlar yetakchi sanaladi, ya'ni 75 %, qazib olingan neftning esa yarmi, neft mahsulotlari, gaz, sanoatbop yog'ochlar va sellyuloza eksporti esa 30 % ni tashkil etadi.

Import ulushida esa go'shtga bo'lgan talab 20 % ga oshgan bo'lsa, o'simlik yog'i, sut mahsulotlari, shakar va sabzavotlarga talab 10% ga ko'paygan. Tashqi savdo vositalaridan keladigan tushum (tariflar, NDS, aksiz) taxminan 30% atrofida.

Tovar ayirboshlash borasida Rossiya dunyoda jiddiy o'rinni egallaydi. Bu jihatdan AQShga dunyo tovarlari eksporti hajmi 12,2 % ga, Germaniyaga-9,7, Yaponiyaga-7,3, Fransiyaga -5,5, Buyuk Britaniyaga -4,8% ga va Rossiyaga esa atigi 1,2 % ga teng (19-o'rin). Dunyo tovarlari importi hajmi esa AQShga -18%, Germaniyaga - 7,8 %, Fransiyaga-5,3 %, Buyuk Britaniyaga -5,2 %, Yaponiyaga-4,7 %, Rossiyaga esa 0,5 % kiritiladi (27-o'rin).

Rossiya uchun saldo savdo balanslari ijobiy ekani alohida harakterga ega. Bu tovar xom-ashyo bozoridagi yaxshi aloqallar samarasidir. Masalan, mamlakat uzoq davlatlarga neft, tabiiy gaz, mineral o'g'it, yog'och materiallari, simob, alyuminiy xomashyolari yetkazib beradi. Ammo, bunday tovarlar eksporti tizimi nomuvofiqlik holatida qolmoqda.

Rossiya eksporti hajmida issiqlik-energetika resurslari, metallar va ulardan tayyorlangan mollar 65%ni tashkil etadi. Mashinasozlik mahsulotlari ulushi esa 11% dan oshmayotir. Bular garchi pul tushumi borasida mamlakat byudjetini to'ldirish imkoniyatini yaratayotgan bo'lsada, u milliy boyliklarni qayta ishlanmay, arzon narxlarda ketishi jihatidan xavf tug'dirmoqda. Bular dunyo mamlakatlari bilan sog'lom raqobatni yuzaga keltirmaydi, faqat xomashyoga ixtisoslashgan Markaziy va Sharqiy bozorlarida Rossiya Ukraina va Belorussiya bilangina raqobatga kelishlari mumkin.

Rossiya savdo munosabatlari yo'lida rivojlangan mamlakatlar bilan bir necha yo'nalishlarda faoliyat olib bormoqda. Bularning asosiylari Yevropa mintaqasidir. Rossiya bilan rivojlangan Yevropa mamlakatlari o'rtasida to'rt

xildagi yo'l bilan savdo aloqalari o'rnatilgan. Bular: Yevropa ittifoqi, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari, Boltiqbo'yi mamlakatlari hamda Bolqan mintaqasidagi davlatlardir.

Yevropa Ittifoqi (YEI) bilan aloqalar Rossiya uchun tashqi savdo va tashqi iqtisodiy aloqalarda istiqbolli yo'l sanaladi. YEI Rossiyani yirik savdo sherigi deb biladi (bu yerda jami tovar aylanmasining 3 dan 1 qismi Rossiya eksporti ulushiga to'g'ri keladi). YEI mamlakatlari firmalari Rossiya iqtisodiyotining yirik investorlari hisoblanishadi.

Rossiyaning tashqi savdo aylanmasi Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari iqtisodiy hamjamiyati (ATES) dagi ulushi 17% ni, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi ulushi esa 13 % ni tashkil etadi.

Mamlakatning eng nufuzli savdo sheriklari Germaniya, Italiya, Xitoy, Niderlandiya, Shvesariya, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Polsha, AQSH va Yaponiya hisoblanadi. Bu mamlakatlarda Rossiyaning tashqi savdo ulushi 60% ga tengdir.

Germaniya Rossiyaning asosiy savdo sherigi sanaladi. Hududi yaqinligi va ulgurji narxlari pastligi bois bu rivojlangan davlat Rossiya bilan yuqori sifatga ega avtomobillar, maishiy elektronika, kosmetika, parfumeriya, mebel, kiyim-kechak, poyafzal, tibbiy mahsulotlar, oziq-ovqatlar bo'yicha o'zaro yaqin aloqalar qiladi.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari geosiyosiy muhit va hududiy yaqinlik jihatidan Rossiya tashqi savdosida alohida o'rin tutadi. Sharkiy Yevropa davlatlari 1990 yillar boshida Rossiya bilan savdo aloqalarini ancha qisqartirgan edi, ammo 1995 yildan boshlab bu mamlakatlar o'rtasida savdo munosabatlari keskin rivojlandi. Rossiya u tomonga energiya resurslari (neft, tabiiy gaz) eksport qilgan bo'lsa, importga oziq-ovqatlar, kimyoviy mahsulotlar, mashina-texnologiya mahsulotlari harid qiladi.

Polsha ham Rossiya uchun yirik savdo sherigi sanaladi. Rossiya eksporti tizimida Polshaga asosan xomashyolar sotilayotgan bo'lsa, Polshadan esa oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari (salkam 40%), dori-darmonlar, kosmetika va xalq iste'moli mollari, mashina va texnologiya, qurilish materiallari import qilinmoqda.

Baltikbuyi mamlakatlari va Bolqon mintaqasi bilan Rossiyaning savdo munosabatlari yangi iqtisodiy xususiyat kasb etadi. Shuningdek, Rossiya tashqi savdosi uchun AQSH va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari Yevropa davlatlaridan tashqari asosiy savdo sheriklariga aylanmoqda.

Rossiyaning MDH mamlakatlari bilan hamkorligi. Mustakil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ning integratsiyalashuv jarayonlari taraqqiyoti nafakat Rossiyaning, balki barcha unga a'zo mamlakatlarning ichki siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, MDH tarkibiga 12 ta mamlakat kiradi. Ularning o'zaro munosabatlari tenglik asosida shakllantirilgan va davlat ham, g'ayridavlat tuzilma ham bo'lmagan hamdo'stlik a'zolari o'rtasida bitimlar bilan belgilangan tartibda ish olib boradigan muvofiqlashtiruvchi muassasalar orqali teng huquqlik prinsipi asosida amalga oshiriladi. Hamdo'stlik mamlakatlari o'rtasida ikkitomonlama iqtisodiy munosabatlar, davlatlar o'rtasida alohida tashkilotlar (ittifoqlar,

sharikchilik, alyanslar) tuzilgan. Masalan, Belorussiya va Rossiya itifoqi, Rossiya, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va O'zbekiston, Xitoy o'rtasida YevroOsiyo iqtisodiy tashkiloti. Bugungi kunda Rossiyaning jami tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlari ulushi salkam 1/4 qismi tashkil etadi.

Rossiya savdo faoliyati uchun eng yaqin sharikchilik qilayotgan mamlakatlar Ukraina, Belorussiya, Qozog'iston va O'zbekiston hisoblanadi.

#### Nazorat savollari:

1. Dunyo xo'jaligida Rossiyaning o'rni va rolini ko'rsatib o'ting.
2. Rossiyaning mavjud tabiiy-xom ashyo resurslari va mahsulot tayyorlashga doir imkoniyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib bering.
3. Iqtisodiy islohatlar o'tkazilishida Rossiyada kechgan oxirgi yillardagi o'ziga xos xususiyat va yo'nalishlarni ayting.
4. Rossiya iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy aloqalarning roli va mohiyatini qanday baholaysiz?
5. Rossiyaning uzoq xorij mamlakatlaridagi savdo sheriklarini sanab o'ting.
6. Rossiya Federatsiyasi tashqi iqtisodiy aloqalarida yaqin xorij mamlakatlarining o'ziga xos xususiyatlarini baholang.

## XV Bob. XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI

### 1.§. Xalqaro valyuta tizimining tuzilishi va mazmun mohiyati.

XX asrning o'rtalarida xalqaro iqtisodiy, moliyaviy va valyuta munosabatlari taraqqiyotni haraktga keltiruvchi yangi kuchga aylandi. Umumiy bozor va ochiq iqtisodiyot yo'nalishiga keng yo'l ochish uchun savdo ayirboshlashni jadallashtirish, xalqaro moliyaviy tizimni rivojlantirish, yangi valyuta bozorlarini tashkil qilish va turli mamlakatlar o'rtasida valyuta-pul munosabatlarini kengaytirish shartlarini amalga oshirish lozimligini ko'rsatdi.

Mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarning turli-tuman shakllarida, ya'ni tovarlar va xizmatlar bilan savdo-sotiq qilish, ssuda sarmoyasi va investitsiyalarning harakati, ishlab chiqarish va fan-texnika borasidagi hamkorlik, ishchi kuchlarining ko'chishi (migratsiyasi) va xalqaro turizm-bularning hammasi valyuta munosabatlarni yuzaga keltiradi.

Valyuta munosabatlari milliy hamda xalqaro darajada amalga oshiriladi. Milliy darajadagi munosabat milliy valyuta tizimi (MVT)ni o'z ichiga qamrab oladi. Milliy valyuta tizimi - milliy valyutani chet el valyutasiga almashtirish shu bilan birga almashtirish bilan bog'liq bo'lmagan, chet el valyutasiga doir boshqa operatsiyalarni tartibga soluvchi qonuniy mustahkamlangan tizim hisoblanadi. MVT ning o'ziga xos xususiyatlari ichki iqtisodiy taraqqiyotga erishish va tashqi iqtisodiy aloqalarda ikki mamlakat munosabatlarini barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy valyuta tizimi qo'yidagi ko'rinishlarda o'z aksini topadi:

- milliy valyuta birligi;
- oltin valyuta rezervlari tuzilmasi;
- milliy valyuta va valyuta kursi mexanizmning tengligi;
- valyutalarni avvalgi holatiga qaytarishga sharoit yaratish;
- naqd va po'l o'tkazish yo'li bilan valyutaga nisbatan muammolarni cheklash;
- mamlakatlar o'rtasida tashqi iqtisodiy hisob-kitoblarda tartibni saqlash va boshqalar.

Moliyaviy aloqalarda milliy valyuta tizimi valyuta kurslari va ularning tengligi bilan namoyon bo'ladi. Valyuta kursi – bir mamlakatning boshqa mamlakat pul birliklarida ifolangan pul birligi narxi.

Paritet-bu valyuta kursining asosi hisoblangan nisbat. U valyutaning oltin rezervlari tuzilmasining asosini ham belgilaydi.

### 2.§. Xalqaro valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari

Xalqaro valyuta tizimi (XVT) xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilishga doir davlatlararo tuzilgan tashkilotdir. U mamlakatlararo barcha tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi jarayonida shakllanadi.

Xalqaro valyuta tizimining asosiy elementlari quyidagilardir:

- milliy va jamoa valyuta rezervlari birligi;
- xalqaro likvidli aktivlarning tuzilmasi va xususiyati.
- valyuta tengligi va kursi mexanizmi;
- valyutaning dastlabki holatiga qaytarishga sharoit yaratish;
- xalqaro hisob-kitob qilish shakli;
- xalqaro valyuta bozori va xalqaro oltin bozori rejimi;
- Xalqaro valyuta fondi (XVF) va xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) singari moliyaviy tashkilotlarda valyuta – pul munosabatlarini boshqarish.

Xalqaro valyuta tizimining asosiy ishi xalqaro hisob-kitob va valyuta bozorida iqtisodiy o'suvchi omillarini doim barqaror ushlab turish uchun inflyatsiya yuz bermasligi, tashqi iqtisodiy almashinuv va pul muammolarini doim tartibga solishni boshqarishdan iborat. XVT savdo borasida imkoniyatlarni kengaytirish va aksincha xalqaro iqtisodiy munosabatlarni cheklash mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro valyuta tizimi o'suvchi va rivojlanuvchi tarmoq. U doim almashib va o'zgarib turadi. XVT evolyutsiyasi ko'proq g'arb mamlakatlari iqtisodiyotida yuz berganki, okibat natijada dunyo xo'jaligi pul munosabatlariga bu hol o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xalqaro valyuta tizimi o'z taraqqiyotida to'rt bosqichdagi tarixiy yo'lni bosib o'tgan.

Birinchi bosqich oltin andoza tizimi bo'lib, u XIX asr oxirlarida amalda bo'lgan. Bu davrda mamlakatlar o'z ichki bozorlarida savdo sotiqni oltinlar orqali erkin yuritishgan. Oltin andoza tizimining asosiy alomatlari quyidagilar deb belgilanadi:

- oltin orqali valyuta birligini taqsimlash;
- har qanday pulni oltinga almashtirish va boshqa davlat chegarasida ham bu ishni bajarish;
- oltin muomilasi orqali o'z millati qadrini oshirish;

Oltin andoza tizimi xalqaro hisob-kitob mexanizmidagi mustahkam kurs joriy qildi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Chunki, oltinning qadri hech qachon tushmaydi. Eng e'tiborlisi aynan moliya, savdo munosabatlarida joriy etilgan bu tizim kapitalizm rivojlanishiga asosiy sabablardan bo'ldi.

Kapitalistik ish yuritish uchun qo'layligi-oltin andoza valyuta kurslarining ma'lum darajada barqarorligiga va uni oldindan bilib turish mumkinligiga ko'maklashdi, bu esa xalqaro savdo rivojida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, oltin andoza mexanizmi fakat qisqa muddatda vujudga kelishi mumkin bo'lgan to'lov balansi taqchilliklari va aktivlarini o'z-o'zidan to'g'rilanishga yordam berdi. Bu holatlar kapitalizm rivojida erkin raqobatni yuzaga keltirdi va ular oltin orqali har qanday valyuta kursi tizimini boshqarilgan bo'ladi.

Ikkinchi bosqich-oltin deviz andoza tizimi bo'lib, u Genuya (Italiya) konferensiyasi qaroridan so'ng tashkil etildi. Unga ko'ra mavjud banknotlar endi oltinga emas, balki devizlar (ya'ni, veksellik, chek, banknotlar)ga almashtiriladigan, ular esa kelishuvga ko'ra oltin tengligida qabul qilinadigan bo'ldi. Asta-sekin bu butun jahon bozorida dollar va funt sterlingni moliyaviy muomila sifatida yuzaga

kelishini ta'minladi. Umuman olganda, oltin deviz andoza davrida chek va veksellar tufayli tovar aylanmalari barqaror harakatda bo'ldi.

Uchinchi bosqich oltin valyuta andoza tizimi bo'lib, u 1930-yillardan to 50-yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Endi bu davrga kelib qog'oz pullar oltinga aylantiriladigan bo'ldi. Valyuta kurslarining huquqiy erkin tizimi esa 1944 yilda Bretton – Vuds (AQSH) xalqaro konferensiyasida belgilanadi. Uning asosiy e'tiborli tomoni qo'yida valyuta yuritish tartiblarida aks etdi:

- mamlakatlar o'rtasida pullik hisob-kitoblar oltin orqali bajarilishi saqlanib qoldi;
- turli mamlakatlar valyuta vositalarida Amerika dollari oltin o'rnini egallaydi;
- 1 troy unsiya (31,1 gr) oltin Markaziy bank orqali 1944 yilda belgilangan AQSH dollari kursi bo'yicha 35 dollarga almashtiriladigan bo'ldi. Bu pul oltin almashtirish operatsiyalarini davlat organi yoki har qanday fuqaro bajarishi mumkinligi belgilandi. Faktagina bu holat 1988 yildagina barham topdi;
- har bir mamlakat o'z puli qadrini boshqa valyutalar muomilada barqaror ushlashi shartligi belgilandi. Bozor kurslarida valyuta, oltin va dollar tengligidan na u, na bu tomonga 1 % ham o'zgarmasligi qat'iy joriy qilindi. Borib-borib dollar pul-tovar munosabatlarida o'z mavqiyega ega bo'ldi;
- davlatlararo valyuta munosabatlarining boshqaruvi Bretton Vuds konferensiyasida tashkil etilgan. Xalqaro valyuta fondi (XVF) orqali amalga oshiriladi. U valyutalarni erkin almashtiruvchi mamlakatlarni o'z a'zoliciga oladi va valyutaga bo'lgan mamlakat talabini qondirishga xizmat qiladi;
- Bretton-Vuds kelishuvi o'zida Xalqaro valyuta tizimi (XVT) taraqqiyotini nomoyon etadigan bo'ldi;
- Xalqaro valyuta tizimi hukumatlararo bitimlar tuzilishiga asoslardan biri bo'ldi;
- oltin va dollar munosabatiga yakun yasab, Bretton-Vuds tizimi xalqaro savdo oboroti va rivojlanayotgan mamlakatlar sanoati hamda mahsulotlari o'sishida asosiy rol o'ynaydi.

XX asrning 60-yillar oxiriga kelib tovar oboroti va sarmoya ko'chishi ehtiyojlarining AQSH valyutasiga talabni tobora ko'paytirilganligi Bretton-Vuds tizimi tangligi va tanazulligiga olib keldi. G'arbiy Yevropa va Yaponiyada taraqqiyot yuksalgani ham bu tizimning yemirilishiga sabab bo'ldi. Bu omillar oltin andozasi qoldiklariga hamda qat'iy o'rnatilgan kurslar tizimiga so'nggi zarba bo'ldi. Bretton-Vuds tizimi 70-yillar boshiga kelib rasman to'xtadi. AQSH dollarni oltinga almashtirishda belgilangan narxdan voz kechdi. Natijada jahon bozorida oltinning qadri tezda yuksaldi.

1976 yilda XVFning Kingston (Yamayka) da bo'lgan yig'ilishi yangi dunyo valyuta tizimini vujudga keltirdi. Ushbu tadbirdan keyin xalqaro valyuta mexanizmlarini joriy etish quyidagi shakllarda o'z ifodasini topdi:



- oltin nisbatan erkin mahsulot deya qaraldi. Uni xohlagan mamlakat valyutaga almashtirishi mumkin. Oltinning bahosi narxlar sifatini belgilashda foydalanishi mumkinligi ham qabul qilindi.
- maxsus o'zlashtirish huquqi (SDR) andozasi iqtisodiy jarayonlar, aniqrog'i valyuta munosabatlariga joriy etildi. Bundan ko'zlangan maqsad avuar va valyutalar rezervini qisqartirish bo'ldi;
- mamlakatlar o'z valyutalarini xohlagan boshqa valyutalarga almashtirishi erkinlashdi. Bugungi iqtisodiyotda boshqariladigan valyuta kurslari deb atash mumkin bo'lgan har xil valyuta tizimlari mavjud. Bir tomondan to'lov balansining musbat yoki manfiy saldosi tarzidagi turg'un nomutanosibliigi vujudga kelmasligi uchun valyuta kurslari suzish imkoniga ega bo'lishi lozim deb hisoblandi.

O'tgan asrning 90-yillar boshida xalqaro valyuta tizimi tashkiliy tuzilmasida suzuvchi valyuta kurslari murakkab vaziyatni yuzaga keltirdi.

Birinchidan-alohida milliy valyutalarning pul almashtirishdan bahosini yuqori darajaga ko'tarish hissi kuchaydi.

Ikkinchidan valyuta tebranishlarining keng ko'lamda yoyilishi oqibatida xalqaro savdoda nomutanosibona valyuta kurslari tizimi bo'yicha alohida muammoni keltirib chiqardi.

Shulardan kelib chiqib, 1988 yildayok 58 ta mamlakat o'z pullarini sherikchilik asosida bir xil valyuta shakliga o'tishi bo'yicha shartnoma imzolashdi. Unga ko'ra, 39 ta mamlakat – AQSH dollari, 14 ta mamlakat Fransiya franki, 5 ta mamlakat esa boshqa valyuta rejimiga birlashishdi. Ko'pgina mamlakatlar o'z valyutalarini boshqa valyuta qarzina (savat) lariga, 4 ta mamlakat esa faqat chegaralarda valyutalari birligiga kelishib olishdi. O'z navbatida 8 mamlakat Yevropa Ittifoqini tashkil etishdi. Unga ko'ra o'z valyutalari qadrini barqarorlashtirish va valyuta mexanizmlari borasida hamkorlik yuzaga keltirildi. 19 ta mamlakat esa «suzuvchi» valyuta rejimli yo'ldan ketdi, ya'ni bular, AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya va Yaponiyadir.

Yamayka kelishuvi «maxsus o'zlashtirish huquqi» (SDR) deb ataluvchi jamoaviy valyuta birligiga asos soldi. Aslida SDR 1969 yilda oddiy kredit vositasi sifatida tashkil etilgandi. Ammo kiyinchalik uning zimmasiga «Xalqaro valyuta tizimi aktivlarining asosiy rezervi» sifatida oltin va dollarning muqobilligini ta'minlashdek vazifa qo'yildi. 1970-yillar boshida siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar tufayli SDR jadallashdi. Dollar qadri tushib, oltinning narxi oshdi. 1974 yilga kelib esa «suzuvchi» valyuta kurslari mavqei oshib, endi oltin ular bilan tenglashdi. Natijada 16 ta mamlakatning valyuta qiymati bir xil bo'ldi, ularning tashqi savdodagi tutgan o'rni mustahkamlandi. 1981 yildan 5 ta valyuta (AQSH dollari, nemis markasi, yapon iyenasi, fransuz franki va ingliz funt-sterlingi) mustaqil «suzuvchi» valyuta hisoblandi.

Belgilangan almashtirish kurslari tizimi amaldagi valyutaning chet el valyutasi savatiga (korzina) nisbatan qat'iy kurs belgilash qoidasini ko'zda tutadi. Valyuta savati hisobi uning tuzilmasi valyuta tarkibiy qismi o'lchovi hamda valyutaning dollarga nisbatan bozordagi kursi bilan o'lchanadi.

Maxsus o'zlashtirish huquqi (SDR) foizlar keltiradi. Agar mamlakatning biror maqsad uchun ajratilgan pul mablag'lari SDRdan yuqori bo'lsa va aksincha past bo'lsa ham bu foizi olinadi. Demak, SDR nisbiy bo'lmasligi lozim. U XVFDa unga a'zo mamlakatlar uchun kvota vazifasini bajaradi.

Bu kvotalar esa o'z navbatida ular pulni konvertatsiya (almashish) qilish harajatlari yoki pul balanslaridagi qarzlarini uzishlari uchun ajratiladi. Hozirda uning bu ulushi sanoati rivojlangan mamlakatlar dunyo valyuta rezervida salkam 6 % ni tashkil etadi.

Ko'pgina iqtisodchilarning fikricha, bu SDR foiz keltirish bilan birga, barcha ayrim mamlakatlar uchun kam foizli kredit vazifasini ham o'taydi.

Valyuta soveti (ittifoki) tarzida e'tirof etiladigan yana bir jamoaviy valyuta rezervi mavjud. U –EKYudir. EKYU Yevropadagi 12 ta mamlakat valyutasidan tashkil topgan. Muhimi, bu mamlakatlarning aksariyati Yevropa ittifoqi (YEI) ga a'zo davlatlardir. Valyuta savatidan unga a'zo barcha mamlakatlar Yevropa Ittifoqi hududida milliy mahsulotlarni ko'paytirish va Ittifoq ichida eksport qilish uchun teng huquq bilan foydalanib kelingan. 1 EKYU 1,3 dollarga tenglashgan. EKYU oltin va dollar almashinuvida ham yuqori qiymati ega bo'lgan.

EKYuning tashkil etilishi YEIga a'zo davlatlarning valyuta kurslari barqarorligini ta'minladi. Bir paytlar oltin almashtirishda yagona valyuta birligi hisoblangan AQSH dollaridan ham qadri bo'la boshladi. Endi unga oltin almashtiradigan davlatlar ham paydo bo'ldi.

Bu yerda boshqa bir sabablar yuzaga keldi. Bundan keyin EKYU Yevropa valyuta tizimini AQSH dollari «mustamlakasidan ozod» qilishi kerak edi. Hamda keng faoliyat turiga tarqalishi ko'zda tutilgan. Shu bois EKYU nafaqat alohida valyuta operatsiyalari uchun balki, xususiyl sektorida ham muomilaga keng tadbiiq etildi. Natijada tezda valyuta birligi sifatida qo'shma jamg'armalar va xalqaro valyuta – kreditli moliya tashkilotlarida, shuningdek, markaziy banklarda ham davlatlararo hisob-kitob vositasiga aylandi.

Tijoratdagi EKYU yevro valyuta sifatida zayom obligatsiyalari, bank depozitlari va kreditlar vazifasini o'tay boshladi. 500 dan ziyod yirik xalqaro tashkilotlarda EKYU kredit oldi-berdisida muomilada bo'ldi. 1970-yillar o'rtalarida yagona valyuta ittifokini tashkil etish uchun faollik yo'li izlangandi. Yevropaning ilg'or davlatlari nafaqat valyuta birligini, balki muqobil tarzda AQSH dollarini ham faollashtirishga intilgandi. Faqat bu valyutaning integratsiyalashuvdagi va muomiladagi nazoratini shu ilg'or davlatlar o'z qo'llarida saqlashni istashgandi.

Jahon savdosida bunday murakkab vaziyatlar paydo bo'lishi 1979 yil martida Yevropa valyuta tizimi (YEVT) ning tarkib topishiga olib keldi. YEVT – bu xalqaro (hududiy) valyuta tizimi bo'lib, uni tashkil etishdan asosiy maqsad- almashtirish kurslarining o'zaro tebranishlari ko'lamini cheklashdan iborat edi. YEVT – jahon valyuta tizimida bundan buyon asosiy rol o'ynovchi tarkibiy qism bo'lib qoldi.

1972 yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YEIH) u yoki bu darajada belgilangan valyuta «suzishi» yoki boshqariluvchi valyuta kursi tartibini qisqartirish taraddudiga tushdi. Markaziy banklar orqali endi hamjamiyatning o'z

a'zolariga tegishli valyutalar bozorlarda muomilada bo'lishi shart edi. Bunday maqsad oqibatida «Yevropa valyuta iloni» paydo bo'ldi. Shundan keyin YEIHga a'zo mamlakatlar valyuta kursi har yili 1,13 % dan 4% gacha o'sa boshladi. «Ilon» grafik tasviri YEIHga a'zo 6 ta mamlakatda (GFR, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Belgiya, Lyuksemburg) ayniqsa o'z kuchini ko'rsatdi.

«Valyuta iloni» 1979 yilda V.Jikard Eston va G. Shmidtlar tashabbusi bilan Yevropa valyuta tizimi tashkil etilishi bilan yakun topdi. YEVT quyidagi uchta asosiy elementni o'z ichiga qamrab oladi:

- EKYU – Yevropa valyuta tizimining asosiy valyuta birligi;
- valyuta kursi mexanizmi sifatida boshqa hududlarni ham egallash. Yevropa valyuta tizimida qator markaziy banklarda kredit davlatlararo hududiy valyuta boshqaruvchiligi yo'lidan borish.

Barqaror valyuta kurslari uchun kreditlash mexanizmi. Bugun Yevropa valyuta tizimi oldida quyidagi vazifalarni amalga oshirish turibdi:

- Yevropa ittifoqi ichkarisida valyuta barqarorligini yuqori darajada ushlab turish;
- barqarorlik shart-sharoitlarida strategiya o'sishning asosiy elementi sifatida turish;
- iqtisodiy taraqqiyot jarayonida aloqaladorlikni kuchaytirish va Yevropa rivojiga yangi turtki qo'shish;
- xalqaro iqtisodiy va valyuta munosabatlarida barqarorlik ta'sirini kuchaytirish.

Yevropa valyuta tizimi mexanizmining amalga oshirilishi joriy etilgan EKYU va uning barqaror narxi, ammmo, YEIga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi valyuta kurslarining boshqariluviga qaratilgan. Shu jihatdan YEVT valyuta rezervlarini umumiy ixtiyorlikka imkon beradi. Tizimning tashkil etilishi YEIda ichki kreditning ta'minlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yevropa valyuta tizimi taraqqiyoti va harakati jarayonida «Delor plani» alohida e'tiborga ega. 1989 yil J.Delor ya'ni, YEI ning atoqli arbobi Yevropa qo'shma valyuta rejasini amalga oshirishida uchta muhim shartning bajarilishini maqsad qilib qo'ydi. Ular quyidagilardan iborat:

- EI mamlakatlarida muvofiqlashgan, iqtisodiyot va valyuta siyosatini amalga oshirish;
- EI markaziy bankini ta'sis etish;
- milliy valyutani yagona YEI valyutasiga almashtirish.

1990 yilda Yevropa valyuta tizimi Angliya, Ispaniya, Portugaliya qo'shilishi natijasida kengaydi. 1991 yilda yagona Yevropa makonini tashkil etish bo'yicha Maastrixt (Niderlandiya) shartnomasi imzolandi. Bu shartnomani tuzishdan YEI a'zolarining bosh hukumati bitta maqsadni – valyuta ittifoqi tashkil etishni ko'zlaydi.

Umuman G'arbiy Yevropa valyutasi, ya'ni Yevropa valyuta tizimi qariyb 15 yil ushbu mamlakatlar iqtisodiy aloqalarida muvaffaqiyatli faoliyatda bo'ldi. 1992 yil kuziga kelib bu tizim barbod bo'la boshladi. YEVT dan o'sha yilning

sentyabrida ingliz funt-sterlingi chiqib ketdi, ispan pesetasi va portugal eskudosi devalvatsiya (pul birligi kursining keskin pasayishi) ga uchraydi.

1990-yil o'rtalarida YEI'da yagona valyuta ittifoqi tuzishga imkon tug'ilgandek bo'ldi. Tuzilgan Maastrixt shartnomasidagi talablar amalga oshishi, milliy valyuta birliklarining davlatdan-davlatga o'tishi munosabatlariga ko'nikish uchun ma'lum vaqt o'tish albatta zarur edi. Bu jarayon yilning oxiriga kelib, valyuta ittifoqiga shu mahalda kirilishi kerak edi. Ammo, YEI ning rejasi to'liq amalga oshmadi. Valyuta ittifoqining tashkil etilishiga quyidagi uchta bosqichlar sabab bo'ldi.

Birinchi bosqich 1998 yilda boshlandi. Shartnomaga ko'ra ittifoqchilar xo'jjatlardagi mavjud mezonlarga javob beruvchi shart-sharoitlarni yaratishlari lozim edi. Maastrixt shartnomasida bu mezonlar quyidagilarni tashkil etardi: inflyatsiya darajasini barqaror ushlash, davlat byudjetida yetishmovchilikni (3% dan oshmagan holda) yuzaga keltirmaslik. Stavkalar o'lchovi va milliy valyutaning bir xil qadrini saqlash. O'sha paytda bu talablarni bajarishga faqat Germaniya va Lyuksemburg, shuningdek Avstriya va Irlandiya davlatlarigina qodir bo'ldi xolos. 1998 yilning oxiriga kelib Markaziy Yevropa bankini tashkil etishga, markaziy bankning Yevropa tizimi faoliyatini esa shu bank orqali davom ettirishga kirishildi.

Ikkinchi bosqich (1999-2001 y.y.) tashkil etilgan Markaziy Yevropa bankining birinchi qadami valyuta operatsiyalarini yagona valyuta orqali almashtirishni amaliyotga tadbiiq etdi. Moliyaviy tashkilotlar va tijorat banklari ham valyuta bozorlarida almashtirish ishlarini shu shaklga o'tkazishdi.

Ikkinchi qadami esa (2002-2003 y.y.) milliy monet va kupyurlarni yagona YEVIRO (Yevropa) pul birligi belgisida almashtirishdan boshladi. Bu yagona pul birligiga 2002 yil yanvardan kirishildi. Unga a'zo bo'luvchi mamlakatlar huquqlari qayd etib o'tildi. Yagona pul muomalasiga o'tishning birinchi bosqichida 6 oygacha ham milliy valyuta, ham Yevro savdo munosabatlarida ishlatildi. Bu davrdan keyin YEVIRO o'z o'rnini mustahkamlab, Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida to'liq muomilada bo'lishga erishildi.

Uchinchi bosqich. Ilgari bunday shaxsiy tashabbus yuz bermagan bo'lsa, endi Yevropa valyuta iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar banklardagi barcha hisob-raqamlaridagi pullar Yevropa valyutasi (YEVIRO)ga konvertatsiya qilinadigan bo'ldi.

Yevropa valyuta birligi, iqtisodchilar farazicha, dunyoda pul bilan bog'liq yetakchi imkoniyatlarni o'z domiga oladi. U YEI ning barqarorligini ta'minlovchi asosiy manba, shuningdek inflyatsiyaga qarshi kurashni yengillashtiruvchi kuch, hamda jahon bozorida YEI davlatlarining raqobatbardosh mahsulot va xizmatlari bilan AQSH va Yaponiya mahsulotlarini ancha cheklanishini ta'minlashdan iborat edi.

EVIROning paydo bo'lishi qimmatli qog'ozlarning ham qadrini anchayin oshirdi. Hozirgi kunda Yevropa moliya bozorida dunyo investitsiyasi bir-biridan tarqoq bo'lgan holatni yuzaga keltirgan. Bunday vaziyat YEI ning real iqtisodiyoti va moliya qurdratiga soya solmay qolmaydi albatta. Chunki dunyoning nufuzli investorlari barcha mamlakatdagi singari YEI ham birgina valyuta orqali o'z investitsiyalarini kiritish va hisob-kitob qilishni ma'qul ko'rishadi.

EVROning joriy etilishi jahon valyuta bozorida birdan o'z mavqiyeni tiklash lozim edi. Asosiy maqsad bozorda yagona lider bo'lib turgan dollarga teng ravishda raqobatlasha oladigan pul birligini bozorga kiritish va dollarning valyuta bozorida o'rni egallashdir. Ma'lum vaqt o'tib bu amalda o'z isbotini topishi, jahon valyuta bozorida YEVIRO ning qiymati dollardan bir necha hissasigacha ortishi kutilgandi. Endi dunyo bozorida Yevropa valyutasi ham dollar, hammasi bilan raqobatlasha olish quvvatiga ega bo'ldi. Bunday valyuta holati yuzaga kelishidan banklar ham katta manfaat ko'ra boshladi. Ilgari ular investitsiya kiritilishi jarayoni uchun valyutani, masalan dollarni bozordan foizi bilan olishayotgan bo'lishsa, endilikda YEVIRO orqali har qanday investitsion harakat yoki oldi-berdi uchun shu valyutadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Yangi pul birligi joriy etilishi tufayli YEIdagi har bir mamlakat bir yilda 40-50 mlrd. dollar ortiqcha harajatdan qutuldi. Masalan, bir fransuz fuqarosi 10-12 ta G'arbiy Yevropa mamlakatlariga safarga chiqqunday bo'lsa, u sarf etishi lozim bo'lgan 2 ming dollarning teng yarmi pullarni almashtirish harajatlarga sarf etilar edi.

Endi Yevropada yagona pul birligi-EVRO paydo bo'lgani ayrim moliya tashkilotlariga, masalan birja maklerlarining kam foyda ko'rishlariga olib keldi. Chunki dollar va milliy pullar bilan bajariladigan operatsiyalar davomida ular salmoqli iqtisodiy foyda ko'rardilar.

Xullas, uchinchi bosqich amalga oshirilgani tufayli Yevropa valyuta itifoqiga a'zo davlatlarning banklardagi barcha hisob raqamlaridagi pullar Yevropa valyutasi (YEVIRO)ga konvertatsiya qilindi. Yevropa valyuta birligi dunyoda pul bilan bog'liq yetakchi imkoniyatlarni o'z domiga oldi. U YEI mamlakatlari iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlovchi asosiy manba bo'lib qoldi. Shuningdek, pul inflyatsiyasiga qarshi kurashni yengillatuvchi kuch hamda jahon bozorida YEI davlatlarining raqobatbardosh mahsulot va xizmatlari bilan AQSH va Yaponiya mahsulotlarini ancha cheklashini ta'min etdi.

EVRO joriy etilishi bilanoq jahon valyuta bozorida o'z mavqiyega tezda erishdi. Dunyo bozorida yagona lider bo'lib turgan AQSH dollariga teng ravishda raqobatlasha oladigan pulni bozorga kiritdi. Kelajakda hatto dollar o'rni ham egallaydi. Bugungi kunga kelib YEVIRO ning qiymati jahon valyuta bozorida dollardan 1,3 hissasigacha ortdi. Dunyo moliya bozorida esa Yevropa valyutasi ham dollar, ham yapon iyenasi bilan raqobatlasha olish quvvatiga ega bo'ldi.

### 3.5. Xalqaro valyuta va moliya-kredit bozorlari

Xalqaro valyuta va moliya-kredit bozorlari dunyo xo'jaligi hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yigirma yil ichida moliya bozori taraqqiyotida keskin burilish yili bo'ldi. 1980 yillardan buyon yalpi ichki mahsulot (YAIM) tayyorlashga nisbatan moliyaviy aktivlar narxining o'sishi 2,5 barobarga oshdi.

Ob'ektiv munosabatlarga ega moliya bozori taraqqiyoti amaldagi kapitalning oborotini ob'ektiv qonuniyatlarga asosladi. Ayrim joylarda erkin

kapitalga ehtiyojni oshirgan bo'lsa, aksincha boshqa joylarda esa unga nisbatan talab keskin pasaydi. Jahon valyuta, moliya-kredit bozori dunyo xo'jaligida ish yuritish darajasida bunday tafovutlarga yo'l ochdi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar, ya'ni jahon bozori, xizmatlar ko'rsatish, kapitallar harakati jarayonida milliy valyutalarni oldi-sotdi va boshqa valyuta bilan bog'liq munosabatlardagi aloqalarni tenglashtirdi.

Jahon valyuta bozori, krediti va qimmatli qog'ozlar bozorining vujudga kelishidagi dastlabki shartlar quyidagilar edi:

- mahsulot ishlab chiqarilishi uchun zarur kapital va bank ishi bir joyda to'planishi;
- xo'jalik aloqalarida baynalminallikni yuzaga keltirish;
- xalqaro banklar taraqqiyotini telekommunikatsiyalar va axborot vositalari bilan ta'minlash.

Jahon valyuta bozori o'zida nimalarni aks ettiradi? Ya'ni jahon Valyuta bozori-keng ma'noli va murakkab iqtisodiy toifani tashkil qilib, muayyan moliya-valyuta idoralari orqali o'zaro ta'sirida bo'ladigan chet el investorlari bilan oldi-sotdi operatsiyalarini bajaruvchi mulkdor o'rtasida xorij valyutasini ayirboshlovchi munosabatlarni tasvirlaydi. Milliy valyuta bozori bozor iqtisodiyoti rivojlangan barcha mamlakatlarda mavjud. Shu narsa aniqki, rivojlangan milliy valyuta bozorlari dunyoda yagona valyuta bozori bilan aloqalarni albatta mustahkamlaydi va o'z navbatida yagona bozor o'zida xalqaro, hududiy milliy (mahalliy) valyuta bozorlari faoliyatini ham aks ettiradi. Bu bozor endi valyuta operatsiyalari hajmi, xususiyati, soni va qatnashuvchilari bilan alohida ajralib turadi.

Jahon valyuta bozori faoliyatini Jahon moliya markazi (JMM) jamlaydi. JMM-bu kredit-moliya institutlari jamlangan banklar joyi hisoblanadi. Ular xalqaro valyuta, kredit, moliya operatsiyalarini hamda qimmatli qog'ozlar va oltin bo'yicha bitimlar tuzilishini amalga oshiradi. Dunyoda bunday jahon moliya markazlari London, Nyu-York, Frankfurt-na-Mayn, Parij, Syurix va Tokioda o'z faoliyatlarini olib borishayotibdi.

Valyuta bozorlari xalqaro hisob-kitoblar va jahon valyuta bozorida kredit va moliya bozori yordami bilan banklarning valyuta rezervlari, shuningdek davlat va tadbirkorlarning valyutaga talabi qondiriladi. Qo'shimcha tarzda aytish mumkinki, valyuta bozori mexanizmi davlat iqtisodiyoti boshqaruvi uchun ham askotadi, uning birja, brokerlik firmalari, bank korporatsiyalar faoliyatini to'g'ri, mukammal tashkil etilishida ham hissasi anchagina.

Xalqaro moliya-kredit bozori. Xalqaro moliya-kredit munosabatlari jahon kreditlash va moliyalash bozorining imtiyozli kapital bilan ta'minlash munosabatlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Xalqaro kredit bozorida mamlakatlar o'rtasidagi pul harakatlari, qarzni tez qaytarish, uzish va foizlar to'lovini vaqtida to'lash bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro kredit bozori-bu bozorning imtiyozli kapital beruvchi qismi sanaladi. U o'zida quyidagi jihatlarni aks ettiradi:

- Jahon pul bozori. Qisqa muddatli depozit-ssuda operatsiyalarini bir kundan to bir yilgacha kredit shaklida berish;

- Jahon kapital bozori. U chet el kreditlarini va yevrokreditlarni o'rta va uzoq muddatga beradi (1 yildan 15 yilgacha);

Jahon moliya bozori – bu bozor ssuda kapital beruvchi sub'ektlarning bir qismi bo'lib, emissiyaga uchramaydigan va qimmatbaho kog'ozlar oldi-sotdi operatsiyalarini bajarishda tezkor faoliyatiga ega bo'lgan bozorning bir qismi. Bu bozor milliy valyutalarda xalqaro ssuda kapitali operatsiyalarini ham bajaradiki, bu baynalminallik jihatlarini ham rivojlantiradi.

Jahon ssuda kapitali so'nggi o'n yillar ichida keskin rivojlandi. U dunyo xo'jaligida turli kompaniyalar, banklar, valyuta-kredit muassasalarini qisqa muddatli ssuda kapitallari bilan ta'minlab, iqtisodiy harakatni kuchaytirayotir. Aytish mumkinki, so'nggi yuz yillikda dunyo xo'jaligi taraqqiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarish sanoat rivojlanishi va xalqaro savdo faoliyati taraqqiy etgani kabi xalqaro moliya-kredit munosabatlari o'sishiga ham katta raqobat keltirdi.

XX asrning 50-yillar oxiriga kelib xalqaro moliya-kredit bozori taraqqiyoti yevrobozor deb ataluvchi jahon bozoridagi ssuda kapital jamg'armasiga ega moliyaviy tarkibni yuzaga keltirdi va uning faoliyatini avj oldirdi.

Yevrobozor – bu kredit va zayomlarni yevrovalyutalar orkali valyuta-kredit operatsiyalarini amalga oshiruvchi bozor makonidir.

Yevrovalyuta esa bir qator rivojlangan mamlakatlar o'z chegarasidan tashqaridagi muomilada qarz va hisob-kitob harakatlarida, ayniqsa banklararo qarzlilar va transmilliy korporatsiyalarni kreditlashda foydalaniladigan valyuta.

Yevrobozorning hukumatlararo va davlatlararo bozorlarida qatnashishga huquqi yo'q. U bir necha mamlakatlardagi investor va korxonalar uchun ko'proq xizmat qiladi. Yevrobozordagi operatsiyalar davlat valyuta boshqaruvi va soliq qonunchiliklari ta'siriga tushmaydi.

Yevrobozorning faol taraqqiyoti o'tgan asrning 60-70 yillariga to'g'ri keladi desak adashmagan bo'lamiz. Chunki 80-yillar va 90-yillar boshiga kelib u o'z faoliyatini biroz o'zgartirdi. Masalan, 80-yillar boshida qimmatli qog'ozlar bozorida keskin taraqqiyot yuzaga keldi. Natijada yevroobligatsiya, yevroaksiya, yevroveksel va moliyaviy innovatsiyalar salmog'i ortdi.

Yevrobozorning taraqqiy etishi butun jahon ko'lami bo'ylab erkin moliya resurslarini amalga tadbiiq etishga imkoniyat yaratdi. Shuningdek, u korxonalarni ichki bozor kapitallariga emas, balki Yevrobozorga murojat etishni taklif etdi, toki ular moliya resurslarini oqilona tarzda joylashtirsinlar.

Yevrobozorlar bugunda barcha yirik xalqaro banklar, jahondagi barcha moliyaviy markazlar va valyutani konvertatsiya qiluvchi moliya muassasalarini o'zaro aloqalariga kirishtirgan. Yevrobozorning taraqqiy etgani yangi xalqaro moliya markazlari (Singapur, Gongkong, Quvayt, Kayman orollari)ning vujudga kelishiga omil bo'ldi. 1982 yil dekabrda esa Nyu-York (AQSH)da xalqaro bank xizmatlarining erkin hududi tashkil etildi. 1980-yillarning oxirida vujudga kelgan yangi jahon moliya markazi endilikda butun dunyodagi xalqaro moliya-kredit operatsiyalarining uchdan bir qismini amalga oshirishni tashkil etmoqda.

### Nazorat savollari

1. Milliy valyuta tizimining asosiy xususiyatlarini ayting.
2. Valyuta kursi va paritet (tenglik) o'zida nimalarni namoyon etadi?
3. Xalqaro valyuta tizimining alohida elementlarini ayting.
4. Xalqaro valyuta tizimining asosiy vaziflarini sanab o'ting.
5. Xalqaro valyuta tizimining asosiy bosqichlariga baho bering.
6. Oltin standart tizimi haqida tushuncha bering.
1. Genuya shartnomasining xalqaro hisob-kitobidagi muhim jihatlarini aytib bering.
2. Bretton-Vuds tizimining o'ziga xos va muhim xususiyatlarini so'zlab bering.
10. Yamayka tizimi valyuta bozorida qanday yangiliklar olib keldi.
11. Yevropa valyuta tizimi qachon tashkil topdi?
12. Yevropa valyuta tizimining harakterli jihatlari haqida gapiring.
13. Yevropa milliy moneta va kupyuralari qachondan boshlab YEVIROga almashtirila boshlandi?
14. Dunyodagi eng yirik moliya markazlarini sanab o'ting.



## XVI Bob. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYALAR

### 1.§. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va sabablari

Zamonaviy jahon xo'jaligi ikki qarama-qarshi iqtisodiy tendensiyalari bilan ajralib turadi. Ularning biri-o'sib borayotgan jahon iqtisodiyotining bir butunligi, yiriklashuvi bo'lsa, ikkinchisi, xolislik, ya'ni boshqalardan ajralib turadigan, jahon iqtisodiy markazlarining vujudga kelishi, xalqaro integratsion guruhlarni tashkil etuvchi alohida mamlakat va hududlarning o'zaro ta'sirlashuvi va yaqinlashuvi bilan karakterlanadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyalar jahon iqtisodiyotining asosiy tarifi (harakteristikasi) bo'lib hisoblanadi. U o'zida jahon xo'jaligi baynalminallashuvining alohida, yangi bosqichini mujassam etadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyalar ayni davrda xo'jalik hayoti baynalminallashuvining oliy darajasidir. Integratsiya a'zolari bo'lgan mamlakatlar o'rtasida yanada chuqurroq xalqaro mehnat taqsimoti vujudga keladi. Mahsulotlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchlari bilan jadal almashinuv jarayonlari sodir bo'ladi.

Integratsion birlashuv a'zolari bo'lmish mamlakatlar o'rtasida kapital va ishlab chiqarishning markazlashuvi va jamlashuvi jarayoni yanada tezrok kechadi. Bu esa ushbu mamlakatlar integratsion guruhlari chegarasida yagona iqtisodiy siyosatning vujudga kelishini ob'ektiv tarzda talab qiladi. Xalqaro iqtisodiy integratsiyalar birlashayotgan davlatlarni ishlab chiqarish jarayonlarining qayta qo'shilishiga, o'zaro ta'sirlashuvi va aralashuvini taqazo etadi va uni keltirib chiqaradi. Integratsiyalar jarayoni to'laqonli tizimning turli bo'g'inlarini, ya'ni shaxsiy ishlab chiqarishlar, mahsulotlar va kapitalning, ishchi kuchlari va texnologiyalar munosabatlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari o'tgan asrning 50- yillarda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida boshlangan bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarini o'sishi va sifat o'zgarishlari, xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishi va chuqurlashuvi, kapital va ishlab chiqarishni baynalminallashuv jarayonlari, sanoati rivojlangan mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda baynalminallashuviga bo'lgan harakati bilan bog'liqdir.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy sabablari fan texnika taraqqiyoti (FTT) bo'lib, u moddiy, moliyaviy, mehnat kabi ahamiyatli resurslar rivojini, shuningdek, ilmiy texnikaviy sohada alohida mamlakatlarning birgalashib faoliyat yuritishlaridagi katta bozorlar yuzaga kelishini taqazo etadi. Iqtisodiy integratsiyaning bosh sabablaridan biri-transmilliy korporatsiya (TMK)lar ya'ni yirik xalqaro monopoliyalarning taraqqiyotidir.

Davlat, monopoliya kapitali iqtisodiy integratsiya yordami bilan yangi mol-mahsulot bozori, xom-ashyo bozorini egallashni, o'z foydasini eng yuqori darajada oshirishga umid qiladi va bunda u davlat hokimiyatining qo'llab-quvvatlashiga tayandi. Iqtisodiy integratsiyaning katta ahamiyatga ega bo'lgan sababi - siyosiy omildir. Bu omil-davlatlarning integratsiya yordamida nufuzli siyosiy obro'y

qozonishga, dunyo hamjamiyatida yuqori mavqega ega bo'lishga intilishdan iboratdir.

Ma'lumki, integratsiyalashayotgan mamlakatlar o'rtasida bozor munosabatlari taraqqiyotining taxminan bir xil va yaqin darajasi mavjuddir.

Qoidadagiday, xalqaro hududiy integratsion guruhlanish yoki mahsulot ishlab chiqarish taraqqiy etgan yoki rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida bo'lib o'tadi. Masalan, Yevropa iqtisodiy tashkiloti (YEIT)–G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'rtasida, Afrikada–tropik Afrikaning iqtisodiy chegrasida rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida va boshqalar. Integratsiyalashayotgan mamlakatlar o'rtasida asosiy masala bo'lib, u yoki bu davlatlarning integratsion birlashuvi va iqtisodiy, ijtimoiy, shu bilan bir qatorda siyosiy harakterga ega muammolarning umumiyligi xizmat qiladi. Hududiy yaqinlik, turli shakllarda uzilmas iqtisodiy munosabatlarning an'analari, - bularning hammasi integratsiyaga birinchi turtki bo'ladi. Odatdagiday, iqtisodiy integratsiyaning jarayonlari bitta hududdagi bir necha qo'shni davlatlardan (Markaziy Osiyo), bitta kontinentdan (G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika singari) boshlanadi. Chunki ular umumiy chegaralarga yoki savdo-iqtisodiy aloqalarning tarixan tarkib topishiga bevosita aloqadordir.

## **2.5. Iqtisodiy integratsiyaning maqsadi va asosiy shakllari.**

Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan dunyoning deyarli barcha integratsion guruhlarida ularning asosiy maqsad va masalalari bir-biriga to'g'ri keladi. Ular integratsion ittifoqqa a'zo bo'lgan mamlakatlarning daromadlari oshishi ko'rinishda iqtisodiy boylik olish, ishlab chiqarish va talablarning pasayishidagi harakatda ifodalanadi. Bu maqsadlar Yevropa mamlakatlari kabi Osiyo-Tinch okeani hududi (OTOH), Afrika va Markaziy Amerika iqtisodiy integratsiyalashuvida ham yorqin ko'rinadi. Integratsiya hamkorlik integratsion birlashuv a'zolari bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi savdoda cheklanishlarning doimiy yo'qotilishi, o'zaro savdo sohasida umumiy siyosatning o'tkazilishi va ishlab chiqilishini ta'minlaydi. Iqtisodiy guruhlarda qatnashayotgan mamlakatlarga jahon hamjamiyatida Butunjahon savdo tashkiloti (JST), Xalqaro valyuta fondi (XVF), Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) va boshqa turli xalqaro tashkilotlarda o'z nuktai nazarini bayon etib turish osonroq.

Integratsion birlashuvga a'zo bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiyotning tizimlarida qayta qurish o'tkazilishi integratsiya maqsadlarining amalga oshirilishi uchun muhim vosita sifatida qaralishi mumkin. Bu iqtisodiyotning turli jabhalariga tegishli: ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqalar. Ularning mujassamlashuvi, sohalashuvi, yanada samaraliroq tizimlar yaratish rejasidadir. Juda ko'plab integratsion guruhlar a'zosi bo'lgan mamlakatlar uchun iqtisodiyotdagi hamkorlikni kengaytirish nafaqat uni mustahkamlashda, balki u siyosat, harbiy soha, madaniyat va boshqa sohalarda ham juda muhim sanaladi. Ushbu maqsadlar sanoati rivojlangan mamlakatlar birlashuvini keltirib chiqaradi.

Masalan, Yevropa Ittifoqi (YEI), Yaqin Sharq mamlakatlari va Osiyo-Tinch okeani hududi (ATR) birolashuvi kabilar.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy integratsiyalar qo‘yidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

- erkin savdo hududi;
- bojxona ittifoqi;
- umumiy bozor;
- iqtisodiy ittifoq;
- to‘liq iqtisodiy integratsiya.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya rivojlanishi savdo va iqtisodiy ittifoqdagi mamlakatlar o‘rtasida bitimlar hamda davlatlararo ittifoqni huquqiy mustahkamlovchi kelishuvlar bilan ifodalanadi.

Erkin savdo hududi – iqtisodiy integratsiyalarning boshlang‘ich darajasi bo‘lib, u mamlakatlarning soliq to‘lashda maxsus imtiyoz tartibiga amal qiladigan alohida hududidir. Unga kiritilgan tovarlar boj va kvotalar to‘lovidan ozod etiladi va bojxona nazoratidan xoli bo‘ladi. Bunda har bir davlat shaxsiy savdo-iqtisodiy siyosatini uchinchi mamlakat munosabatlariga ham o‘tkazish imkoniyatiga ega. Ko‘p hollarda erkin savdo hududlarida yaratilgan shart-sharoitlar tufayli qariyb barcha mahsulotlar savdosi amalga oshiriladi. Bundan faqatgina qishloq xo‘jalik mahsulotlari mustasno xolos. Savdo hududi unga a‘zo mamlakatlardan biriga joylashgan uncha katta bo‘lmagan davlatlararo kotibiyatda markazlashishi mumkin. Ammo, tegishli hujjatlarga doir rahbariyat davriy yig‘ilishlarda o‘z taraqqiyotining asosiy parametrlariga xayrixoh bo‘lib, ularning ba‘zilari busiz ham o‘z savdo faoliyatlarini amalga oshirishlari mumkinligi ayon bo‘ladi.

Erkin savdo hududiga asosan 1960 yilda tashkil etilgan Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YEAST) kiradi. Uning tarkibida Avstriya, Finlayandiya, Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya, Shvesiya kabi bir qator mamlakatlar bor. Yevropa iqtisodiy hududi (1994 y) da esa Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamda Islandiya va Lixtenshteynlar mavjud.

Boltiq bo‘yi erkin savdo hududi (1993 y) ga Estoniya, Latviya, Litva davlatlari kiradi;

Markaziy Yevropa erkin savdo hududi 1992 yilda tuzilgan bo‘lib, uning tarkibiga - Chexiya, Vengriya, Polsha, Slovakiya mamlakatlari kiradi;

Shimoliy Amerika erkin savdo hududi (1994 y) a‘zolari bo‘lib Kanada, Meksika, AQSH davlatlari hisoblanadi;

ASEAN mamlakatlari erkin savdosi haqida kelishuvi (1992 y.) – Bruney, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur, Tayland davlatlarini birlashtiradi;

Iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi haqida Avstraliya va Yangi Zelandiya savdo kelishuvi (1983 y) tashkil etilgan;

Bangkok kelishuvi (1993y) – Bangladesh, Hindiston, Koreya Respublikasi, Laos, Shri-Lanka davlatlaridan iborat.

Bojxona ittifoqi – ikki yoki bir qancha davlatlarning bojlar bo‘yicha o‘zaro chegaralarni bekor qilish va yagona boj tarifi joriy etish yuzasidan o‘zaro kelishuvi. Uchinchi mamlakat uchun joriy etilgan alohida yagona tarif va kvotlar

esa ularni erkin savdo hududidagi boj ittifoqidan ajratib turadi. Bojxona ittifoqi poshlinasiz ichki integratsiyaviy xizmatlar, tovarlar va ularning hudud ichida to'liq erkinligini nazorat qilib turadi. Odatda bojxona ittifoqi tashqi savdoga kelishilgan markazlashuv joriy qiluvchi davlatlararo organlarning rivojlangan tizimini yaratishni talab qiladi. Hammasidan ham ko'proq ular hujjatlarga javob beradigan boshqaruv ministrlarining yig'ilishlari davriyligini qabul qiladi. Ular har doim o'z faoliyatlarida harakat qiluvchi davlatlararo kotibiyatga tayanishadi.

Bojxona ittifoqlari (BI) dunyoning juda ko'p mamlakatlarida rivojlangan. Ular quyidagilar: Turkiya bilan YEI assotsiatsiyasi (1963y), uning tarkibiga YEI mamlakatlari va Turkiya kiradi. Arab umumiy bozori (1964y) – Misr, Iroq, Iordaniya, Liviya, Mavritaniya, Suriya va Yaman. Markaziy Amerika umumiy bozori (1961) – Kosta Rika, Salvador, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua. Kolumbiya, Ekvador, Venesuela mamlakatlari o'rtasida tuzilgan erkin savdo hududi (1992 y) – Kolumbiya, Ekvador, Venesuela. Sharqiy Karib havzasi mamlakatlari tashkiloti (1991 y.) – Antigua va Barbuda, Dominika, Grenada, Montserrat, Sent-Kite va Nevis, Sent-Lyusiya, Sent-Vinsenva Grenadinalar.

Umumiy bozor-iqtisodiy integratsiyaning hammadan ko'proq rivojlangan turi. Integratsiyalashgan mamlakatlar nafaqat tovar va xizmatlar erkin harakati haqida kelishishadi, balki ishlab chiqarish faktorlari-davlatlar o'rtasida kapital va ishchi kuchlar borasida ham almashuvlar qilishadi. Umumiy bozorning iqtisodiy integratsiyasiga qo'yidagi dunyo tashkilotlari kiradi: Fors ko'rfazidagi arab mamlakatlari hamkorligi (1981y) – Bahrayn, Quvayt, Ummon, Qatar, Saudiya Arabistoni, BAA; And umumiy bozori (1990) – Boliviya, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Venesuela; Lotin Amerikasi integratsion assotsiatsiyasi – LAIA (1990y) – Argentina, Boliviya, Braziliya, Chili, Kolumbiya, Ekvador, Meksika, Peru, Urugvay, Venesuela; Janubiy konusning MERKOSUR umumiy bozori (1991y) – Argentina, Braziliya, Paragvay, Urugvay; Karib hamjamiyati va KARIKOM bilan Karib umumiy bozori (1993y) – Antigua va Barbuda, Bagam orollari, Barbados, Beliz, Dominika, Grenada, Gayana, Yamayka, Monserrat, Sent-kits va Navis, Sent-Lyusiya, Sent-Vinsent va Grenadinalar, Trinidad va Tobago.

Iqtisodiy ittifoq – integratsiyaning oliy formasi bo'lib, bunda qatnashuvchi mamlakatlar o'z iqtisodiy siyosatlarini, shu jumladan pul, soliq va ijtimoiy siyosatlarini, shuningdek savdoga hamda ishchi kuchi va sarmoya ko'chib yurishiga nisbatan siyosatni muvofiqlashtiradilar. Unda bojxona tariflari, tovar va ishlab chiqarish faktorlari, mikroiqtisodiy siyosat koordinatsiyalari, valyuta, byudjet, pul sohalorida qonunchilikning unifikatsiyasi ko'rib chiqiladi.

Dunyoning iqtisodiy ittifoqiga – Yevropa hamjamiyati (YES), keyinroq Yevropa ittifoqi (1993y) a'zo bo'ldi. Hozirgi kunda Yevropa ittifoqqiga 27 ta mamlakatlar qo'shilgan. Ular quyidagilar hisoblanadi: Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Vengriya, Germaniya, Gresiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Litva, Latviya, Kipr, Niderlandiya, Portugaliya, Polsha, Ruminiya, Sloveniya, Slovakiya, Serbiya, Fransiya, Finlyandiya, Shvesiya, Chexiya, Estoniya, Harvatiya. Benilyuks iqtisodiy ittifoqi (1948y) - Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg. Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi (MDH) 1992 y. - Armaniston, Ozarbayjon, Belarus, Ukraina, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova,

Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston. Mag'rib arab ittifoqi (1989y) – Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marakko, Tunis. Lagos harakat rejasi (1973) – Afrika janubidan Saharagacha bo'lgan mamlakatlar. Manu daryosi ittifoqi (1973)-Gvineya, Liberiya, Sverra-Leone. G'arbiy Afrika iqtisodiy va valyuta ittifoqi (1994y) – Benin, Burkina-Faso, Kot-d Ivuar, Mali, Niger, Senegal, Togo.

To'liq iqtisodiy integratsiya – a'zo mamlakatlar guruhlariga yagona iqtisodiy siyosatini o'tkazilishida qarab chiqilgan tiplari aralashadi. Ular integratsion ittifoq chegarasida huquqiy qonunchilikning unifikatsiyasini talab qiladi. To'liq iqtisodiy integratsiya barcha a'zo mamlakatlar uchun valyuta siyosatini talab qiladi. Yagona valyuta munosabatlarida yagona valyuta tizimi va yagona valyuta mexanizmi mavjud. Yagona valyuta, valyuta nazoratining yagona qoidalari, umumiy markaziy bank va boshqalar kiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, integratsion jarayonlar makroiqtisodiy darajada ham, mikro iqtisodiy darajada ham muhim harakterga ega. Shuning uchun bu integratsiyaning ikki darajasi parallel ravishda o'tadi. Ular ko'p kesishmaydi, bir-biri bilan yaqinlashadi va bir-birini to'ldiradi. Integratsiyaning makroiqtisodiy darajasini egallash an'anasi aniq integratsion guruhga a'zo mamlakatlar davlatlararo iqtisodiy munosabatlarini nazorat qilishni ko'chaytirishga to'la mos keladi. Yo'nalishlarning turli shakllari, makro va mikro integratsiyaning mos kelishi iqtisodiy jihatdan ham, integratsion birlashuv jihatdan ham harakter kasb etadi. U yoki bu iqtisodiy integratsiya tiplarining yaratilishi va amal qilishida siyosiy faktorlar ham katta ta'sir ko'rsatadi.

### 3.5. Xalqaro integratsiya taraqqiyotining asosiy bosqichlari

Dunyo xujaligi tizimida iqtisodiy integratsiyalar jarayonlari G'arbiy Yevropada ancha yuqori darajada taraqqiy etdi. Bu boradagi rivojlanish va madaniyat Yevropa Ittifoqida 1951 yilda boshlandi. Shu yilning aprelida 6 ta mamlakat, ya'ni-Fransiya, Germaniya, Italiya, Lyuksemburg, Belgiya va Niderlandiya o'rtasida ko'mir va po'lat ishlab chiqaruvchi Yevropa hamkorligi(YEOUS) shartnomasi imzolandi. Bu G'arbiy Yevropa integratsiyasi tarixida o'ziga xos ma'no kasb etdi. To'g'ri, bu hududning integratsiyalashuv munosabatlari rivoji 1957 yilda, ya'niki ushbu mamlakatlar o'rtasida Yevropa iqtisodiy hamkorligi (YEIH) hamda Yevropa atom energiyasi hamkorligi (Yevrotom)ni tuzish bo'yicha shartnoma imzolanganidan keyin avj oldi. Shundan keyin, ya'ni 1960 yilda bu shartnomaga zid bo'lgan Buyuk Britaniya, Avstriya, Daniya, Norvegiya, Portugaliya, Shvesiya, Shvesariya mamlakatlari o'rtasida imzolangan Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YEESA) bitimi bekor qilinadi.

G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi taraqqiyoti jarayonini to'rt bosqichga bo'lib o'rganish mumkin.

Birinchi bosqich (XX asrning 50 yillar oxiri va 70 yillar boshi) Yevropa iqtisodiy hamkorligiga a'zo mamlakatlar o'rtasida ayrim savdo mahsulotlaridan olinadigan poshlinalarning doimiy ravishda o'zgarib turishi, bojxona ittifoqining tashkil topishi, hamda yagona boj siyosatini yurgizish va savdo borasida yagona boj tariflarini amaliyotga tadbiiq etish bilan harakterlanadi. Uchinchi mamlakat

bilan ham savdo munosabatlari yaxshilangan. Boj to'lovlari borasida erkin karakterlanish nafakat mahsulot sotuvida, balki kapital, ishchi kuchlari, xizmatlar va shu kabilarda ham o'z aksini topdi. Shuningdek, bu mamlakatlar o'rtasida erkin ishchi kuchlari va ularning erkin yashashlari uchun zarur sharoitlar yaratib berildi.

1960 yillarning boshida Yevropa ittifoqi mamlakatlarida yagona agrar siyosat boshlandi. YEIning bu siyosati tufayli mazkur itifok hududi bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlariga bir xil narxlar belgilandi. Natijada hamkorlikka a'zo mamlakatlar ichki bozorida, shu bilan AQShda ham mahsulot sotish va kapital jamg'arish jarayonlari ancha shiddatli tus oldi. 1973 yilda Yevropa iqtisodiy hamkorligi uchta yangi mamlakat, ya'ni Buyuk Britaniya, Irlandiya va Daniyalalar bilan ko'paydi. Natijada Yevropada kuchli to'qqizlik vujudga keldi.

Ikkinchi bosqich (70-yillar va 80-yillar o'rtalari) Yevropa Ittifoqi tarixiga turg'unlik va inqirozlik davri sifatida kiritildi. Bu davr G'arbiy Yevropa integratsiyasida asabbuzarlik nomini oldi. YEIHga a'zo mamlakatlarda birdan sodir bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishining tushib ketishi bu hamkorlikka a'zo mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy taraqqiyot nomutanosiblik darajasini kuchaytirdi. Faqatgina 1981 yilda YEIga Gresiyaning qo'shilishi natijasida bu davlatlar o'rtasida iqtisodiy taraqqiyot biroz mo'tadillashdi.

Yevropa Iqtisodiy hamkorligi (YEIH) yuzaga kelgan iqtisodiy sust holatiga integratsiyalashuv jarayonlaridan imkoniyat qidirdi. Natijada 1979 yilda YEIHda Yevropa valyuta tizimi valyuta integratsiyasi jarayonlarini keng ravishda olib bora boshladi.

Uchinchi bosqich (80-yillar ikkinchi yarmi va 90-yillar boshi) keyingi yillarda integratsiya jarayonlari muvaffaqiyatli kechgani natijasida YEIH ga a'zo davlatlar soni 12 taga yetgani bilan karakterlanadi. Ya'ni, 1986 yilda bu hamkorlikka Ispaniya va Portugaliya qo'shildi. Bu davr G'arbiy Yevropa integratsiyasi taraqqiyotida yangi intilishlar, birikuv Yagona Yevropa akt (YAYEA) ini tuzilishi bilan farqlanadi.

Yagona Yevropa akti YEIHga a'zo davlatlarning umumiy mohiyati ittifoqning siyosiy va iqtisodiy ko'rinishi moliya-valyuta va gumanitar hududlarda ham integratsiyalashuvning yuqori darajasiga ko'tarilishidan dalolat beradi.

Yagona Yevropa aktiga binoan hamjamiyatga yangi a'zolar kirganda, uyushgan a'zolik haqida shartnoma tuzilganda va uchinchi mamlakatlar bilan savdo bitimlari tuzilganda Yevroparlamentning ma'qullashi talab qilinadi. U YEI ning eng muhim mohiyati bo'lgan yagona iqtisodiy kenglik (ichki chegaralarsiz hudud, ya'ni mahsulot, kapital, fukarolik va xizmatlarni erkin bajaruvchi) kabi erkin ichki bozorni keng suratda bildiradi. Yana ham aniqrog'i, a'zo davlatlar ittifoqini bir butun xo'jalik organizmi sifatida kashf etadi. Shunday qilib, uchinchi bosqichda YEIH ga a'zo mamlakatlar 1992 yilning oxiridan yagona ichki bozor, valyuta – iqtisodiy va siyosiy ittifoqini vujudga keltirib, uni amaliyotda tashkil etishdi, desak xato bo'lmaydi.

To'rtinchi bosqich (90-yillar o'rtalaridan hozirgi vaqtgacha). Yagona Yevropa akti tuzilgach, 1993 yil 1 yanvaridan YEIH ichki chegaralarida ancha erkin savdo harakatlarini ta'minlovchi shart-sharoitlar yaratiladi. Bu esa G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi taraqqiyotida yangi, samarali yo'lni ochib berdi.

1992 yil fevraldagi Maastrixt shartnomasining bekor qilinishi 1994 yilning 1 yanvaridan YEI ga a'zo mamlakatlar sonining 15 taga yetishini ta'minladi.

EIH ga a'zo mamlakatlar endilikda yagona Yevropa banki va yagona valyuta-Yevroni tashkil etgani kabi yagona ichki bozorni ham vujudga keltirishdi. 2002 yil yanvaridan boshlab milliy valyuta – Yevro joriy etilgan bo'lsa, shu yilning avgustiga kelib u to'liq muammolaga kiritildi. Bir vaqtning o'zida YEI davlatlari o'rtasida ayrim siyosiy va iqtisodiy masalalarni boshqarish 5 ta nufuzli siyosiy institutlar ham tashkil etildi. Bular: Yevropa parlamenti, YEI komissiyasi, Yevropa soveti, Vazirlar soveti, YEI sudi kabi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlaridir.

#### 4.§. Jahondagi asosiy hududiy integratsiyalashgan uyushmalar

Iqtisodiy integratsiyaning ob'ektiv jarayonlari dunyoning boshqa hududlarida ham rivoj topayotir. Masalan, Lotin Amerikasi, Osiyo va Afrikada o'ttizdan ziyod erkin savdo, boj va iqtisodiy itifoq zonalari faoliyat yuritmoqda. Iqtisodiy integratsiya rivoj topgan guruhlardan biri-1994 yanvarida AQSH, Kanada va Meksika mamlakatlarida tashkil etilgan shimoliy Amerika erkin savdo hududi – NAFTAdir. Mazkur blok aholisi 400 mln. dan ortiq va yirik iqtisodiy imkoniyatga ega hududni o'z ichiga olgan. Bu mamlakatlarning yillik mahsuloti va ko'rsatgan xizmati 3 trln. dollardan oshadi. Dunyo savdo hajmida bu mamlakatlar ulushi qariyb 20% ni tashkil etadi.

NAFTA dagi integratsiyalashuv jarayonlari AQSH, Kanada va Meksikadagi mavjud texnologiyalar, ishchi kuchlari, kapital va umumiy mol-mahsulot bozorida holatni YEIga a'zo mamlakatlar bozoriga kiritishni ham o'z ichiga oladi. NAFTA kelishuvining eng muhim vositasi, bu – unga a'zo uchala mamlakatdagi mavjud integratsiya munosabatlarida investitsion barerlar hamda integratsiya bo'layotgan mahsulotlar savdosini 2010 yilgacha zamonaviylashtirib borishdan iborat.

NAFTA kelgusida «Merkosur» (u 1991 yil Argentina, Braziliya, Urugvay, Paragvay o'rtasida tashkil topgan) bloki bilan savdo-iqtisodiy borada integratsiyalashuvga ko'ra, 2020 yillarda AQSH uchun asosiy integratsion yo'nalish hisoblangan–Osiyo-Tinch okeani hududi (ATR)ning «integratsion to'g'on»ini zabt etish mo'ljallangan.

XX asr oxirlariga kelib integratsiyalar jarayonining asosiy kuchi Osiyo-Tinch okeani (OTOH) hududida birlashdi. Ular o'zlarida mavjud gigant imkoniyat va kuchlar hamda 3,5 mlrd.ga ega bo'lgan aholisi bilan katta hududga ega bo'lishdi. Ushbu hudud hisobiga hozirda 565 turdagi dunyo yalpi ichki mahsulotlarini ishlab chiqarish va jahon eksporti va importining 45%lik ulushi to'g'ri kelmoqda.

Osiyo-Tinch okeani hududi integratsion jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- bu integratsiyaga iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar jalb etiladi;

- integratsiya jarayonlari hududidagi mamlakatlar firma va korporatsiyalari o'rtasida asosan makroiqtisodiy darajalarning yuqoriligi;
- integratsiya jarayonlarining maxsus alohida hududlarda yuqori darajada kechishi;
- integratsion jarayonlari ham yuqori tayyorgarlikda tashkil etilmagan hududlarni rivojlantirishi;
- mavjud integratsion guruhlarning aniq rasmiylashtirilmaganligidir.

Osiyo-Tinch okeani hududi bir qator subregional birlashmalar, ya'ni Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN). Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati tashkiloti (ATES) – Avstraliya, Yangi Zelandiya erkin savdo hududi, Janubi-Tinch okean forumi (YUTF), Tinch okeani iqtisodiy soveti (TES)dan tashkil topgan.

Osiyo-Tinch okeani hududi jarayonlarida asosiy rolni Yaponiya o'ynaydi. So'nggi yillarda uning yoniga «Osiyo yo'lbars»lari (Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Gonkong) hamda AQSH va Xitoy qo'shildi. Hozirda integratsiya jarayonlari faollashayotgan yana bir birlashma Janubiy-Sharqiy Osiyo (ASEAN) mamlakatlari bo'lib, u 1967 yilda olti mamlakat-Brunej, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur, Tailand negizida tashkil topgandi. 1995 yilga kelib, ular safiga Vetnam ham qo'shildi. ASEAN mamlakatlari bir-biri bilan o'zaro yuqori darajada integratsiyalashuvga kirishdilar va shu bilan birga Yaponiya, AQSH, Janubiy Koreya, Tayvan va so'nggi yillarda Xitoy bilan ham bu aloqalarni kuchaytirgan.

1989 yilda tashkil topgan Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati tashkiloti (ATES) janubiy Osiyoda iqtisodiy integratsiya taraqqiyotini rivojlantirdi. Uning tarkibiga 21 ta Osiyo va Janubiy hamda Shimoliy Amerika mamlakatlari kiradi. 1997 yilda esa, ular qatoriga Rossiya ham qo'shildi. ATES rejasiga ko'ra dunyo erkin savdo hududida bu mamlakatlar boj va ichki barerlar to'lovidan ozod etilgandir.

Integratsion jarayonlar yer sharining turli hududlarida, turli kontinentlarda jadal holda rivojlanmokda. Ya'ni, Afrika, Yakin Sharq, Lotin Amerikasi, Avstraliya va Okeaniya, Markaziy Osiyoda, 1989 yilda Afrika kontinentining shimoliy qismida Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marakko, Tunislardan iborat Mag'rib arab ittifoqi tuziladi. 1981 yilda esa Fors ko'rfazi atrofidagi arab davlatlari (Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar, Bahreyn, BAA, O'mmon)dan iborat hamjamiyat kengashi (soveti) tashkil etilgandi. Sobiq Sovet Ittifoqi respublikalari 1991-1993 yillar mobaynida Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) doirasida Iqtisodiy ittifoqni shakllantirishga harakat qildilar. 1992 yilda esa Eron, Pokiston, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va O'rta Osiyo mamlakatlaridan iborat Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyat tashkiloti tuzilganligi e'lon qilindi.

1996 yilda Rossiya va Belorussiya hamkorligi, biroz o'tgach 1997 yili Belorussiya va Rossiya ittifoqi davtlari, 1995 yilda esa Yevroosiyo iqtisodiy hamkorligi (Rossiya, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davtlari) bojxona ittifoqi va yagona iqtisodiy makon to'g'risida, 1998 yilda Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorligi (Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari) tashkilotini tuzdilar. Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston Tojikiston va Qirg'iziston davlatlari Shanxay iqtisodiy hamkorligini keyinchalik



esa uning negizida Yevroosiyo iqtisodiy hamkorligi tashkilotini barpo etdilar. Kelajakda ushbu tashkilotga a'zo bo'lib kirish uchun Mo'g'iliston, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Eron kabi mamlakatlar o'z xohish-istaklarini bildirishdilar.

### Nazorat savollari

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaga umumiy ta'rif bering. Uning sabablari, maqsadi nimalardan iborat?
2. Integratsion birlashmalar bosqichlarini ayting va ularni ta'riflang.
3. Jahon iqtisodiyotidagi asosiy rivoj topgan iqtisodiy markazlarni ayting. Bu markazlar qaysi integratsion guruhlariga mansub?
4. Xalqaro integratsion birlashmalarda ko'proq qaysi integratsiya jarayonlari shakllari rivoj topadi. Bu jarayon haqida qisqacha gapirib o'ting.
5. Yevropa Ittifoqi (YEI) ga a'zo mamlakatlarni sanab o'ting.
6. MDH davlatlari integratsion taraqqiyotida kandy imkoniyatlar mavjud?
7. Osiyo-Tinch okeani hududi (ATR) integratsiya jarayonlarining o'ziga xos tomonlari nimalarda aks etadi?
8. Xalqaro integratsiya birlashmalarida O'zbekiston imkoniyatlari qanday kuchga ega deb o'ylaysiz?

## XVII Bob. XALQARO ISHCHI KUHLARI MIGRATSIYASI

### 1.§. Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasining tushunchasi

Aholi migratsiyasi – bu doimiy yashaydigan joyiga qaytib kelish sharti bilan boshqa chegara hududlariga ko‘chib o‘tish va vaqtincha ishlash tushuniladi.

Xalqaro migratsiya mehnat, oilaviy, sayyohlik kabi shakllarga bo‘linadi. Bu borada asosiy e‘tibor xalqaro mehnat migratsiyasi va xalqaro ishchi kuchlari bozori muammosiga ko‘proq qaratiladi. Xalqaro ishchi kuchi bozori mehnat resurslari hamda milliy chegaralardan o‘tishda turli yo‘nalish bo‘yicha shakllanadi. Xalqaro mehnat bozori esa mehnat migratsiyasi shakliga bo‘ysinadi.

So‘nggi yillarda migrantlar faoliyati ancha pasaygani kuzatilmokda. Masalan, 90-yillar o‘tralarida (aniqrog‘i 1995 yil boshlarida) mamlakatdan mamlakatga ko‘chib yuruvchi aholi 125 mln. atrofida edi. Keyingi paytlarda jahon bo‘yicha bu holat 20-30 mln. kishini tashkil etmoqda. Bugungi kunda AQSH da chet ellik ishchilar soni 7 mln. ni tashkil etsa, bu ko‘rsatkich G‘arbiy Yevropada 6,5 mln. ni, Lotin Amerikasida 4 mln., Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada 3 mln. odamni tashkil etadi. Xorijlik ishchilar ko‘plab sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda faol sanalishadi. Masalan, Fransiyaning qurilish sohasida 25 %, avtomobilsozlik sohasida esa 33 % ishchi immigrant sanalishadi. Shuningdek, Belgiya konchilarining teng yarmi, Shveysariya qurilish tarmog‘ida ishlayotgan ishchilarning 40% i xorij immigrantlaridir.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi ikki xil shakl (forma)dan iborat bo‘ladi, ya‘ni immigratsiya va emigratsiya.

Immigratsiya – bu ishlash uchun aholining boshqa bir mamlakatdan ikkinchi bir mamlakat hududga ko‘chib kelishi. Emigratsiya esa aholining ishlash va yashash uchun boshqa birorta mamlakatga ko‘chib ketishi tushuniladi. Bu ikki holat o‘rtasidagi farq esa iqtisodiy tilda migratsiya saldosi deb nomlanadi. Emigrantning o‘z yurtiga kaytib kelishi reemigratsiya deb ataladi. Xalqaro migratsiyada yuqori malakali migrantlarni «aqli muhojirlar» deyishadi.

Ishchi kuchi migratsiyasi iqtisodiy harakterga ega bo‘lmagan omillarda ham o‘z aksini topadi. Iqtisodiy maqsadni ko‘zlovchi migratsiyada esa arzon ishchi kuchi tufayli mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi kuzatiladi. Sir emaski, biror mamlakatga ish izlab borgan kishi o‘sha yerlik tub aholi olayotgan maoshdan albatta kam oylik oladi. Shu bilan birga davlat yoki korxonadan shu yerlik ishchidan ko‘ra ancha kam bo‘lgan ijtimoiy himoya talab qiladi.

Iqtisodiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘proq ishchi kuchlari chiqib ketayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti sustlashadi, o‘z o‘rnida ishchi kuchlari kirib kelayotgan davlatlar boyiydi. Xalqaro mehnat migratsiyasining asosiy omillar-kapital yuritilishining tezlashishida o‘z aksini topadi. Transmilliy korporatsiya (TMK)lar ishchi kuchlari qo‘shilishi natijasida davlatga kapital oqib kelishi jadallashgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

## 2.§. Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasining sabablari

Xalqaro mehnat migratsiyasi darstlab guyo bir xilli ko‘rinishdek namoyon bo‘ladi. Aslida bu doimo davlat boshqaruviga ta‘sir etib turadi. O‘z o‘rnida so‘nggi paytlarda migratsiya oqimi bozorining asosiy boshqaruv elementlaridan bir bo‘lib qoladi.

O‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, XIX asr o‘rtalarida aholi migratsiyasi tarixida juda ahamiyatli voqealar sodir bo‘ldi. O‘sha asrning 40-yillarida Irlandiyalik emigrantlar AQShga kelmay ko‘yishdi.

Keng masshtabli migratsiya okimining pasayishi XIX asrning 80-yillariga to‘g‘ri keladi. Bunga sabab AQShda Italiya va sharqiy Yevropadan keltirilayotgan bo‘g‘doyning narxi juda kamayganida aks etadi. G‘alla narxi tushgach mehnatga hak to‘lash ham keskin pasaydi va bu jarayon AQSH iqtisodiyotiga sezilarli salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

AQSH mamlakati migrantlar kuchidan umidvor va iqtisodiy foyda ko‘rishni yaxshi bilishadi. Shu bois endi u agrar soha uchun immigrantlarga sharoit yaratadi va natijada Yevropa mamlakatlarining keng masshtabli ishchi kuchlari AQSH ga oqib kela boshladi. Bu yangi migratsiya okimi AQShda XX asrning 20-yillaridan rivojlandi. Endi Yevropada 1-jahon urushidan keyin bu yer aholisi ko‘proq Amerikada ishlashni lozim ko‘rishdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin AQShda mavjud ishchi kuchlari migratsiyasi uch xil oqimga bo‘lindi. Birinchisi, bu – aqlli muhojirlar. Ular ko‘proq shimoliy Amerikadan ish topishdi. Chunki bu migratsiyalar yuqori malakaga ega edilar. Ikkinchi oqim – bu Vengriyada antikommunistik qo‘zg‘olon sodir etilgan 1956 yilgi voqealardan keyin mamlakatdan chiqib ketgan qochoqlar, shuningdek Vetnamda (1974-75 yillar) kechgan «janublik» va «shimollik»lar o‘rtasidagi kelishmovchiliklardan keyingi paydo bo‘lgan qochoqlar tashkil etadi. Uchinchi oqim esa Karib havzasi davlatlaridan ish izlab kelgan muhojirlar sanaladi.

Agar birinchi va ikkinchi oqimlar sababi siyosiy va ko‘chishga majbur bo‘lish bo‘lgan bo‘lsa, uchinchi holatda esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy maqsad sabab bo‘lingan.

XIX va XX asr mehnat migratsiyasi jarayonida Xitoydan Janubi-Sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerikaga aholi migratsiyasi sodir bo‘lgani asosiy rol o‘ynaydi. U asosan ko‘chishga majburlik jihatidan ahamiyatli va bu paytda 70 mln. dan 100 mln. xitoylikgacha aholi shu mamlakatlarga ko‘chgan va ko‘chirilgan.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida II jahon urushidan keyin, aniqrog‘i o‘tgan asrning 60-yillarida yetarlicha ishchi kuchlari migratsiyasi jarayoni avj oldi. Ispaniya, Portugaliya, Gresiya, Yugoslaviya ishchi kuchlari Yevropa mamlakatlari iqtisodiy ishlab chiqarish rivojida faol ishtirok etdi. Bugungi kunda ham xorijlik ishchi kuchlari dunyo xo‘jaligi harakatining asosiy me‘yoriy elementlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasi boshqaruvini quyidagi holatlarda ko‘rish mumkin:

- rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan davlatlarga ko‘chish;

- sanoati rivojlangan mamlakatlarga migratsiya;
- rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida o'zaro ishchi kuchi migratsiyasi almashish;
- sobiq sotsialistik mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi migratsiyasi;
- sanoati taraqqiy etgan rivojlangan mamlakatlarga ilmiy ishchilar, yuqori malakali mutaxassislar migratsiyasi.

Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasi sanoati rivojlangan mamlakatlarda ba'zan noiqtisodiy maqsadlarni ko'zlaganlikda ham aks etadi. Masalan, Yevropadan AQShga ko'chib kelgan «aqli muhojirlar» o'zlari uchun iqtisodiy foyda ko'rish uchun emas, balki shu mamlakat taklifi bilan mahalliy aholidek yashayapti va ishlayapti.

Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasida Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlardagi ko'chish holatlari ham ahamiyat kasb etadi. YEIda 1989 yil 9 dekabrda Hartiya, deb nomlangan Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YEIH) ga a'zo mamlakatlar ishchilarining ijtimoiy huquqi imzolandi. Unda yozilishicha, «har bir Yevropa iqtisodiy hamjamiyatga ahzo mamlakat ishchisi hamjamiyat hududida mavjud qonun-qoida va chegara intizomi, jamoa tartibini saqlash, jamoatchilik xavfsizligini ta'minlash va sog'ligini asrash huquqlariga ega»; «EIH hududida ishga kirishini hoxlovchi fuqaro kasbi va qo'ldan keladigan hunariga qarab, har qanday ishni bajarishi va mehnat sharoitlari hamda ijtimoiy himoya imkoniyatlaridan to'laligicha foydalanish huquqiga ega».

So'nggi yillarda ishchi kuchlari migratsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ancha o'sdi. Asosiy ko'rsatkich yangi sanoatlashgan mamlakatlar (YASM), jumladan arab mamlakatlari, OPEKka a'zo mamlakatlar, hamda u yoki bu sohalarda keskin rivojlanish bosqichida bo'lgan mamlakatlarda yuqori bo'lmoqda.

Ishchi kuchlari migratsiyasining «aqli muhojir» lik okimi hozirda ko'proq harakatda va ular asosan Yevropa mamlakatlari va Shimoliy Amerikadan OPEKka a'zo bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarga borishmoqda.

Sobiq sotsialistik mamlakatlar, xususan MDH davlatlarida kechayotgan ishchi kuchlari migratsiyasi haqida ham alohida to'xtalib o'tish zarur. Bugungi kunda asosiy ishchi kuchlari oqimi Rossiyada kuchaymoqda. Masalan, birgina Rossiya Federatsiyasi poytaxti Moskva shahrida hozirgi paytda dunyoning 78 mamlakatidan xorijlik ishchilar va immigrantlar poytaxtdagi qurilishlarning 46 % ish o'rini tashkil qiladi.

So'nggi yillarda Rossiyaga yaqin bo'lgan Ukraina, Belarus, Moldova, Armaniston, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va boshqa mamlakatlardan juda ko'pgina ishchi kuchlari kirib kelmoqda. Bu migratsiyaning sabablari-iqtisodiy maqsad bo'lib, ular pul topish uchun bu yerga ish izlab kelayotir. Shuningdek, Rossiyada qochoqlar va turli qo'zg'olonlar oqibatida jabr ko'rganlar va ko'chishga majbur bo'lganlar ham bor. Bularning umumiy soni salkam 5 mln. kishidan ortiq bo'lib, ular asosan MDH davlatlari fuqarolaridir.

### 3.3. Ishchi kuchlarini o'ziga jalb etuvchi zamonaviy markazlar

Boshqa davlatlardan ishchi kuchlarini o'ziga jalb qiluvchi mamlakatlar va hududlar quyidagilar:

**AQSH, Kanada.** Har yili AQSH ga dunyoning boshqa mamlakatlariga qaraganda eng ko'p immigrantlar tashrif buyurishdi. G'arbiy Yevropa, Rossiya, Lotin Amerikasi va boshqa mamlakatlarning yuqori malakali immigrantlari AQShda ishlashni ko'proq xush ko'rishadi. Unchalik malakaga ega bo'lmagan ishchilar esa asosan bu yerga Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlaridan ishlash va yashashga kelishadi. AQShga qonuniy yo'l bilan har yili 740 ming atrofida aholi ishlash uchun ko'chib kelgan bo'lsa, shu maqsadda 160 ming kishi esa ko'chib ketishadi. Yillik migratsiya saldosi 580 ming kishini tashkil etadi. Yillik immigrantlar oqimi birgina Kanada va AQSH o'rtasida (90-yillar o'rtasida) 100 ming aholini tashkil etgan.

**G'arbiy Yevropa.** Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarga, asosan YEIga Malta hamda sharqiy Yevropa va MDH davlatlaridan tortib, shuningdek, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqdagi arab mamlakatlari hamda, Afrikaning Saharagacha bo'lgan mamlakatlaridan har yili bir necha yuz minglab immigrantlar kelishadi. G'arbiy Yevropa integratsiyalashuvining natijasida ishchi kuchlari migratsiyasi YEIga a'zo mamlakatlarda erkin va mehnat qonunchiliklari huquqlaridan to'la foydalangan holda faoliyat yuritadilar.

**Yakin Sharq.** Neft qazib oluvchi mamlakatlar hududida og'ir ishlarni bajarishga asosan arzon bo'lgan xorijlik ishchi kuchlari jalb etilgan. Bu yerda mavjud ishchi kuchlarining 50 % ini qo'shni arab mamlakatlari, ya'ni Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab amirligi (BAA), Bahrayn, Quvayt va Ummon davlatlarining fuqarolari tashkil etadi.

**Boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar.** 1990-yillarda endi rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida mehnat migratsiyasi borasida favqulodda hodisa yuz berdi. Odatda ishchilar oqimi sanoati jadal rivojlanayotgan iqtisodiy islohatlar izchil kechayotgan mamlakatlarga yo'l olishadi. Masalan, mavsumiy ishchilar va biror korxonaga ishchi-jamoasi Lotin Amerikasidan Argentina va Meksikaga boradi. Shuningdek, Nigeriya, Janubiy Afrika respublikasi (JAR), Fil suyagi qirg'og'i kabi mamlakatlariga mavsum chog'i paytida barcha immigrantlarning 50% i ko'chib kelishadi. Ammo, siyosiy «o'yin»lar kechayotgan ayrim mamlakatlarda buning aksi vujudga keladi. Masalan, 1991 yilgi Fors ko'rfazida bo'lgan urush oqibatida salkam 1 mln. dan ortiq misrlik aholi Iroqdan, 800 mingga yaqin yamanlik aholi Saudiya Arabistonidan, 500 ming atrofida falastin va iordaniyalik aholilar Quvaytdan ko'chib ketishadi. Keyinchalik ularning o'rnini Hindiston va Misrdan kelgan immigrantlar egalladi.

**Yangi sanoatlashayotgan mamlakatlar.** Ishchi kuchlar migratsiyasi asosan Janubi-sharqiy Osiyo (Malayziya, Janubiy Koreya va boshq.) da ko'pchilikni tashkil etadi. Asosan ish mavsumi paytlarida bu yerga Meksikadan va rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlaridan ham ish izlab keluvchilarning soni ortib boradi.

Jahonda ishchi kuchlarini o'ziga jalb qiluvchi markazlardan biri-Avstraliya sanaladi. Har yili bu yerga 200 mingdan ziyod immigrantlar ishlash uchun kelishadi.

Hozirgi kunda Yevrosiyoda ishchi kuchlarini o'ziga tortuvchi yangi markaz-Rossiya Federatsiyasi bo'lib kolmokda. Bu yerda qonuniy mehnat qilayotgan immigrantlarning umumiy soni qariyb bir million kishidan ziyodni tashkil etadi.

#### 4.5. Xalqaro ishchi kuchlarini boshqarish

Albatta, xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasi ko'p hollarda davlat va davlatlararo boshqaruvida ma'lum muammolarni keltirib chiqaradi. Bu masalaga davlat aralashuvi xalqaro savdoni boshqarishdan ancha ilgari xalqaro mehnat bozori tashkil etilgandayoq amalga oshgan edi. Chunki u mamlakatdan bu mamlakatga o'tgan fuqarolar albatta biror tushunmovchiliklar oqibatida muammoni yuzaga keltiradi. Shu bois, XVIII asrdayok davlat chegaralaridan immigrantlarni o'tkazmaslik bo'yicha qat'iy qonun ishlab chiqilgan. Bunga yaqin o'xshash qonunlar XIX asrda ham ko'pgina Yevropa mamlakatlarida amal qilingan. Ammo hozirgi kunda dunyoning barcha yirik mamlakatlari o'z ichki mehnat bozorlarini to'ldirish, iqtisodini mustaxkamlash uchun immigrant va emigrantlar uchun hamda ularni qonuniy boshqarish uchun tartib-qoidalar ishlab chiqib, yo'llarni ochganlar.

Ko'pgina mamlakatlarda milliy hokimiyatlar migratsiya jarayoniga faol nazar solayotirlar. Ular boshqarayotgan tartiblarga ko'ra nafaqat immigrantlarning umumiy soni, kasb-kori, yoshi etiborga olinayotir, balki ularni shu yerga doimiy kelib ishlashlarini taminlovchi qonun-qoidalariga ham amal qilinmokda.

Ishchi kuchlari import qilinayotgin mamlakatlarda davlat migratsiyasi boshqaruvi tizimida qo'yidagi elementlar e'tiborda bo'ladi:

- immigrantlar uchun yuridik, siyosiy va kasbiy qonunchiliklarni joriy etish;
- milliy immigratsiya xizmati;
- migratsiya mavjud bo'lgan davlatlar o'rtasida kelishuvni amalga oshirish.

Odatda davlat boshqaruvi byudjet bo'yicha moliyalashtirilgan holatda xorij ishchi kuchlarini jalb etishga kirishiladi. Shuningdek, immigrantning shartnoma vaqti tugagach o'z uyiga qaytishi kafolatlanadi.

Yirik ishchi kuchlari migratsiyasidan foydalanayotgan mamlakatlarda immigrantlar bilan yaxshi munosabatda bo'lishadilar.

Birinchi, ishchining mutaxassisligi, bilimi, yoshi, salomatligi inobatga olinib, ularga erkin ishlashlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdilar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ish bo'yicha tuzilgan ikki tomonlama shartnoma (kontraktlar) muddati tugagach, unga maoshidan tashqari moddiy kompensatsiya va uning mamlakatiga ham immigratsiya yordami sifatida pul mablag'i o'tkazadi.

Immigratsion siyosat bevosita immigratsiya milliy xizmati, ya'ni mehnat vazirligi, adliya yoki ichki ishlar hodimlaridan tashkil topgan nufuzli xizmat orqali nazorat qilinadi. Bu organ ham federal migratsiyasi xizmati singari faoliyat yuritadi.

### Nazorat savollari

1. «Ishchi kuchi migratsiyasi», «Emigratsiya», «Immigratsiya», «Reemigratsiya», «Migratsiya-saldosi», «Aqli muhojir» tushunchalarini izohlab bering.
2. Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasining iqtisodiy maqsadli va noiqtisodiy sabablarni aytib bering.
3. Jahon iqtisodiyoti uchun migratsiyaning qanday iqtisodiy samaralari mavjud? Ular to'g'risida gapirib bering.
4. Ishchi kuchlari eksportining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri qanday?
5. Ishchi kuchlari importining mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirichi?
6. Ishchi kuchlarini o'ziga jalb etuvchi asosiy markazlar nomini ayting va izoh bering.
7. Davlat tomonidan boshqariladigan immigrantlikning asosiy xususiyatlarini ayting.
8. Reemigratsiya davlat boshqaruvi qanday imkoniyatlar beradi?

## XVIII Bob. JAHON XO‘JALIGIDA XALQARO KORPORATSIYALAR (MONOPOLIYALAR)

### 1.§. Transmilliy korporatsiya (TMK) larning mohiyati, turlari va vujudga kelish sabablari

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) BMT ekspertlari fikricha «Jahon iqtisodiyotining dvigateli» hisoblanadi. Ayni paytda jahonda 40 mingdan ziyod TMK lar faoliyat ko‘rsatadi. Ular taxminan 250 ming xorij korxonalariga ega.

Transmilliy korporatsiyalarning asosiy qismi AQSH, Yevropa Ittofoqi va Yaponiyada tashkil topgan. Transmilliy korporatsiyalar dunyo sanoat mahsulotlariining 40 % ini, xalqaro savdo hajmining teng yarmini ishlab chiqaradi. Umumiy ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmida TMK korxonalari ulushi har yili 1 trln. dollarga teng. Ularda 75 mln.ga yaqin ishchi-xodimlar faoliyat yuritadi. Bu degani dunyodagi ishga yaroqli aholining har o‘ntasidan biri TMK korxonalarida ishlaydi, deganidir.

Xo‘sh, transmilliy korporatsiyalar o‘zida nimalarni aks ettiradi, ularning tarkibiga qaysi korxonalar kiradi? BMT mana bir necha yildirki xalqaro korporatsiyalar faoliyati bilan qiziqib keladi. Shu bois unga tovar aylanmasi yillik 100 mln. dollarni tashkil etadigan ko‘plab korxonalar va firmalar murojaat etadi. Ularning filiallari bugungi kunda 6 mamlakatda tashkil etilgan. Dastlabki BMT yirik korporatsiyalar faoliyati bilan qiziqib, ularni o‘z a‘ziligiga olgan bo‘lsa, endilikda bunday korxonalar bu nufuzli uyushmaga a‘zo bo‘lish uchun yelib-yugurayotirlar. Bunda transmilliy korporatsiyalar orasida Shvesariyaning «Nestle» firmasi yetakchilik qilmokda.

BMT metodologiyasidan bilish mumkinki, xalqaro korporatsiyalar o‘z aktivlarini ham TMK ga yo‘naltirayotirlar. Hozirda TMK lar o‘rtasida yuqori aktivga ega muassasa, bu – transmilliy banklar sanaladi, ya‘ni bular – «Royal-Datch shell» ingliz-golland konserni, hamda AQShdagi «Ford», «Jeneral-Motors», «Ekson» va «IBM» lardir.

Xalqaro monopoliyalar ta‘rifi. G‘arb iqtisodiyoti adabiyotlarida ko‘pgina xalqaro monopoliyalar mavjud, degan iboraga ko‘zingiz tushadi. Bular-transmilliy korporatsiyalar, baynalminal korporatsiyalar, transmilliy kompaniyalar, global kompaniyalar va boshqalar. Taniqli amerikalik marketing fani bilimdoni F.Kotlyar, xalqaro kompaniyalar tashkil topishi jihatidan to‘rt turga bo‘linadi, degan edi: ular-global kompaniya, trans milliy kompaniya, ko‘p millatli kompaniya va baynalminal kompaniya.

Rossiyalik iqtisodchilar ham ularni odatdagicha tasnif etadilar. Transmilliy korporatsiyalar-bu xorij aktivlaridan tashkil topgan milliy monopoliyalar bo‘lib, ularning mahsulot ishlab chiqarishi va savdo faoliyati bir mamlakatdan tashqarida amalga oshiriladi.

AQSH korporatsiyalari aksiyadorlik jamiyat deb yuritiladi. Aksariyat qo‘shma TMK larning Amerika kompaniyalari bilan qo‘shilganiga xalqaro maydonda shu nom bilan yoyilishi kuzatilmokda.



Bu tuzilmalar rivojlanayotgan mamlakatlarda arzon ishchi kuchlari, kapital va zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash umumlashtirish uchun asosiy vosita bo'ldi. Uning tarkibidagi kompaniyalar alohida, mustaqil ravishda mahsulot ishlab chiqaradilar, ilmiy-tadqiqot ishlari olib boradilar, ista'molchilarga xizmatlar ko'rsatadilar va hakazo.

Ular bir butun bo'lib yoxud yagona yirik ishlab chiqarish, sotish majmuasi sifatida va mulkdorlarning aksiya kapitallari yig'ilmasi bilan yagona TMK ga birlashishlari mumkin. Bunday paytda ham kompaniya filiallari va sho'balari qo'shma korxonalar tashkil etishlari mumkin bo'ladi.

Ko'p millatli korporatsiyalar (KMK) – bu xususiy bo'lgan Xalqaro korporatsiyalardir. Bunda ikki mamlakatning umumiy strategik maqsadlarga erishishini ko'zlagan qo'shma milliy kompaniyalar mavjud. Masalan, 1907 yilda tashkil topgan ingliz-golland konserni – «Royal-Dutch shell». Bu ikki millatning bu korporatsiyadagi kapitali 60 ga 40 sanaladi. Ko'p millatli korporatsiyalar tarkibiga mashhur va yirik Yevropaning Shveysar-shved «AVV» (Asia Bromn Bovary) kompaniyasini ham qo'shish mumkin. Bu qo'shma korporatsiya mashinasozlik va elektr-muhandislik xizmatlarini amalga oshiradi va uning filial va qo'shma korxonalari MDH davlatlarida ham mavjud. Yevropadagi yana bir yirik ko'p millatli korporatsiya ingliz-golland konserni hisoblangan «Yunilever» dir.

Ko'p millatli korporatsiyalar o'zida quyidagi xususiyatlarni aks ettiradi:

- naqd bo'lgan ko'p millatli aksiyadorlik kapitalini;
- mavjud ko'p millatli markazlar boshqaruvini;
- mahalliy shart-sharoitlar ma'muriyatining jamlashni.

Oxirgisi, ko'pgina transmilliy korporatsiyalarga xos bo'lmagan tomonlari mavjud. Umuman olganda ko'p millatli korporatsiyalar o'rtasida chegara amal qilinadi, faqatgina u firmaga ish yoki mahsulot eltish yuzasidan borilganda chegara bo'lmaydi, xolos.

Transmilliy korporatsiyani xalqaro kompaniyalar orasida keng tarqalgan global korporatsiyalar to'ldiradi. Ular XX asrning 80-yillarida ancha kuchaydi. Global korporatsiyalar o'zlarida dunyo moliya kapitalining barcha qudratlarini aks ettirgan. U ko'pgina sohalarni, ya'ni ximiyaviy, elektrotexnika, elektronika, neft, avtomobil, axborot, bank tarmoqlarini globalashtirmoqda, ya'ni dunyo miqyosida ko'paymoqda.

Transmilliy korporatsiyalarning vujudga kelish sabablari milliy davlat chegaralarida mahsulotlar ayirboshlash va sotish, o'tkazishda baynalmillik an'analarini ro'yobga chiqarishda ko'riladi.

Mahsulotlarning erkinlashuvi va baynalmillashuvi chegaralarda yirik kompaniyalarni tashkil etilishiga va transmilliy korporatsiyalarning tobora iqtisoddan baquvvat va rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Kapitallarning almashinuvi esa xalqaro korporatsiyalar taraqqiyotida alohida vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

TMK ning vujudga kelishini aniq sababi – yuqori daromad ko'rishlikda, desak bo'ladi. Shuningdek, mustahkam raqobat, mahsulot va pul mablag' TMKning vujudga kelishini ta'minladi.

## 2.5. Transmilliy korporatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari

Transmilliy korporatsiyalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular xalqaro mehnat taqsimoti va uning rivojlanishida faol rol o'ynaydi. TMK xalqaro mahsulot tizimida dunyoning ko'plab mamlakatlarida mahsulot ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatuvchi sho'ba kompaniyalar tashkil etishni amalga oshiradi.

TMK yuqori texnologiyali tarmoqlar, yuqori ilmiy salohiyat natijasida vujudga keladigan mahsulotlarni ko'proq ishlab chiqaradiki, bunga bo'lgan mijozlar ham ixtisoslashgan shaxslar bo'ladi. Buning natijasida bu sohalardagi xalqaro korporatsiyalarda monopollik ruhi hukm suradi.

XX asr oxirlarida jahondagi rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqargan sanoat mahsulotlarining to'rt dan uch qismi 2000 ta yirik korporatsiya ulushiga to'g'ri keldi. Ularning yuzdan ortig'i 50-80 % mahsulot turlarini ishlab chikardi. Bu transmilliy korporatsiyalar ichki va tashqi savdoda ham katta nufuzga egadir.

Eng baquvvat sanalgan 500 ta TMKlar xorij investitsiyasi ulushining 4 dan 3 qismiga egalik qiladi. Bu gigant TMK lar dunyodagi mavjud elektronika va ximiya mahsulotlarining 5 dan 4 qismini, farmatsevtika mahsulotlarining 10 dan 9, mashinasozlik mahsulotlarining 10 dan 8 qismini ishlab chiqaradi.

2004 yil ma'lumotlariga qaraganda, dunyo xo'jaligida 600 tadan ortiq TMKlar hukmronlik qilgan. Ularning 300 tasi dunyo yalpi mahsulotining 4 dan 3 qismini ishlab chiqargan va o'z mahsulotlari va xizmatlari – nurini keskin ko'paytirgan. Masalan, «Volvo» nomli shved avtomobil konserni hozirgi kunda nafaqat jahonda mashhur bo'lgan avtomobil ishlab chiqarish bilan kifoyalanayapti, balki u Shvesiyaning o'zida 30 dan ortiq yirik sho'ba kompaniyalari va o'ndan ortiq davlatlardagi korporatsiyalari katerlar uchun dvigatellar, aviatsiya motorlari, hatto pivo mahsulotlari ishlab chiqarmoqda. Shu bilan birga, AQShdagi 500 ta eng yirik TMKlar 11 xil o'rta tadbirkorlik sohalorida va 30-50 ta kuchli sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda. Yoki 100 xil sanoat guruhlarida ish yuritayotgan firmalar Angliyada jami 96 sohada, Germaniyada – 28, Fransiyada – 84, Italiyada esa 90 xil sohalarda mahsulot tayyorlash bo'yicha yetakchi sanalishadi. Muhimi, ularning soni va harakteri iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

TNKlarning kuchli mahsulot bazasi mo'ljali yuqori samara beruvchi mahsulot bozorini vujudga keltirib, ana shunday mahsulot ishlab chiqarish - savdo siyosati yurgizishni ko'zlaydi. Shuningdek uning rejasida kompaniyalar tuzish va firmalar tashkil etish masalasi ham bor.

Transmilliy korporatsiyalar xalqaro maydonda ilmiy-tadqiqot ishlari va kapitallar rivoji bo'yicha siyosiy dinamika vazifasini o'taydi. Masalan, «Elektrolyuks» transmilliy korporatsiyasini olaylik. U ayni paytda dunyo bozoridagi maishiy elektro mahsulotlar va sanoat texnologiyasining 25 %ini o'z qo'lida ushlab turibdi. 1912 yilda tashkil etilgan bu shved kompaniyasi XX asrning 20–yillardayoq Astraliya va Yangi Zelandiya bozorini o'z mahsuloti bilan egallab olgandi. So'nggi o'n yilda esa «Elektrolyuks» «Uayt Konsolideyted» kompaniyasini, AQShda esa maishiy texnika ishlab chiqaradigan «Vestingauz», «Gibson» kompaniyasini, shuningdek, yirik elektr tovarlari ishlab chiqaradigan

«Zanussi» (Italiya va barcha janubiy Yevropada mavjud) hamda elektr tovarlari ishlab chiqaradigan «AEG» (Germaniyada) kompaniyalarini o'ziga qo'shib oldi.

Bu firmalarning qo'shilishi natijasida «Elektrolyuks» dunyoda o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotlar tarmog'i bo'yicha lider bo'ldi. 75 mamlakatni elektrotexnika mahsulotlari va xizmatlari bilan ta'minlab kelmoqda. 90 yillar oxirida bu TMKlarning barcha korxonalarida 110 ming dan ziyod kishi mehnat qilib va uning yillik mahsulot hajmi 16 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi.

### 3.5. Jahon xo'jaligida TMKlarning tutgan o'rnini va roli

Ma'lumki, TMKlar o'z faoliyatini kengaytirish orqali jahon bozorida yangi shakllarni o'zlashtiradi. Bu shakllar TMKlarga a'zo bo'lmagan firmalar bilan aloqalar o'rnatish, shartnomalar imzolash munosabatlari bilan amalga oshiriladi. Endi bunday firmalar TMKlarning odatdagi iqtisodiy variantlariga tanlashlari mumkin bo'ladi:

- litsenziyalash;
- franchayzing;
- boshqariladigan kontraktlar;
- texnik va marketing xizmatlarga e'tibor qaratish;
- «kaliti bilan» sanalgan korxonalar o'rtasida aloqalar o'rnatish;
- ko'shma korxonalar tashkil etish bo'yicha kelishuvlar va alohida amalga oshiriladigan operatsiyalardagi cheklovga rioya qilish.

Litsenziya bitimi yuridik shartnoma bo'lib, litsenziya egasi o'ziga tegishli hududda bemolol faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Litsenziya munosabatlari soddalashtirilgan bo'lib, bu hujjat ichki firma shartnomasidagi kabi, tashqi texnologik yo'nalishlarda ham to'la-to'kis kuchga ega hisoblanadi.

Litsenziya bitimining asosiy ko'rinishi franchayzing (franshiza) deb yuritiladi.

Franchayzing – bu litsenziyaviy bitim, davomiylik asosidagi muddatga ega. U ishlab chiqaruvchining o'z mahsulotini biron-bir firma yoki korxonaga sotish huquqini berishi va mahsulotni sotish huquqiga ega bo'lgan savdo firmasi yoki korxonasi. Franchayzing biznesni tashkil etish va amalga oshirish usuli sifatida 1990 yillar oxirida ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan TMKlarning bu shakli boshqaruv va marketing xizmatlariga e'tiborni kuchaytirishni talab etgan.

Texnik ko'maklashish haqidagi shartnomaga ko'ra TMKlar mavjud firmalarga texnik xizmatlar ko'rsatish va ular faoliyati nuqtai nazaridan zarur yordamni beradi. Aksariyat bitimlar mashina va texnologiyalarni profilaktik ta'mirlash, «nou-xou» ni amalga oshirishga maslahat berish, xavf-xatarlarning oldini olish va sifatli nazorat o'rnatish borasida tuziladi.

Eng yirik bitimlar zavodlarning «kaliti bilan» deb nomlangan iqtisodiy aloqalari bo'yicha tuzilishi kuzatilmoqda. Bu holatda TMKlar o'z zimmasiga firmaning barcha faoliyatini yuzaga chiqarish, rejalashtirish yoki kurish uchun zarur bo'lgan ob'ektlarning saqlanish javobgarligini oladi.

Transmilliy korporatsiyalar xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida mehnatni yuqori baholash bo'yicha jahon xo'jaligi taomiliga mos bo'lgan tarzda asosiy rol o'ynaydi. Barcha TMK lardagi yirik xorij investitsiyalari hozirgi vaqtda savdodan ko'ra bandlik masalalariga ko'proq jalb etiladi. TMKlar hozirda dunyodagi barcha xususiy sektorga tegishli investitsiyalarning 90% dan ko'proq ulushini o'z nazoratiga olgan.

TMKlar mahsulotlari tizimi sohasi yetarlicha keltirilgan. Dunyodagi 60 % xalqaro kompaniyalar mahsulot ishlab chiqarish bilan, 37 % i xizmatlar ko'rsatish bilan, 3% i esa qazib olish sanoati va qishloq xo'jaligi sohasi bilan band.

Amerikada chiqadigan «Fortun» jurnali ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi 500 ta yirik TMKlar o'rtasida to'rtta kompleks asosiy rol o'ynaydi. Bular: elektronika, neftni qayta ishlash, ximiya va avtomobilsozlik. Ular 500 ta TMKlar ichida bu mahsulotlarni sotish bo'yicha 80 % ulushga ega.

TMKlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi rovida hududiy – sohalarga investitsiya kiritish bilan ham alohida harakterlanadi. Qoidadagidek, ular asosan «yangi sanoati rivojlanayotgan mamlakatlar» hamda taraqqiy etayotgan davlatlarga sanoat sohasida qayta qurishni jadallashtirish uchun kapital ajratmoqda. O'z-o'zidan bu holatda kapital oluvchi mamlakatlar o'rtasida investitsion rakobat yuzaga kelmoqda.

Qashshoq mamlakatlar uchun transmilliy korporatsiyalar ko'proq qazilma sanoat tarmoqlari va mahsulot eksporti yo'nalishiga mablag' kiritadi. Bu holatda ham jadal raqobat yuzaga keladi. Fakat bu raqobat mahalliy bozorlarni mahsulotlar bilan to'ldirish uchun TMK larning o'zlarida vujudga keladi.

TMKlar barcha jabhalarda xalqaro iqtisodiy aloqallar tizimida u yoki bu mamlakat uchun ular takdirini belgilovchi faktor sifatida gavdalanadi. Faol ishlab chiqarish, investitsiya, savdo yo'nalishida TMKlar ular uchun katta ko'mak bo'luvchi dastak rolini bajaradi. BMT ekspertlari ta'kidlashicha, dunyo iqtisodiy integratsiyasiga ko'shilishda bu mamlakatlar uchun TMK larning ahamiyati bekiyos.

TMKlar ayrim davlatlar an'analariga buysunmay u sohaga bostirib kiradi – degan edi BMT eksperti YUNKTAD ya'ni, BMTning savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasida. Darhakikat, TMKlarning faoliyati integratsiyalashuv, chegaralararo baynalminallik va shular orqali yuqori foydaga ega bo'lishdan iborat.

O'z o'rnida TMKlar harakatining jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ham ijobiy, ham salbiy ta'sirlari mavjud. Bu borada mutaxassislar quyidagicha fikrlaydilar:

- davlatning siyosiy – iqtisodiy munosabatiga TMKlar o'z faoliyati bilan zid yuradi;
- davlat qonunlari buzuladi, qo'l kuchi transferer bahosini nomutanosiblashtiradi. Qator mamlakatlarda tashkil etilgan TMKlar sho'ba kompaniyalari milliy qonunchiliklarni pisand etmaydi, aksincha mamlakat ichidagi soliq muammolariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi;
- rivojlanayotgan mamlakatlarda monopolistik baho joriy etadi, diktaturaga xos sharoit vujudga keltiradi.

Xullas, trasmilliy korporatsiyalar – bu ancha murakkab va doimo xalqaro xo‘jalik aloqalari tizimida rivojlanib boruvchi xususiyatni talab etuvchi hamda doimiy ravishda xalqaro nazoratni, o‘zlashtirib borishni va e‘tiborni qaratishni talab qiladigan uyushma, birlashma hisoblanadi.

#### 4.§. Erkin iqtisodiy zonalar (hududlar)

Erkin iqtisodiy hududlar (EIH) dunyoning ko‘plab davlatlarida keng yoyilgan. XX asrning oxirlarida dunyoda turli xildagi 4 mingdan ortiq EIH lar mavjud edi. G‘arb mutaxassislarining fikricha 2004 yilga kelib jahon tovar aylanmasining 30%i turli erkin iqtisodiy hududlarda ro‘y berdi. Xalqaro korporatsiyalar o‘z faoliyatlari uchun imtiyozli sharoitlarni qidirib, EIHLarni ko‘p foyda olish mumkin bo‘lgan joy sifatida ko‘rishadi. Yirik xalqaro korporatsiyalar erkin iqtisodiy hududlarda o‘z ishlab chiqarishlarini tashkil qilishni ekspansiyalarining muhim yunalishi deb hisoblaydilar.

Erkin iqtisodiy hududlar mamlakatning boshqa qismlarida ishlatilmaydigan imtiyoz va rag‘batlantirishning o‘ziga xos tizimi qo‘llaniladigan milliy iqtisodiy hududning bir qismidir. Odatda EIHLar jug‘rofiy jihatdan u yoki bu darajada alohida hududdir.

Erkin iqtisodiy hududlar ularni tashkil qiluvchilar tomonidan ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishdagi muhim bosqich sifatida ko‘riladi. Ularning faoliyat ko‘rsatishi tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish va erkinlashtirish bilan bog‘lanadi. Erkin iqtisodiy hududlarning iqtisodiyoti tashqi dunyoga ochiqligi katta darajada bo‘ladi. Bojxona, soliq va investitsion rejimi esa tashqi va ichki investitsiyalar uchun qo‘laydir.

Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilishning muhim sabablaridan biri shundaki, ko‘pincha davlat iqtisodiyotini kapital oqimi uchun to‘liq ochishni, o‘ziga xos investitsiya oqimini hamma joyda ishlatishni istamaydi. Shuning uchun ham maxsus hudud sifatida qisman ochiqlikni ishlatadi.

Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilishda ikkita konseptual yondoshish qo‘llaniladi: hududiy va funksional (nuqtali). Birinchi holatda hududdagi barcha rezident korxonalar xo‘jalik faoliyatida imtiyozlardan foydalanadilar.

Erkin iqtisodiy hududlarning eng oddiy ko‘rinishlaridan biri erkin bojxona (bojsiz) **hududlari** (EBX) hisoblanadi. Bu hududlar erkin savdo hududlari kabi birinchi avlod hududlariga kiradi. Ular XVII-XVIII asrlardan buyon mavjud. Bunday hududlarni ko‘pincha bond omborlari yoki erkin bojxona hududlari deb ataladi. Erkin bojxona hududlari tovar olib kirish va olib chiqishda bojdan ozod qilinadi. Ular ko‘plab mamlakatlarda mavjud.

Erkin savdo **hududlari** (ESH) ham dunyoda keng tarqalgan. Erkin savdo hududlari AQShda eng ko‘p rivoj topgan. Ularni tashkil qilish 1934 yildagi maxsus qonunda nazarda tutilgan. Uning maqsadi savdoni rag‘batlantirish, savdo operatsiyalarini tezlashtirish, savdo harajatlarini kamaytirishdan iborat.

Oddiy erkin savdo hududlari qatoriga yirik xalqaro aeroportlardagi maxsus «dyuti fri» magazinlarini kiritish mumkin. Rejim nuqtai nazaridan ular davlat

chegaralaridan tashqarida deb hisoblanadi. Erkin savdo hududlari qatoriga imtiyozli holatga ega bo'lgan an'anaviy erkin portlarni kiritish mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish hududlari ikkinchi avlod hududlari hisoblanadi. Ular erkin savdo hududlariga faqat tovar emas, kapital ham olib kiritilishi va ularda faqat savdo bilan emas, balki ishlab chiqarish faoliyati bilan ham shug'ullanilishi oqibatida erkin savdo hududlarining evolyutsiyasi natijasida vujudga keladi.

Sanoat ishlab chiqarish hududlari maxsus boj rejimiga ega bo'lgan hududlarda tashkil qilinadi. Ularda eksport uchun yoki import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqiladi. Bu hududlar sezilarli soliq va moliyaviy imtiyozlarga ega bo'ladilar.

Eksport ishlab chiqarish hududlarini tashkil qilish mantiqi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan belgilangan edi. O'tgan asrning 60-yillari o'rtalarida bu yerda sanoat eksportini rag'batlantirish va xorijiy kapital oqimi yordamida bandlik darajasini oshirish zaruriyati tug'ilgan edi.

Texnika kiritish hududlari uchinchi avlod hududlari hisoblanadi (70-80-yillar). Ular stixiyali tarzda hosil bo'ladi yoki maxsus ravishda davlat yordamida yirik ilmiy markazlar atrofida tashkil qilinadi. Ularda yagona soliq va moliyaviy tizimdan foydalanuvchi milliy va xorijiy tadqiqotchilik, loyixa, ilmiy-ishlab chiqarish firmalari jamlanadi.

Eng ko'p texnika kiritish hududlari AQSH, Yaponiya, Xitoyda faoliyat ko'rsatmokda. AQShda ularni texnoparklar, Yaponiyada-texnopolislar, Xitoyda-yangi va ilg'or texnologiyalar hududi deb ataladi.

Jahonda eng mashhur va AQShda eng yirik «Silikon Velli» nomli texnopark jahon hisoblash texnikasi vositalari va komp'yuterlar ishlab chiqarishining 20 %ini beradi. Umuman AQShda 80 dan ortiq bunday hududlar mavjud. Yaponiyada mahsus hukumat dasturlari doirasida ilg'or ilmiy tashkilotlar asosida yigirmaga yaqin texnopolislar tashkil qilingan. Xitoyda ham bunday hududlar odatda davlatning ilm va texnikani rivojlantirish rejalarini amalga oshirish paytida tashkil qilinadi. 90-yillarning o'rtalaridan boshlab Xitoyda 50dan ortiq yangi va ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish hududlari ishlamoqda.

Turli moliya-iqtisodiy, sug'urta va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi firma va tashkilotlar uchun tadbirkorlik faoliyatining imtiyozli sharoitlari yaratiladigan hududlar servis hududlari deb ataladi.

Servis hududlar qatoriga offshor hududlar (OH) va solih gavanlari (SG) kiradi. OH va SG tadbirkorlarni qo'lay valyuta-moliya, fiskal sharoitlar, bank va tijorat sirlarining yaxshi saqlanishi, davlat boshqaruvining kamligi bilan o'ziga jalb qiladi.

Offshor kompaniyalar faoliyat ko'rsatayotgan davlatlar qatoriga Lixtenshteyn, Panama, Normandiya orollari, Men orollari (Britaniya), Antil orollari, Gonkong, Madeyra, Liberiya, Irlandiya, Shveysariya va boshqalar kiradi. Oxirgi o'n yillikda bularga Malta, Mavrikiya, G'arbiy Samoa, Isroil, Malayziya (Labuan oroli) va boshqa davlatlar qo'shildi.

Offshor hududlardagi sanoat, savdo, bank, sug'urta va boshqa kompaniyalar yo umuman soliqqa tortilmaydi (Irlandiya, Liberiya) yoki kichik miqdordagi soliqlar to'laydi (Lixtenshteyn, Antil orollari, Panama, Men oroli va boshqalar).

Offshor hududlarni tashkil qiluvchi davlatlar qo‘shimcha xorijiy kapital jalb qilish, offshor hududida ro‘yxatga olingan korxonadan foyda olish, mahalliy mutaxassislar uchun qo‘shimcha ish joylari tashqiy qilinishi orqali foyda ko‘radilar. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda offshor biznesda band bo‘lgan kapital 500 mlrd. doll.ga yetadi. Unda qariyb 2 mln. kishi qatnashadi va har yili bir necha ming yangi kompaniya ro‘yxatga olinadi.

Majmuaviy hududlar alohida ma’muriy tumanlar hududida umumiy xo‘jalik yuritish rejimiga nisbatan alohida, imtiyozli rejim o‘rnatish bilan tashkil qilinadi. Ularga Xitoyning 5 ta mahsus iqtisodiy hududlarini, Braziliyadagi «Manuas» hududini, Argentinadagi «Olovli yer»ni, sanoati rivojlangan davlatlarning kam rivojlangan hududlaridagi erkin tadbirkorlik hududlarini kiritish mumkin.

Turli ko‘rinishdagi erkin iqtisodiy hududlarning o‘xshash tomonlari ularda o‘zida tadbirkorlar uchun bojxona, moliyaviy, soliq imtiyozlari va umumiy rejimga nisbatan ustunliklar bo‘lgan qulay investitsion iqlim mavjudligidadir. Turli hududlarda imtiyoz va rag‘batlantirishlar ba’zi jihatlari bilan farq qiladi.

Imtiyozlar turtta asosiy guruhga ajratiladi:

- Tashqi savdo imtiyozlari. Bu alohida bojxona-tarif rejimini kiritish (ekport-import bojarini kamaytirish yoki bekor qilish) va tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish tartibini soddalashtirish;
- Soliq imtiyozlari. Bunda faoliyatning ma’lum ko‘rinishlari soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantiriladi. Bu imtiyozlar soliq bazasi (daromad, mulk qiymati va h.k.), uning tarkibiy qismlari (amortizatsiya ajratmalari, ish haqiga harajat, transport), soliq stavkalarining darajasi, soliqqa tortilishdan doimiy va vaqtinchalik ozod qilish masalalari;
- Moliyaviy imtiyozlar. U o‘z ichiga turli shakldagi subsidiyalarni oladi. Ularga kommunal xizmatlarning arzonligi, yer maydonlari va ishlab chiqarish binolari, ijara haqini kamaytirish, imtiyozli kreditlar berish kiradi;
- Ma’muriy imtiyozlar. Korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va xorijiy fuqarolar kirib-chiqishini yengillashtirish, shuningdek turli xizmatlar ko‘rsatish maqsadida ma’muriyat tomonidan maxsus hududlar ajratilishi.

Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilishning jahon tajribasi ularning umumiy yutuqlari, umumiy xususiyatlari va rivojlanishining o‘ziga xos tomonlari haqida ma’lum bir xulosalar chiqarishga imkon beradi. Sanoati rivojlangan davlatlardagi erkin iqtisodiy hududlar yaxshi rejalashtirilganligi va ularni boshqarishning moslashuvchanligiga bog‘liqdir.

Bu hududlarni tashkil qilish ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan juda foydali bo‘lib, ko‘plab ish o‘rinlarini tashkil qilishda, halqaro tovar ayirboshlashni jonlantirishda, tashqi savdo aloqalari natijalarini yaxshilashda, ilmiy-ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda katta rol o‘ynaydi.

Rivojlanayotgan davlatlardagi erkin iqtisodiy hududlar ham o‘ziga xos qator o‘xshashliklarga egadirlar.

Birinchidan, bu davlatlarda eksport-ishlab chiqarish hududlari (EICHH) keng tarqalgan. Yuqorida aytilganidek, EICHH tashkil qilishga qator iqtisodiy sabablar, avvalambor, eksport uchun sanoat tovarlari ishlab chiqarishni

rivojlantirish, mamlakatga xorijiy kapital, ilgor fan va texnika, zamonaviy texnik axborotlar jalb qilish zaruriyati kabi sabablar turtki bo'ladi.

Ikkinchidan, erkin iqtisodiy hududlardagi xo'jalik yuritish rejimi xorijiy ishbilarmonlar uchun erkinroq va imtiyozli bo'ladi. Bu erkin iqtisodiy hududlar orasida xalqaro raqobatning kuchayishi bilan bog'liqdir.

Uchinchidan, erkin iqtisodiy hududlar faoliyati davomida ular faoliyatining tovar-sanoat diversifikatsiyasi ro'y beradi. Zamonaviy ITI yangi va yuqori texnologiya ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan ilmtalab ishlab chiqarish jamlangan erkin iqtisodiy hududlarni ilgor o'rinlarga olib chiqadi.

Rivojlanayotgan davlatlar orasida Xitoyda maxsus iqtisodiy hududlar sezilarli rivojlandi. 80-yillarning boshlarida maxsus hududlarga birlashtirilgan kichik-kichik hududlar bilan boshlagan Xitoy hukumati 90-yillarning boshlarida bunday hududlarni yuzlab kvadrat kilometrga yoydi. Mamlakatda va xorijda mashhur bo'lgan «Shenchjen», «Chjuxay», «Syamen», «Shantou», «Xaynan»dan tashqari mamlakatda texnik-iqtisodiy hududlar (yigirmadan ortiq) va yangi va yuqori texnikani rivojlantirish hududlari - texnoparklar ham sezilarli rivojlandi. Shanxaydagi «Pudun» iqtisodiy rivojlanish hududiga alohida rol ajratilgan. Bu loyihaga ko'ra «Pudun» hududi bir necha o'n yil mobaynida Shanxayni Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi yirik savdo va moliyaviy markazga aylantiradi.

Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilish Xitoy hukumati tomonidan 70-yillar oxirida e'lon qilingan «ochiq eshiklar» tashqi iqtisodiy siyosatning tashqiliy bir qismi bo'lib qoldi. Erkin iqtisodiy hududlar rivojlantirish modelini tanlashda Xitoy rahbariyati mamlakatning joriy ehtiyojlari va bunday hududlar tashkil qilishning xorijiy tajribalarini e'tiborga oldi. Singapur, Tayvan va AQSH tajribasi alohida e'tibor bilan o'rganildi. Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilishga tayoyrgarlik davrida ular faoliyatining bir necha variantlari taklif qilindi. Natijada eksportga, xorijiy kapitalni jalb qilishga, shuningdek, ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshilashga yunaltilgan EIH tanlab olindi. Maxsus iqtisodiy hududlar «ochiq eshiklar» siyosatini amalga oshirgan holda, mamlakatning boshqa tumanlarini bog'lab turuvchi rolini o'ynay boshladi.

Xitoydagi maxsus iqtisodiy hududlar va boshqa imtiyozli investitsion iqlimdagi tumanlar faoliyatining amaliyoti shubhasiz muvaffaqiyatga erishdi. Xitoylik va xorijiy mutaxassislar EIH erishgan yutuqlar qatoriga avvalo, barqaror iqtisodiy o'sish sur'ati, hududlarga ko'p miqdorda xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi, mehnat unumdorligining sezilarli o'sishi va nihoyat, aholi turmush darajasining o'sishini kiritishadi.

Erkin iqtisodiy hududlar muvaffaqiyati haqida guvohlik beruvchi misollardan tashqari ularni tashkil qilishda muvaffaqiyatsizlikka ham uchrangan. Masalan, Shri Lanka, Gvatemala, Liberiya, Senegal va boshqa davlatlarda turli ko'rinishdagi erkin iqtisodiy hududlar nafaqat muvaffaqiyatsizlikka uchradi balki umuman faoliyatini to'xtatdi. Buning asosiy sabablariga siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy sabablarni ko'rsatish mumkin.

Siyosiy sabablar mamlakatdagi umumiy siyosiy beqarorlik, fuqarolar kelishmovchiliklari va boshqalardir. Iqtisodiy sabablarga avvalo, erkin iqtisodiy hududlardagi investor nuqtai nazaridan juda murakkab investitsion rejim haqidagi



qonunchilik kiradi. EIXdagi byurokratik boshqaruv, hududda investorlarni ro'yxatga olishda kerak bo'lmagan protseduralar mavjudligi, hudud ustunliklarini yomon reklama qilinishi ham erkin iqtisodiy hududlar taqdiriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

### Nazorat savollari

1. Nima uchun transmilliy korporatsiyalar (TMK) «jahon iqtisodiyotining dvigateli» deb ataladi?
2. Dunyodagi jami TMKlarning sonini ayting.
3. TMKlarning asosiy qismi qayerda to'plangan?
4. Dunyodagi qaysi xalqaro savdo va sanoat mahsulotlari hajmida transmilliy korporatsiyaning ulushi qancha?
5. Xalqaro monopoliya iborasiga ta'rif bering.
6. Yirik va gigant xalqaro transmilliy korporatsiyalarni aytib o'ting?
7. TMKlar faoliyatining asosiy xususiyatlariga ta'rif bering.
8. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda TMKlarning ma'no va rolini ayting.
9. Mamlakat iqtisodiyotiga TMKlarning salbiy ta'sir etuvchi jihatlarini gapirib bering.

## XIX Bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA XALQARO TASHKILOTLARNING O‘RNI VA ROLI

### 1.§. Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari

Xalqaro valyuta fondi (XVF). Xalqaro valyuta fondi 1944 yil iyulida AQSH ning Bretton-Vudse shahrida o‘tkazilgan BMT ning konferensiyasida tashkil etilgan. XVF ning nizomi esa 1945 yil dekabrda 29 ta mamlakat imzosi bilan tasdiqlangan. U 1947 yil mart oyida faoliyat boshladi va bosh binosi Vashingtondan joy oldi.

Bu davrda XVF ning asosiy yo‘nalishi (Nizom bo‘yicha) quyidagilardan iborat edi:

- Xalqaro valyuta hamkorligiga ko‘maklashish, dunyo savdo taraqqiyotiga yordam berish;
- valyuta kurslarini boshqarish;
- to‘lovlarning ko‘p xilli tizimining amal qilinishiga ko‘maklashish;
- valyuta cheklovlaridan mavjud kamchiliklarni bartaraf etish.

XVF ga a‘zo mamlakatlarning xorijiy valyutadan foydalangan chog‘ida to‘lov balanslarning har bir kvotalar uchun to‘lagan a‘zolik badallari tashkil etadi. Kvotalar o‘lchami esa mamlakatlar iqtisodiyoti taraqqiyoti darajasini (YAIM hajmida) hamda ularning jahon xo‘jaligi va xalqaro savdodagi rolini belgilaydi.

A‘zolik badallar-kvota ovozlari soni va hajmi XVF organida rahbarlik qilish o‘rnini belgilaydi. Ayni vaqtda AQSH ning XVF kapitalidagi ulushi-17,7 % ni tashkil etadi va shu bois u shu organga rahbarlik qiladi. Germaniya va Yaponiya ulushi – 5,5 % dan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlariniki esa – 26 % dan ziyod. Bu fondga O‘zbekiston ulushi qariyb 296 mln. dollarini tashkil etadi.

XVF yuqori rahbarlik organi barcha a‘zo davlatlarning moliya vazirlari yoki markaziy banklari rahbarlaridan tarkib topgan maslahat boshqaruvchilaridir. XVF–dunyodagi eng yirik kreditor tashkilot bo‘lib hisoblanadi. Hozirda u dunyodagi mavjud 200 dan ortiq mamlakatlarga kreditlar, ko‘maklashuvchi mablag‘lar ajratadi.

XVF kreditlari asosan mamlakatlarning chet el valyutalaridan foydalanganlarida to‘lov balanslarini barqaror holda turishi uchun beriladi. Kreditni olish uchun mamlakat avvalo o‘z hududida siyosiy va iqtisodiy qulay sharoitlarni saqlashi talab etiladi. XVF hozirda quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- xalqaro valyuta tizimini nazoratga olishni;
- valyuta kurslarini barqarorligi va fondga a‘zo mamlakatlarning valyuta munosabatlarini tartibga solishni;
- o‘zining barcha a‘zolariga ko‘maklashishni, to‘lov balanslari borasida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni bartaraf etishni, ularga qisqa va uzoq muddatli kreditlar berishni;
- a‘zo mamlakatlaridan valyuta zahiralarini to‘ldirishni va SDR ni taqsimlashni;

- kvotalar badali hisobidan o'zining moliyaviy resursini tashkil etishni.

Ayni paytda XVF oldida bir qator operativ masalalarni hal etish muammosi ko'ndalang turibdi. Chunki xalqaro valyuta fondi - bu valyuta-moliya munosabatlari sohasida ancha obro'li xalqaro tashkilot sanaladi.

Jahon banki (JB). Jahon banki XVF dan tashqari xalqaro valyuta-moliya munosabatlarida asosiy boshqaruvchi institutlardan biri sanaladi. U bir necha moliyaviy tashkilotlardan tashkil topgan:

- Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki MBRR-XTTB);
- XTTB ning 1945 yilda tashkil etilgan uchta filiali;
- 1956 yilda tuzilgan xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK);
- xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU; 1960 yilda tashkil etilgan);
- 1988 yilda asos solingan Investitsiyalarni kafolatlash Xalqaro agentligi (IKXA);
- shuningdek, MBRR- XTTB ning Amerika, Osiyo, Afrika va Yevropadagi kontinental filiallari. Vashington sh.- Jahon bankining shtab-kvartirasi.

Jahon banki tizimida ya'ni Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (MBRR-XTTB) asosiy tashkiliy qismi hisoblanadi. MBRR a'zosi-xalqaro valyuta fondiga a'zo bo'lgan mamlakat hamdir. MBRR ni boshqaruvchi yuqori-maslahat rahbariyati va direktoratdir. Uni AQSH hukumati – MBRR prezidenti boshqardi.

MBRRda ham XVF dagi singari kvotalar ovozi – a'zolik badallari muhim rol o'ynaydi. Faqat farqi shundaki, MBRR a'zo mamlakatlar badallaridan tashqari xususiy kompaniyalar, turli moliya uyushmalari, jamoat va hukumat tashkilotlarining obligatsiyalari vositalarini ham qabul qiladi. Bu nufuzli bankda AQSH bilan birga, «kuchli yettilik» - Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Kanada, Italiya liderlik qiladi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki XVF singari BMTning ixtisoslashgan tashkiloti hisoblanadi. U mustaqil moliya tashkilotidir. Bu o'zida xususiy maxsus yo'nalish va vazifalarni bajarishni aks ettiradi.

MBRRning asosiy faoliyati-davlat kafolati bilan hukumatlarga uzoq muddatli kreditlar ajratish va bankka a'zo mamlakatlarning xususiy kompaniyalariga muddatli qarz berishdan iborat.

Jahon savdosi faoliyatidagi xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi boshqaruvni Tariflar va savdo haqidagi bosh bitim (GATT) tartibga soladi. U 1948 yilda tashkil etilgan. Dastlab unga 23 ta davlat a'zo edi. 1949 yildan 1995 yilgacha GAAT dunyodagi savdo qoidalarini joriy etuvchi, siyosiy savdoni tashkil etuvchi va unga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni boshqarib turuvchi yagona xalqaro targ'ibot organi hisoblanadi.

GAATning asosiy faoliyat shakli esa raund deb nomlanuvchi konsultatsiyalar berish, o'zaro suhbatlar o'tkazish yo'nalishidir. GAAT faoliyat boshlagandan buyon sakkizta raundni o'tadi. Shulardan eng so'nggisi 1986 yilda amalga oshirilgan Urugvay raundidir.

1995 yilda GAAT tarkibida Marakko shartnomasiga ko'ra Jahon savdo tashkiloti (JST) tashkil etildi. Unga 131 mamlakat a'zo bo'ldi.

JSTning asosiy funksiyalari:

- ko'ptaraflama savdo bitimlari bajarilishi tartiblarini nazoratga olish;
- savdo borasidagi kelishmovchiliklarga barham berish;
- xalqaro savdo va savdo siyosati taraqqiyoti nazoratini olib borish;
- maqsadga texnik yondoshish va mutaxassislar o'kuvini tashkil etish;
- savdo siyosati masalalarida boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatish;

Manzili: Jeneva sh. Shvesariya.

1964 yilda BMTning savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi bo'ldi va YUNKTAD tashkil etildi.

Uning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy integratsiyalashuviga kirishishi va mamlakatlarning xalqaro savdo tizimiga kirishuviga ko'maklashish;
- rivojlangan mamlakatlarda savdoga chiqariladigan mahsulot turlarini qoniqarli ekanini tasdiqlash va xalqaro savdo faoliyatini rivojlantirish;
- globallashtirish va taraqqiyot, xalqaro savdo, investisiya va xizmat ko'rsatuv muammolari bo'yicha ko'p yoqlama suhbatlar o'tkazish.

Manzili: Jeneva sh. Shvesariya

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT). XMT 1919 yilda tashkil etilgan bo'lib, unga 171 mamlakat a'zo sanaladi.

Asosiy faoliyati:

- ish bilan ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirish uchun milliy dasturlar ishlab chiqish;
- bilim olish va kasbiy tayyorgarlik uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- mehnat, sog'liqni saqlash va turmushdagi sharoitlarni yaxshilash;
- jamoalarda kelishilgan huquqiy munosabatlar va menejment va mehnat o'rtasidagi hamkorlikka e'tirof etish.

Manzili: Jeneva sh. Shvesariya.

Iqtisodiy va ijtimoiy Sovet (EKOSOS). EKOSOS a'zolari BMT a'zolariga tarkib topgan 54 ta mamlakat.

EKASOS faoliyati quyidagi uchta asosiy funksiyada o'z aksini topadi:

- davlatlar o'rtasida xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy muammolardir, qayta ishlashga yo'naltirilgan siyosiy liniyalar uchun muzokara va forumlar tashkil etish;
- BMT ning iqtisodiy va ijtimoiy masalalari, shuningdek, BMTning ixtisoslashgan idoralari masalalarini muvofiqlashtirib borish;
- xalqaro hamkorlikka va umumiy hamda maxsus iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga malakali tadqiqotlarni tayyorlash.

Sanoat taraqqiyoti bo'yicha Milliy hamkorlik tashkiloti (YUNIDO). U 1966 yilda tashkil etilgan. YUNIDO rivojlanayotgan mamlakatlarni sanoatlashtiradi va ularning bu taraqqiyot yo'liga milliy va xalqaro resurslarni safarbar etadi.

Milliy hamkorlik tashkiloti taraqqiyot dasturi (PROON) rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy iqtisodiy sektoriga texnik va investitsiya yordami

ko'rsatadi. PROON 1965 yilda tashkil etildi. U ixtiyoriy badallar va faqat hukumatning aralashuvi va iltimosiga ko'ra tushadigan mablag'lar bilan moliyalashtiriladi.

BMTning savdo-sotiq va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO). U hukumat tashkilotlari o'rtasidagi qishloq xo'jaligi borasidagi mehnat masalalari bilan ta'minlashda yagona va jamoa mehnati munosabatini muvofiqlashtirish. Rivojlanayotgan mamlakatlarda savdo-sotik, qishloq xo'jaligi mahsulotlari taraqqiyotiga ko'maklashish, mutaxassislar tayyorlash va talab-takliflarni ishlash FAOning asosiy faoliyatlaridan sanaladi.

BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YEIK) 1947 yilda tashkil etilgan. Uning faoliyati urushdan keyingi Yevropaning iqtisodiy yuksalishiga ko'maklashishdan iborat.

Afrika, Lotin Amerikasi va Karib havzasi (EKA, EKLAK) uchun iqtisodiy komissiya, Osiyo va Tinch okeani (ESKATO) uchun va Parij klubi (1956) uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya va boshqalar.

Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari o'rtasida Xalqaro hisob banki (XHB) alohida o'rin egallaydi.

XHB ikkita funksiyani bajaradi:

- markaziy banklar o'rtasida hamkorlik o'rnatishga ko'maklashish va xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda qulay shart-sharoitlarni yaratish;
- Xalqaro hisob ishlarida ishonchli shaxs yoki anketalar rolini bajarish; XHB aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan.

## 2.5. Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi roli

Bugungi kunda O'zbekiston Halqaro valyuta fondi XVF, 1992 yil 21 sentyabr) va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) a'zosi. Bu nufuzli moliya tashkilotlariga ochilgan yo'l respublikamiz iqtisodiyoti taraqqiyoti va bu boradagi islohatlarni jadallashtirish uchun katta imkoniyat yaratdi. Bu hamkorlik O'zbekiston uchun valyuta va moliya sohasida yangi tajribalarni o'zlashtirish imkonini ham berdi.

O'zbekistonda XVF faoliyati respublika Markaziy banki va hukumatning texnik va konsultativ xizmatlarini yuqori darajaga ko'tarishga qaratilgan. XVF mamlakatlar bank tizimlari taraqqiyotiga statistik ma'lumotlarni yengillashtirish, bank faoliyati nazoratlarini takomillashtirish, moliya tizimida kadrlarni o'qitish, me'yoriy-huquqiy aktlar ishlanmasini tayyorlash kabi yumushlarda ko'maklashadi.

O'zbekiston uchun MBRR va xalqaro tiklanish uyushmasi (MAR) bilan hamkorlik katta ahamiyat kasb etadi.

Jahon banki (JB). O'zbekiston Respublikasi 1992 yil sentyabr oyida Jahon bankiga to'la huquqli a'zo bo'lib kirdi. Bugun O'zbekistonda Jahon bankining moliyaviy institut guruhlari hamda xorij investitsiyalari kafolati bo'yicha ko'p

yoklama agentlik va xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) o'z faoliyatlarini olib borishmoqda.

Jahon bankining hamkorlik strategiyasi quyidagi yo'nalishlarda belgilab berilgan:

- valyuta va savdo tartibini erkinlashtirish sohasida istiqbollarni amalga oshirish uchun tahlilni, siyosiy va institutsion negizlarni tayyorlashga ko'maklashish;
- xususiy sarmoyalar uchun yanada maqbul investitsion muhitni yaratishga ko'maklashish;
- munitsipal infratuzilma taraqqiyoti va kommunal xizmat tizimining ishini takomillashtirish;
- mamlakatning kengaytirilgan drenaj va irrigatsiya infratuzilmasi saqlanishiga ko'maklashish va uning samaradorligini yaxshilash.

Islom taraqqiyot banki (ITB). O'zbekiston Respublikasi 2003 yil 27 avgustda ITB ga a'zo bo'lib kirish to'g'risida qaror qabul qildi.

Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMM). 1993 yil oktyabr oyidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Xalqaro moliyaviy korporatsiyaga (XMK) a'zo bo'lib kirdi. XMK ning O'zbekistondagi faoliyati quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish;
- sanoat, qishloq xo'jaligi va maishiy xizmatning barcha tarmoqlarini moliyalashtirish .

Osiyo taraqqiyot banki (OTB). O'zbekiston Respublikasi 1995 yil 29 iyuldan boshlab OTB bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

O'zbekistonda OTB moliyalash strategiyasining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- qishloq xo'jaligi sohasi;
- transport (temir yo'l va avtomobil) sohasi;
- ta'lim sohasi;
- moliya va bank sohasi;
- ijtimoiy soha;
- mikromoliyalash;
- energetika infratuzilmasi.

O'zbekiston BMTning va Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE) ning tenghuquqli a'zosi. Ularning byurosi Toshkentda ochilgan.

O'zbekiston Respublikasi Yevropa Tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) ga 1992 yil 30 apreldan a'zo. 1993 yildan esa YETTB loyihasi qatoridan joy olgan. YETTBning O'zbekistonga berayotgan moliyaviy va texnikaviy yordami ustivor sohalarda moliya, ma'danli xomashyo konlarini o'zlashtirish va ularni sanoat yo'li bilan qayta ishlash, energetika majmuasi, agrobiznes, paxtani qayta ishlash, sayyohlik, transport va aloqa tarmoqlariga sarflanmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonga jami summasi 550 mln. dollar, YETTB ulushi esa 250 mln. dollar bo'lgan undan ziyod yirik loyihalar kiritilgan. O'zbekistonning integratsion taraqqiyoti dinamikasi jahon iqtisodiyotiga jadallik bilan kirib bormoqda.

### Nazorat savollari

1. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tuzilishiga nimalar sabab bo'lgan?
2. Siz qanday xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni bilasiz?
3. XVF qachon tashkil etilgan? XVF ning dunyo iqtisodiyotidagi roli haqida gapirib bering.
4. XVF fondida O'zbekiston kvota summasi qancha?
5. Aytingchi, Jahon banki qanday tashkilotlardan tashkil topgan.
6. GAATning qanday yo'nalishi va vazifalari bor? GAAT tarkibida qachon VTO-JST tashkil etildi?
7. XVF, XTTB, OTB YETTB va boshqa xalqaro valyuta – moliya va kredit tashkilotlari zamonaviy jahon iqtisodiyoti maydonida qanday rol o'ynaydi?
8. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida dunyo valyuta-moliya va kredit uyushmalarining o'rni va roli haqida qisqacha ma'lumot bering.

## ASOSIY TUSHUNCHALAR LUG'ATI

**Absolyut (mutloq) ustunlik** – manfaatlar, ya'ni tashqi savdoda mamlakatlarning asosiy mahsulotdan keladigan foydadan yuqori ulush olishi.

**Aksiya – qimmatbaho qog'oz.** U aksiyadorlik jamiyatini rivojlantirishga mablag' sarflanganligi dalolati bo'lib, uning egasi aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividend tariqasida olish huquqini beradi.

**Aksiyadorlik jamiyati (AJ)** – korxonalar, tashkilot va boshqa idoralarning mablag'larini sherikchilik asosida va egalik maqsadida birlashtiradigan jamiyat. AJda xususiy kapitaldan boshqa zayomli kapitallarning bank krediti va chiqarilgan obligatsiyalari mulk sifatida hisoblanadi.

AJ aksiyadorlari odatda yuridik yoki jismoniy shaxslar bo'ladi, ammo ba'zida banklar, ishlab chiqarish, savdo va sug'urta kompaniyalari ham aksiyador bo'lishi mumkin. AJning yuqori organi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi sanaladi va asosiy masalalar ushbu aksiyadorlar yig'ilishida muhokama qilinadi.

**Asosiy mablag'laridan iborat investitsiya** – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotining turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish.

**Aniq investitsiyalar-qurilish-montaj, loyiha smeta ishlari, texnologiyalar, asbob-uskunalar ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va chorvachilikni yuksaltirish kabi sohalarni rivojlantirishga kiritiladi.**

**Aholining tabiiy ravishda ko'payishi** – bir yilda aholining tug'ilishi va o'limi orasidagi farqlanish. Bu borada o'zgaruvchanlik ijobiy yoxud salbiy holatda bo'lishi mumkin.

**Aholining migratsion o'sishi** – ma'lum hududga va chaqirilgan mamlakatga chetdan kelgan aholining mahalliy aholi o'rtasidagi tafovuti. Bu indikator majmui ham salbiy, ham ijobiy holatni yuzaga keltiradi.

**«Aqlli migrantlar» («Brain drain»)** – Xalqaro migratsiya bozorida yuqori malakaga ega ishchilar (bilimli, mutaxassis, menejer va boshq.).

**Barter** – tovar ayirboshlash, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri tovarni tovarga pul almashtirib olish. Bu savdo sxemasida «tovar ketidan tovar» deb ataluvchi so'nggi shartnoma savdosi amal qilinadi.

**Barter faoliyati o'zida mamlakatlar, firmalar, korxonalar o'rtasida valyutaning inqirozga uchramasligi va ularning rivojlanmagan mahsulotlari munosabatlarini aks ettiradi.** Hozirgi zamon barter kelishuvining aniq shakllari – valyutasiz ayirboshlash, kompensatsiyali kelishuvlar, turli xil kirishlar. Barter hozirgi sharoitda aholini iste'mol mollari bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etayotir.

**Birja** – standartlar yoki namunalar asosida savdo qilinadigan ommaviy tovarlarning muntazam ulgurji bozori yoki qimmatli qog'ozlar, oltin, chet el valyutalari (fond birjasi) bozori.

**Byudjet harajatlari** – ma'lum sohaga yo'naltirilgan davlat harajatlari majmui.

**Bojxona** – chegara orqali o'tadigan jami yuklarni, shu jumladan bagaj, pochta, jo'natmalar, savdodagi mahsulotlarni nazorat qiladigan davlat idorasi. U



o'tkazilayotgan yuklarni tekshirish, ulardan bojxona yig'implari undirish bilan shug'ullanadi.

Valyuta – tashqi iqtisodiy va xalqaro aloqalarning boshqa shakllarida ishtirok etuvchi mamlakat milliy pul birligi.

Valyuta kursi – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi. Mutaxassislar fikricha, valyuta kurslari fiksirlangan va «suzuvchi» bo'ladi.

Venchur korxonalar – firmalar, ya'ni ilmiy-tadqiqot, muhandislik ishlari, innovatsiyalarning yirik kompaniya yoki davlatlar shartnomasi asosida tayyorlovchi korxonalar. Bunday firmalar odatda keng miqyosda marketing, konsultatsiya va reklamalar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchilar bo'ladi.

Davlatning iqtisodiy dasturi – iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarilishining yuqori shakli – Bunda iqtisodiyot barcha ustivor sohalar yaxlit tarzda, oddiy elementlargacha majmua shaklida amalga oshiriladi.

Devalvatsiya – pul birligi kursining boshqa mamlakatlarning valyutalariga nisbatan pasayishi. Bu to'lov balanslarining inflyatsiyasi va yetishmovchiligi oqibatida yuzaga keladi.

Daromadlar joylashish koeffitsiyenti (Jin indeksi) – aholining keng qatlamiga mavjud foyda summasini teng holatda taqsimlash ko'rsatkichi. Jamoatchilik orasida ba'zida teng tarzda foyda ko'rish yuz bermasligi mumkin, shu bois koeffitsiyent o'lchami 0 dan 1 gacha o'zgarishda bo'ladi.

Deflyator – mamlakat yalpi mahsulotining real va nominal hajmidagi bahosi. U muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va kredit tadbirlarni qo'llab, muomaladagi naqd pulning qadsizlanishi oldini oladi.

Diversifikatsiya – turlicha, turli xil rivojlanish. Masalan, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash-ishlab chiqarishning ko'pdan-ko'p, bir-biri bilan bog'lanmagan turlarini birvarakayiga rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan buyumlar turini kengaytirish.

Dividend – AJdan tushadigan foyda, ya'ni har yili aksiyadorlar o'rtasida aksiyalarning turi va soniga qarab bo'linadigan foyda qismi. Tajribaga ko'ra dividend miqdori oddiy aksiyalar bo'yicha korxonaning o'sha yilda ko'rgan foydasiga bog'liq bo'lsa, imtiyozli aksiyalarning dividend miqdori esa aksiyalarning nominal bahosiga qat'iy tarzda stavka miqdorida oldindan qayd etilgan bo'ladi.

Ishsizlik (Xalqaro mehnat taqsimoti talablari darajasida) – 16 yosh va undan katta aholining o'ziga ish topa olmasdan kolishi. U esa uch kategoriyaga bo'linadi:

- Foyda keltiruvchi ish topolmaydiganlar;
- Yo'llanma bilangina ishlaydiganlar (ya'ni, mehnatni tashkil etish idorasiga murojaat etib, korxonaga ma'muriyatida vositasiz ishlaydilar, xullas biror yo'llanma bilan xususiy ish bajaradilar);
- Ishga kirishga tayyor turadiganlar.

Ish tashlash (zabastovka) – vaqtincha ishlashdan to'xtash, ya'ni joyi yoki ish borasida biror sharoit yaratilishini talab qilib, ish tashlash.

Ishsizlik darajasi – iqtisodiy faol aholining ish yo‘qligi oqibatida ular safining kengayib borishi, ishsizlar soni oshishi.

Ishsizlik davomiyligi – aholi iqtisodiy faol qismining o‘ziga ish topa olmasdan qolishi, mehnat rezerv armiyasiga aylanib qolishi.

Ish bilan bandlik to‘g‘risida ma‘lumotlar manbai aholini ro‘yxatga olish va davlat, korxonalar va tashkilotlarning hisobotidir. Mehnatga yaroqli aholi tarkibida ish bilan band bo‘lganlar hissi mehnat potentsialidan foydalanish me‘yorini harakterlaydi. Ishsizlik darajasini pasaytirish uchun ish o‘rinlarini yaratish, ishga tushirish aholi tabiiy o‘shidan orqada qolmaslik lozim.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish – bozor-iqtisodiyoti jarayonlarida davlatga qarashli tashkilot va jamoaviy uyushma, korxonalar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilinishi va unga doir qonun-qoidalarni davlat tomonidan bajarilishini ta‘minlash.

Immigratsiya – ishlash uchun boshqa mamlakatga ketgan aholi.

Import – xorijdan mahsulot va xizmatlarning kelishi (shuningdek, kapitallar, texnologiyalar, qimmatli qog‘ozlar va boshqalar). Ichki bozorda bu mamlakatlar tovarlarining sotilishi.

Iste‘mol baho indeksi – biror mahsulot yoki xizmatning iste‘molchi tomonidan barkaror harid qilish qobiliyatiga egalik ko‘rsatkichi.

Iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish – fuqaroning ma‘lum davrda taqdirlanishi uchun mehnat bilan shug‘ullanishi yoki o‘zicha o‘z foydasi uchun alohida sherikchilik asosida ish bilan shug‘ullanishi. Mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta‘sir etuvchi har qanday faoliyat bilan shug‘ullanish va bunda o‘zi pul topishi, aksincha davlatdan maosh talab qilmasligi tushuniladi.

Ishlab chiqarishdagi mahsulot (ish, xizmat) hajmi – ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi korxonalarining moddiy manfaatdorlik va xizmatlar harakteristikasi, mo‘ljallangan davrda narx-navolarning o‘shish hisob-kitobi; tayyor mahsulotlar, yarimfabrikatlar, ishlab chiqarish xizmati ko‘rinishlari, sotish va kapital qurilishlar majmui. Bu davrda korxonalar mavjud ishlab chiqarish turlaridan tashqari boshqa xil mahsulotlarni ham ishlab chiqarishi mumkin bo‘ladi.

Iqtisodiy faol aholi (ishchi kuchi) – mavjud tovar va xizmatlarni bajarish uchun jalb etiladigan qo‘l kuchi aholisi. Iqtisodiy faol aholi iqtisodiyotda band bo‘lgan va ishsiz bo‘lgan ishchi kuchlariga nisbatan aytiladi.

Iqtisodiy aylanma (oborot) – xo‘jalik sohasida foyda va harajat, pul-mablag‘, resurs va mahsulotlarning harakati.

Iqtisodiy taraqqiyot – ko‘p omilli jarayon, evolyutsion xo‘jalik mexanizmi, iqtisodiy tizimning yuqori tasviri.

Iqtisodiy o‘shish sifati – iqtisodiy o‘shishning umumlashgan sifat harakteristikasi, uning qanday sarflar bilan ta‘minlangan va qanday iqtisodiy-ijtimoiy natija berganligini ifodalaydi.

O‘tgan asrning so‘nggi yillarida iqtisodiy o‘shishning yangi sifati paydo bo‘ladi. Bu mahsulotlarning inson uchun ekologik tozaligi, ya‘ni sog‘ligiga zarar keltirmasligi, ishlab chiqarishning esa atrof-muhitga zarar keltirmasligi, ekologik muvozanatni buzmasligidan iboratdir.

**Kliring** – tovarlar, qimmatbaho qog‘ozlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob – kitob qilish tizimi. Bu tizim o‘zaro talablar va majburiyatlarni bajarilishiga asoslangan. Aytish mumkinki, kliring rivojlanayotgan mamlakatlarning ayrimlarida valyutani erkin konvertatsiya qilish borasida chegaralanishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

**Kompensatsion bitim** – uzoq muddatli tashqi savdo kelishuvlari shakli haridorga takdim etilgan mahsulot yoki ko‘rsatilish lozim bo‘lgan xizmatning to‘lov borasidagi yengilligi.

Tajribada ko‘rinishicha, tomonlarning aniq kelishuvlari so‘nggida ro‘yxatdagi tovarlarning soni va bahosi sifat darajalariga mos kelishi shart etib belgilangan.

**Kon‘yuktura** – ayni paytdagi iqtisodiyotda kechayotgan qandaydir o‘zgarishlar va ob‘ektiv ahvolning holati.

**Kuponli foyda keltiruvchi federal obligatsiya zayomlari (OFZ)** – Rossiya Federatsiyasining davlat shaklidagi qimmatli qog‘ozi (zayomi) bo‘lib, u zayomni olgan kishiga o‘z nominal qiymatini saqlagan holda foyda keltirishi mumkin. Yutuk chiqmasa uning qiymati saklanadi, yutuq chiqqanda esa aniqlangan pul kupon shaklida zayom sohibiga beriladi.

**Litsenziya** – texnikaviy, iqtisodiy, ilmiy yangiliklar egasining ularni ishlatish uchun beradigan ruxsati. Davlat yoki korxonalar, tashkilotlar tomonidan biror iqtisodiy faoliyatni bajarishga rozilik berish, ixtirolarga, texnik yangiliklarga, ishlab chiqarish tajribasi, ishlab chiqarish sirlari, tijorat axborotlaridan ma‘lum vaqtga foydalanish uchun beriladi.

**Mashina va uskunalar ijarasi** – kredit eksporti shakli, mol-mulkni ma‘lum muddatda va haq to‘lab ishlatib turish yuzasidan bo‘lgan iqtisodiy munosabat.

Bunday ijara usuli qisqa muddatli (reyting), o‘rta muddatli (xayring) va uzoq muddatli (lizing) bo‘lishi mumkin. Ijara haki korxonalar daromadining bir qismi bo‘lib, ijarachi va ijaraga beruvchi o‘rtasida shartnoma yo‘li bilan korxonaning rentabelligi va rivojlanish istiqbolini hisobga olib o‘rnatiladi.

**Muddatli qarz** – qarzdorlik, sheriklar o‘rtasidagi o‘zaro shartnomaga ko‘ra muddati o‘zgarmas qarz.

**Mahsulot negizi bahosi indeksi** – ayni paytdagi mahsulot bahosini uning negizi tengligiga bo‘lgan mutanosibligi.

**Milliy boylik** – mamlakatning jami resursi ya‘ni ishlatilgan va ishlatilmagan potensiallar, aholi turmush tarzi uchun zarur mahsulot va xizmatlar. Milliy boylik hajmiga doirasida moliyasiz aktivlar (asosiy fondlar, zahiralar, boyliklar) va moliyali aktivlar (yer, yerosti qazilmalar, tabiiy resurslar, moddiy va mavjud aktivlar), shuningdek aholining o‘zlarida mavjud bo‘lgan xususiy mulklar kiradi.

**Mumkin qadar qulaylik berish rejimi** – Xalqaro savdo tajribasida o‘zida qulay sharoitli bozorni vujudga keltiruvchi omil; savdo borasida kelishilgan bitimga ko‘ra ikki davlatning barcha huquqi, afzalligi, imtiyozli va bu rejimning uchinchi davlatga ham bo‘lgan ta‘siri.

**Milliy hisob-kitob tizimi (SNS-MHT)** – ichki aloqalar va qo‘shma makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning integratsiyalashgan tizimi. U hisob-kitoblar turi,

balans va jadval, xalqaro hamkorlik borasida qabul qilingan tushuncha va aniqliklarni o'zida aks ettiradi. Milliy hisob-kitob tizimi mikroiqtisodiy tahlillar, iqtisodiy siyosatni shakllantirish va ular uchun qarorlar qabul qilish uchun tanlangan.

Moliyalash stavkasi – Markaziy bank tomonidan qisqa muddatga kredit berish, tijorat banklaridagi mavjud kreditga ajratiladigan summalarni markazlash kredit resursiga jalb etish stavkasi.

«Narx-navo qaychisi» - savdo borasida yaratiladigan sharoitlarning asosiy shaklaridan biri. Savdo ishida sheriklarning iqtisodiy kelishuvi bilan eksport va import faoliyatida narxlar o'zaro tushiriladi.

Bu ko'rsatkich tashqi savdo statistikasiga bir necha ilgari to'g'ri kelmagan, alohida ajralib turuvchi mahsulotlarni-da kiritilishini texnikaviy, konstruktorlik va boshqa sirlari, mahsulot ishlab chiqarishda foydalanish mumkin bo'lgan texnikaviy tijorat va boshqa bilimlar

Norezidentlar–davlatning xorijiy mamlakatlarini boshqarish, ya'ni xorijdagi korporatsiyalar, hukumat ofislari, elchixonalar, qo'shma korxonalar, chet mamlakatlar chegralaridagi korxonalar egalari, shuningdek, xorijda doimiy yashovchilar va bu yurtga keluvchilar norezident sanalishadi.

Nisbiy afzallik – manfaat, foyda. U tashqi savdoga a'zo mamlakatlarning turli mahsulotlarni sotishdan oladigan daromadlari tushuniladi.

«Ofset» bitimi – muqobil bozor shakli; u nafaqat tovarlar yoki xizmatlar ayirboshlash borasida, balki mamlakat ichkarisiga foydali bo'lgan investitsiyalarning kiritilishi va javob tarzida ularga imtiyoz va sharoitlar yaratish masalasida o'ziga xos kelishuv vazifasini o'taydi. U ishlab chiqarish kooperatsiyalarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanishi yuzasidan ham shartnomalar imzolanishiga sabab bo'luvchi faoliyat hamdir.

Proteksionizm – tashqi savdo siyosati prinsipi, davlatning milliy iqtisodiyotni chet el raqobatidan, ichki bozorni chet el tovarining kirib kelishidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosat.

Revalvatsiya – pul birligi kursining boshqa mamlakatlar valyutalariga nisbatan ko'tarilishi.

Rezidentlar – jismoniy yoki yuridik shaxslar, ya'ni boshqa mamlakatda doimiy yashayotgan fuqarolar.

Reimport – ichki bozorda sotish, importdan farqli o'laroq mamlakatga xorijiy tovarlarni qayta ishlash va xizmatlarni ko'rsatish uchun kiritish. Reimport miqdori va tarkibi mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rniga bog'liq. Uning tarkibini yarim fabrikatlar, xomashyolar, mashina va asbob-uskunalar, yarim qayta ishlangan iste'mol mollari tashkil qiladi.

Reeksport – eksportga qarang.

Real ish haqi – tovar va xizmatlar uchun haq to'lash majmuasi, ayni davrda ish haqi uchun berilayotgan summa. Bu summa soliqlar iste'molchi indeksi va boshqa to'lovlardan tashqari bo'lgan mehnati haqidir.

Savdo to'sig'i – odatda tariflar, cheklashlar yoki valyuta nazorati tarzida mamlakatlar o'rtasida tovarlar va xizmatlar erkin almashinuvining sun'iy cheklanishi.

Savdo haqida gap ketar ekan, ular barter faoliyati, harid baholari, kompensatsion bitimlar, kliring, «ofset» faoliyati kabi yo'nalishlarda bo'ladi.

Sanoat mahsulotlari hajmining harakatdagi indeksi – nisbiy ko'rsatkich, ya'ni ayni paytda muomilada bo'lgan sanoat mollarining ishlab chiqarish harakteristikasi.

SIF» («Cost. Insuranct, Frtiqlrt) – Xalqaro savdoda mahsulotlarni olish va ular uchun to'lovlarni amalga oshirish tartibidagi tijoriy sharoitlar yaratuvchi tashkilot. SIFlar xalqaro bozorda mahsulotlarning sotuvdagi bahosini barqaror ushlab, ularni sug'urtalash va portlargacha transportirovka qilish faoliyati bilan shug'ullanishadi.

Siyosiy narx – narx, u yig'imdagi mavjud narxlar axboroti va indeksatsiyalangan baho o'rtasida taqqoslanib, chiqariladigan narx.

SPOT – mahsulotlarni nakd pul orqali biror summada sotish va harid qilish uchun kelishish. Bu kelishish tezda bajariladigan ish.

Savdo foydasi – tovarlarni iste'molchiga yetkazishda sotib olish bahosi bilan sotish o'rtasidagi farq hisobga olinadigan foyda. Savdo foydasining o'sishi-savdo ishining moddiy bazasini mustahkamlashga ham bog'liq.

Savdo - harid qilish borasidagi musobaqalashuv shakli; mahsulotni oluvchilarga go'yo konkurs shaklida ta'riflab sotish. Chet el firmalari orasida bu yo'l bilan mahsulotni ko'z-ko'z qilish xalqaro darajaga chiqqan. Bunday tenderlarda ochiq (qiziqqan kompaniyalarga barcha mahsulotlari ta'rifini keltirish) va yopiq (faqat dunyoning mashhur kompaniyalariga mahsulotlarini ta'riflash) usullari mavjud.

Tashqi savdo balansi – eksport (mamlakatdan chiqariladigan mahsulot va xizmat bahosi) va import (chetdan mamlakatga kiritiladigan mahsulot va xizmat bahosi) o'rtasida pul shaklida ifodalangan nisbat. Savdo balansi ikki turga bo'linadi: aktiv balans – eksport importdan ortiq bo'lishi va mamlakatga tashqaridan oqib kelishi, moliyaviy ahvol faollashadi, passiv balansda esa import eksportdan ustun, mamlakatdan valyuta chiqib keta boshlaydi, moliyaviy ahvol zaiflashadi. Shuningdek, eksport va importdagi mahsulot va xizmatlar bahosini tenglashtirib turuvchi Netto balans ham bor.

Tashqi qarz – davlatning xorijiy mamlakatlar qarz beruvchi bank va moliya muassasalaridan zayom va kreditlar olishi, natijasida paydo bo'lgan qarzi. Bu borada mutaxassislar kapital va kundalik deya ataluvchi davlat qarzlari mavjudligini aytishadi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarning tashqi iqtisodiyotdagi qarzi ancha oshgan, «bu esa ular uchun 20-30 % lik yillik daromadini shu qarzni to'lashga jalb etishlariga to'g'ri kelmoqda».

Tashqi savdoni kreditlash – pul vositalarini, tovar va xizmatlarni ma'lum foiz to'lab qaytarib berish sharti bilan ma'lum muddatga qarzga berish. Bu Xalqaro pul ayirboshlashda asosiy vositalardan sanaladi.

Tashqi savdo kreditlari eksportli va importli shakllarda bo'lib, u firma yoki korxonalariga qisqa (1 yilgacha), o'rta (2 yildan 7 yilgacha) va uzoq muddatlarga beriladi.

**Turmush xo'jaligini globalashtirish** – mamlakatlar, hududlar va firmalar o'rtasida turli iqtisodiy aloqalar taraqqiyotini yaxlit dunyo xo'jaligi tarzida joylashtirish.

**Tovar dempingi** – tovar, mahsulot narxlarining xalqaro kamsitilishi. Bunda eksport bilan shug'ullanadigan firma ayrim mamlakatlarda o'zining molini boshqa yordamchilarga nisbatan arzon baholarda sotadi.

**Takomillashgan investitsiya kapitali** – pul vositasi, ya'ni qurilish (yuksalish, ta'mirlash, zamonaviylashtirish) uchun va investor kiritgan mablag' hisobidan o'sha ob'ektni texnologiya – va zarur uskunalar bilan ta'minlashdagi yirik kapital. Bu sarmoya korxonasi yoki tashkilot uchun aktiv sanalgan mablag'dir.

**Tovar ayirboshlash hajmi harakati indeksi** – nisbiy ko'rsatkich, ayni vaqtdagi muammolarda bo'lgan sanoat mahsulotlarining sotuvdagi xajmi kursatkichi. Bunda faqat individual indeks mavjud bo'lib, bir mahsulotning sotuvdagi hajmini boshqa mahsulot ayirboshlashdagi hajmi majmuiga qiyoslanishi va ularning narxlaridagi tafovut tovarlar hajmidagi bahoga nisbatan dinamik o'sish.

**Tabiiy suratda o'sish koeffitsiyenti-tug'ilish va o'lim borasidagi umumiy o'zgarish koeffitsiyenti.**

**Transmilliy korporatsiya (TMK)** – yirik kompaniya, u xalqaro miqyosda faoliyat ko'rsatadi, ammo mamlakatning milliy kapitali hisobidan moliyalanadi.

**Transfertlar** – iqtisodiy boylik, bir tomonlama tartibda ikkinchi tomon ishtirokini ta'minlash.

**Tashkil etilmagan eksport (import)** – jismoniy shaxslar tomonidan qonuniy tarzda mamlakatga kiritgan yoki mamlakatdan chiqargan holdagi mahsulotlar savdosi.

**Tarif cheklovlari** – iqtisodiy va ma'muriy qonunchiligiga asoslangan summa, u tashqi savdo boshqaruvida boj-tarif siyosatini aks ettiruvchi funktsiyadir.

**Mutaxassislar tarif cheklovlarini quyidagi guruhlariga bo'ladi:**

- tashqi savdo operatsiyalariga davlat aralashuvi (mahsulot ishlab chiqarishga pul mablag'lari berish, tovarlar eksporti, poshinalarga imtiyoz berish va h.k.);
- bojxona va ma'muriy tartiblarni amalga oshirish; (dempinga qarshi tartiblar, bojxona va elchilik masalalaridagi qonunchilik cheklovlari va boshq.);
- tashqi savdoda texnik ko'riklar tashkil etish (sanitariya-veterinariya me'yorlari, mahsulotlarni qadoqlash va markirovkalashni talab qilish);
- alohida qonuniy cheklovlar (import litsenziyalari, cheklovlar soni va boshq.);
- import jarayonida yig'im va to'lov mexanizmini ijro etish (chegaralararo soliq rejimi, importdagi depozitlar, statistik tadqiqotlar va boshq.).

Bu kabi cheklovlar barcha import mahsulotlarida, asosan esa savdo-sotiq, mineral xomashyolar, cho'yan, po'lat, to'qimachilik tekstil mahsulotlarida mavjud.

**To'lov balansi** – mamlakatning chet elga to'laydigan puli bilan unga chet eldan tushadigan pul o'rtasidagi nisbat. Mamlakatning xorijiy sarf-harajatlari

to'lov yo'li bilan qoplanadi. To'lov turkumiga tashqi qarz, uning foizi, chetdan olingan tovarlar va xizmatlar haqi, xorij investitsiyasi, xorijda diplomatik ishlarni, iqtisodiy aloqalarni yuritish, fuqarolarning chet elga pul o'tkazishlari kabilar kiradi.

To'lov balansi mamlakatning xalqaro miqyosdagi iqtisodiy mavqei kuchli yoki zaifligini, xalqaro hamjamiyatdagi obru-e'tiborini ifodalaydi.

Umumiy migratsiyaning jadallik koeffitsiyenti-indikator, ya'ni ayni davrda aholi yashash joyidan chetga ishlashga yoki ko'chib borish munosabatlarini o'lchash ma'nosidagi ko'rsatkich.

Uy xo'jaligi harajati – iste'mol munosabatlar uchun qilinadigan jami harajatlar. Bunda turmush kechirish uchun qilinadigan barcha pul mablag'lari, ish va xizmatlarga sarflanadigan summalar tushuniladi. Uy xo'jaligi harajatlariga jamg'arilgan pulning solikdan tashqari bo'lgan pensiyalar, ijtimoiy sug'urtalanish badallari, pul o'tkazmalari sovg'alar uchun qilinadigan harajatlar majmui asos bo'ladi.

Fermer xo'jaligi – o'z xususiy yeri yoki ijaraga olingan yerda tadbirkorlik faoliyati bo'yicha amalga oshiriladigan qishloq xo'jalik korxonasi. Fermer xo'jaliklari sohib (fermer) va oila a'zolari kuchi bilan yuritiladi.

Foyda (zarar) – qo'shimcha mahsulotning pul shakli, korxonasi, (tashqilot), biror soha va jami halq xo'jaligi ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi. Foyda daromadning bir qismi, yalpi mahsulot qiymati bilan uni ishlab chiqarish va sotish harajatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Agar ishlab chiqarish va sotish harajatlari yalpi mahsulot qiymatidan ustun bo'lsa, foyda o'rniga zarar ko'riladi. Foydaning muvozanat, hisob-kitob va qoldik shakllari mavjud.

FOB («Free on Board») – Xalqaro bozorda mahsulotlarni olish va ular uchun to'lovlarni amalga oshirish tartibidagi tijoriy sharoitlar yaratuvchi tashkilot. U asosan dengiz portlarida mol-mahsulotlarni tushirish va yuklash yumushlarini bajaradi. FOB transport xizmatlari ko'rsatgani uchun franko-vagon deyiladi. Bu tashkilot o'z xizmatlari bilan buyurtmachining bozordagi mahsulotlari narxini ko'tarilishiga sabab bo'lmaydi. Xizmat hisob-kitobi, umuman olganda mavjud tovar narxiga ta'sir o'tkazmaydi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi – ishlash uchun bir davlatdan ikkinchi davlatga uzog'i bilan bir yil muddatga ketgan aholi. Ular iqtisodiy sabablar yoxud boshqa masalalar bo'yicha chiqarilishi ham mumkin.

Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) – alohida mahsulot turi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mamlakatlarning jahon bozorida boshqa mamlakatlar bilan o'zaro mehnat taqsimotiga kirishishi. MRT jahon bozori taraqqiyotida, xalqaro iqtisodiy aloqalarda va dunyo xo'jaligidagi milliy iqtisodiy hamkorlikda asosiy rollardan birini o'ynaydi.

Xalqaro korporatsiya (XK) – xalqaro va milliy iqtisodiyot sohasida yirik sanoat uyushmalari, savdo, transport va bank kompaniyalarining faoliyati.

Xalqaro auksion – alohida xususiyatlarga ega mahsulotlarni ommaviy sotuvga qo'yish yo'li bilan sotish uchun muayyan joylarda tashkil etilgan maxsus kimoshdi savdo bozorlari. Jahon kimoshdi savdo faoliyati tajribalariga ko'ra,

auksion savdo tovarlarning mo'yna, qorako'l teri, tamaki, choy, badiiy hunarmandchilik buyumlari, ot kabi nisbatan cheklangan ro'yxati bo'yicha o'tkazildi.

Ko'pgina xalqaro auksionlar Londonda (Buyuk Britaniya), Nyu-York (AQSH), Monreal (Kanada), Amsterdam (Niderlandiya), Kalkutta (Hindiston) va Kolombo (Shri-Lanka) da o'tkaziladi.

Harid baholari – savdo yo'nalishining asosiy shakllaridan biri. U 5 yilgacha belgilanadi. Harid baholari odatda markazlashgan tartibda mahsulot ishlab chiqarishga iqtisodiy asoslangan harajatlarni qoplash, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun zaruriy jamg'arishni ta'minlash bo'yicha belgilanadi.

«Qochkin kapital» - migratsiya munosabati bilan kreditga berilgan kapitalning bozor iqtisodiyotidagi alohida mamlakatlar o'rtasidagi ajratmasi. Bunday kapitallar ba'zan bank foizida yuqori stavkali bo'ladi. Oqibatda xalqaro kapital bozorida balanslar borasida me'yoriy qoidalarni buzilishiga olib keladi.

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) – biror mamlakatda bir yilda yaratilgan barcha mahsulot va xizmatlarning barqaror ulgurji baholarda o'lgangan qiymati.

YAIM hisob-kitobi uch xil uslubda amalga oshiriladi. Ya'ni foyda hisobidan shaxslar daromadi summasi, aksiyadorlik jamiyat va xususiy kompaniya va davlatning mamlakat ichkarisidagi korxonalar daromadi summasi: harajat hisobidan (kapital chiqarish, davlat va xususiy sub'ekt uchun zaruratli chiqimlar); va qo'shimcha narxlarda (iqtisodiyotning barcha sohalari mahsulotlarining haqiqiy baholari summasi).

Yalpi milliy mahsulot (YAMM) – mamlakat – ijtimoiy taraqqiyotining umumiy ko'rsatkichi, ya'ni ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlarni birgalikdagi hisobi, moddiy va ma'naviy sohalardagi mol-mahsulotlarning bir yillik ichki va tashqi iqtisodiy faoliyatidagi hisob summasi.

Chegara oldi savdosi – Xalqaro tovarlar ayirboshlashdagi muhim tur, mamlakat tashqi savdosining tarkibiy qismi. Savdo va to'lov bitimlari, yillik bayonnomalar asosida qo'shni davlatlar chegara oldi savdo tashkilotlari va firmalari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday tovar ayirboshlashlar ko'shni mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy aloqallarni mustahkamlaydi. Mahsulotlar assortimentini kengaytirishga zamin yaratadi.

Chet el investitsiyasi – foyda, dividend yoki daromadlarning boshqa shakllarni olish maqsadida sanoat, qishloq xo'jaligi, umuman korxonalariga chet ellik sarmoyadorning ma'lum mablag' kiritishi.

Tajribada investorlar chet elning yuridik yoki jismoniy shaxsi, hamda davlat va xalqaro tashkilot a'zosi bo'lishi mumkin.

Ular individual va umumiy holda bo'ladi. Yakka indeksda bitta chiqarilgan mahsulotning boshqa bir necha muvoffaqiyatli ekani, umumiy indeksda esa mahsulot ishlab chiqarilishi va ularni narxlari tovarlar hajmiga nisbatan dinamik o'sishida aks etadi.

Eng kam ish haqi – ayni davrdagi paytda ish haqining o'zgarmasligi, u pul birligida ifodalanadi.



Erkin savdo – tashqi savdo siyosati prinsipi, har qanday firma yoki tadbirkorning tashqi savdo bozorida erkin savdo munosabatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan tushuncha.

Eksport – tovarlar, xizmatlar va kapitalni tashqi savdoga chiqarish. Eksport predmetlari tovar singari xizmat qiladi, u mamlakat ichkarisida qayta ishlanib, chegraga olib boriladi. Reeksport (kaytib keluvchi yuk) o‘zida tashqi savdo bozoriga mahsulotni chiqarishdan oldingi qayta to‘liq ishlovchi faoliyatni aks ettiradi.

Eksport (import) kvotasi – ma’lum tovarlarni ishlab chiqarish va eksportga yetkazib berishning belgilab qo‘yilgan hajmi; import kvotasi esa har yili xorijiy mamlakatdan keladigan mahsulotlar hajmini miqdor jihatidan cheklab qo‘yish.

Eksport krediti – eksport kreditorlar (firma, bank va hukumat kabilar) xorijlik sheriklariga ularni qiziqtirgan mahsulot va xizmatlarni tasarruflariga olishlari uchun kredit ajratishi. Eksport krediti sug‘urta tizimi eksportchilarning mablag‘lari qadrsizlanishi va foizi bilan qaytishini kafolatlaydi.

Emigratsatsiya – chet mamlakatga ko‘chib, o‘sha yerda doimiy yashayotgan muhojirlik.

## GLOSSARIY (XALQARO TASHKILOTLAR)

Butunjahon savdo tashkiloti (-BJST) - VTO) – 1995 yilda ta'riflar va savdo haqidagi bosh bitim (GAAT) bazasida tuzilgan. GAAT esa 1947 yilda tashkil etilgan bo'lib, 90-yillar boshida unga 150 dan ziyod mamlakatlar a'zo bo'lgan.

VTONi tashkil etgan hujjatlar paketi hozir ham xizmat ko'rsatish va savdo haqidagi bosh bitim (GATS) va intellektual mulkdorlarning savdo borasidagi haq-huquqlari to'g'risidagi bitimga asoslanadi.

VTO jahon savdo madaniyatini shakllantiradi va bir necha vazifalarni bajaradi. Xususan, import poshlinaridagi yuqori to'lovlar darajasini qisqartirish, ta'rifsiz cheklovlarning turlarini kamaytirish. Bu nufuzli tashkilot o'z faoliyati bilan dunyo resurslarining xalqaro miqyosda tovar ayirboshlashi, barcha mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishi hamda yon-atrofidagi muhitni yaxshilanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YEAST) – 1960 yilda tashkil etilgan hududiy iqtisodiy tashkilot. Dastlab uning tarkibida Avstriya, Buyuk Britaniya, Daniya (1973 yilgacha), Norvegiya, Portugaliya (1983 yilgacha), Shvesariya, Shvesiya bo'lgan.

Keyingi iqtisodiy bosqichlardan so'ng unga Islandiya, Finlyandiya, Lixtenshteyn qo'shildi. 1991-1993 yillarda erkin savdo qilish bo'yicha Turkiya, Chexoslavakiya, Isroil, Polsha, Ruminiya, Vengriya va Bolgariya kelishuvga imzo chekishdi. 1994 yilda esa bu mamlakatlar Yevropa iqtisodiy maydoni haqida hamkorlikni tashkil etishdi. (Shvesariya va Lixtenshteyndan tashqari).

Yevropa hamkorligi (YES-YEH) – G'arbiy Yevropadagi uchta hududiy integratsiyalashgan guruhlar: 1951 yil tashkil etilgan Yevropa po'lat va ko'mir ishlab chiqarish uyushmasi (YEOUS), 1957 yilda tashkil etilgan Yevropa iqtisodiy hamkorligi, va 1958 yilda asos solingan Yevropa atom energiyasi hamkorligi (Yevratom) dan iborat.

Yevropada bu yo'nalishlarda hamkorliklar doirasida ko'pgina ijobiy ishlar amalga oshirildi va 1986 yilda Yevropa Ittifoqini tuzish uchun yagona Yevropa dalolatnomasi qabul qilindi.

Yevropa Ittifoqi (YES-YEI) – 1992 yildagi Maastrixt shartnomasidan keyin, 1993 yildan Yevropa hamkorligi bazasida tashkil etilgan integratsiyalashgan uyushma. Dastlab unga 12 mamlakat a'zo bo'ldi, ular: Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gresiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya va Fransiya. 1994 yilgi kelishuvdan so'ng yana uchta – Avstriya, Finlyandiya va Shvesiya qo'shildi. Shu kecha-kunduzda Yevropa Ittifoqining doirasi 27 davlatga kengaydi.

Hozirda bu hududda «Chegarasiz Yevropa» deya yagona Yevropa g'oyasini amalga oshirish davom etmokda. G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va valyuta ittifoqi tuzilishida ijobiy o'zgarishlar mavjud.

BMT ning savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (YUNKTAD) – BMT bosh Assambliyasi organi bo'lib, u 1964 yilda tashkil etilgan.

YUNKTAD ning asosiy vazifasi Xalqaro savdo taraqqiyotini ta'minlash.

Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (MAR-XRA) – BMTning ixtisoslashgan tashkiloti. U 1960 yilda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki filiali sifatida tashkil etilgan. MAR barcha rivojlanayotgan mamlakatlarda bank faoliyati bo'yicha imtiyoz va sharoitlar yaratilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (MBRR-XTTB) – hukumatlararo kredit-moliya tashkiloti bo'lib, uning asosiy vazifalari a'zo mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish, xalqaro savdoni rivojlantirishga yordam berish va to'lov balanslarini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

MBRR Xalqaro rivojlanish asosotsiatsiyasi, xalqaro moliya korporatsiyasi va Investitsiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi filiallariga ega. Uning bu filiallari jahon bankida yuqori nufuzli moliya muassasalari sanaladi.

Xalqaro valyuta fondi (MVF-XVF) – BMT tarkibidagi moliya tashkiloti. U 1944 yilda (Bretton – Vuds, AQSH) tashkil etildi. 1947 yildan esa o'z faoliyatini boshladi. Fondning asosiy vazifalari – valyuta kurslarini tartibga solish, ularga rioya qilinishini nazorat etish me'yorlarini belgilash, to'lov balanslarini bekarorligi munosabati bilan valyuta qiyinchiliklari yuzaga kelganida o'z a'zolariga valyuta resurslaridan yordam berish.

MVF ga 180 dan ortiq davlatlar a'zo, shular qatorida Rossiya (1992) va MDH davlatlari.

Birlashgan millatlar tashkiloti (OON-BMT) – 192 ta mamlakatlar a'zo bo'lgan yirik xalqaro tashkilot.

BMT 1945 yilda tashkil etilgan. Uning faoliyat maqsadi unga a'zo mamlakatlar tinchligi, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahvolini yaxshilash. Ularning xalqaro iqtisodiy hamkorlik sari undash, xalqaro iqtisodiy munosabatlar taraqqiyotini ta'minlashdan iborat.

Neft mahsulotlari eksport qiladigan mamlakatlar tashkiloti (OPEK) – Xalqaro hukumatlar o'rtasida tuzilgan tashkilot. U Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlari hududlaridagi neftni qazib olish va eksport qilish, ularning narxlarini belgilash massalarini amalga oshirish bo'yicha 1960 yilda tashkil etilgan.

OPEKka 13 ta mamlakat a'zo: Jazoir, Venesuela, Gabon, Indoneziya, Iroq, Eron, Qator, Quvayt, Liviya, Nigeriya, BAA, Saudiya Arabistoni va Ekvador.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR-IHTT)–dunyoning iqtisodiy munosabatlar va rivojlanish munosabatlariga kirishuvchi tashkiloti. U 1960 yilda tashkil etilgan bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni muvofiqlashtirib turadi. Unga a'zo mamlakatlar 1997 yilda 29 tani tashkil etgan. (Tashkilotning so'nggi a'zosi Koreya Respublikasi, 1996 yil, noyabr).

OESR hozirgi bosqichda YEI ning integratsiyalashgan qo'shilmasi turiga kirmaydi, ammo bu tashkilot unga a'zo bo'lgan mamlakatlar tashqi iqtisodiy muammolari va ichki ijtimoiy taraqqiyoti massalariga aralashadi.

«Parij klubi»-kreditorlar mamlakatlarning hukumatlararo muassasasi, MVF a'zosi. 1961 yilda tashkil etilgan bu «klub» to'lov muddatini bir tomonlama o'zaytirishning oldini olish maqsadlarida rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlari shartlarini qayta ko'rib chiqish bilan shug'ullanadi.

«Rim klubi» - Xalqaro jamoatchilik tashkiloti. 1968 yilda inson muhofazasi maqsadida tuzilgan. «Klub» jahon ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuksalishning global muammolarini hal etish, jamoat tashkilotlarini rivojlantirish, atrof-muhitda ishlab chiqarish ko'payganidan inson uchun zararli havoni paydo bo'lishiga qarshi kurashish faoliyati bilan shug'ullanadi.

BMT ning iqtisodiy komissiyasi – beshta hududdagi iqtisodiy munosabatlarni nazorat qilib boradigan komissiya, ya'ni BMT rahbarligidagi iqtisodiy va ijtimoiy Sovet (EKOSOS);

Yevropa iqtisodiy komissiyasi (1947 yilda tashkil etilgan) YEIK. Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy-ijtimoiy komissiya (ESKATO, 1947).

Lotin Amerikasi uchun iqtisodiy komissiya (EKLA, 1948 yil va 1951 yil). Afrika uchun iqtisodiy komissiya (EKA, 1958 y), Shimoliy Osiyo uchun iqtisodiy-ijtimoiy komissiya (EKZA, 1974).

BMT ning iqtisodiy va ijtimoiy Soveti (EKOSOS) – BMT bosh Assambleyasining asosiy organlaridan biri. BMT dasturidagi ijtimoiy va iqtisodiy sohalarning bajarilishini nazorat qiluvchi oliy maslahat idorasi.

Bu kengash BMTga a'zo mamlakatlar hududidagi tashkilotlarga rahbarlik qilish, muvofiqlashtirish huquqiga ega.

EKOSOS dirasida xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy masalalar, BMT ga a'zo davlatlar ichidagi mavjud yuzaga kelgan muammolar hal etiladi.

## XALQARO TASHKILOTLARNING QISQARTIRILGAN NOMLARI RO‘YXATI

- ASEAN – Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlar assotsiatsiyasi.
- ATES – Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi.
- VOZ - Butunjahon sog‘liqni saklash tashkiloti.
- VTO - Butunjahon savdo tashkiloti
- GATT - Tariflar va savdo haqidagi bosh bitim
- EEK - Yevropa iqtisodiy komissiyasi
- ES - Yevropa Ittifoqi
- EES - Yevropa iqtisodiy hamkorligi
- MAR - Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi
- MBRR - Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki.
- MVF - Xalqaro valyuta fondi
- MOT - Xalqaro mehnat tashkiloti
- NAFTA - Shimoliy Amerika mamlakatlarning savdo to‘g‘risidagi kelishuvi
- OON - Birlashgan millatlar tashkiloti.
- OPEK - Neftni eksport qiladigan mamlakatlar tashkiloti
- OESR - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti
- PROON - Milliy hamkorlik tashkiloti taraqqiyot dasturi
- SNG - Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligi
- FAO - Qishlok xo‘jaligi mahsulotlarini sotish bo‘yicha milliy hamkorlik
- EKA - Afrika uchun iqtisodiy komissiya
- EKLA - Lotin Amerikasi uchun iqtisodiy komissiya
- EKOSOS - BMTning iqtisodiy va ijtimoiy Kengashi
- ESKATO - Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya
- YUNEP - BMT ning atrof-muhit dasturi
- YUNESKO - BMT ning ta‘lim, fan va madaniyat masalalari tashkiloti
- YUNIDO - BMTning sanoatni rivojlantirish tashkiloti
- YUNKTAD - BMT ning savdo va taraqqiyot masalalari bo‘yicha konferensiyasi.

## ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. - O'zbekistan na poroge XXI veka: ugrozi, bezopasnosti, usloviya stabilnosti i garantii progressa. Tashkent., 1997.
2. Karimov I.A. - Po puti sozidaniya. Tashkent., 1997.
3. Karimov I.A. - O'zbekistan k velikomu budushemu. T. 1998.
4. Avdokushin Ye.F. - Mejdunarodnie ekonomicheskiye otnosheniya. M., 2002.
5. Andrianov V.D. - Rossiya v mirovoy ekonomike. M., 1998.
6. Vavilova V.A., Sameko G.V. – Ekonomika sovremennoy Rossii. M., 1998.
7. Gulyamov S., Ubaydullayeva R., Axmedov E. – Nezavisimiy O'zbekistan. T., 2000.
8. Yershov M.V. – Valyutno – finansovie mexanizmi v sovremennom mire. M., 2000.
9. Jurayev S., Jurayev T., va boshqalar. O'zbekiston va xalqaro tashkilotlar. T.: 2005.
10. Kireev A.M. – Mejdunarodnaya ekonomika. Chast- I-II. M., 2003.
11. Lomakin V.K. – Mirovaya ekonomika. M., 2004.
12. Livensev N.N. Mejdunarodnie ekonomicheskiye otnosheniya. M: 2005
13. Mamatqulov X.M. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Ma'ruzalar kursi. Samarqand, 2006.
14. Mejdunarodnie ekonomicheskiye otnosheniya. Pod red. V.Ye. Ribalkina M., 1997.
15. Mejdunarodnie ekonomicheskiye otnosheniya. Pod red. Ye.F. Jukova. M., 2000.
16. Mejdunarodnie ekonomicheskiye otnosheniya. Pod red. A.I. Yevdokimova. M., 2003.
17. Mirovaya ekonomika. Pod red. V.P. Kolosova. M., 2001.
18. Mirovaya ekonomika. Pod red. A.S. Bulatova. M., 2003.
19. Mirovaya ekonomika. Pod red. A.K. Shurkalina. M., 2000.
20. Nazarova G.G., Haydarov N.X Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T.: 2005.
21. Sergeev P.V. Mirovaya ekonomika. M., 1999.
22. Sirajiddinov N. Problemi povisheniya effektivnosti vneshney trgovli O'zbekistana. T.:2004
23. Sotsialno-ekonomicheskaya geografiya zarubejnogo mira. Pod red. V.V. Volskogo. M., 2003.
24. Teor T.R. – Mirovaya ekonomika. S – Pb., 2001.
25. O'zbekistan v mirovoy ekonomike. T., 2001.
26. Shodiyev R.X., Maxmudov E.R. Jahon iqtisodiyoti. T., 2005.
27. Ekonomicheskiy vestnik O'zbekistana. 2000-2005 g.g.

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>1-Bob</b>	<b>Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: mohiyati, tarkibi va taraqqiyotning asosiy qirralari.....</b>	<b>4</b>
1.	Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanining predmeti va vazifalari.....	4
2.	Jahon xo‘jaligi mohiyati va tarkibi.....	5
3.	Jahon xo‘jaligining globallashuvi bosqichlari.....	8
4.	Jahon xo‘jaligi qarama-qarshiliklari va rivojlanish tendensiyalari.....	10
<b>II Bob.</b>	<b>Xalqaro mehnat taqsimoti.....</b>	<b>13</b>
1.	Xalqaro mehnat taqsimoti tushunchasi.....	13
2.	Xalqaro mehnat taqsimoti shakllari va turlari.....	13
<b>III Bob.</b>	<b>Xalqaro savdo aloqalari va savdo siyosati.....</b>	<b>17</b>
1.	Halkaro savdo aloqalari xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida.....	17
2.	Xalqaro savdo nazariyasi.....	18
3.	Xalqaro savdoning o‘sishi, tuzilishi va geografiyasi.....	19
4.	Xalqaro savdo siyosati.....	23
<b>IV Bob.</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan tashqi savdo aloqalari.....</b>	<b>27</b>
1.	O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi savdoning roli.....	27
2.	O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarish.....	27
3.	Tashqi savdo aloqalari tuzilishi va dinamikasi.....	29
4.	O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo geografiyasi.....	31
<b>V Bob.</b>	<b>Xalqaro kapital migratsiyasi.....</b>	<b>36</b>
1	Kapital chiqarish (eksport) xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yetakchi shakli.....	36
2	Kapital chiqarishning sabablari va asosiy shakllari.....	36
3.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy kapital qo‘yilmalar.....	38
4	Xorijiy investitsiyalar tuzilishi.....	40
<b>VI Bob</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasining investitsion siyosati va uning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi roli.....</b>	<b>43</b>
1	O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar.....	43
2	Mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotida xorijiy investitsiyalarning roli.....	45
3	O‘zbekiston Respublikasida investitsion muhit va shart- sharoitlar.....	46
4	Xorijiy investitsiyalar bilan korxonalarining o‘sish dinamikasi.....	48

VII Bob	Xalqaro xizmat ko'rsatish va servis bozori.....	51
1.	Xalqaro xizmat ko'rsatish va servis bozori tavsifi va tushunchasi.....	51
2.	Xalqaro xizmat ko'satish va servis bozorini tartibga solish.....	55
3.	Xalqaro turizm bozori.....	56
4.	Transport xizmati ko'rsatish xalqaro bozori.....	60
5.	Texnologiyalar bilan xalqaro savdo qilish.....	62
6.	Jahon konsalting xizmatlari bozori.....	64
7.	Jahon axborot xizmatlari bozori.....	66
VIII Bob.	Sanoati rivojlangan mamlakatlar va ularning jahon xo'jaligidagi o'rni.....	69
1.	Rivojlangan mamlakatlarda takror ishlab chiqarish xususiyatlari.....	69
2.	Jahon xo'jaligida tarkibiy siljish va ilmiy texnikaviy progresslar.....	71
3.	Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi.....	73
IX Bob.	AQSH va Kanada iqtisodiyoti.....	76
1.	AQShning ishlab chiqarish potentsiali va tabiiy resurslari.....	76
2.	AQSH iqtisodiyotining tuzilish xususiyatlari.....	78
3.	AQShning tashqi iqtisodiy aloqalari.....	83
4.	Kanada iqtisodiyotiga umumiy ta'rif.....	84
X Bob.	Yaponiya iqtisodiyoti.....	89
1.	Jahon xo'jaligida Yaponiyaning o'rni va roli.....	89
2.	Yaponiya iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari.....	90
3.	Yaponiyaning tashqi iqtisodiy aloqalari.....	95
XI Bob.	G'arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti.....	97
1.	Jahon xo'jaligida G'arbiy Yevropa mamlakatlarning tutgan o'rni.....	97
2.	Germaniya iqtisodiyoti.....	98
3.	Buyuk Britaniya iqtisodiyoti.....	102
4.	Fransiya iqtisodiyoti.....	109
5.	Italiya iqtisodiyoti.....	115
XII Bob	Rivojlanayotgan mamlakatlar jahon xo'jalik tizimida.....	122
1.	Jahon xo'jaligida rivojlanayotgan mamlakatlarning o'rni va roli.....	122
2.	Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari.....	123
3.	Chet el kapitali va uning milliy davlat taraqqiyotiga ta'siri.....	125
4.	Rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatlashtirish modeli va taraqqiyotdagi yo'li.....	128
5.	Neft eksporti bilan shug'ullanuvchi mamlakatlar taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari.....	130



6	Yangi sanoatlashgan mamlakatlar guruhining shaklanishi.....	132
7	Afrika mamlakatlari taraqqiyoti va ularda iqtisodiy islohatlarning kechishi.....	134
XIII Bob	Xitoy iqtisodiyoti.....	135
1.	Xitoy iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari.....	135
2.	Xitoyda iqtisodiy islohatlarning kechishi.....	136
3.	Xitoyning tashqi iqtisodiy aloqalari.....	140
XIV Bob	Rossiya federatsiyasi iqtisodiyoti.....	143
1.	Jahon xo'jaligida Rossiyaning o'rni va roli.....	143
2.	Tabiiy resurslar va mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarining o'ziga xosligi.....	143
3.	Rossiyadagi asosiy iqtisodiy islohatlar yo'nalishlari.....	145
4.	Rossiya tashqi savdo aloqalari.....	147
XV Bob	Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari.....	150
1.	Xalqaro valyuta tizimining tuzilishi va mazmun mohiyati.....	150
2.	Xalqaro valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari.....	150
3.	Xalqaro valyuta va moliya-kredit bozorlari.....	157
XVI Bob	Xalqaro iqtisodiy integratsiyalar.....	161
1.	Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va sabablari.....	161
2.	Iqtisodiy integratsiyaning maqsadi va asosiy shakllari.....	162
3.	Xalqaro iqtisodiy integratsiyalar taraqqiyotining asosiy osqichlari.....	165
4.	Jahondagi asosiy hududiy integratsiyalashgan uyushmalar.....	167
XVII Bob	Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasi.....	170
1.	Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasining sabablari.....	170
2.	Xalqaro migratsiya oqimi va uning asosiy xususiyatlari.....	171
3.	Ishchi kuchlarini o'ziga jalb etuvchi zamonaviy markazlar.....	173
4.	Xalqaro ishchi kuchlarini boshqarish jarayonlari.....	174
XVIII Bob	Jahon xo'jaligida xalqaro korporatsiyalar (monopoliyalar).....	176
1.	Transmilliy korporatsiya (TMK) larning mohiyati, turlari va vujudga kelish sabablari.....	176
2.	TMKlarning o'ziga xos xususiyatlari.	178
3.	Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda TMK ning roli va o'rni.....	179
4.	Erkin iqtisodiy zonalar (hududlar).....	181
XIX Bob	O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida xalqaro tashkilotlarning o'rni va roli.....	186
1.	Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari.....	186
2.	Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi roli.....	189

Asosiy tushunchalar.....	192
Glossariy (xalqaro tashkilotlar).....	202
<b>Xalqaro tashkilotlarning qisqartirilgan nomlari</b>	
ro'yxati.....	205
Adabiyotlar.....	206
Mundarja.....	207